

*Abdulla*  
**AVLONIY**

---

**TANLANGAN  
ASARLAR**



*Abdulla*  
**AVLONIY**

---

**TANLANGAN  
ASARLAR**

2 JILDLIK

1-jild

**SHE'RLAR, IBRATLAR**

TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2009

Abdulla Avloniy Turkiston milliy uyg'onish adabiyotining e'tiborli vakillaridan, shoir, dramaturg, jurnalist. Ayni paytda, murabbiy, ilk darsliklar muallifi. «Maktab», «Nashriyot» shirkatlari muassisi. O'zbek teatrining asoschilaridan — Toshkentdag'i «Turon» teatr havaskorlari to'dasining tuzuvchisi. Nihoyat, Afg'oniston va Turkiston o'rtasidagi o'zaro qo'shnichilik munosabatlari o'rnatishga urin-gan yangi davr diplomatlaridan edi. Ushbu nashrda adib iste'dodining xilma-xil qirralarini ifoda etuvchi asarlaridan namunalar berishga harakat qilindi.

To'plovchi, nashrga tayyorlovchi va  
so'zboshi muallifi —

**Begali Qosimov**

Izohlar va lug'atni **Olim To'laboyev** tuzgan.

A 4702620204-20  
M25(04)-09

ISBN 978-9943-04-038-0

© «Ma'naviyat», 2009

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha<sup>1</sup> mahallasida dunyoga keldi. Bobosi Mirne'mat-boy asli qo'qonlik o'qchi-yoychilardan edi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandlik-to'quvchilik bilan shug'ullangan. Piyonbozorda (hozirgi Navoiy teatri maydoni), Yarmarka bozorida (hozirgi San'at muzeyi atrofi) bo'z va chit bilan savdo qilardi. «Onamning oti Fotimadir»<sup>2</sup>, deb yozadi adib o'z tarjimayi holida.

Abdulla 7 yoshdan O'qchidagi eski maktabda Akromxon domlada savod chiqardi. 1890-yilda shu mahalladagi madrasaga o'tdi. So'ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxunda tahsil ko'rdi. Ammo tirikchilikning og'irlashuvi o'qishga imkon bermaydi. «1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o'qub, boshqa fasllarda mardikor ishladim»<sup>3</sup>, — deb yozadi Avloniy. Ko'p o'tmay bu ham barham topdi. U butunlay ishga sho'ng'ib ketdi. O'zi aytgandek, «binokor»likni o'rgandi, «g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari» bilan mashg'ul bo'ldi.

Adabiyotga havas unda shu yillari uyg'ondi. Navoiy she'riyatiga, Fuzuliy g'azallariga mehr qo'ydi. So'ngsiz bir ishtiyoq bilan fors tilini o'rgandi. Sa'diy va Hofizning sehrli olamidan zavq-shavq oldi. Nihoyat bular o'z samarasini berdi. O'zi kamtarona qayd qilganidek, «she'r yozishga tutindi». Avloniy bu vaqtini 1894-yil deb ko'rsatadi. Afsuski, yoshlik davrida yaratgan she'rlarining hech biri bizgacha saqlanmagan. Shoирning bizga ma'lum she'rlari 1905-yildan

<sup>1</sup> Mergancha mahallasi hozirgi Navoiy ko'chasi televideniye binosi at-rofida bo'lgan.

<sup>2</sup> Qarang: Milliy uyg'onish. T., «Universitet», 1993, 108-bet.

<sup>3</sup> A. Avloniy. Toshkent tongi. T., 1979, 373-bet.

keyin yozilgan. Buni ularning ruhi va xarakteri ochiq-oydin ko'rsatib turadi. Shoiring 90-yillarda yozgan she'rlarining taqdiri haqidagi taxminlarimizni o'rni bilan aytarmiz. Hozircha bir narsani ta'kidlash bilan cheklanamiz. Klassika bilan oshnolik uning shoir va grajdan sifatida shakllanishiga benihoya katta ta'sir ko'rsatadi. Bu hol uning ijodida ham, faoliyatida ham ravshan ko'rinib turadi.

1900-yilda Avloniy toshkentlik savdogar bir xonadonning Salomatxon degan qiziga uylanadi. Shu yili otasi vafot etadi.

Hozirgi Mirobod mahallasi o'rnida Mirne'matboyning bog' hovlisi bo'lgan. Toshkent bosib olinib, Turkiston general-gubernatorligining markaziga aylantirilgach, Mirobod shaharning yangi – «rus» qismiga qo'shib olinadi va turli imoratlar, korxonalar qurish uchun bo'lib beriladi. Sapyorniy, Gospitalniy ko'chalari paydo bo'ladi. Miravlonboyning ikki o'g'li – Abdulla va Mirsiddiq ham shu yerda hovli-joy qiladilar. Sapyorlar ko'chasida 70, 72, 74-uylar qad ko'taradi. Abdulla Avloniyning o'z qo'li bilan qurilgan, juda ko'plab voqealarga guvoh bo'lgan 74-uy keyingi yillarda shaharni qayta qurish davrida buzilib ketdi.

1904-yilda Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi. Toshkent Davlat universitetida uzoq yillar dars bergen taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy mazkur maktab haqida xotiralarida shunday yozgan edi:

«Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temir yo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdag'i maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlari haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: «Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish-yozishni o'rgatarmish, jug'rofiya, hisob, tabiatni o'rganish degan darslar o'qitilarmish», – degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga hammamiz oshiqardik. Ni-hoyat bir kuni uch-to'rttamiz borishga jazm qildik.

Maktab pastakkina, nim qorong'u bo'lib, masjid yo'lagiga joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug'lik uchun

qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir ham tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va o'qimoq uchun kelganlar soni ko'p edi. Xayolimizda domlaning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, cho'qqisoqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Ular o'qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabardor bo'lishlari, juda ko'p she'r va hikoyalarni yod bilishlari bilan hammamizni lol qoldirdi. Ayni zamonda bizning eski maktabimiz bo'shab, Miroboddagi Abdulla Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi»<sup>1</sup>.

Adib tarjimayi holidan: «1904-yilda rus-yapun urushi chiqib, bizning ham ko'zimiz ochildi. 1905-yildagi Rusiyada boshlangan inqilob to'lqini bizga ham zo'r ta'sir qildi. Bizning tashkilotimiz siyosiy maslaklarga tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqartmoq va ko'zin ochmoq chorasiغا kirishdi. Bu maqsadga erishmoq uchun gazet chiqarmoqni munosib ko'rib, uyushmaning harakati bilan o'zbek tilida gazetalar chiqarildi».

1905-yilgi inqilobiyoq ko'tarilishlar behuda ketmadi. Podsho hukumati yon berishga majbur bo'ldi. 17-oktabr Manifesti e'lon qilindi. Shaxsning daxlsizligi, vijdon, so'z, yig'ilishlar erkinligi ta'minlanishi haqida va'da berildi. Manifest matbuot ishlarining yurishib ketishiga yo'l ochdi. Rusyaning barcha yirik shaharlari dagi singari Turkiston shaharlariда ham gazeta va jurnallar chop etila boshlandi. 1906-yilda Ismoil Obidiyning «Taraqqiy» gazetasi paydo bo'ldi. Ko'p o'tmay, «Xurshid», «Tujjor», «Osiyo» gazetalari chiqa boshladи. Abdulla Avloniy bularning maydonga kelishida bevosita ishtirot etdi. 1907-yil 4-dekabrda esa uning muharrirligida «Shuhrat» gazetasining birinchi soni bosmadan chiqdi. Avloniy uni o'z uyida Sapyorlar ko'chasida tayyorlab chop etdi. Gazeta o'z dasturini shunday belgilaydi:

<sup>1</sup> **Y. Tohiriy.** Dono murabbiy, «Toshkent oqshomi» g., 1966, 10-noyabr.

Kalom i xush takallum to'tii zebosifat so'zlar,  
Maqomi hurriyatda bulbuli shaydosifat so'zlar,  
Zamona gulshanida qumrui tanhosifat so'zlar,  
Gulistonlarda doim sayr etar sayyoradur «Shuhrat».

Qo'yub sarlavhasina ilm istar muddaosini,  
Yana debochasida sharh etar millat bahosini,  
Qani xushfahm bilsa gavhari qimmatbahosini,  
Zamona ma'danida bir zumurradporadur «Shuhrat».

Xarobatxonada yotsang, bizim-chun kim qilur ta'mir,  
Buzilsun, qadri ketsun deb qilur hamsoyamiz tadbir,  
Al ila tutmasang, qilmas qalam o'zdin o'zi tahrir,  
Qilib izhori hasrat har kima yolboradur «Shuhrat».

1905-yilgi Mashruta (Konstitutsiya) samaralaridan ilhomlangan gazeta «Maqomi hurriyatda bulbuli shaydosifat»ligini oshkor e'lon qilmoqda. Ayni paytda, «Qani xushfahm, bilsa...» deya tiliga chiqara olmagan gaplari ham yo'q emas.

So'nggi bandga e'tibor qilaylik: «Xarobatxona»ni – inson yashab bo'lmaydigan holga kelgan turmushni biz uchun kim tuzatib beradi? «Hamsoyamiz»mi? U bu «xarobatxona»ni yanada ko'proq buzish, battarroq qadrsizlantirish uchun tadbir izlaydi.

«Hamsoya» kim? Turkistonning 1916–1917-yillardagi general-gubernatori N. A. Kuropatkining e'tiroflarini eslaylik: «Biz 50 yil tubjoy aholini taraqqiyotdan chetda, maktablar va rus hayotidan chetda tutdik»<sup>1</sup>.

Undan rosa 34 yil oldin 1882-yilning 30-avgustida general-gubernatorlikda «Rusiyalik g'ayrijins musulmonlar maorifining asosini qanday bosh prinsiplar tashkil etmog'i kerak?» degan masala kun tartibiga qo'yilgan va quyidagicha xulosaga kelingan edi:

«Shunday qilib, musulmonlarimiz maorifi uchun asos qilib olinishi shart bo'lgan birinchi bosh prinsip ularni ruslashtirish», «ikkinci prinsip... islomni buzish, pozelitizmdan voz kechish, qisqacha aytganda, yot musulmonlarimizning umuman diniy jihatlarini buzishdir» (ta'kid bizniki – *B. Q.*)<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Qarang. X. Inoyatov. Против фальсификации истории победы Советской власти в Средней Азии и Казахстане. Т., 1976, 54-бет.

<sup>2</sup> Туркестанский сборник. 361-т., 138-бет.

Gazetaning yo‘li ayon bo‘lishi bilan do‘stidan dushmani ko‘paydi. Natijada 10-soni chiqib bekildi. So‘nggi 14-fevral 10-sonida «Dano‘sí namima» (chaqmachaqaqarlik) sarlavhasi bilan idoraning bir xabari bosilgan. Unda shunday gaplar bor:

«Eshitilmish xabarlarga qarag‘onda o‘z muslimmonlari-mizdan ba‘zi «dano‘schi» namommlar paydo bo‘lib, gazetamizdan «nachalstvo»g‘a «dano‘s» qilmak fikrida yelka qilg‘on emishlar...»

Gazetamizning maslaki milliy, betaraf siyosiy o‘lub, «umerenno-progressivnaya, politicheskaya» gazetadur. Yozg‘on maqolalarimiz ham ushbu maslakimiz o‘lg‘on e‘tidol va haqqoniyat doirasida o‘lub, nozir va senzurlar tarasidan haqlik uzra tarjima qilinub, tegishli mahkamalarda ko‘rilub turilibdur. Shul sababli «nachalstvo»ning sizni(ng) «dano‘s» larg‘a hech bir ehtiyoji yo‘qdur».

Gazetaning yopilishiga qaraganda, bu «dano‘s»larga «ehtiyoj» bo‘lgan ko‘rinadi. Va, ehtimolki, ular gazetaning taqdirini hal qilganlar. Avloniy gazetaning yopilishini o‘z tarjimayi holida «yashirin tashkilotlar» bilan aloqaga, «Rafiq Sobirov» deganning xiyonatiga bog‘laydi.

Xullas, gazeta yopildi. Redaksiya asbob-ashyolari, qog‘ozlar va materiallar hammasi musodara qilindi. Lekin Avloniy bo‘sh kelmadı. A. Bektemirov nomiga ruxsat olib «Osiyo»ni chiqara boshladi. Shoир ta’kidlaganidek, buning idorasi ham uning uyida (Sapyornaya 26)<sup>1</sup> joylashgan edi.

Bu gazetalar o‘zbek milliy matbuotining dastlabki namunalari bo‘lishi bilan ham muhim edi.

1914–1915-yillarda advokat Ubaydulla Xo‘jayev<sup>2</sup> bilan «Sadoyi Turkiston» gazetasida hamkorlik qiladi. Gazetadagi she‘r va maqolalarning aksariyati Avloniy qalamiga mansub. Bu hol uning tahririyatdagi mavqe‘-e‘tiborining ancha baland bo‘lganligini ko‘rsatadi. Lekin gazeta uzoq davom

<sup>1</sup> Sapyorlar ko‘chasidagi bu hovli turli davrda turlicha (№ 35–1907; № 26–1910; № 10–1919; № 48, 56, 72, 74) raqamlangan 1988-y. 23-dekabrda «Uy muzey»ga aylantirildi. 1991-y. 15-martda buzildi.

<sup>2</sup> U. A. Xo‘jayev (1865–1938) – 1900-yilda Saratov Adliya institutini bitirib kelgan. 1909-yilda Lev Tolstoy bilan xat yozishgan. 1914–1915-yillarda «Sadoyi Turkiston»da muharrirlik qilgan. 1917-yilda Turkiston muxtoriyating harbiy ishlar vaziri bo‘lgan mashhur taraqqiyatparvarlardan.

etmadi. 66 soni chiqib, moddiy ahvolning tangligidan yotib goldi<sup>1</sup>.

Umuman, Avloniy 1904–1905-yillardan ham ijodiy, ham amaliy ish bilan qizg'in shug'ullandi. O'z she'rlarini «Hijron» taxallusi bilan e'lon qildi. Maqolalarini esa «Mulla Abdulla», «Avloniy», «Abdulla Avloniy» nomlari bilan bostirdi. So'ngroq uning ko'p ishlatgan laqablaridan biri «Indamas» bo'lgan edi.

1909-yilda «Jamiyat xayriya» ochdi va mahalliy xalq bolalarining o'qib bilim olishi uchun pul yig'ib, maktab-larga tarqatdi. Bu haqda hatto Orenburgdag'i «Vaqt» gazetasi yozib chiqdi<sup>2</sup>.

1913-yilning oxirida toshkentlik mashhur jadidlar – taraqqiyatparvarlarning tashabbusi bilan «Turon» jamiyatni maydonga keldi. Uning muassislari quyidagilar edi:

1. Ubaydulla Asadullayevich Xo'jayev (Mergancha).
2. Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Observatorskaya 3).
3. Munavvarqori Abdurashidxonov (Shayxontohur).
4. Komilbek Norbekov (Sag'bon).
5. Mulla Abdulla Avlonov (Sapyornaya 26).
6. Muhammadjon Podshoxo'jayev (Zanjirlik).
7. Kattaxo'ja Boboxo'jayev (Qor yog'di).
8. Bashirullaxon Asatillaxo'jayev (Mergancha).
9. Nizomiddin Asomiddinxo'jayev (Orqa ko'cha).
10. Karimbek Norbekov.

Jamiyatning<sup>3</sup> 73 moddalik ushbu ruscha nizomida uning maqsad-vazifalari quyidagicha belgilangan:

<sup>1</sup> **Ziyo Said.** Tanlangan asarlar, G'afur G'ulom nashriyoti, T., 1974, 44-bet.

<sup>2</sup> Jamiyatning 1909-yil 12-mayda tasdiqlangan 41 moddalik Nizomidan ma'lum bo'lishicha, uning maqsad va faoliyat doirasi keng bo'lib, Sirdaryo viloyati (Toshkent Sirdaryo viloyatining poytaxti edi. – B. Q.) hududidagi nochor, muhtoj musulmonlarning moddiy-ma'naviy ahvolini yaxshilash, jumladan, yetimlar, keksalar, nogironlar uchun kasalxon'a, ambulatoriya, choyxona, oshxona, yotoqjoylar ochishdan tor-tib, yoshlarni mакtabda o'qitish, so'ng chet ellarga yuborishgacha bo'lgan masalalarni ko'zda tutar edi. Muassistar: Toshhoji Tuyoqboyev (pedagog Y. Tohiriyning otasi), Nizomqori Mulla Husainov, Mulla Abdulla Avlonov, Munavvarqori Abdurashidxonov, Bashirulla Asatillaxo'jayev (Nizomning asl nusxasi Avloniy muzeyida saqlanardi).

<sup>3</sup> Jamiyatning so'ngroq notarius D. Yegorov tomonidan 1916-yil 11-noyabrda tasdiqlangan va 7176 raqamli qayddan o'tkazilgan nizomi Respublika o'qituv-chilar malakasini oshirish institutidagi Avloniy muzeyida saqlanmoqda.

- a) aholi o'rtasida sahna ishlariga, ezgulikka muhabbat uyg'otish, jiddiy munosabat o'stirish;
- b) xalq uchun spektakllar qo'yib berish va ular orqali xalqqa sog'lom hordiq bag'ishlash;
- d) ma'naviy va moddiy ahvolini yaxshilashga muhtoj bo'lgan Turkiston o'lkasi doirasidagi musulmon e'tiqodiga mansub kishilarga yordam berish.

Ikkinchи bandda jamiyatning quyidagi huquqlari belgilangan:

kechalar, konsertlar, spektakllar va shularga o'xshash ommaviy tomoshalar uyushtirish; o'z nomiga klub, musiqa kurslari, kutubxona va qiroatxona ochish; o'z nomiga boshlang'ich mакtablar ochish va ta'minlash; hojatmandlarga, shu jumladan, o'quvchilarga moddiy yordam berish, ularning o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishlari uchun stipendiyalar ta'sis etish, shuningdek, maorif muassasalarini, rasmiy, xususiy, ijtimoiy — qanday toifada bo'lishidan qat'i nazar moddiy qo'llab-quvvatlash.

Darhaqiqat, jamiyat toshkentlik taraqqiyparvarlarning barcha faollarini atrofiga to'pladi. Uning zaminida teatr havaskorlari truppasi tashkil topdi. Uning nomida klub, kutubxona, qiroatxona, gazeta maydonga keldi. Teatrshunos M. Rahmonov yozishicha, Avloniy bosh bo'lgan teatr havaskorlari truppasi 1913-yilning oxirida 25 kishidan iborat bo'lgan. Jumladan, ularning orasida Ilin bosmaxonasi ishchisi Nizomiddin Xo'jayev, maorischilar: G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiyy, Sami'qori, Fuzayl Jonboyev, Hasan qori, xizmatchi Badriddin A'lamoв, «prikazchik» (ish yurituvchi) lar Muhammadjon Podshoxo'jayev, Qudratilla Yunusiy, Abdurahmon Akbarov, Qudratulla Mahsum kabilar bor edi. 1916-yilda truppaga Mannon Uyg'ur, Sulaymon Xo'jayevlar a'zo bo'lib kiradilar<sup>1</sup>.

Laziz Azizzoda bular safiga Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev, Yusuf Aliyev, Muso Azimovni ham qo'shadi<sup>2</sup>. Truppa afishalarida Mirmulla Shermuhamedov va Eshonxo'ja Xoniyy nomlari uchrashini hisobga olsak, truppaning hozircha aniqlangan a'zolari soni Avloniyni qo'shib hisoblaganda

<sup>1</sup> Qurang: **M. Rahmonov**. O'zbek teatri tarixi. «Fan», T., 1968, 334-bet.

<sup>2</sup> **L. Azizzoda**. Yangi hayot kurashchilar. «Fan», T., 1977, 35-bet.

19 taga yetadi. Ularning aksariyati iste'dodli ijodiy yoshlar edi. Masalan, A. Akbarov durustgina shoir. Mardikorlik haqidagi bir she'riy to'plamning muallifi edi. Nizomiddin Xo'jayevning nomi izohga muhtoj emas. Y. Aliyev, S. Tursunxo'jayev, B. A'lamov, M. Podshoxo'-jayev, Q. Ma'zumovlar so'ngroq ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan bir qatorda badiiy ijod bilan ham shug'ullanganlar. Y. Aliyev she'rlar yozgan, S. Tursunxo'jayevning «Turkiston vatanparvarlari» dramasi sahnaga qo'yilgan. Mashhur Mannon Uyg'ur, «Halima»ning muallifi G'ulom Zafariy, yangi o'zbek maorischiligining asoschilaridan bo'lgan Shokirjon Rahimiy, o'zbek kino san'atining poydevorini qo'yganlardan S. Xo'jayevlarning nomi o'quvchilarimizga yaxshi tanish. Fransuz tilini bilgan, G'arb adabiyotini originalda o'qigan, she'r va hikoyalari bilan vaqtli matbuotda faol ishtirok etgan Mirmulla Shermuhamedov Hamza dramalarini xolis va odilona tahlil qilib, yuksak baholagan birinchi o'zbek teatr tanqidchisi edi...

Avloniy truppasi sahnalashtirgan birinchi asar Behbudiyning «Padarkush»i bo'ldi.

1914-yil 27-fevral Toshkentning 2000 kishilik muhtasham «Kolizey» teatri<sup>1</sup> tomoshabinlar bilan to'la. Galereya va yo'laklarda ham odam qaynaydi... Sahna ochiladi. O'rta bo'y, miqti, yevropacha kiyingan kishi paydo bo'ladi.

— «Muhtaram jamoat! — gap boshlaydi u. — Bugun Toshkand xalqi hayotida tarixiy kundir...» Notiq teatr va uning jamiyat hayotidagi o'rni haqida so'zlaydi. Tomoshabinlar uning har bir gapini berilib tinglaydilar.

«Teatru o'yunbozliq emas! Masxarabozliq ham emas, — davom etadi u. — Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o'z husn-u qabihini ko'ra olur... Yuziga un surtib masxaraboz shakliga kirgan zotlar tabibi hoziqdirlar...» Notiq teatrni har bir xalq milliy taraqqiyotining muhim belgilaridan deb hisoblaydi, rus, fransuz, turk, tatar, ozarboyjon turmushidan misollar keltiradi. U mashhur taraqqiyichimiz Munavvarqori edi.

<sup>1</sup>1913-yilda G. M. Sinsadze (1868–1919) tomonidan qurilgan. Uzoq-yillar Sverdlov konsert zali bo'lib turdi. Hozir savdo birjasi joylashgan.

Spektakl boshlandi. U mahalliy xalq turmushidan olin-gan, yerli havaskor yoshlari tomonidan qo'yilgan birinchi sahna asari mashhur «Padarkush» edi. Spektakl deklamat-siyaga ulanib ketdi.

Taraqqiychilik tug'yon urib turgan «Oila munozarasi» tinglandi. Xalq milliy kuylariga solib yozilgan, ijtimoiy dard bilan yoniq qo'shiqlar yangradi. Nihoyat tomosha tugadi. Kishilar teatr dan olgan taassurotlarini qizg'in muhokama qilgancha tarqaldilar. Shoir Tavallo bu tarixiy voqeani zavq-shavq bilan hikoya etuvchi she'r yozdi. «Turon»ning birinchi qadamiga o'ziga xos she'riy olqish va taqriz bo'lgan ushbu she'rni keltiramiz:

Cho'q munavvar etdi olamni Munavvarqorimiz,  
Ko'rdimiz ravshanlig'idin fe'lizimiz-atvorumiz.

Ibrat oling, yoshlar, deb to'kdi ko'zdan yoshlar,  
Nutqida tahrir etub bizlarni yo'q-u borimiz.

Chin ko'nguldan biz eshitduk, chin ekan aytgon so'zi,  
Shuncha bid'atlarni bilduk, voy, biz iqroramiz.

Sahnag'a qo'ydi «Padarkush» fojia Behbudidin,  
Bahra oldi rus-u arman, o'zbak-u totorimiz.

Ko'rdilar nodon cho'juq, betarbiyat hangomasin,  
Dedilar bizni cho'juqlar: «Emdi biz bezormiz!»

«Bu bola ermas, balo» deb nechalar qon og'ladi,  
Vahmig'a ketdi o'zidan bir necha ko'knorimiz.

Bas, Ubaydullo, Karimbek-u Nizomiddinlara'  
Jumla qatnashganga to o'lguncha minnatdorimiz.

Barchadin avval kelib, joy oldi, o'lturdi ko'ring,  
Foydalandi, ibrat oldi necha parhezdorimiz.

Ko'p umid birlan, Tavallo, boz bir o'ynosa, deb  
Belni bog'lab, o'zni chog'lab, bunda xizmatkorimiz<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Ubaydulla Xo'jayev, Karim Norbekov, Nizomiddin Xo'jayev (1886–1942) – «Turon» jamiyatiga faollari.

<sup>2</sup> Tavallo. Ravnaq ul-islom. T., «Fan», 1993, 52–53-betlar.

Xullas, bu kun toshkentliklar xotirasida uzoq saqlanib qoldi....

«Turon» o‘z faoliyatini shunday boshlagan edi. Truppa ishida qardoshlar ham ishtirok etdilar. Jumladan, Avloniy taniqli tatar rejissori Zaki Boyazidskiy, mashhur ozarboyjon san’atkori Sidqiy Ruhillo bilan hamkorlik qildi. Masalan, truppaning spektakllarini Zaki Boyazidskiy sahnaga qo‘ygan edi. Sidqiy Ruhillo esa 1916-yilda Avloniyning taklifi bilan Toshkentga keladi va shoirning uyida truppa ko‘magida «Layli va Majnun» spektaklini qo‘yadi. Majnun rolini Sidqiy Ruhillonig o‘zi o‘ynaydi. Malluni Avloniy ijro etadi<sup>1</sup>.

Truppaning g‘oyaviy-badiiy rahbari Avloniy edi. 1914-yilning 26-dekabrida truppa «Turkiston» nomi bilan Farg‘ona vodiysi bo‘ylab safarga chiqdi. Bir qator shaharlarda gastrolda bo‘ldi. Agar siz o‘scha yillari chiqib turgan vaqtli matbuot sahifalariga ko‘z tashlasangiz, truppaning Qo‘qon (1915-yil 7-yanv.), Andijon (9-yanv.), Namangan (21–24-yanv.), O’sh (29-yanvar) da qo‘ygan spektakllari va ularda Avloniyning faol ishtiroki, xususan, ijrochilik mahoratiga oid ehtiros bilan yozilgan maqolalariga duch kelasiz. Ulardan ayrimlari teatrshunos M. Rahmonov<sup>2</sup> va yosh adabiyotshunos Sh. Rizayev<sup>3</sup> tadqiqotlarida keltirilgan.

Adibning o‘zi ushbu safar munosabati bilan yozgan «Sayohat samarası» she’rida, «Andijon-u Marg‘ilon-u O’sh-u Namangan-u Xo‘qand yoshlari»ning «bir-birlari bilan sir-dosh» bo‘lib, «milliy ishlarga tashabbuslar» qilayotganlari ni, «intiboh (uyg‘onish) davri» kelganini mammuniyat bilan tilga olgan edi.

Avloniy truppa uchun «Avdokatlik osonmi?», «Pinak», «Biz va Siz», «Ikki sevgi», «Po‘rtugaliya inqilobi» kabi dramalar yozdi, «Qotili Karima», «Uy tarbiyasining bir shakli», «Xiyonatkor oilasi», «Badbaxt kelin», «Xo‘r-xo‘r», «Jaholat», «O‘liklar» kabi sahma asarlarini tatarcha, ozarboyjonchadan

<sup>1</sup> Shoirning rafiqasi S. Islomova xotiralaridan (Bizda saqlanadi – B. Q.). So‘ng «Kolizey»da qo‘yilgan. Tushirilgan yodgorlik surati matbuotda bir necha bor e’lon qilingan.

<sup>2</sup> Qarang: M. Rahmonov. O‘zbek teatri tarixi. T., «Fan», 1968, 327–351-betlar.

<sup>3</sup> Qarang: Sh. Rizayev. Jadid dramasi. T., «Sharq», 1997, 63–71-betlar.

tarjima qildi. Afsuski, bularning hech biri o'z davrida bosilgan emas. To'g'ri, ularning ko'pchiligi badiiy zaif. Qoralamaga o'xshaydi. Hatto shunday taassurot tug'iladiki, muallif biror mavzuga zarurat sezgan-u oyoq ustida yozib qo'ya qolgan. Bir nafasda, bir o'tirishda yozgan. Bu asarlarning o'z davrida ahamiyati katta bo'lgan. Undan ayrimlari 1979-yilda nashr qilindi.

1916 -yilda Toshkentda bo'lган taniqli sharqshunos A. Samoilovich «Kolizey»da Avloniy tarjima qilib sahnalashtirgan «O'liklar» (Jalil Mamatqulizoda asari)ni ko'rib, o'z taassurotlarini shunday yozgan edi:

«Toshkentning ulkan «Kolizey» teatridda ozarboyjonchadan sart tiliga tarjima qilingan «O'liklar» pyesasi qo'yildi. Ijro juda yaxshi edi...»<sup>1</sup> To'g'ri, Tavallo yozganidek, teatr «taraqqiyning xabari», «millatning hayot asari» edi. Lekin, umuman olganda, teatrchilik ishlari oson kechgan emas. «Kimiki sahnada ko'rsang, ani jasorati bu!»<sup>2</sup> deganda Tavallo mutlaqo haq edi.

«1915-yilda mahalla xalqi» domlamiz, «teatrchi» bo'ldi, «masxaraboz bo'ldi», — deb meni maktabdan quvib, Mirobod mahallasidagi boshlang'ich maktabni yopdilar», — deb yozadi Avloniy o'z tarjimayi holida.

Laziz Azizzoda esa o'z xotiralarida qadimchilarning u haqda:

«Berib ta'lim go'daklarga istibroni kog'azdan,  
Atosi erdi noma'lum, anosi qaysi g'ardandur.  
Saqol-u mo'ylabini qirdirib, Abdulla Avloniy,  
O'russ-u churchut-u yo hindi yokim armanidandur», —

deya mazammat qilib yurishlarini iztirob bilan xotirlagan edi<sup>3</sup>.

Ikkinci tomondan hukumat siqardi. Teatrchiliknigina emas, yangi maktabni ham «usuli jadid», «usuli savtiya» nomi bilan tarixga kirgan bu maktablar aslida chinakam fidoyilik namunalari edi.

<sup>1</sup> А. Самойлович. Драматическая литература сартов. Петроград. 1917. 3-бет.

<sup>2</sup> Tavallo. Ravnaq ul-islom. T., «Fan», 1993, 53-бет.

<sup>3</sup> 1965-yil 9-fevraldag'i suhbat materiallaridan (Xotiralar bizda saqlanadi – B. Q.)

Shularga qaramay, Avloniy ijtimoiy faoliyatda qizg'in davom etdi. Jumladan, uning shu yillari «Nashriyot»<sup>1</sup>, «Maktab»<sup>2</sup> kabi shirkatlar tuzishda bosh-qosh bo'lganini eslash kifoya. Adib bularni keyinroq o'z tarjimayi holida shunday izohlaydi: «Bu vaqtarda bizning maqsadimiz zohirda teatru bo'lsa ham botinda Turkiston yoshlari siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi. Darhaqiqat, bu jamiyatlarning ishtirokchilari, xususan, Munavvarqori, shoir Tavallo, Nizomiddin Xo'jayev, Ubaydullo Xo'ja, aka-uka Saidazimboyevlар Turkistonning ma'lum va mashhur kishilari edilar.

Avloniy 1917-yil Fevral voqealaridan keyin «Yashasin xalq jumhuriyati!» shiori ostida «Turon» gazetasini chiqardi. Gazeta o'z maslak-maqsadini «Musulmonlar orasida ko'p-yillardan beri davom o'lan umumg'a zo'rlik, bid'at va odatlarni bitirmak. Kelajakda bo'ladurg'on jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq» deb e'lon qildi. Biroq u juda katta qiyinchiliklar bilan dunyo yuzini ko'radi: 2-sonidayoq janjal chiqadi. Muhammirlari vazifasidan chetlatadilar, eski parast ulamolar matbaa egalarining uylariga vakillar yuborib, «agarda siz Avloniy gazetasini matbaangizga bossangiz, o'sangiz sizga janoga o'qutmasmiz» deb qo'rqitib, gazetani yakkalab qo'yadilar. Avloniy Tiflisdan «Mulla Nasriddin» matbaasidan harf va harf teruvchi olib keladi. Unga bari bir yo'l bermaydilar. Avloniy gazetadan ketishga majbur bo'ladi. Uning tafsiloti quyidagicha edi: Gazetaning 2-sonida Fevral

<sup>1</sup> «Nashriyot» 1914-yil 19-sentabrda tuzilgan. Maqsadi: «Turkiston mu-sulmonlari orasig'a jarida (gazeta), majalla (jurnal) va kitob kabi matbuot nashr qilub, Ovrupo madaniyatig'a xalqimizni boshlamoq va aholini oqartmak». Muassisleri: Oxunjon Abdulrahmon o'g'li, Abdulhoshim Sarimso-qov, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mulla Abdulla Avlonov, Tojixo'ja Azizzo'ja o'g'li, Muhammadxon Podshoxo'ja o'g'li, Husanxo'ja Dadaxo'ja o'g'li (yozuvchi S. Ahmadning otasi — B. Q.), Ubaydullaxo'ja Umarxo'ja o'g'li, To'lagan Xo'jamyorov (Tavallo), Saidabullo Saidkarim o'g'li Saidazimboyev, Ilhomjon In'omjon o'g'li, Komilbek Norbekov.

<sup>2</sup> «Maktab» 1916-yil 18-marta tuzilgan. Muassisleri: Muhammadxon Pod-shoxo'jayev, Mulla Abdulla Avlonov, Toshhoji Tuyoqboyev, Nizomiddinqori Mullahusainov, Abdusalom Abdurahmonov, Rustambek Yusufbekov (taniqli ximik Nodirbek Yusufbekovning otasi — B. Q.), Saidahmad Saidkarim Saidazimboyev, Mullayunus Tuyoqboyev, Habibullo Maqsudov, Nizomiddin Asomiddinov (Xo'jayev), Shokirjon Rahimov (Rahimiyy).

o'zgarishidan, oq podshohning qulashidan ilhomlangan Mirmuhsin Shermuhamedovning Buxorodagi jaholat va mutaassiblikni fosh etuvchi «Tarixiy ikki voqe» nomli maqolasi bosiladi. Maqola atrosida katta janjal ko'tariladi. «Ulamo» jamiyati maqoladan qattiq g'azabga keladi. Mu-harrir Avloniy va mualif Mirmuhsin Buxoroyi shariif sha'niga shak keltirganliklari, binobarin, g'ayrishar'iy ishlari uchun kofir deb e'lon qilinadi va toshbo'ron etishga hukm chiqariladi. Mirmuhsin qochib yashirinadi, keyinchalik qo'lga tushib sazoyi etiladi va qamaladi. Avloniyni esa o'z maslagidan qaytishga, «tavba-tazarru» etishga majbur qiladilar'.

Gazeta boyqot qilindi. Bu hodisa katta shov-shuvga sabab bo'ldi. «Ulug' Turkiston» gazetasida Andijon tatar musulmon «Jamiyati xayriya»si nomidan Hofiz Yamg'ulatov, o'zbek (turk) yoshlari nomidan Abdulhamid Sulaymoniy (Cho'lpon) lar imzo chekkan «Turkiston Protopopovlari»<sup>2</sup> (Aleksandr Dmitriyevich Protopopov, 1917-yillardagi Rusiya ichki ishlar ministri – B. Q.) degan keskin «protest» bosildi. Orenburg va Ufada chiqib turgan gazeta va jurnallar ham bu sharmandali voqeani butun tafsilotlari bilan yoritgan va Mirmuhsin bilan Avloniyni himoya qilib chiqqan edilar.

Avloniy gazetadan olib tashlangach, muharrirlikka Mulla Husayn o'g'li, keyinchalik Ozarboyjondan kelgan Afandizoda tayinlandi. Shunda ham Avloniy gazetadan uzilib ketmadi. Unga yordam berdi. «Tarjimayi hol»dan ma'lum bo'lishicha, 20-sonidan so'ng «Turk so'zi» nomi bilan o'z yo'nalishini o'zgartirgandan keyingina undan uzoqlashdi. Biroq ijtimoiy yoqealardan uzoqlashmadni. Aksincha, «Turon taraqqiyarvar jamiyati»ning eng faol a'zosiga aylandi. Jamiyat raisi Mirhidoyatov va kotib Q. Yunusov tomonidan 1917-yil 25-may sanasi bilan unga berilgan bir guvohnomada «Mazkur murojaat qilganda, tegishli tashkilot va shaxslarning yordam berishlari» o'tinib so'ralgan edi. Shu yilning aprel-may oylarida Turkistonning juda ko'p shaharlarida mahalliy mehnatkashlarning kasaba uyushmalari va tashkilotlari maydonga keldi. Masalan, Toshkentdagi mingga yaqin o'zbek ishchisini jipslashtirgan binokorlar

<sup>1</sup> *Qarang: A. Avloniy.* Bugungi o'zbek vaqtli matbuotining tarixi. «Turkiston» gazetasi, 1924-yil, 295-son.

<sup>2</sup> *Qarang: «Ulug' Turkiston» gazetasi, 1917-yil, 10-son.*

(Ustalar jamiyati, tashabbuskorlari: olmazorlik Ochil Bobojonov, merganchalik Sultonxo'ja Qosimxo'jayev), qora ishchilar (oxunguzarlik A. Abdurashidov), hammollar soyu zi (shoirming qaynisi I. Islomov), metallistlar soyu zi (Qulmat Holmuhamedov) shundaylardan edi. Avloniy «1917-yilda Toshkentda yerli xalqlar orasida boshliq bo'lib, «O'qituv-chilar soyu zi» va boshqa bir necha rabochiy soyuzlar tashkil qildim», — deb yozadi o'z tarjimayi holida.

May oyidan urush orqasidagi qora xizmatga olingen mardikorlar qaytib kela boshladilar. Ularning uyushmalari paydo bo'ldi. Avloniy ularda ishtirok etdi. 6-iyunda Toshkent ishchi va soldat deputatlari Sovetiga saylanib, Eski shahar oziq-ovqat komissiyasi a'zosi qilib tasdiqlandi. Shu yilning 30-sentabridan 10-oktabrigacha bo'lib o'tgan ishchi va soldat deputatlari sovetining ikkinchi o'lka syezdiga vakil saylandi. Bu tashkilotlarda eserlarning ta'siri kuchli edi. Eserlarning o'zida ham kelishmovchiliklar yuz berib, «so'l» guruhi ajralib chiqdi. Mashhur tatar adibi Olimjon Ibrohimov, o'zbek jurnalisti Mirmuhsin Shermuhamedov rasman mazkur partiya ga mansub edilar. Z. Validiy 1917-yilning sentabriga qadar ularga xayriyoh bo'lib kelganligini ko'p tilga oladi. Avloniy ning ham inqilob bilan bog'liq jo'shqin she'r va maqolalari, ayniqsa «Ikki sevgi» nomli dramasi uning eserlar harakatiga unchalik besfarq bo'l maganini ko'rsatadi. Lekin eserlarning ayni shu paytlari Yettisuvda qozoq va qirg'izlarning hosildor yerlarini tortib olib joylashayotgan rus muhojirlarini qo'llab-quvvatlashlari mahalliy ziyolilarni ulardan sovutdi. Bolsheviklar esa bundan ustalik bilan foydalandilar. Ularni o'zlariga qo'shib olib, vaziyatga hokim bo'ldilar va pirovard oqibatda hokimiyatni qo'lga kiritdilar.

Avloniy davrining mana shu shiddatli oqimi izmida borar edi.

Maktab ishi, xalq orasida ma'rifat tarqatish Avloniy ning 1917-yilgacha bo'lган faoliyatining bosh yo'nali shini tashkil qildi. U bu yo'lda katta fidoyilik ko'rsatdi. Shoirning Mirobodda katta qiyinchiliklar bilan ochgan maktabi Y. Tohiriy xotirlaganidek, butun Toshkentda dovruq qozondi. Lekin ish og'ir kechdi. Chor mustamlaka-

chilik siyosatini og'ishmay amalga oshirib borayotgan o'lka ma'muriyati maktab masalasida qattiq turdi. Har bir yangi usuldagagi maktabning o'qituvchilarigina emas (ularning uy adreslarigacha talab etilgan), o'quvchilarning ham kimligi, ayniqsa, dastur va darsliklar hamda ularning mualliflari qat'iy nazorat qilindi. Avloniy shaxsiy arxivida saqlanib qolgan Sirdaryo viloyat xalq maktablari nozirining 1914-yil 19-fevraldagi 538 hamda 24-maydagi 11118 raqamli talabnomalari (chamasi, bunday hujjatlar har yili to'ldirib borilgan) shundan darak beradi.

1908-yilda Avloniyning Miroboddagi maktabi yopildi. Buning sabablari ko'p bo'lishi kerak. Avloniy, nazarimizda, o'z tarjimayi holida shulardan bittasini tilga oladi:

«Maktabimda yer, odamlar, tog'-toshlar, daryo, osmon haqinda suhbatlar o'tkazmoqqa harakat qilganimni Mir-obod johil kishilari bilishib, meni kofir bo'lding, deb, maktabimni yopdilar...»<sup>1</sup> Adib 1909-yilda Degrez mahallasida yana maktab ochadi. Avloniy dars berish jarayonida ochilayotgan yangi usuldagagi maktablar uchun har jihatdan qulay bo'lgan ko'plab darsliklar yaratish zaruriyatini his qiladi. Negaki, yangi maktabning afzalligini shunchaki targ'ib qilish, o'z o'quvchilari misolida ko'rsatish hali kifoya emas edi. Yangi o'quv sistemasining keng yoyilishi uchun uning prinsiplaridan kelib chiqib yozilgan darsliklar ham kerak edi. Avloniy yozadi: «Bizim Turkiston makotibi islomiyasinda avvaldan oxira qadar ta'lim o'linajak kitoblari: «Chor kitob», «Sabot ul-ojizin», «Fuzuliy», «Navoiy», «Xo'ja Hofiz», «Bedil», «Maslak ul-muttaqin»lar kabi she'r kitoblari o'ldig'i jumlaning ma'lumidir. Bu kitoblarning ba'zilari e'tiqod va amaliyoti islomga taalluqli mushkul masalalardan iborat o'lg'onlaridin hamda aksarlari forsiy tilda yozilg'onlari uchun yosh bolalarning onlardan istifodalar, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi»<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Qarang: A. Boboxonov, M. Maxsumov. Abdulla Avloniy. Pedagogik faoliyati, «O'qituvchi», T., 1966, 43-bet.

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Adabiyot yoxud milliy she'rlar, ifodayı maxsusa. 1-juz, 1-tab', Ilin litogr., 1909, 1-3-betlar.

Shuning uchun ham adibning 1909—1917-yillar davomida maxsus maktab bolalari uchun yozilgan o'ndan ortiq kitobi maydonga keldi. Uning «Birinchi muallim», «Ikkinci muallim», «Turkiy Guliston yoxud axloq», «Maktab guliston» singari darsliklari, «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plami inqilobga qadar bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko'p yangi usul maktablari uchun qo'llanma bo'lib xizmat etdi. «Muallim afandilar va adabiyot muhiblari banim bu asari nochizonalarimni iltifotsiz qoldurmadilar. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jadvalina kiritub, maydoni ta'lima qo'ydilar»<sup>1</sup>, — deb yozgan edi Avloniy mammuniyat bilan. Ma'lum sabablarga ko'ra bosilmay qolgan «Uchinchi muallim», «Maktab jug'rosiyasi», «Hisob masalalari» singari darslik kitoblari haqida ham adibning zamondoshlari juda iliq fikrlarni aytadilar. Darhaqiqat, bu asarlar inqilobgacha bo'lgan o'zbek maktabi, pedagogik fikri taraqqiyoti tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. 10-yillarda «Nashriyot», «Maktab» kabi turli shirkatlarning dunyo ko'rshida ham katta xizmat qildi. 1914-yil 19-sentabrda ta'sis etilgan «Nashriyot» shirkatining 28 punktli rus va o'zbek tillarida yozilgan shartnomasida uning asosiy maqsadi «Turkiston o'lkasidagi musulmon aholisi o'rtasida umumyevropa madaniyati va ma'rifatini gazetalar, jurnallar, kitoblar va ularning savdosi orqali yoyish», deb ko'rsatilgan. 1916-yil 18-martda tuzilgan, notarius Dm. Yegorov tasdiqlagan «Maktab» shirkatining 37 bandli shartnomasida ham shu maqsad tilga olinadi<sup>2</sup>. Keyingi shirkatning muassislari orasida Avloniy va M. Podshoxo'jayev bilan bir qatorda mashhur Nizomiddin Xo'jayev va Shokirjon Rahimiyl, 1907—1910-yillarda «Ta'limi alifbo», «Ta'limi soniy» kabi darsliklar yozib, 1918-yilda Toshkentda Langar mahallasida xotin-qizlar maktabi ochgan Rustambek Yusufbekov, taniqli ma'rifatparvar, Avloniy bilan birgalikda 1909-yilda «Jamiyati xayriya» tuzgan Toshhoji Tuyoq-boyevlar ham bor edi.

<sup>1</sup> Ko'rsatilgan asar. Bir-iki so'z, 4-juz, 1-tab', Orifjonov litogr., T., 1916, 2-bet.

<sup>2</sup> Har ikki hujjat Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish institutidagi A. Avloniy muzevida saqlanadi.

## Darsliklar yaratish yo‘lida

Astrimiz boshlarida yangi maktablar uchun tuzilgan alifbetlar anchagina bor. Agar uning ro‘yxati tuziladigan bo‘lsa, boshida, shubhasiz, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval»i bilan Munawvarqorining «Adibi avval»i turadi. Avloniyning «Birinchi muallim»i ham o‘zining ma’lum o‘rniga ega.

«Birinchi muallim» 1917-yilga qadar 4 marta nashr etilgan. U, muallif ta’kidlaganidek, «avvalgi sinf shogirdlari uchun» yozilgan edi. Avloniy uni yozishda o‘ziga qadar bo‘lgan mavjud darsliklarga, birinchi navbatda «Adibi avval» va Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval»iga suyandi. Dars berishi jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalandi. Pirovard natijada zamon talablariga javob bera oladigan, ayni paytda Aziziy boshlab bergen yo‘lni takomillashtiruvchi original asar yozishga muvaffaq bo‘ldi.

Muallif kitobida oddiydan murakkabga borish prinsipiqa qat’iy amal qiladi, uni «tadrijiy suratda tartib etadi». Darslar harflar alifbosi tartibida keltiriladi. So‘ng navbat bilan qaysi o‘rinda qanday yozilishi va ularga oid ixcham, sodda misollar beriladi. Bosh harflar, o‘rtta harflar, oxir harflar tushuntiriladi. Nihoyat, matnlarga o‘tiladi: dastlabki matni «Maktab» deb atalgan. Unda, tabiiyki, mакtabning fazilatlari haqida gap ketadi. Adib o‘z so‘zlarini:

Taraddud birla maktabda o‘qing o‘g‘lonlar, o‘g‘lonlar,  
Bo‘lursiz bir kun olamda zo‘r insonlar o‘g‘lonlar, –

satrлari bilan tugatadi.

«Ikkinchi muallim» yuqoridaqи kitobning bevosita davomi, «Alifboden so‘ng o‘qutmak uchun» yozilgan, «axloqiy hikoyaлar, adabiy she’rlar ila ziynatlangan». Binobarin, u – darslik-majmua. Kitob dastlab 1912-yilda Toshkentda G‘ulom Hasan Orifjonov litografiyasida bosilib chiqdi. So‘ngra 1915–1917-yillarda qayta nashr qilindi. Boshqa asarlaridagi singari bunda ham nashrlar o‘zaro farq qiladi, mukammallahib boradi. Asarga:

Shavkati inson erur ilm-u adab,  
E’tibor etmas anga mol-u nasab, –

degan satrlar epigraf qilib olingan. Kitobning birinchi nashridagi hikoyalar qirqdan kam edi, so'nggi nashrida ular qirqdan ortiq. Hikoyalar aksari nasriy bo'lib, ularning barchasi bolalarning yoshiga, aqliga, savodiga mos. «Birinchi muallim»dagi singari Avloniy bu asarida ham hikoyalarning hayotiy va qiziqarli bo'lishiga, ifodaning sodda va aniqligiga alohida e'tibor beradi. «Eng oson usul ila», «Ochuq til va oson tarkib ila» yozishga harakat qiladi. Kitobni o'qir ekanmiz, Avloniyning xalq og'zaki ijodidan samarali foydalanganligini yaqqol ko'ramiz. Ulardan chiqariladigan hissa ham ko'pincha xalq maqollaridir. Ayni chog'da u Sharq she'riyatining o'lmas asarlaridan oziq oldi. Adibning bir qator hikoyalarida Navoiyning mashhur «Hayrat ul-abror»i, Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston»i ta'siri ochiq ko'rinish turadi. Ba'zan o'zbek adabiyotida hikoyachilikni yuqori bosqichga olib chiqqan Poshshoxo'janing «Miftoh ul-adl», «Gulzor» to'plamlaridagi ma'lum va mashhur hikoyalarni qayta ishslash, davrga moslashtirish sezildi.

Adib XIX asr rus klassik adabiyotidan, ayniqsa, L. N. Tolstoy va I. A. Krilov asarlaridan ham bahramand bo'ldi. Ularning ayrimlarini ijodiy qayta ishladi.

Asrimiz boshidagi ziyolilarimizning ma'lum qismi rus klassik adabiyoti bilan yaqindan tanish edi. Faqat rus adabiyoti emas, umuman Yevropa madaniyatidan xabardor edilar. To'g'ri, bu oshnolik tatar va ozarboyjonlardagi singari chuqur bo'lмаган. Ularda ma'lum tarixiy sharoit taqozosi bilan bu hol ertaroq boshlangan edi. Masalan, tatar adabiyotshunosligida 1812-yildagi Vatan urushida ishtirot etgan bir tatar soldatining Gyote bilan Sharq dostonchiligi haqida suhbat qurgani keyingi paytlargacha naql qilinadi. XIX asrdagi Turkistondan bunday faktlarni topish qiyin, albatta. Lekin so'ngroq peshqadam ziyolilarimizning rus va jahon madaniyati haqida umumiy tasavvurga ega bo'lganliklari haqida ayrim dalillar yo'q emas. Masalan, Muqimiyning jiyani Ro'zimuhammad Do'stmatovning taqdir taqozosi bilan Moskvada o'qishi, Furqatning Toshkentda «Turkiston viloyatining gazeti»da «tarjimonlik» (Muqimiyy) qilishi yuqoridaqiday taxmin qilishga imkon beradi. 1905-yildan keyin esa adabiy-madaniy muloqot kuchayib bordi. Ko'pgina

ziyolilarimiz Rusyaning markaziy shaharlarida bo'lishdi. O'nlab yoshlarimiz Ufada, Orenburgda o'qidilar. «Vaqt» gazetasining Turkistonga kelgan muxbiri Shahid Muhammadyorov «Turkiston maktublari» maqolasida yarim foiz aholisi ham ruscha bilmaydigan Samarqandday shaharda Peterburg harbiy meditsina akademiyasini tugatgan, 1913—1914-yillarda Bag'dodda Rusiya elchisi bo'lib turgan Abdurahmon Ali o'g'lini ko'rib hayratga tushgan va «tabiatning qaltis hazili» deb yozgan edi. Qolaversa, biz bugun Mustafо Cho'qayev, Ubaydulla Xo'jayevlarning Rusiya universitetlarida, Fitratning Istanbul dorilfununida o'qib qaytganligini yaxshi bilamiz.

Ikkinchidan, Orenburg va Qozondan chiqib turgan «Sho'ro», «Ong» kabi jurnallarda G'arb klassiklarining juda ko'p asarlari tarjima qilinib bosilib turgan edi. Daniel Defoning «Robinzon Kruzo»siga o'xshash asarlar alohida nashr etilib, keng tarqalgan edi. Bu jurnal va nashrlar esa deyarli har bir peshqadam o'zbek ziyolisining uyida bo'lardi. Binobarin, Mirmuhsinning mashhur fransuz pedagogi Pistolitsi haqida maqola yozishi, Aziziy, Aliasqar Kalinin, Abdulla Avloniylarning rus klassiklaridan tarjima qilishlari, ulardan ta'sirlanib asarlar yozishlari ajablanarli hol emas edi.

«Arslon va ayiq» hikoyasida do'stlik va hamjihatlikning hayot moyasi ekanligi ibratli bir voqeа orqali ko'rsatiladi.

Arslon bilan ayiq do'stlashadi. Do'stlar bir kuni ovga chiqadilar. Ancha urinishlardan so'ng bir kiyikni qo'lga tushiradilar. Lekin nogahon o'ttada janjal chiqadi. Arslon kattaligini pesh qiladi va o'ljaning ko'prog'ini talab etadi. Ayiq esa kichikligiga qaramasdan ko'p mehnat qilganini aytadi. Bahslashuv urushga aylanadi. Ikkala tomon ham holdan toyadi. Qimirlashga majoli qolmaydi. Bundan bo'rilar xabar topadilar va o'ljani pok-pokiza tushiradilar. O'z qilmishlaridan pushaymon do'stlar surgalib kelib, qoldiq suyaklarni chaynash bilan kifoyalananadilar.

Avloniy birdamlikka alohida urg'u beryapti. Bir hikoya-sida chumolilar hamkorligini o'rnak qilgan edi. Endi ittifoqsizlikning zarari, balki, halokatli oqibatini ko'rsatmoqda. U xususiy emas, milliy dard edi. Faqat Avloniy

zamoni uchun emas, undan keyingi 80–90 yil mobaynida ham eng muhim muammolardan bo‘lib kelayotir.

«Eshak ila bulbul» masali I. A. Krilovdan qilingan erkin tarjimadir. Aliasqar Kalinin uning nasriy mazmunini bergen edi. Avloniy she’riy yo‘l bilan tarjima etdi. Masalning asosiy ruhini – go‘zallikning ulug‘vorligi, xunuklikning tubanligini saqlab qoldi. Lekin unga milliy kolorit baxsh etdi. O‘zbek o‘quvchisining didi va tushunchasiga mos tushadigan, unga oson singadigan tavsiflar kiritdi.

Kitobga kiritilgan hikoyalarning ikkitasi bevosita do‘stlikka bag‘ishlangan bo‘lib, biri «Yolg‘on do‘st», ikkinchisi esa «Chin do‘st» deb nomlangan. Adib mazkur masalaning kishilar hayotida favqulodda ahamiyatga ega ekanligini yaxshi anglaydi. Shuning uchun ham unga alohida e’tibor bilan qaraydi. Ayniqsa, haqiqiy do‘st orttirish yoshlikdan boshlanishini, binobarin, bu sifatlarni yoshlikdan singdirib borish zaruratini yaxshi his qiladi. «Yolg‘on do‘st» L. N. Tolstoyning «Ikki do‘st» hikoyasining tarjimasidir. Uni dastlab Aliasqar Kalinin «Muallimi soniy»siga tarjima qilib kiritgan edi. Uning mazmuni shunday: ikki do‘st safarga chiqadilar. Yo‘l tog‘ ichidan o‘tar edi. Do‘stlarning biri uzoqdan yo‘lbarsni ko‘rib qoladi va yugurgancha daraxtga chiqib oladi. Ikkinchisi shoshilib, nima qilishini bilmay qoladi va yerga cho‘zilgancha o‘zini o‘likka solib yotib oladi. Yo‘lbars uni iskab ko‘radi va o‘lik gumon qilib, qaytib ketadi. Daraxt tepasiga qochib yashiringan o‘rtoq daraxtdan tushadi va yo‘lbars uning qulog‘iga nima deb ketganini bilmoqchi bo‘ladi. «Shodlig‘ingda o‘rtoq bo‘lib, g‘am vaqtinda tashlab qochadirg‘on nomard kishilar ila yo‘ldosh bo‘lma deb ketdi», – javob beradi u.

Ikkinci hikoya she‘r bilan yozilgan. Mazmuni shunday: ikki kishi do‘stlashadi. Bir kuni safarga chiqadilar. Nogahon bir daryoga duch keladilar. Kemaga tushadilar. Nima bo‘ladiyu, kema ag‘darilib, do‘stlar suvgaga qulaydilar. Suvchi xabar topib, qutqarmoqchi bo‘lganida quyidagi manzarani ko‘radi:

Ul iki do‘stning birini tutsa suvchiga dedi:  
Qo‘y mani, avval borib do‘stimni qutqar beziyon.  
Suvchi borib ushlasa o‘rtog‘ini,  
Ul ham aytar do‘st qutulsin deb fig‘on.

## Shoir shunday xulosalaydi:

Ko'rdingizmi, ey suchuk o'g'lonlar,  
Do'stlig'din bu siza bir doston.

Ko'rganimizdek, chin do'st bilan yolg'on do'st birbiriga qarama-qarshi qo'yilgan va do'stlikdag'i sadoqat, mardlik kabi fazilatlar ulug'lanib, soxta do'stlik, nomardlik kabi yomon xususiyatlар qoralanmoqda. Har ikki hikoyaning asarda ketma-ket berilishi ham shuni ko'rsatib turibdi.

Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror»iga kirgan hikoyalardan birida shunday voqeа keltiriladi: To'rt ulus xoni Temur ko'ragon Hind iqlimiga yurish qiladi. Jang shiddatli bo'ladi. Xon zafar qozonadi, lekin ko'ngliga adovat g'ulg'ulasi tushadi. Hammani tig'dan o'tkazishga farmon beradi. Qon daryo bo'lib oqadi. Chapdastlik bilan tig'tortayotgan xon askarlari nogahon ikki yorga duch keladilar. Si poh ularning birini chopmoqchi bo'lib qilich ko'tarsa, ikkinchisi boshini tutadi. Unga shaylansa — narigisi. Xullas, biriga tig' ko'tarsa, ikkinchisi uning oyog'iga o'zini tashlar va oldinroq o'ldirishni iltijo qilardi. Ular bir-birlariga o'z boshlarini in'om etar, bir lahza bo'lsa-da, boshqa birlarining omon turishini tilab, tig' talashar edilar. Bu hol ancha davom etadi. Nogoh el orasida «Omon-omon!» nidosi taraladi. Bu ikki yor bir-biri uchun jonidan kechgan edi, shoh ham elning gunohidan o'tadi. Bu ikki yor sadoqatlarini bayroq qilib elni ham, o'zlarini ham xalos qiladilar<sup>1</sup>.

Bu hikoya «Vafo» maqolatida berilgan. Avloniy hikoya-sida shuning ta'siri ravshan ko'rinish turadi. To'g'ri, Avloniyda undagi ishqiy ohang yo'q, vaziyatlar birmuncha boshqacharoq, lekin har ikki hikoyaning pafosi mushtarak.

«Ustozi avval»dagi «Bir necha do'stlig' uchun ahd qilg'on musofirlar»<sup>2</sup> she'riy hikoyasidagi vaziyat bilan mazkur hikoya orasida yaqinlik bor. Masalan, unda ham do'stlar safarga otlanadilar. Yo'l daryoga to'g'ri keladi. Muz ustidan o'tishayotganda nogoh muz sinib, do'stlardan biri suvg'a tushib ketadi. Lekin bu sinovda mazkur hikoyadagi

<sup>1</sup>Qarang: Alisher Navoiy. Xamsa. O'zFA nashriyoti, T., 1960, 83–84-betlar.

<sup>2</sup>Saidrasul Aziziy. Ustozi avval. 14-tab', T., Ilin litogr., 1913, 44–45-betlar.

do'stlar boshqacha yo'l tutadilar. Ular bir-birlariga «Siz boring, siz boring» qilishadi. Suvga tushgan do'stni begonalar qutqarib oladilar. Binobarin, bu yerda masala butunlay boshqacha qo'yiladi va boshqacha hal qilinadi. Aziziy sadoqatli do'stlikni soxtalikni qoralash orqali ulug'laydi.

«Janjalchilik zarari» hikoyasida takabburlik va manmanlikning yomon oqibatlari ixcham bir voqeа yordamida aniq va ta'sirchan yetkaziladi: katta bir ariqning ustidan o'tish uchun uzun bir taxta qo'yilgan. Ikki echki unga bir vaqtida ro'para kelib qoladi. Ikkalasi ham bir-biroviga yo'l berishni xohlamaydi. Ahvol suzishgacha borib yetadi va har ikkalasi ham suvga qulab tushadi. Bu hikoya «Ikki uloq» nomi bilan Aliasqar Kalininning «Muallimi soniy»sida ham uchraydi.

Inson fe'lini hayotiy voqealar orqali ko'rsatuvchi latifa va hikoyatlar, afandi sarguzashtlari xalq og'zaki ijodimizda benihoya ko'p. «Ikkinchи muallim»ni ko'zdan kechirar ekanmiz, biz ulardagи hikoyalarning ko'pchiligini mana shu zaminda maydonga kelganini, adib ularni qayta ishlab, zamon ruhini singdirganini ko'ramiz. Asardagi «Taqsim», «Ikki devona», «Ochko'zlik», «Aqli bog'bon» va shularga o'xshash qator hikoyalarda bu hol sezilib turadi.

J. Shari pov «Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar» kitobida L. N. Tolstoy tarjimalari munosabati bilan qadim Sharq folkloridagi ma'lum va mashhur bir hikoyani keltiradi. Unda o'z ustomonligi bilan qozini lol qoldirgan o'g'rining tadbirkorligi haqida gap ketadi:

«...zamoni o'tib erdi, qozining xotini eshikdan kirib keldi. Bularning oldilariga dasturxon yozib, tovuqning kabobini qo'ydi. Qozi dilida aytди: «Hech mundin yaxshi maslahat yo'qturki, bul tovuqni taqsim qilmoqni o'g'riga havola qilsam, toki agar yaxshi taqsim qila bilmasa, ani izo berib manfa'l va majmul qilsam».

Qozi aytди: «Ey shayx, bu tovuqning qismati sizdin bo'lsun, taqsim qiling». O'g'ri qabul qilib, tovuqni qo'liga olib, pora-pora qilib, boshini qozining oldiga qo'ydi va gordanini xotuningning oldiga qo'ydi va tanasini o'zining oldiga qo'ydi. Va aytди: «Bismillo, olinglar va surati ushbudur».

Qozi aytди: «Ey terror, sanga taqsimi sahil qilg'il deb aydim, bu nechuk taqsimdur?» O'g'ri aytди: «Avval boshi-

ni sening oldingga qo'ydumki, bu uyning boshlig'idursan va gardanini xotuningni oldiga qo'ydumki, xotun bamisoli gardan, boshga yaqin bo'lgandek, erga yaqin bo'lur va ikki qanotini farzandlarining oldiga qo'ydumki, farzand otani(ng) qanoti bo'lur va tanasini o'zum oldimg'a qo'ydumki, man sizlarga mehmondurman». Qozi hayron bo'ldi va hech javob aytolmadi»<sup>1</sup>.

Professor Hodij Zarifov L. N. Tolstoyning «Bir mujikning g'oz taqsim qilg'oni» hikoyasining zamirida Sharq hikoyalari dagi sujet yotadi<sup>2</sup>, – degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, Sharq folklori bilan yaxshi tanish bo'lgan buyuk adib undan istifoda qilgan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. Aliasqar Kalinin L. Tolstoy hikoyasini o'zbek tiliga tarjima qildi va kitobiga kiritdi. U quyidagicha edi: «Bir kambag'al mujik bor edi, ul mujikning bolalari ko'p erdi, mol zotidan birgina g'ozni olib mujikka aytdi: Ollo rozi bo'lsin, olib kelgan tortug'ingga, ammo g'oz bitta, bular oltita, chunonchi, o'zum, xotunim, ikki o'g'lim va ham ikkita qizim: qandog' qilib bul g'ozni bemalol taqsim qilsak ekan, – dedi. Mujik: – O'zum yaxshilab taqsim qilib berayin, – deb qo'liga pichoqni olib g'ozning boshini kesub, – siz uyga boshsiz, sizga boshi, – deb to'raning qo'liga boshini berdi, ondin keyin g'ozning dumini kesib olib, «siz doimo uyda o'lturub uy poylaysiz, sizga dumi», – deb to'raning xotunining qo'lig'a g'ozning dumini berdi, ikki oyog'ini kesib olib: «otangizning yo'lini bosmoqg'a sizlarga oyog'i, – deb g'ozning ikki oyog'ini ikki o'g'liga berdi va yana g'ozning ikki qanotini kesib olib: «Sizlar uydan chiqib ketasizlar, ya'ni er qilasizlar, sizlarga qanoti», – deb ikki qizga g'ozning ikki qanotini berdi. «Qolg'onginasini men o'zim olaman taqsimonaga», – deb o'ziga butun g'ozni oldi. Mujikning qilg'on ishi to'rag'a manzur bo'lub, to'ra kulib, anga g'alla va pul in'om qildi.

<sup>1</sup> *Qarang: J. Sharipov.* Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar. T., 1972, «Fan», 106-bet.

<sup>2</sup> O'sha kitob, 104-bet.

Bu hodisani bir boy mujik eshitib, besh g'ozni pishurib, mazkur to'raga olib borib tortiq qildi.

To'ra g'ozlarni olib boy mujikka aytdiki, g'oz besh adad ekan, bizlar oltitadur. Bu g'ozni nechuk bemalol taqsim qilsak ekan. Boy mujik o'yladi-o'yladi, qandog' qilib bo'lishni ilojini hech topolmadi. Eng oxiri to'ra kambag'al mujikni chaqirtirmoqqa buyurdi g'ozlarni taqsim qilmoq uchun. Kambag'al mujik darhol yetib keldi va bir g'ozni to'ra bilan xotuniga berib: «Sizlar ham g'oz bilan uchta bo'ldingiz», — dedi. Bir g'ozni ikkita o'g'liga berib: «Mana sizlar ham uchta bo'ldingiz», — dedi va yana bir g'ozni ikkita qiziga berib: «Sizlar ham uchta bo'ldingiz», — dedi. Qolgan ikki g'ozni o'ziga olib: «Mana, bizlar ham uchta bo'ldik. Hammamiz barobar», — dedi. Muni ko'rib, to'ra kulib, kambag'al mujikka yana in'omlar berdi, ammo boy mujikka hech nima bermadi».

O'z zamini bilan qadim Sharq xalqlari folkloridagi sujetga borib taqaladigan bu hikoya Avloniyga ma'lum edi, albatta. Negaki, «Muallimi soniy»ning 1903, 1907-yil nashrlaridan u bexabar bo'lgan bo'lishi mumkin emas. Ehtimolki, u L. N. Tolstoy hikoyasining originalini ham bilardi, chunki buyuk adibning ko'pgina hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilgan kishining o'sha paytlarda ma'lum va mashhur bo'lgan bu hikoyasidan xabarsiz bo'lishi ehtimoldan uzoq. Hatto uning xalqimiz orasidagi turli muqobilari ham Avloniyga ma'lum bo'lgan deyishga asos bor. Negaki, adib xalqimizning boy ijodini yaxshi bilgan. Ularni to'plagan va o'shalar asosida o'nlab hikoyalari yozgan. Buni Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab guliston» asarlaridagi hikoyalari ochiq-oydin ko'rsatib turadi. Jumladan, uning «Ikkinchi muallim» kitobidagi «Taqsim» hikoyasida buni ko'rish mumkin. Hikoya ancha sodda va ixcham. U bolalarning psixologiyasiga, yosh xususiyatlariiga, fe'l-odatlariga benihoya moslashtirilgan.

Mazmuni quyidagicha:

Ikki bola ko'chada o'ynar edilar. Tasodifan bir yong'oq topib olishdi. O'rtada janjal chiqdi. «Sendan oldin men uni

<sup>1</sup> **Aliasqar Kalinin.** Muallimi soniy. 2-tab', T., Porsev litogr., 1907, 58–59-betlar.

ko'rdim, u – meniki!» – derdi biri. – Yo'q, uni yerdan men oldim. U – meniki!» – derdi ikkinchisi. Shu asnoda bir yigit kelib qoldi. Voqeadan voqif bo'ldi. Sizlarga o'zim yaxshilab taqsimlab beraman, dedi-da, yong'oqni ularning qo'lidan oldi. Chaqib ikki pallaga ajratdi. Yarim po'chog'ini biriga, qolgan yarmini ikkinchisiga berdi. Arzimas qoldig'i esa, taqsim qilganim uchun menga, dedi-da, mag'zini og'ziga solib yo'lida davom etdi. Bolalar po'choqni ushlaganlaricha hang-u mang qoldilar.

«Ikki devona» hikoyasi xalq latifalariga yaqin turadi. Unda yumoristik ohang, chuqur xalqchil asosga ega bo'lgan mutoyiba ruhi kuchli, mazmun qiziqarli:

«O'tgan zamonda bir devona bir shaharga borub, har kimni urub-so'kub nima uchun odamlar hammasi bir tarafga qarab yurmas(lar). Biri bu tarafga ketsa, biri u tarafga ketar, dedi. Odamlar javob berdilarki, har kim o'z ishi bor tarafga borur. Biri bozorga borsa, biri uyiga qaytur, dedilar. Devona bularning so'zini qabul qilmadi. Oxirida arolaridan biri turub, bu devonadur. Devonaning so'ziga shoyad devona javob bersa, deb bir devonani olib keldi. Birinchi devona so'rdiki, yer yuzidagi odamlar nimaga bir tarafga qarab yurmaslar?

Ikkinchı devona: – Yer kemaga o'xhash suv ustinda turadur. Agar odamlar hammasi bir tarafga qarab yursalar, barchamiz suvg'a og'darilub ketarmiz, – deb javob berdi.

Birinchi devona: – Balli do'stim! Hammadan san yaxshi javob berding! – deb jo'nab ketdi.

Hissa: Har kishiga o'z maslakdoshining so'zi maqbuldur».

«Aqli bog'bon» hikoyasi avloddan avlodga o'tib, xalqimiz orasida bugungi kunga qadar saqlanib kelayotgan, mehnatkash elning ming yillik tajribalari zaminida tug'ilib, hikmat darajasiga ko'tarilgan ma'lum va mashhur naql asosida qurilgan. Uning mazmuni quyidagicha edi:

Bir bog'bonning uch o'g'li bor. Lekin bolalar dangasa va ishyoqmas o'sganlar. Otada ularga meros qoldiradigan tanga-tillo yo'q. Bu ketishda esa ularning ko'p o'tmay, xorzor bo'lishi aniq. Ota umri tugayotganini bilib, farzandlari taqdiridan tashvishga tushadi. O'ylab-o'ylab shunday yo'l tutadi. Har uchala o'g'lini yoniga chaqiradi. «O'g'lonlarim, –

deydi u, — mening ajalim yetganga o'xshaydi. Ko'zim ochiq ekan, vasiyatimni sizlarga aytib ketay. Mehnat-u mashaqqat bilan bir ko'za oltin yig'ganman. Uni man shu bog'ga, toklarning birini tagiga ko'mganman. U — sizlarniki. Biroq bu ishga ko'p yil bo'ldi. Harchand urinsam ham ko'milgan joyini xotirlay olmadim. Uni o'zlarining izlab topinglar va o'zaro bo'lishib olinglar». Ko'p o'tmay chol jon beradi. Bir ko'za tilla daragini eshitgan uch ishyoqmas uni izlashga tushib ketadilar. Bog'ning har yerini kavlab chiqadilar. Sirli ko'za chiqmaydi. Yana erinmasdan kavlashga tushadilar. Kutilgan natija esa hamon yo'q. Shu taxlit bog' ichi bir necha qatla ag'dar-to'ntar qilinadi. Yerlar qazilaverib, tuproqlari kulga aylanib ketadi hamki, oltinli ko'za topilmaydi. Bu orada uzumzordagi toklarning eng chuqur ildizlarigacha ochib ko'miladi va bog'da o'sha yili shunday hosil bitadiki, undan bir necha ko'zani to'ldirgulik oltin oladilar. Uch dangasa ota gaplarining asl ma'nosini, «oltin — mehnatda» ekanligini tushunib yetadilar.

Avloniy mehnatni sharaflovchi mana shu naqlga murojaat qildi. Uni nihoyatda sodda va ixcham shaklga solib, bolalarga taqdim etdi. Bu bilan bolalarda mehnatga muhabbat uyg'otishga, har kim baxt va kamolotga faqat mehnat orqaligina yetishishi mumkinligini ta'kidlashga intildi. Kitobda mazkur mavzuga bag'ishlangan hikoyalar anchagina bor. Binobarin, muallif bu masalaga alohida e'tibor bergen.

Nodonlik va jaholatga qarshi kurash, uni so'ngsiz qahr-u g'azab bilan inkor etish, uni jami fojia va baxtsizliklar sababkori sifatida talqin qilish jadid adabiyotining asosiy xususiyatlaridan birini tashkil qiladi. Bu mavzu ushbu adabiyotning barcha janr va turlarida ishlandi. Faqat badiiy adabiyot emas, umuman XX asr boshidagi madaniy harakatchiligidimizning hamma jahbalarida bu hukmron ruh edi. Shu sababli Avloniy xrestomatiyasidagi o'nlab hikoya va masallar orasida bu mavzudagi hikoyatlar bo'lmasligi mumkin emas edi. Kitobda nodonlikni qoralovchi, ilm-ma'rifatni ko'klarga ko'taruvchi talaygina she'riy va nasriy hikoyalar bor. Ulardan faqat bittasi — «Ilmsizlik balosi» nomli she'riy hikoya haqida to'xtab o'tamiz. Mazmuni juda jo'n:

Bir kishi xat tanimas edi. Kasal bo'ldi. Tanasiga yara toshdi. O'g'lini tabibga yubordi. Tabib shishada dori berdi:

birini ichish, ikkinchisini surish uchun. Kasal ota savodsizligi uchun ularni farqlay olmadi. «Sharbat» deb yaraga suradigan zaharli dorini ichib jon berdi.

To'g'ri, muallif ranglarni biroz quyuqlashtirgan. Ilmsizlikning yomon oqibatiga fojiaviy tus bergen. Bu ishni atayin qilgan. Negaki, bu xil bo'rttirishning ta'sir kuchi juda katta bo'lishini yaxshi tushungan. Qabariq, serbo'yoq tasvir 1906—1917-yillar o'zbek adabiyotining muhim xususiyatlaridan biridir. Xususan, shoirlarimiz ilm-ma'rifatning ahamiyati, jaholatning zarari haqida to'xtalganlarida bu tushunchalarni oq-qora bo'yoqlarda, o'zaro keskin zid musbat-manfiy qutblarda talqin qilishga intiladilar. Bu hol Avloniyning she'riyatida, ayniqsa, ravshan ko'rinadi.

Xullas, adibning har ikki «Muallim»dagi ixcham she'riy va nasriy hikoyalari, bir tomondan, usuli jadid mакtablari darsliklarining mazmun va qurilishini anglashga yordam bersa, ikkinchi tomondan jadid adabiyotining ustuvor yo'naliшlarini aniqlashda muhim material bo'lib xizmat qila oladi. Bejiz emas, yosh tadqiqotchi R. Barakayev Avloniy va XX asr o'zbek bolalar adabiyoti masalasini atroflicha o'tganib, uni ushbu sohaning «yetakchi namoyandası»<sup>1</sup> sifatida baholaydi.

### Mukammal insonni o'ylab...

1913-yilda Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari bosilib chiqdi. 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilindi. Kitob maktablarning yuqori sinf o'quvchilariga darslik sisatida yozilgan. Lekin asrimiz boshlaridagi o'zbek jadid ma'rifatchiligining noyob hodisalaridan bo'lgan bu asarning ahamiyati faqat maktab doirasi bilan cheklanmadı. U adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm» — axloq haqida fikr yuritiladi.

Axloq, bu — xulqlar majmuyi. Xulq esa, czgulik yoxud razillikning muayyan bir insonda namoyon bo'lish shakli.

<sup>1</sup>R. Barakayev. XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyoti va A. Avloniy ijodi. FFB ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. T., 1994, 27-bet.

Binobarin, har bir xulq ezgulik va oliyjanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo'linadilar. Lekin bular kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug'ilishdan yomon bo'lib tug'ilmaydilar. Ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Demak, hamma narsa tarbiyaga bog'liq. Tarbiya «yo hayot – yo mamat, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir».

Tarbiya tug'ilgan kundan boshlanadi va umrning oxiriga qadar davom etadi. U ikki bosqichdan – uy va maktab tarbiyasidan tashkil topgan.

Avloniy tarbiyaning doirasini keng tushunadi. Uni birlina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. «Sog' tanda sog' aql» degan hikmatning bejiz emasligini yaxshi biladi. Gapni, birinchi navbatda, bolaning sog'lig'i haqida qayg'urish lozimligidan boshlaydi.

«Badanning salomat, quvvatli bo'lmoq'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdu».

Avloniy masalaning falsafiy asosiga ko'chadi. Jism bilan ruhning uzviy birligi haqida gap ochadi: «Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choppanni ustini qo'yub, astarini yuvub, ovora bo'lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur». Yana bir o'rinda esa «badan elak kabi ko'zlukdur» degan gap uchraydi.

Jism bilan ruh shakl bilan mazmunning uzviy birligi va ularning o'zaro bir-biriga ta'siri masalasi juda muhim va murakkab bo'lib, Avloniy uni asosan to'g'ri tushunadi va to'g'ri talqin qiladi. XIX asrning mashhur munaqqidlariidan biri yozadi:

«Nimaiki mazmunda bo'lsa, shaklda o'z ifodasini topadi. Mana bu odamning mudroq, tund ko'zlariga, bo'kib, to'yib olganidan harsillab qolgan baq-baqaloq, davang turqiga nazar tashlang. Naqadar hayvoniy qiyofa! Endi, mana bunisiga razm soling. Bu ozg'in, rangpar kishining ko'zlaridan qanday o't chaqnaydi. U naqadar harakatchan,

uning ovozida qanchalar ehtiros bor! Birinchisi – o'lik, ikkinchisida hayot yashnaydi – to'g'ri emasmi?!» Sinchiklab qarang, kishi jism bilan ruhning, ma'naviy olam bilan jismoniy hayotning o'zaro munosabatini ikki muhit, ikki davrda yashagan har ikki adibning deyarli bir xil tushuna-yotganligini his qilmay iloji yo'q.

Bolalarda fikrlash iqtidorini hosil qilish, fikr tarbiyasi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan» bo'lib, ularning «yordamiga so'ng darajada muhtoj». Negaki, «Fikrning quvvati, ziynati, kengligi» muallimga ko'p jihatdan bog'liq. Bolalarning fikrashi tarbiyachining fikrlash va intilish doirasi, saviyasi bilan ham aloqador. Bu xususda adibning keskin mulohazalari bor. Ular haqida keyinroq gap bo'lar. Hozircha muhimi shuki, Avloniy fikrni o'stirish masalasiga alohida e'tibor bilan qaraydi. Unga alohida bob ajratib, ta'kidlab ko'rsatadi.

XVIII asr fransuz ma'rifatchilarini aql va ongning roliga juda yuksak baho bergan edilar. Juhon adabiyotidagi ma'rifatchilik bosqichi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar bu davr Yevropa madaniyatining umuman hamma jabhalarida uning ma'lum darajada ilohiyashtirilganligini e'tirof etadilar<sup>1</sup>. Bu, tabiiyki, Yevropa mamlakatlari kapitalizmning rivoji, feodal-patriarxal munosabatlarning taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lib qolishi, jamiyat hayotida ilm-fan rolining birdan kuchayib ketishi kabi qator omillarga bog'liq edi.

XX asr boshlaridagi Turkistonda ham shunga yaqin sharoit maydonga keldi. Nazarimizda, «o'lkamizda 1905-yildan keyin yaqqol ko'zga tashlangan fikriy uyg'onish va madaniy ko'tarilish o'z mohiyati bilan XVIII asr fransuz ma'rifatchiligidagi ko'p jihatdan o'xshash edi. Avloniy ma'rifatchiliginining ildizi ham shunga borib taqaladi. «Turkiy guliston...»da aql va ilmnning, ma'naviy-axloqiy olamning favqulodda ehtiros bilan ulug'lanishi adib ma'rifatchiliginining bevosita mazmunidan kelib chiqadi. Mana u nima deb yozadi:

**«Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir...»**

<sup>1</sup> *Qarang: Проблемы просвещения в мировой литературе*, «Наука», М., 1968.

Muallif o'z fikrini yanada aniqroq va ravshanroq anglatish uchun shunday muqoyosa keltiradi:

«Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidin keladurgon zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson... aql va idroki soyasida o'ziga keladurgon zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo'yndan boylab, iplarining uchini qo'llilariga bergan insonlarning aqlidur». Hukamolardan biri: «Har narsa ko'paysa, arzon bo'lur, aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur», — demish».

Adibning qarashlarida Navoiyning inson haqidagi mashhur «inson — xilqat toji» nuqtayi nazari (konsepsiya-si)ning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Uning fikricha ham aql faqat insongagina nasib etgan sifatdir, jahoning ziynati oqil insonlardir.

Yuqorida Avloniy aqlining ilm va tajriba soyasida kamol topishiga ishora qilgan edi. Darhaqiqat, bular uzviy tushunchalardir. **Ilm** ham «insonlarning madori hayoti, rahbari najoti», boringki, «dunyoning izzati». U — «inson uchun g'oyat oliv va muqaddas bir fazilat».

Muallif bu fazilatlarni shunchaki qayd etmaydi, uning konkret hayotiy, amaliy ahamiyati ustida ham to'xtab o'tadi. Uning insonni kamolotga yetkazishda bosh omil ekanligini atroflicha dalillashga harakat qiladi.

Ilm egallah esa o'z-o'zidan bo'lmaydi, albatta. U har bir kishidan muayyan layoqat va qobiliyatni talab qiladi. Chunonchi, sinchkovlik, har bir narsaga ibrat nazari bilan qaray olish, sa'y-g'ayrat, shijoat kabilar shunday sifatlar jumlasiga kiradi.

«Inson ibrat nazari ila boqub, dunyo kitobidan o'z qadr-hissasini bilib olmagi lozimdir», deb yozadi Avloniy. Ma'rifat sohibi bo'lmak uchun ahvoli olamdan xabardor bo'lmak kerak. Shuning uchun aql sohiblari, fatonat egalari o'zlariga foydasi bo'lsa-bo'lmasa sinchiklab qaragon narsalaridan bir hissa olmay qo'ymaslar».

**Ziyaraklik**, ochiq fikrli bo'lishga intilishning ham ahamiyati katta. Bular hammasi yoshlidkan boshlanadi. Umr — g'animat. Uni behuda ishlar bilan o'tkazib yuborish jino-yatdir. Adib zehn va idrokni quvvatlantirish uchun o'qish-yozishni o'rganishga ulgurgan har bir bolani har xil kitob-

lar, gazeta va jurnallar o'qishga va shu orqali dunyoning bordi-keldisini anglash, u haqda fikr yurita olish darajasiga erishishga chorlaydi.

Ilm olish riyozat chekishni, sa'y-g'ayratni talab etadi. Adibning obrazli ifodasiga ko'ra, ilm bannisoli bodomning ichidagi mag'iz. Uni qo'lga kiritish uchun mehnat qilish, chaqib po'chog'idan ajratib olish kerak.

Avloniyning **vijdon** haqidagi fikr-mulohazalari ham diqqatga sazovor. Uningcha, vijdon – aql va tafakkur mezoni. Umuman olganda, bunday yondoshish vijdonning ahamiyatini va mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Lekin unda biroz konkretlilik yetishmaydi. Vijdon tarozisining «aql va hikmatga muvofiq» ishlarga «muhabbat» qo'ydirib, «qabohat va yomon» ishlardan «nafrat» ettirishi aslida to'g'ri tushuntirish. Biroq uning to'g'rilik darajasi yaxshi yoki yomon deb nomlanadigan muayyan hodisaga nisbatan qo'llanilgandagina konkretlashadi. Adibning «yaxshi» va «yomon» tushunchalarni anglashida esa ma'lum mavhumlik yo'q emas. U bularni talqin qilganda, ko'pincha, aqlga muvofiq keldigan, muvofiq kelmaydigan degan prinsipdan kelib chiqadi.

«Agar ahmoq odam bo'lsang, o'z tug'ishgan birodaringni ham sevmasliging mumkin, lekin Vatanni, u qanday bo'lmasin, sevmaslik mumkin emas. Ammo bu muhabbat uning mavjud ahvoldan bir umr mammunlik bo'lib qolmasligi, balki uni mukammallashtirishga chanqoq intilishdan iborat bo'lmos'i lozim», – degan edi donish-mandlardan biri.

**Vatan tuyg'usi** eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo'lish, g'am-hasratini baham ko'rish farzandning burchi. Avloniy Vatan va uning oldidagi burchni shunday tushunadi.

Farzandlar ham har xil bo'ladi. Onaning baxtiga sherik bo'lib, baxtsizligida yolg'iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vatanning ham fusunkor tabiatini, bog'-rog'larini xush ko'radigan, lekin tashvish va g'amlarini o'ylamaydigan farzandlari yo'q emas. Vatanni, u qanday bo'lmasin, sevish kerak.

«Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig‘imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskimo‘lar Shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerdan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab, hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz «Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l», — demishlar».

Muallif o‘z fikrini xilma-xil misollar bilan asoslashga harakat qiladi. Masalan, u shunday tamsilni keltiradi. Ayrim kishilar o‘z hovli-joylarini, mol-mulklarini sotib, Makkaga ziyyaratga borishadi. Hatto shularning ham aksari yana o‘z vatanlariga qaytib keladilar. «Buning sababi, ya’ni bularni tortub keturgon quvvat o‘z vatanlari tuproqlarining mehr-u muhabbatidur...», — deydi.

Shoirning «Maktab gulistoni» (T., 1916) ga kirgan she’rlarida bu fikrlar davom ettirilgan.

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,  
Har kim sening qadring bilmas — aqli pastdur, —

deb boshlanar edi undagi «Vatan» she’ri. «Hijron so‘zi»da esa ona yurtning ko‘rkam, boy va ulug‘vor manzarasi chiziladi.

Bas shunday ekan, uning uchun jonlarni fido etmoq kerakdir:

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o‘lsa ravon,  
Bango na g‘am qolur, avlodima o‘y-u vatanim.  
G‘uborga do‘nsa tanim, yo‘q vujudi zeri vahm,  
Charoki, o‘z vatanim xokidur go‘r-u kafanim.

Tilga, madaniyatga muhabbat esa har bir kishining xalqiga bo‘lgan muhabbatidir: «Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rasatadurg‘on oyinayı hayoti til va adabiyo-tidir», — yozadi adib.

So‘z — noyob gavhardir. Uning sharifi benihoya. Har qanday qimmatbaho gavhar uning oldida sadaf ham bo‘la olmaydi:

So‘z guharig‘a erur oncha sharaf —  
Kim, bo‘la olmas anga guhar sadaf.

Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror»ida so'z ta'rifiiga bag'ishlangan bob shu satrlar bilan boshlanadi<sup>1</sup>.

Buyuk mutafakkir so'z qudratiga yuksak baho berdi, xilma-xil tamsil va tadbirlar bilan uni ko'klarga ko'tardi, tilni po'lat xanjarga, so'zni unga qadalgan injulgarga qiyos qildi. Yoki mana bu muqoyosalarga e'tibor qiling: Masih (Isoning laqabi) yaxshi so'z bilan o'lganni tiriltirgani uchun «jonbaxsh» laqabini oldi. So'z Xalilni o'tga tashlatdi.

Endi boshqa bir misol. Siz g'uncha og'izlik, shakarlab dilbar bilan birgasiz. Uning alvon yonoqlari yuragingizga o't soladi. Lekin so'lim dilbarning og'zidan biror sado chiqmasligini tasavvur qilib ko'ring-chi?!

Surat ila bo'lsa mahi osmon,  
Surati devor hamon, ul hamon.

M. Y. Lermontovning:

U dilbar janubning qizg'in bolasi,  
Surgan xayol kabi go'zaldir g'oyat, —

deb boshlanadigan bir she'ri bor. Unda barkamol sohibjamol haqida gap ketadi. Hassos shoir go'zallikni uyg'unlikda ko'radi. Uningcha, har jihatdan mukammal dilbargina go'zallikda mumtozdir.

Kim izoh qilibdi husn nimasi:  
Kelishgan ko'krakmi, xushbichim qomat?  
Yo shahlo ko'zlarimi? Lekin goho biz  
Bularning hech birin husn demaymiz.  
So'z bilmas lablarni mumkinmas sevmak;  
Otashsiz nigoh u — hidsiz bir chechak!

Ajib o'xshashlik. Barkamol inson tushunchasi tamom boshqa muhit va davrda yashagan ikki buyuk shoirda deyarli bir xil talqin qilinyapti. Ikkinci tomondan esa bunga ajablanmaslik kerak, chunki umuminsoniy g'oyalar davr va muhit bilan cheklanib qolmaydi. Tabiiyki, so'z hali o'zligicha hech narsa anglatmaydi. U muhim va kerakli ma'noni anglatgandagina ma'lum ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir adiblar masalaning bu jihatini hech qachon diqqatdan chetda qoldirmaganlar. Hatto so'z ta'rifi haqida gap yuritganlarida ham uning muayyan yaxshi hamda foydali mazmun anglatishini ko'zda tutganlar.

<sup>1</sup>A. Navoiy. Xamsa. O'zFA nashriyoti, T., 1960, 33-bet.

Avloniy ham so'zning inson qadr-qimmatini belgilash-dagi roliga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho berdi. So'zning ma'nosiga alohida diqqat qildi. Til va so'z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi: «...so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsata-durgon tarozudir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar...»

«Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lib, o'ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgon bo'lmasa, asalarilar orasida g'o'ng'illab yurgan qovoqari kabi quruq g'o'ng'illamoq, faqat bosh og'rig'idan boshqa bir narsa emasdir. Boshimizga keladurgon qattiq kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun «ko'p o'yla, oz so'yла» demishlar».

Insonni bezaydigan sifatlar ko'p. Chinakam inson yalqovlik va dangasalikni o'ziga nomus deb biladi. Yoshligidan ilm-ma'rifikatga, hunar va san'atga mehr qo'yadi. Mehnatning aybi yo'q. Qora ishchi bilan olimning zahmati ko'rinishdagina har xil. Ularning ikkisi ham mehnat. Mehnat bilan kun kechirish esa buyuk saodat. Aksincha «... bu – ko'mirchilik, bu – temirchilik – menga munosib ish emas deb dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdur...»

Inson moddiy ne'matlarni yaratishdan tashqari, ularning qadriga ham yeta bilmog'i darkor. Bular o'zaro juda yaqin, biri ikkinchisidan kelib chiqadigan tushunchalardir. Kimki bir parcha nonni mehnat bilan topsa, uning qadriga ham yetadi. Avloniy ularning hammasini iqtisod mafsumi bilan beradi. Uningcha, «iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakni aytilar. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas. Saxovatning ziddi baxillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrofdir...»

Chopar hayotini tahlikaga qo'yib, tog'-u toshlar, qir va cho'llar oshadi. Xabarni yetkazadi. Chopar olib kelgan xabar, ehtimol, mudhish bo'lishi mumkin. Shunda ham aql egalari uni o'ldirmaydilar. Chunki u haqiqatni yetkazadi. Avloniy «Haqqoniyat» deb atalgan bobda yuqoridagi misolni ibrat qilib keltirdi. Rostlik va to'g'riso'zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri deb bildi.

**«Haqqoniyat** deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikni aytilar. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onosi haqqoniyatdir...»

Bu nuqta jadidlarimizning dunyoqarashini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ismoilbek Gasprinskiy 1885-yilda e'lon qilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» («Ovrupo madaniyatiga bir betarafona qarash») risolasida u haqda fikr yuritib, «Agar insonlarning ko'rajak so'nggi yashash tarzi va so'nggi madaniyati bu bo'lsa, insoniyat nihoyatda tole'siz ekan», — deb yozadi. Uningcha Ovrupoda hamma narsa bor, faqat haqqoniyat yo'q. Bu madaniyat qadim Rim madaniyati asosiga qurilgan. U axloqan nomukammalligi uchun barbod bo'ldi. Uning o'rniga kapitalistik madaniyat keldi. Uni farzandlari sotsialistlar rad etdilar. Sotsialistik adolatsizlik esa hammasidan oshib tushdi. Nega? Ovrupo madaniyatining eng katta aybi unda haqqoniyat yo'qligidir. Haqqoniyat esa, Avloniy ta'kidlaganidek, «ishda to'g'rilik, so'zda rostlikdir».

Gasprinskiy yozgan edi:

«Ovrupo bir keksa choldir, tajribasi ko'pdir. Ulug' yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasidan o'rganamiz, lekin xatolarini takrorlamaymiz. Maktabalarini, universitetlarini bizlar ham quramiz. Ammo aqllarimizni qancha yoritsak, yuraklarimizni shuncha «haqqoniyat» bilan to'ldirmoqqa harakat qilamiz. Ovrupoda nimani ko'rsak, yosh boladek ko'tarib chopmaymiz. Esli-hushli insonlardek «Bu nimadir?», «Oqibati nima bo'ladi?», «Vijdon va haqqoniyat uyg'unmi?» deya aql tarozisiga tortib olamiz. Ovrupo madaniyati mulohazasiz qabul qilinaverishi mumkin bo'lgan bir narsa bo'lsa edi, bu madaniyatga Ovruponing o'z vorisi dushman bo'lmas edi.

Yana bir takrorlayman: yangi fanlarini, kashfiyotlarini va ijodlarini, foydali xizmatlarini inkor etmayman. Lekin islom olamining islohot va taraqqiyotga ehtiyoji bo'lgan bir paytda hech bir mulohaza qilib ko'rmasdan Ovrupoga taqlid etishni aqldan hisoblamayman».

Afsuski, jadidlarimizning ko'pchiligi, ayniqsa, ilk bosqichda, masalaning mana shu jihatlarini kamroq o'yладilar.

**Hayo, iffat** o'ylab chiqarilgan tushunchalar emas. U asrlar bo'yni inson tushunchasi bilan birligida shakllangan. Inson odobini hayo va iffatsiz tasavvur qilish qiyin. Avloniy hayo deganda «ishda, so'zda adabni rioya qilmoq»ni tushunadi, uni insoniylikning muhim belgisi deb biladi.

Hamma narsaning ma'lum bir me'yori bor, albatta. Insoniy viqorni suiiste'mol qilish kishini takabburlikka olib kelib qo'yadi. Haddan oshgan yumshoq ko'ngillik – halimlik kishini xor qiladi. Kamtarlik esa xoksorlikka eltadi. Bu yerda ham shakl va mazmun mutanosibligining temir qonuni o'ziga xos holda namoyon bo'ladi. Chinakam insonlik viqori kishida olimlik, fozillik va yuksak odob jamlangandagina namoyon bo'ladi. Ikkinchini tomondan esa, har bir xulqdagi me'yorni his qilish, o'z fe'l-atvori, xatti-harakatining insoniyat qonunlariga monand bo'lishiga erishishning o'zi yuksak axloq va fozillik belgisidir.

Avloniy xulq haqida umuman gapirib qo'ya qolmay, unga konkret yondashishga harakat qiladi. Adibning diqqat marказида hamisha umuminsoniylik mezoni turadi. Bu mezon islomiy axloqqa suyanadi va u kishilarni shu paytga qadar ota-bobolarimiz tarbiyasiga xizmat qilib kelgan turmush qoidalari bilan bog'laydi.

Shunday tushunchalar bor, ularning nomini eshitgанингиздагоq borlig'ингизни iliq va yoqimli hislar chulg'ab oladi. Agar ular bo'lмаганда hayat zulmatdan, tirikchilik vahshiyona kun o'tkazmoqdan iborat bo'lib qolardi. Muhabbat, sadoqat, xayrixohlik, oliyjanoblik kabilar hayatga nur, umrga mazmun baxsh etadi. Insonning sharafli mavqeyida bularning o'rni alohida.

**Muhabbatning qamrovi keng.** Vatanga muhabbat, xalqqa muhabbat, do'stga muhabbat, yorga muhabbat... Lekin uning mazmunida bir narsa juda aniq. Muhabbat kimgadir, nimagadir chanqoq bir intilish. Uni o'zining jon-tani deb bilish, butun borlig'ini unga baxshida etish tuyg'usi bilan yonish. Uni baxtiyor va shodon ko'rmoqqa, baxtiyor va shodon etmoqqa bo'lgan buyuk ishtiyoq. Uning qudrati betimsol. U mo'jizalar yaratishga qodir. U sahroni bo'stonga aylantira oladi. Toshdan gul undiradi. Avloniy «Muhabbat» deb nomlangan bobni shunday satrlar bilan boshlaydi:

«Muhabbat deb bir narsani suymakni aytilar. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat soyasinda yasharlar. Har bir ishni muhabbat orqasidan ishlarlar. Muhabbatsiz kishilar hech bir ishni ishlamakg'a g'ayrat va jasorat qilolmas, dunyo ne'matidan lazzat ololmas. Agar bir shogird ilm va muallimni suymasa, ishtaho ila o'qumasa, maqsudga yetolmas. Yer yuzidagi insonlarni urushma-taloshmalarga qovushdurg'on, siynalarini dushman o'qig'a nishona qildurgon narsa din va millatlarining vatan va davlatlarining muhabbatidur. Kishini(ng) kecha va kunduz tindurmasdan qul kabi mehnat va mashaqqatlariga ko'krak berub ishlatadurgon narsa vatan va bola-chaqalarining mehr-u muhabbati emasmi?»

Kishilarni yaxshilikka undash, yomonlikdan qaytarish, dunyodagi barcha insonlarga ezgulik istagi bilan yashash chinakam olijanoblikdir. Odamlar umr bo'yi bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar. O'zaro yordamga, hamkorlikka hojat sezadilar. Shunday ekan, xayriyohlik, olijanoblik insonlar hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Kishilar fe'l-atvorlariga, orzu-intilishlariga ko'ra bir-birlariga yaqinlashadilar yoxud uzoqlashadilar. Yaxshilik do'stlikni vujudga keltiradi. Agar bu do'stlik maslak va manfaatlar birligi asosiga qurilsa, benihoya mustahkam va samarali bo'ladi. Umrni xush va mazmunli o'tkazish uchun bunday do'stlik juda kerak.

«**Munislik** deb har kim o'z tengi, maslakdoshini topub, ulfat bo'lmakni aytilar. Dunyoning lazzati sodiq do'stlar ila suhbat qilmakdan iborat», – deb yozadi Avloniy.

Do'stlik deyilganda hamisha sadoqat ko'zda tutiladi. Negaki, bu tushunchalar bir-biriga benihoya yaqin. Adib sadoqatni shunday ta'riflaydi:

«Sadoqat bir fayzi ma'naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidur...»

Endi bundan besh yil ilgari yozilgan ulug' Navoiyning «Hayrat ul-abror»idagi satrlarni eslaylik:

Har kishiga yetsa falakdin g'ame,  
Bo'lmasa hamdardi aning hamdamni.

Roz labin tikkon ipin so'kmasa,  
Har neki ko'nglida erur to'kmasa.

Dard yoqib shu'layi nobudini,  
Charxdin o'tkargay aning dudini.

Tig'i balo ko'ksini chok aylagay,  
Dard oni bir damda halok aylagay...

Bas, kishiga umr xushi yor emish,  
Umr degan yori vafodor emish'.

Demak, do'stlik birinchi navbatda hamdardlik, hamkorlik, hamdastlik. Do'stlik o'z vafosi, sadoqati bilan mustahkam. Navoiy buni hayratomuz tamsillar bilan bergen edi. Masalan, vafosiz yor – ziyosiz sham; ziyosiz sham – muz sumalak kabi.

Inson uchun yolg'izlik eng og'ir jazo. So'qqabosh hech qachon baxtiyor bo'lgan emas Bir qo'ldan axir qachon sado chiqqan? Yolg'iz kishining hayoti g'amdangina iborat. Toq kishining maishat uyi vayron – butun bir uyni yagona ustun ko'tarib turganini kim ko'rgan? Burgutning bir qanoti sinsa, qancha tez uchmasin, hayoti lahzadan oshmaydi. Buyuk mutafakkir mana shunday qiyoslarda do'stlikning hayotiy asoslarini aniq va tiniq detallar bilan ko'rsatib bergen edi.

Abdulla Avloniyning axloqiy qarashlari mumtoz adabiyotimizning boy zaminida shakllandi. Uning do'stlik va sadoqat haqidagi fikrlari adabiyotimizdagи axloqiy qarashlarning tadrijiy davomi edi.

Do'stlik va unga sadoqat tahsin va taqdir qilishga loyiq oliy ishdir. Lekin do'stlik degani hamisha ham bezavol, sadoqati hamroh tushunchami? U holda xiyonat, soxta do'st degan gaplar qayoqdan paydo bo'ldi? Nega birgina «do'st», «yor» so'zları bilan cheklanmasdan, «sodiq yor», «sodiq do'st» deb ta'kidlab aytamiz? Shubhasizki, ezbilik va razilik hamisha hamroh bo'lganidek, sadoqat bor ekan, xiyonat ham bo'lgan. Va bu gap badiiy ijodda do'stlik haqidagi fikrlarning tamal toshlaridan bo'lib kelgan. Aks holda hazrati Navoiyning:

Har kishikim, qo'ydum ayog'iga bosh,  
Jola kibi boshima yog'durdi tosh, —

kabi mashhur satrlari yaralmagan bo'lardi.

---

<sup>1</sup> A. Navoiy. Xamsa. O'zFA nashriyoti, T., 1960, 81-bet.

Tabiiyki, masalaning bu tomoni ham Avloniy diqqatidan chetda qolgan emas. U bolalarni o'zaro do'st, hamkor va hamdast bo'lishga chorlar ekan, dunyoda xiyonat va soxtalik degan gaplar ham borligini ma'lum qiladi. Ular-dan hazar etishni tayinlaydi.

«Ilmi axloq yuzasidan chin do'st va yori sodiq ila ulfat qilmak lozimdir. Chunki ba'zi kasallarning yuqishi bo'lgoniga o'xshash nodon va ahmoq kishilarning urf-u odatlari va yomon xulqlarining ta'siri, siroyati yuqishi muqarrardur. Ba'zi do'st suratida ko'rinnish ikkiyuzlama, munofiq dushmanlar ham ko'p bo'lurlar. Shuning uchun har bir kishiga sinamasdan, bilmasdan do'stlik qilmak, sir aytmak zo'r aqlsizlikdur. Chin do'st bo'lgan kishi boshingga kulfat va qayg'u kelgan vaqtlarida san bilan barobar qayg'urur, xotirangdag'i qayg'uni bo'lishub olur. Siringni noahil va nodon kishilarga aytmas, aybingni orqangandan so'zlamasdan yuzingga aytur. Shodlik vaqtingda san bilan barobar shodlanur. Yolg'on do'st sandan bir foyda umidida yoki o'z boshiga kelgan zararni qaytarmak uchun munofiqona do'stlik qilur. Siringni noahil kishilarga so'zlab, qadr-u e'tiboringni poymol qilur. Bunday kishilarga do'st bo'lmakdin do'stsiz (o'tmoq) yaxshiroqdir».

«Turkiy guliston...»da «Yomon xulqlar» deb nomlangan bo'lim bor. Unda kishilarga xos 18 qusur haqida gap ketadi. Bularning hammasini jamlaydigan bo'lsak, asosan bir narsaga – **jaholatga** kelib bog'lanadi. Muallif nazdida ularning aksariyati uchun xos bo'lgan xususiyat johillikdir. Shu boisdan adib tanqid tig'ini asosan jaholatga qaratadi. Uni insoniyat uchun eng katta illat deb biladi. G'azab, sha-qovat, buzuqlik – safohat, hamoqat, yalqovlik – atolat, xasislik – xasosat, tanparvarlik – raxovat, takabburlik – anoniyyat, chaqimchilik – namimat, g'iybat, qo'rkoqlik – jibonat, hasad, yolg'onchilik – kizb, nifoq, tama' kabilalar ko'pincha shundan kelib chiqadi.

Jaholat, sodda qilib aytganda, ilmsizlik, nodonlikdir. Unday kishi fikrlashdan, mushohadadan mahrum bo'ladi. U moddiy qanchalik boy, sarvatdor bo'lmasin, ma'naviy shunchalik tuban va qashshoq. Muhtojlik – musibat, biroq johillik musibati undan dahshatliroqdir. Avloniy jaholatni

qoralar ekan, u haqda aytilgan ko'pgina ma'lum va mashhur fikrlarni misol qilib keltiradi:

«Suqrrot hakim: «Dunyoda eng hazar qilinadurgan illat jahldur. Men johilga achinganimdek ko'rqa achinmayman, zeroki johilning o'z ixtiyori ila qilg'on harakati a'moning ixtiyorsiz qilg'on harakatidan mening nazarimda xunuk», — demish.

Aflatun hakim: «Johilning yaxshi niyati fozilning xusumatidan zararliroqdur. Inson eng yuqishlik bir kasaldan saqlangan kabi johildan hazar qilmak lozimdir», — demish.

Adib bu fikrlarning ma'nosini chaqishga, undan xulosa chiqarishga avlodlarni «jaholat va nodonlik balolaridan qutqarmoq uchun «jon boricha», «kuch yetkuncha» «cholishmoq»qa chorlaydi: Jaholatning ham ikki turi bor, — deydi muallif. — Biri — jahli basit, ikkinchisi — jahli murakkab. Birinchisi u qadar dahshatli emas. Ular bir narsani bilmasalar, bilmasliklarini e'tirof qiladilar. Uning davosi u qadar qiyin emas: bilish va o'rganishga astoydil qunt qilinsa, masala hal bo'ladi. Ikkinchisi — yomon. Ular bir narsani bilmaydilar va bunga iqror ham bo'lmaydilar. Ularni xalq «o'zi bilarmon» deb ataydi. Hamoqat xuddi shuning bir ko'rinishi. U aql va ma'rifat kamligidan hosil bo'ladigan eng yomon xulqlardan. U jaholatdan yomonroq. Chunki johilda bиргина nodonlik bor. Ahmoqda esa necha aqllini aldaydigan yolg'on-yashiq so'zlar bor. Ularni hech bir ishda na aqliy, na naqliy dalillar bilan ko'ndirib bo'lmaydi. Darhaqiqat, davosi mushkul bo'lgan illatdir!

Lekin davosiz dard yo'q. Uning yagona darmoni aql va fikr. Inson o'zini qo'lga olib, nafsiyi jilovlab yon-atrofiga ibrat nazari bilan boqsa, sa'y-g'ayrat qilsa, undan xalos bo'la oladi. Avloniy mana shunday optimistik xulosaga keladi.

**G'azab** insondagi tabiiy tuyg'u, «maxsus bir quvvayi mudofaa». U shu orqali o'z nomusini chetdan keladigan zarar va halokatdan saqlaydi. Lekin uni jabr va zulm tariqi-da ishlatmoqdan ehtiyoj bo'lish lozim. Nafs g'ururidan paydo bo'ladigan bu hol insonni alamlı azoblarga giriftor qilishi mumkinki, u xuddi shu nuqtada jaholat timsoliga aylanadi.

Adib g'azabni fiziologik-psixologik asoslarda ko'rsatib berishga harakat qiladi: «... shiddat va haroratning ta'siri

vujuddagi qonni buzib, harakat qildurib, dimog'iga hujum qilub, aqlni parishon qilur-da, kishini(ng) ixtiyorini qo'l-dan olur. Bu soyada o'zini yoxud boshqa bir kishini hasrat va nadomatga duchor qilur».

Avloniy har bir holatda ham oqilona ish tutishga chaqiradi.

**Dangasalik, yalqovlik** — kishilar baxtini shikastlovchi katta ofat. Baxt uchun esa kurashmoq, g'ayrat va shijoat bilan «cholishmoq» kerak. Tabiiyki, harakat va mehnatning samarasi birdaniga ko'rinish qo'ya qolmaydi. Lekin inson sa'y-harakatda, sabot va matonatda zavq-shavq bilan davom etmoqdan bir dam bo'lsin chekinmasligi lozim. Ular, albatta, samara ko'rsatadi. Axir daraxt ham to'rt-besh yillik mehnatdan so'nggina hosilga kiradi-ku! Shogird-chi? Savodini chiqarish, ilmini ma'lum joyga yetkazish va ma'naviy saodat faqat g'ayratli va mehnatkash kishigagina nasib etadi. Ibn Sino aytganidek, g'ayratsiz kishi tirik o'likdir. O'liklar esa tiriklar orasida emas, tuproq orasidadir. Ha, Belinskiy aymoqchi, «Yashamoq falon yil yeb-ichmoq, mansab va pul uchun solishmoq, bo'sh vaqtarda esa, mudrab pashsha qo'rimoq va qartavozlik qilmoqdan iborat emas. Bunday hayot har qanday o'limdan ham yomon, bunday odam esa har qanday hayvondan ham tubandir... Yashamoq bu his etmoq va fikrlamoq, iztirob chekmoq va rohat qilmoqdir. Bulardan boshqa har qanday hayot o'limdir. Bizning tuyg'u va tafakkurimiz qanchalik katta mazmunni qamrab olsa, iztirob va rohatlanish qobiliyatimiz qanchalik kuchli va teran bo'lsa, demakki, biz shu qadar ko'p yasha-yapmiz. Bunday hayotning lahzasi mayda-chuyda ishlaru ikki pullik maqsadlar bilan ruhsiz mudrab o'tkazilgan yuz yildan ahamiyatiroqdir»<sup>1</sup>.

Kitobdag'i dangasalik va yalqovlikni qoralovchi «Atolat» va «Raxovat» boblarida umrni ana shunday mazmunli qilishga intilish kerakligi haqida gap ketadi.

Xasislikni hech kim alqab tilga olgan emas. Xalq og'za-ki ijodida bu haqdagi hajviyalar son-sanoqsiz. Yozma ada-biyotda ham ular istagancha topiladi. Firdavsiyning buyuk

<sup>1</sup>V. G. Belinskiy. Adabiy orzular. G'afur G'ulom nashriyoti, T., 1977, 97-bet.

«Shohnoma»sida Berahm nomli bir personaj bor. U mehmonni uyg'a kiritmaydi. Kiritganda ham — bu dunyoning ishlari shunaqa, birov ovqat yeydi, ikkinchisi esa uni tomosha qiladi, — deydi-da, ochlikdan zo'rg'a turgan mehmon oldida ovqatlanishga tushib ketadi. U mehmon esa shoh Bahrom edi. Shundan Muqimiyning ziqna gumashtasiga qadar qanchadan qancha ularning salbiy timsollari yaratildi. Saxiylik va baxillik muqoyasasi adabiyotning doimiy masalalaridan biri bo'slib qoldi. Mana shu an'analar ruhida tarbiya topgan Avloniy xasislikni juda sodda, aniq ifoda va detallar yordamida o'quvchiga yetkazishga urindi.

Ipak qurtining taqdirini ko'z oldingizga keltiring. U pilla ichida o'ralib, hayotini mahv etadi. Qanchalar mashaqqat bilan hosil bo'lgan ipak boshqalarga nasib etadi. Umrini mol-dunyo hirsini bilan o'tkazgan insonlar taqdiri ham xuddi shunday, deydi adib.

Shunday bir illat bor, temirdagi zangga o'xshaydi. Zang temirni yeb ishdan chiqarganidek, u ham qalbni iztirobga soladi, so'ng barbod etadi. Bu adovatdir. Bu daraxtdan fagat xusumat mevalari yetishadi. Oqil insonlar uni vaqtida kesib tashlab, mehr, do'stlik novdalarini ulaydilar va undan muhabbat, ulfat mevasini olishga muvaffaq bo'ladilar. Avloniy kishining nafsoniyati bilan bog'liq holda maydonga keladigan adovatni shunday tushuntirgan va undan hazar qilishga chaqirgan edi.

Muallif namimat — chaqimchilik, g'iypat, hasad, kizb — yolg'onchilik, nifoq — ikkiyuzlamalik haqida alohida-alohida to'xtaladi va ularning insonlar hayotidagi zararini atroficha ko'rsatib berishga harakat qiladi.

G'iypatchi va chaqimchi kishilarni Avloniy buzoqboshiga o'xshatadi. Buzoqboshi daraxt ildizini kemirib quritgan kabi chaqimchi va g'iypatchilar ham kishilar o'rtasidagi mehr-muhabbatni yemiradilar. Donishmandlardan biri aytganidek, «mol va ashyo o'g'rilaridan ko'ra ko'proq odamlar orasidan do'stlik, ulfat, muhabbatni o'g'irlaydigan odamlardan saqlanmoq lozim».

Avloniy **g'iypatchilik** va uning oqibatini shunday tahlil etadi: «Inson boshqa gunohlarni(ng) nafsning lazzati uchun qiladur. Ammo g'iypat sohibi lazzat o'rniga o'z boshiga yoki bir boshqa kishining boshiga bir balo hozirlaydur. Chunki

so'z borub, g'iybat qilinmisht kishining qulog'iga yetar. G'azab qoni harakatga kirar. G'iybatchidan o'ch olmak fursatini poylar. Shunday qilub, g'iybat soyasida ikki musulmon orosiga zo'r dushmanlik tushar. Oxiri o'lumgacha borub tiralur. Shul tariqa g'iybatdan tug'ulgan adovat cho'zulmoqg'a oid bo'lub, dushmanlik zo'rayub, o'z orolaridagi xususiy janjallar ila aziz umrlarini o'zdirub, umumiy xalq foydasi uchun ishalanadurg'on milliy ishlaridan mahrum bo'lmaklari ila barobar aholining orosidan ittifoqning yo'qoluviga sabab bo'lurlar».

Axloq ilmining allomalari **hasad** haqida g'oyat diqqatga sazovor fikrlar bildirganlar. Avloniy shulardan xarkerlilarini to'plab, kitobida keltiradi, izohlaydi. Hasad va uning zararini ko'rsatishda ulardan unumli foydalanadi. Jumladan, ularning biri hasadni otashga o'xshatgan ekan: «Otash o'zidan o'zi yonub kul bo'lgoni kabi husudlarining jasadi hasad o'ti ila erub mahv va barbod bo'lur».

Suqrtdan esa quyidagi gap keltiriladi: «Hasadchi kishi bir on va bir zamon rohat va farog'at yuzini ko'rmas. Dunyoda qancha mehnat va musibat bo'lsa, barchasi ul bechorani o'rab olmishdur».

Arastuning fikri ham juda ibratli: «Dunyoda hammadan hosidning yuki og'irdur, chunki ul bechora butun dunyodagi shod va masrur odamlarning qayg'ularini o'z ustiga yuklab yuriydi».

Asarning shirali tili, keltirilgan xilma-xil maqol-hikmatlar, ravon, ta'sirchan uslub uni o'sha davrdagi ko'pgina ta'limiy-axloqiy asarlardan ajratib turadi. U, aytish mumkinki, o'ziga xos badiiy asar hamdir. Avloniy dorini asalga qo'shib bemorga yegizgan tabibga o'xshaydi. O'zining axloq va ta'lim, borliq va jamiyat haqidagi qimmatli fikrlarini o'quvchiga nafis va go'zal libosda taqdim qiladi. Ba'zan hayratomuz obrazli iboralar, chiroyli lirik, epik parchalar keltirib, kitobxonga estetik zavq ham yetkazadi. Undagi ibratli, mazmundor, ayni paytda ixcham hikoyalari kitobxonning xotirasida uzoq saqlanib qoladi. Bu yerda biz shulardan faqat bittasini keltirish bilan cheklanamiz. Bu «Nazari ibrat» bobidagi «Luqmon va ko'r» hikoyasidir. Mana o'sha hikoya: «Bir ko'r-hazrati Luqmonning oldilariga kelub, agar ko'zimni ochsangiz, man sizga qul bo'lurman,

demish. Hakim ko'rni(ng) ma'rifat sohibi ekanin bilub, «Jonim, ko'zingni pardasini ochmoq mumkin, lekin nazarli ibratni ochmoq qo'limdan kelmaydur», — demishlar. Ko'r: «Yo, Luqmon! Sizning shuhratingiz faqat parda ochmoqdan iborat bo'lsa, sizni hakim demay, tabib demak lozim ekan», — deb hazrati Luqmonning ibrat ko'zini ochmishduri.

Sharq adabiyotida axloq va odob favqulodda katta o'rin egallaydi. «Adabiyot» mashumining o'zi ham odob so'ziga borib taqalishi bejiz emas. Sharqda bu mavzuga to'qinmagan she'r ahlini topish qiyin. Yozma adabiyotimizning birinchi yirik namunasi «Qutadg'u bilig» o'rta asrning axloq qomusi edi. Alisher Navoiyning bu masalaga qanchalar e'tibor bergenligi hammaga ma'lum. Sharqda axloq ilmining buyuk allomalari yetishib chiqdilar. Sa'diy Sheroziy shunday buyuk rutbaga musharraf bo'lganlardan edi. U o'zining «Guliston» va «Bo'ston» asarlari bilan badiiy ijodda yangi bir yo'l ochib berdi...

Avloniy o'z asarini yaratishda Shayx Sa'diy izidan bordi. Kitobning «Turkiy Guliston yoxud axloq» deb nomlanganligi bejiz emas. Avloniy buni kitobning 1917-yilgi ikkinchi nashriga yozgan so'ng so'zida alohida ta'kidlab ko'rsatadi. U shunday yozadi: «Turkiston mакtablarida o'z shevamizda yozilmish mukammal «Axloq» kitobining yo'qligi afrodi shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig'i, o'zum muallimlar jumlasidan o'ldug'imdan, manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulinda yozmanki, garchi og'ir ish bo'lsa ham o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni orodin ko'tarmakni munosib ko'rdim».

Adabiyotshunoslar haqli e'tirof etganlaridek, eski o'zbek maktablarida asosiy darsliklardan biri sifatida o'qitilib kelgan «Guliston» fors klassikasining eng ko'rakam, eng «barjastasi» edi. Unga ergashib yozilgan asarlar ko'p bo'ldi. Abdurahmon Jomiyning mashhur «Bahoriston»i, Mo'yniddin Jo'vayniy va Ibn Kamolposhshoning «Nigoriston», Majididdin Xavofiyning «Xoriston» asarlari shu yo'lda yozilgan edi. «Turkiy Guliston» ham mana shu buyuk obidaga o'ziga xos

nazira, o'ziga xos javob, shogirdning ustozga ta'zimi edi. Avloniy ustozdan birgina «usul»ni olmadi, uning yuksak insonparvarlik ruhi bilan to'liq she'riyatidan ham oziq oldi. Ularning ayrimlarini tarjima qilib asariga kiritdi.

Sa'diy bilan Avloniy davrini 600 yildan ortiqroq vaqt ajratib turadi. O'rta asrning buyuk gumanisti bilan XX asr nafasidan bahra olgan Avloniyning qarashlarida, tuyg'ularida anchagini farq bor, albatta.

Avloniy axloq to'g'risida «Guliston»ga o'xshash bir asar yozar ekan, shu bahonada zamonasining muhim, dardli masalalarini ham asarga g'oyat ustalik bilan singdirib keta oldi. Bular huquqsizlik, mustamlakachilik asoratlari bilan bog'liq tutqunlik va turg'unlik edi. Din-diyonatning, millat-milliyatning buzilishi edi. Adibni xalqning nochor, g'arib turmushi chuqur o'yga soladi:

Har kun o'luram shomgacha man g'amga girifstor,  
Har shab yonuram otasha parvona kabi zor.  
Hech kimsa emas bu mani ahvolima voqif,  
Man xastayam-u millatim o'lmish nega bemor?

Asarning ilk sahifasida keltirilgan bu to'rtlik unga bemaolol epigraf bo'la oladi. Shoир har bir axloqiy tushunchani talqin qilar ekan, uni bevosita o'z davri masalalari bilan bog'laydi va kitobga o'sha zamon nafasini olib kirishga muvaffaq bo'ladi. Masalan, asarda «Tarbiyaning zamoni» degan qism bor. Unda tarbiyaning uyda, so'ngroq maktab-madrasada olib borilishi haqida gap ketarkan, bunday ishga imkonsiz xalqning og'ir moddiy tirikchiligi achinish bilan qayd qilingan. «Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qimagan, «usuli ta'lim» ko'rmagan muallimlar», «matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtihon, isloh yaqinidan yurmag'an muddarislar» o'tkir hajv ostiga olinadi. Yoki «Tama» bobida zamonasida «tama' noni birla qorin to'yg'uzadurgon kishilarning hisobi yo'q»ligini oshkor etadi. Yana bir o'rinda esa mustamlaka Turkistonidagi erksizlik, chorizm tazyiqi, mehnatkashning mashaqqatli tirikchiligi haqida so'z ochadi: «Biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berub sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz».

Avloniy adolatni, har bir millatning ozod va baxtli bo'lish huquqini dunyoning asosi deb bildi, birovga «jabr qiluvchining yoqasi hech qachon jazo qo'lidan qutula olmas»ligini aytди. Zulmni qoralar ekan, «Mazlumning ohidan o'tkur narsa yo'q:

Hazar qil ohidan, afg'onidan u mazlumi(ng)  
Bir oh birla solur boshinga butun arosat», —

deya, «quvvatsizlar» g'amini ko'tarib chiqdi.

«Turkiy Guliston...» asrimiz boshlaridagi pedagogik fikr taraqqiyotidagina emas, balki umuman bu davr ijtimoiy-estetik tafakkur rivojida ham sezilarli iz qoldirdi. Uning bu yerda boshlab qo'yan juda ko'p fikrlari she'riyatida davom etdi.

### **Ma'rifatparvar shoir**

Avloniying muallimlik faoliyati, ta'lim-tarbiya fikrlari jadidchilikning muhim bir qanoti amaliy ma'rifatchilikning yo'nalish va xususiyatlarini belgilashga yordam bersa, she'riyati XX asr o'zbek milliy she'rinning maydonga kelishi va tarixiy takomilini tayin etishda qimmatli materiallar beradi.

Avloniy «1894-yildan boshlab she'r yozishga tutungan» bo'lsa-da, u she'rlar bizgacha yetib kelmagan. Uning Oktabr inqilobigacha bo'lgan poetik merosi, asosan, «Adabiyot» nomli 6 qismdan iborat she'riy to'plamlarida jamlangan. Ularning har biri 1909—1917-yillar oralig'ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan. Shuningdek, o'sha davr vaqtli matbuoti sahifalarida ham shoir she'rlarini ko'plab uchratamiz. Bu she'rlarning deyarli hammasi mazkur to'plamlarga kiritilgan. Aksariyati shoirning 1905-yildan keyingi ijodiga mansub bo'lib, milliy-ijtimoiy xarakterdadir. Buning sababi shundaki, 1905-yildan keyin she'riyatning o'z masalalari paydo bo'ldi. Vatan va millat dardini anglashga urinish sezila boshladi. Avloniyda shunday shiornamo satrlarga duch kelamiz:

Ayo ey sohibi urfon! Vatan bog'inda faryod et,  
Otib tashla arodin eski odatlarni, barbod et.

Maorif-la funun tahsilina qil rahnamolig' san,  
Qorong'uda qolan millatni nuri ilma irshod et.

Vatan mehri agar bo'lsa – dilingda ishq savdosi,  
Otil nuri maorifga o'zingni misti Farhod et!.. –

deb maorifga muhabbat e'lon qiladi.

Toshkentlik adib Mirmuhsin Shermuhamedovda esa quyidagi misralarni uchratamiz:

Ey go'zal mahbub – fan, qilma yuzing bizdan nihon,  
Barchamiz oshiqlig'imiz sanga e'lon ayladuk<sup>1</sup>.

Millatning ravnaqi emas, yashashi uchunoq ilm kerak.  
Usiz hozirgi sharoitda tiriklik mumkin emas. Demak, uni egallash lozim. Bu muhim fikr an'anaviy ifodalanganmoqda.  
Ma'rifatga muhabbat e'lon qilinmoqda. Samarqandlik shoir Siddiqiy-Ajziy yozadi:

Pariro'lar parishon zulfitek xotir parishonam,  
Parishonam, nedan xotir parishonliq-la hayronam.

Nedan ovora dashti g'amda nolon kezdukim bilmam,  
Magar Majnuni Layloyi, nishoti bazmi urfonam.

Giriftori savod-u xattu xol-u safhai dardam,  
Asiri kulfat-u ranj-u balo-u dog'i xirmonam<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, ularning o'y-fikrini gul-bulbul tashbehi emas, mahbubasini ag'yor yo'ldan urgan oshiq kechin-malari ham emas, asr boshidagi aftodahol Turkistonning ayanchli qismati yildan yil emas, kundan kun ajdodlar xotirasini, o'zligini unutib, tarixdan uzilib borayotgan avlod band qildi. Ular huquqsiz xalq baxtli bo'la olmasligini angladilar. Xuddi shu sababli Siddiqiy-Ajziy o'zining «xushtab»lik bilan yozilgan ishqiy she'riyatidan voz kechdi, ularni kuydirib tashladi<sup>3</sup>. Avloniying 90-yillarda yozilgan, ehtimolki, ishqiy xarakterda bo'lgan she'rlarining bizgacha saqlanmay qolganligi sababi shundandir.

Bunday hol faqat bizning adabiyotimizda emas, balki boshqa xalqlar adabiyotida ham uchraydi. Masalan, Pana-mada mustaqillik uchun kurash avj olgan 60-yillarda Modesto Moxikoning:

<sup>1</sup> «Turkiston viloyatining gazeti», 1913, 98-bet.

<sup>2</sup> Siddiqiy. Ayn ul-adab. Samarqand, 1916, 21-bet.

<sup>3</sup> Qarang: **Tursunqul (Rahim Hoshim)**. Siddiqiy to'g'risida mulohazalar. «Maorif va o'qitg'uchi» j., 1928, 3-son.

Ortiq kuylamasman ishq-muhabbatni,  
Illohiy she'rlarga bormaydi qo'lim.  
Vatanda erk va baxt bo'lmagunicha,  
Ashuvlamiz bitta: Ozodlik yo o'lim!!

she'ri jangovar shiorga aylanib ketgan ekan.

Avloniy erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan, unga olib boradigan birdan bir yo'l deb ilm-ma'rifatni bildi. Shu sabab Vatani, xalqi uchun zarracha manfaat yetkazishni o'ylagan kishini ma'rifatga da'vat etdi. Ilm-fanni egallahsha ozgina bo'lsin xalaqit berishi mumkin bo'lgan har qanday tartiblar, shu jumladan eski o'qitish usuli keskin tanqid qilindi. Ilm-ma'rifat, ayniqsa, Yevropa madaniyati ilhom bilan targ'ib etildi.

Lekin bu yerda bir narsani hisobga olish kerak. Rusiya Turkistonni zabit etar ekan, o'zini o'lkaning pushti pano-hidek tutdi. U go'yo bu yerga ma'rifat, madaniyat olib kel-gandek edi. Yurtdagi jaholat, zulm, o'zaro janjal va nizolar ruslarning siyosiy hukmronliklarigagina emas, mahalliy xalqning ich-ichiga kirib, ma'naviyatini ham egallahshlariga yo'l ochdi. Mustamlaka hukumati davlat idora usulida, fan-madaniyatda keskin ilgari siljigan Rusiya va Yevropa hayotini ibrat – andoza qilib ko'rsatishga zo'r berdi. Bular, aksariyat, millatning o'tmishi va asriy an'analariga qarama-qarshi qo'yib borildi. Bularning hammasi millatni ichdan yemirish, o'zligini yo'qotish, pirovard oqibatda ruslashtirishga qaratilganini dastlabiga eng peshqadam ziyoililarimiz ham payqay olmadilar. Furqat ham bundan mustasno emas. Shularni ko'zda tutib, A. Z. Validiy yozadi: «Kosmopolitlarimizcha, o'lkaning kashf etilishi madaniyat uchun buyuk g'alabadir. Ularga ko'ra ruslarning ko'plab ko'chib kelishi natijasida Turkistonda madaniy taraqqiyot inkishofi ta'min etilgan mish. O'lkadagi qaysi qavmning va tilning o'rniga u kelyapti, bu ular uchun ahamiyatsiz. Insonlarning saodati millatlardan birining boshqalarini yutib yoxud at-rofida ushlab, bir andozaga solishi bilan amalga oshmaydi; ayniqsa O'rta Osiyo qavmlarining o'rtadan surilib, ular o'miga Rusiya va Xitoyning hukmron bo'lishi millionlarcha yerli aholining asrlarcha iztirob chekishlariga olib kelardiki, bu

<sup>1</sup> Песни Панамы. Изд. иностр. лит., М., 1963, 38-бет (tarjima biz-niki – B. Q.)

o'lka tarixining eng qora va eng baxtsiz sahifalarini tashkil etgan bo'lur edi»<sup>1</sup>.

Shuning uchun «Yevropa madaniyati» tushunchasi va unga munosabat ijodkorlarimizda bir xil emas. Buning mumtoz namunasini Ismoilbek Gasprinskiy 1885-yilda bostirgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» risolasida bergen edi. Fitrat esa 1920-yilda qahramoni tilidan shunday deydi: «Ovrupoda bilim bor, lekin insof yo'q. Ovruponing bilimi qoplonning tishi, tirnog'i kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib yemak to'g'risida ko'p ish ko'rmishdir... Ovrupo ishlarini o'rganmak, albatta, kerakdir. Ovrupoda o'qimoq ovrupolilarni insofli, adolatli deb maqtamoq uchun emas, ulardan o'zimizni saqlamoq, tishli, tirnoqli bo'lish uchun kerakdir».

Yana: «Men har narsani Ovrupodan o'rgandim. Ovruponing insofsizligini-da o'zindan o'rgandim. Men Ovruponing fazilatini inkor etmayam. Ovruponing buyuk fazilati kuchsizlarni aldab, qonlarini ichmakdir...»<sup>2</sup>

Avloniyda ham «madaniyat vahshiyilar» degan ibora bor. «Madaniyat» so'zining «vahshiylik» bilan yonma-yon qo'yiliishi ushbu masalaga yondashishda uning Fitrat bilan bir pozisiyada turganini ko'rsatadi. Bu, albatta, jahoniy hodisa bo'lgan ilg'or rus madaniyatidan voz kechish degani emas. Uni siyosiy maqsadlarga xizmat qildirilganini anglash, xolos.

Darhaqiqat, ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she'riyatida markaziy o'rinni egallaydi. Shoир ilm-fanning fazilatlarini zavq-u shavq bilan kuylaydi. «Maktab», «maorif», «ilm», «fan» kabi tushunchalar shoир she'rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko'tariladi, «jaholat» va «nodonlik» esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Ayollar ahvoli hamisha jamiyatdagи erkinlik darajasining mezonlaridan bo'lib kelgan. Bu masala Avloniyda qanday hal qilingan?

Ilm-u donish yaxshi ziynatdur xotin-qiz ahlina,  
Qo'y qadam ilm uyina. Tumor-u marjonnı unut.

<sup>1</sup> A. Z. Validiy To'g'on. Bugungi turk eli Turkiston va yaqin tarixi. 1-jild, 2-nashri, Istanbul, 1981, 586-bet.

<sup>2</sup> Abdurauf Fitrat. Chin sevish. T., 1996, 44–46-betlar.

Uning mактабида qизлар ham bolalar bilan yonma-yon o'tirib tahsil olадилар. «Turkiston viloyatining gazeti» 1910-yil sonlaridan birida o'sha yili 23-mayda Avloniy mактабида «bir necha ulamolar, shogirdlarning otalari» va ko'plab tomoshabinlar huzurida bo'lib o'tgan imtihon haqida to'xtalib, bir yosh shogird qizning o'z aqli va tarbiyasi bilan hammani hayratga solganini xabar qilgan edi<sup>1</sup>.

Ma'rifatning ahamiyati millat, jamiyat tarbiyasida bemisldir. Uni amalga oshirish asosan ziyolilar, birinchi navbatda, olim-u muallimlar, shoир-u san'atkorlar zimmersidadir. Agar millat haq-huquqini yo'qotgan, asriy ilm-u ma'rifatdan uzoqlashtirilgan, o'zligini unutayozgan bir holga tushib, jamiyat ma'naviyatidan mahrum darajaga yetgan bo'lса, ziyoli zimmasidagi ish o'n, balki yuz karra og'irroqdir.

Adabiyotning tasvir obyekti – hayot, uning dolzarb masalalari. Unda hayotning barcha qirralari – shiddatkor to'lqinlardan mayin mavjlarigacha, nurli ohanglaridan g'amgin nidolarigacha, tantanavor damlaridan fojiali daqiqalarigacha tasvir etilmog'i kerak. Ular inson ruhida qatradagi quyoshdek jamuljam. Adabiyot mana shu ruhning tarjimonи bo'lmoг'i lozim.

Avloniy «Adabiyot...» she'riy to'plamining 3-juziga:

Qalamim qorasidur ogoh dostonimdan,  
Hazin qayg'um eshititing u tarjumonimdan, –

degan satrlarni epigraf qilib keltirgan edi. Shoир o'z she'rlarining mazmuniga ishorat qilmoqda. Zamonki haqsizlik asosiga qurilgan, atrof zulmat va qabohattan iborat ekan, u shodon bo'la olmaydi. Buni u 1909-yildayoq «Adabiyot...»-ning 1-juzidagi so'z boshida ta'kidlab ko'rsatgan, «she'rga haris» xalqiga «hasrat va nadomatlar»ini aytishga bel bog'lagan, tasodifmaski, o'ziga «Hijron» taxallusini tanlagen edi.

Avloniy she'rlarini o'qir ekansiz, ko'z oldingizda XX asr boshidagi Turkiston manzaralari gavdalaniadi. Shoир unga yuksakdan, dunyo xalqlari hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, Yevropadagi taraqqiyot nuqtayi nazaridan razm soladi.

<sup>1</sup> «Turkiston viloyatining gazeti», 1910, 39-son.

Mana taraqqiyot asridagi Turkistonning rangsiz, jonsiz hayotidan lavhalar:

Samovarga chiqishub, yosh-u qari chuldirashur,  
Ertadan kechg'acha choyni ichadur sho'ldur-sho'ldur,  
O'lturib maqtashadur otini, eshaklarini,  
Biri der – yo'rg'a, biri der: – seniki – duldur-duldu.

Uyda och o'lturadur xotini – er to'kma yeyar,  
Kelturub bachcha, bazmlarga ketar puldur-puldur.  
O'ynabon qarta-qimor, pullarini boy beribon,  
Tom teshib, bo'xha o'g'irlab, odam o'ldur-o'ldur.

Yana:

Xulus niyat ila hech isha kirishmaymiz,  
Etishub bir amali, daf'atan havo qilamiz.  
Kimiki johil-u sharmanda, oni maqtaymiz,  
G'ubori maqdamini ko'zga to'tiyo qilamiz.  
Kimiki, manfaati xalq uchun qadam qo'ysa,  
Oning haqida tun-u kun(da) bad duo qilamiz.  
Agarda bir so'zimiz tashlasa, o'g'il-qizimiz,  
«Juvonmarg, yo'qol!» – deb oq-u qaro qilamiz.  
Zamonaga yorashur ilma bizda rag'bat yo'q,  
Funun o'rniq'a biz kayf ila safo qilamiz.

Bu lavhalardan asta-sekin Turkistonning yaxlit manzarasi hosil bo'ladi. Dilni dimiqtiruvchi bu so'lg'in rang qanchalik jirkanch bo'lsa, shuncha ayanchli hamdir. Bu tuyg'ular bora-bora shoirda juda tabiiy ehtiroslar po'rtanasiga aylanadi: «Xonumoni xarob», «boyqushlarga hamdam», farzandlari «haykal»dek jonsiz, «vayrona» Turkiston! Yo'q! «Sahni jonlik janzoa birlan to'lgon» «buyuk mazor!» Unga o'lik kimsalar – «madfun zindalar» qo'yilgan. Bu tirik o'liklar – Turkistonning bu kungi noqobil avlodlaridir. Uning ahvoliga yer ham, osmon ham yig'laydi. U ham faqir, ham haqir. Bir tarafdan jaholat, ikkinchi tomondan xorlik. Shu ahvolda u «badanidan doimo qon oldiradi» – mustamlakachilik jafosini tortadi:

Marizing bir tarafdan, bir tarafdan xorsan – millat,  
Badandan doimo qon oldurar bemorsan – millat.

U na «tili», na «qulog'i» bo'limgan surati devor. Bu mudhish hol shoirni larzaga soladi. Butun vujudi bilan uning «ko'z ochib» dunyoga razm solishini, «uyg'on»ishini istaydi:

Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son millat, o'son millat!  
Topar san birla avloding omon millat, omon millat! –

deb hayqiradi shoir.

Muhimi shundaki, shoirdagi milliy hasrat nidolari ijtimoiy ohang bilan hamovoz jaranglaydi. U bu «buyuk mazor»ning kimlargadir «bog'i jinon» – jannat gulshani ekanligini biladi. Ha, u hammaga ham birday «alamzor» emas. Uning «farog'ati» ham bor. Lekin uni «hukamo»gina ko'radi. Uning «g'unchalari» ham ko'p, biroq uni «hukamo»gina teradi. Ammo bizda qani o'sha «hukamo?» «Fuqaro»ning nasibasi esa gulning tikani («xor»)dir. Shu tufayli u oyoq ostida – «xoki mavallat»da. Bu «manzar» shoirga «mahshar» azobini beradi. Shoир унга har nazar tashlaganda, «bag'ri kabob» bo'ladi. Ammo u – Ona! Shoир унга farzandki, uning dardidan iztirobga tushadi. O'z navbatida ona ham o'z farzandining tarbiyasi va taqdiri uchun burchli:

Ey modarim, cho'juqlaring iflos, beziyo,  
Ostingdan usting o'ldi biza tar(i)qa fuqaro.  
Sandin umid shulmidi, jondan aziz ono?!  
Kundan kun aylading bizi hijrona mubtalo.  
Ey, shiri shafqati biza xunbor o'lan Vatan!  
Bormi jahonda sancha sitamgor o'lan Vatan!

Avloniy 1912-yilda bosilib chiqqan she'rларидан birini «Dunyo fojiasindan» deb nomlagan edi. Shoир unda insonlar dunyosida insoncha hayot yo'qligini qalamga oldi. Behuda to'kilayotgan qonlar, insonning hayvoncha ham qadri qolmagani, «bechora-yu ojizlar», «aftoda yetimlar» boshidagi «jabr-u sitamlar», «haq pastda qolub, nohaq pul birla quvvat top»ishi, uningcha, bu fojianing bir ko'rinishidir. Bas, u «g'am uyi»dir. G'amxona esa «barbod bo'l»mog'i lozim.

Avloniy hokimlar va tobe'lar – «kuchlilar» va «kuchsizlar» o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor berdi. Bu munosabatlarda inson nomiga munosib belgi topa olmadи. Aksincha, ular yirtqich hayvonlarning zo'ri ojizini mahv etish asosiga qurilgan kun kechirish tarzini esga tushiradi. Lekin yirtqich hayvon bilan «inson – darranda» orasida farq bor. Bu farq shundaki, «inson – darranda» so'zlaydigan, fikrlaydigan yirtqichdir. U insof va vijdondan lof uradi. Do'stlik, birodarlik

haqida soatlab va'z o'qiy oladi. Egnidan taqvo libosi tushmaydi. Bu birgina Turkistonga xos hol emas. U hamma yerda mavjud. Shoир bunday holni raqib millat ichida emas, millatlar orasida ham ko'radi. Masalan, mamlakatlar o'rtaсиda bo'lib turadigan urushlar shuning bir ko'rinishi, deb hisoblaydi. Biroq «Bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat va sanoatga aylandurdilar, — deb yozgan edi adib, — va bu soyada bir-birlariga g'alaba va raqobat qila boshladilar. Sehrgarlik va jodugarlik ila emas, tijorat va sanoatgirlik ila cholishqon Yovrupo, Afriqo va Osiyoni o'ziga asir va musaxxar qilmoqdadur». Zamonning rangi o'zgardi, xolos. Mohiyati o'sha-o'sha. «Kuchlik» millatlar — «jahon Jayhunlar»i «kuchsiz»larini o'z komiga tortmoqda. Shoир shularga «tu'mayi tayyor» bo'lishdan ogoh qilmoqchi. Shuning uchun ham u millatning hayot-mamot masalasi hal bo'layotganini, uning «yavmulhisob» qarshisida turganini ko'p ta'kidlaydi. Xo'sh, shoир bularning oldini olish, insonlarning insonlarcha hayot kechirishini ta'min qilish, jumladan, Turkistonni ozod va baxtiyor etish uchun niman ni taklif qiladi?

Avvalo shuni aytish kerakki, shoир, garchi odamlar munosabatida yovvoyi tabiatning shafqatsiz qonunlariga xos xususiyatlар ko'rsa-da, ularning bir kunmas-bir kun mehr-u muhabbatga aylanishiga, Turkistonning esa ozod va obod bo'lishiga astoydil ishonadi.

Garchi man ma'yus-u purg'am millatim ahvoldidan,  
Qat' ummid aylamam ta'mini istiqboldidan, —

deb boshlanar edi shoирning «Istiqboldan orzularim» she'ri.

Qilur tokay jafosin, bizga ham dildor o'lur olam,  
To'lub mehr-u vafosi, qo'zg'alub g'amxor o'lur olam,  
Muruvvatsizlig'indan jirkanub, bezor o'lur olam,  
Bahori ma'rifat uyg'otsa, xushgustor o'lur olam,  
O'sub rayhoni shafqat mushk ila totor o'lur olam,  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah qilur, gulzor o'lur olam.

Kelur ulfat, adovat o'rtadin qolqur, ketar bir kun,  
Qaro kunlar ketub, o'mrig'a ravshanlik yetar bir kun,  
Adolat bog'ida gulhoyi tarbiyat bitar bir kun,  
Ochib g'uncha dahonin, shodlig' izhor etar bir kun.

O'lur olam guliston, qayg'u-kulfatlar yotar bir kun,  
Gulobi hurriyat atri musaffosin otar bir kun,  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah qilur, gulzor o'lur olam...—

deb yozadi yana bir she'rda.

So'nggi bayt istiqbol orzusi bilan to'liq mazkur musammaning har bandini yakunlagandek takrorlanib keldi. Bu she'r 1912-yilda bosilib chiqqan. Shoir insonlar o'rtasida mehr-u muhabbat, do'stlik qaror topishiga, adolat va haqiqat tantana qilishiga, yorug' kunlar kelishiga ishonch bildirmoqda. Hatto, ozodlik — hurriyat zamoni haqida orzu qilmoqda. Lekin tabiiyki, bular o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Shoir buni yaxshi tushunadi. Xuddi shu she'r — musammaning o'zida ham bunga ishora bor. Shoir gapni ilm-ma'rifatdan boshlaydi. Undan ko'p narsa umid qiladi. Hatto uni salkam nurli hayotga olib boruvchi birdan bir yo'l deb hisoblaydi. She'rda ilgari surilgan bu fikr ma'lum mantiqqa tayanadi, albatta. Jumladan, usiz keng xalqning o'z haq-huquqini anglay olishi mumkin emasligi tabiiy edi. Shoir o'lkadagi nodonlikni qoralar ekan, shu masalaga alohida e'tibor beradi:

Huquq(n)ing no'ldig'in idrok qilmas, jismimiz bejon, —  
degan satrini uchratamiz she'rda.

Buni taxminan istiqbol uchun kurashdagi ikkinchi bosqich deb hisoblash mumkin. Samarqandlik Siddiqiy-Ajziy ham o'zining «Mir'oti ibrat» dostonida bu masalaga keng o'rinn ajratgan edi<sup>1</sup>. Lekin bular bilan ham hech ish bitmaydi. «Bir g'oya atrofida uyushmoq, bir maslakni tutmoq», ma'lum bir «idyol»ni ushlab o'sha uchun «kurbanmoq» kerak. Bu ham haligi musammanda bor.

Abas bir g'oyasiz dunyoi dandan yaxshilik kutmak,  
Kerak bir maslak-u bir g'oya-u idyolni tutmak,  
Biza bir yo'lni ushlab, nuri maqsuda borib yetmak...

Buning uchun esa xalq o'z haq-huquqini anglagan bo'llishi, nima uchun kurashayotganini aniq bilishi va u yo'lning to'g'riligiga ishonch hosil qilishi lozim.

<sup>1</sup> Qarang: Siddiqiy. Mir'oti ibrat. Samarqand, 1914-yil.

Avloniy 1914-yilda bosilgan «Muxotabim qalam» («Qalamga xitobim») she'rida qalamga xitoban «ojizlara imdod qil»ishini «millat xonadonini toza ta'mir ila bunyod et»ishini o'tinadi. Diqqat qilaylik, «toza ta'mir» bilan, ya'ni qaytadan qurib, yangitdan bunyod etish ustida gap ketyapti.

Darhaqiqat, shoир she'riyatining bosh yo'nalishini millatda milliy ongni shakllantirish tashkil etdi. Buning uchun u Turkiston turmushini boshqa xalqlar hayoti bilan qiyoslab ko'rsatdi.

«Bobolarimizning «bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» zamonlari o'tub, o'rniga «Bilg'on bitar, bilmagan yitar» zamoni keldi. Amerikaliklar bir dona bug'doy ekub, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Yovrupaliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga 25 tiyinga soturlar!»

Birinchi Jahon urushi va uning asoratlari mavzuyi ham Avloniy ijodidan keng o'rinni olgan. Shoир bu mudhish falokatning yuzaga kelish sabablarini tahlil qiladi, uning mazmun-mohiyatini belgilashga urinadi. Uningcha, bosh sabab «raqobat», bo'lingan dunyoni bo'lib olishga urinish, «olama hokimlig» dag'dag'asi edi.

1916-yilning 25-iyunida oq podshoning Turkiston aholisidan 250 ming kishini frontga qora ishga olish haqidagi Farmoni e'lon qilindi. Askarlikka emas, qora ishga – mardikorlikka. Bunda ishonchsizlikdan tashqari tahqir ham bor edi. Uning ustiga buni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, zo'ravonlik avj oldi. Norozilik paydo bo'ldi. Qonli to'qnashuvlar yuz berdi. 1916-yilning iyulida butun Turkistonni g'alayonlar qopladi.

Chor hukumati yon berishga majbur bo'ldi. Mardikorlikka olinadiganlar soni qisqartirildi. Ularni jo'natish keyinga surildi. Turkistonni yaxshi bilgan A. N. Kuropatkin general-gubernator qilib tayinlandi

18-sentyabr kuni mardikorlar tushgan birinchi eshe-lonni tantanali jo'natish marosimi bo'ldi. G'oyat tadbirkorlik bilan ish ko'rildi. Mardikorlarga osh tortildi, pul va shirinliklar ulashildi. Kuropatkining shaxsan o'zi ularga oq yo'l tilab, kuzatib qo'ydi. 18-oktyaborda esa Nikolay II mazkur eshelonning «vakil»larini o'z qarorgohida qabul qildi... Shunaqa xilma-xil usul va tadbirlar oqibatida yil oxiriga

kelib, o'lkadagi qo'zg'olishlar paysal topdi. So'ng esa qo'z-g'olon qatnashchilarini shafqatsiz jazolash boshlandi...

Yigitlarni frontga jo'natish mavzuida adabiyotimizda o'nga yaqin she'riy to'plam maydonga kelgan. Avloniyning «Mardikorlar ashulasi» kitobi ham shular sirasida. Xalq qo'shiqlari yo'lida yozilgan bu she'rlar g'oyat dardli, g'am-gin. Ularda osoyishta hayotni chayqatib, insonlar taqdirini alg'ov-dalg'ov qilib yuborgan urushga, uning haybarakal-lachilariga pinhoniy g'azab yashiringan. Shoir bu she'rlari bilan o'zbek mardikorlik poeziyasi degan hodisaning maydonga kelishida o'z hissasini qo'sha oldi. Afsuski, Abdulla Avloniyning 1916-yil, ayniqsa 1917-yil ikki inqilob oraliq'idagi poetik ijodi haqida juda kam ma'lumotga egamiz. Umuman, u bu yillari qizg'in ijodiy faoliyatda bo'lgani, teatrchilik, matbaachilik ishlari bilan shug'ullangan ma'lum. Shuningdek, dramalar yozgani, gazeta chiqargani, «Adabiyot», «Turkiy guliston...» kabi kitoblarning qayta, to'ldirilgan nashrlarini amalga oshirganidan xabardormiz. Lekin shular bilan birga u bu yillari qizg'in poetik ijod bilan ham shug'ullangan bo'lishi kerak. Biz hozircha uning faqat vaqtli matbuot sahifalarida, shuningdek alohida kitob holida bosilib chiqqan she'rlari bo'yicha fikr yuritmoqdamiz. Ehtimol, kelajakda do'stlari, hamkasabalar qo'lida saqlanib qolgan yangi materiallar topilar va Avloniy poetik merosi to'liq jamlanib, uning shoir sifatida bosib o'tgan yo'lini keng va aniq, barcha tafsilotlari bilan kuzatish va o'rGANISH imkonini tug'ilari. Hozircha, uning 1917-yil sanasi bilan bosilib chiqqan 2 she'ri ma'lum. Ulardan biri «Qutuldik», ikkinchisi «Yotma» deb nomlangan. She'rlarining nomidanoq aytilmoqchi bo'lgan gap anglashilib turibdi. Shoir Fevral voqealariga yuksak baho beradi. Rossiya'dagi «barcha millat»larni mustabid chor hukumati, «badkirdor Romanov», «dumdon Rasputin»lar zulmidan qutulgani bilan muborakbod etadi. Haqiqatan ham samoderjaviyening ag'darilishi ulkan hodisa edi. Biroq hali bu bilan masala hal bo'lgan emas edi. Oldinda vazifalarning eng muhimmi va asosiysi – milliy, mustaqil Turkistonni barpo etish, hokimiyatni o'z egalariga olib berish turardi. Shoir buni tushu-

nadi va «millati najib»ni, «g'ayrat qil»ishga, «hur yo'l»ni mahkam ushlab, barcha zulmlardan xalos bo'lishga chaqiradi.

Inqilobiy voqealar Avloniyga ta'sir etmay qolmadi. U endi istiqbolni faqatgina ma'rifat, ilm-fan orqali qo'lga kiritish mumkin emasligini angladi, erk va hurriyatga yetmoqning yo'li bitta – birlashish, milliy demokratik kuchlarni birlashtirish degan xulosaga keldi. Shu umidda rus inqilobiy harakatchiligi, Sovetlar bilan ham bog'landi. Afsuski, sotsialistik «idyl» deganlari sarob ekanligini, Sovetlar yo'li oq imperianing mohiyati o'zgarmagan «qizil» shakli ekanligini daf'atan anglay olmadni.

She'riyatda esa yangi g'oya va timsollar uchun yangi shakl va ifodalar izladi. Eskilariga yangi mazmun singdirdi. Ularning muhimlari quyidagilar edi:

### 1. Vaznning yangilanishi.

Ma'lumki, ming yillik klassik she'riyatimiz aruz vaznida yozilgan. Asr boshidagi she'riyatda ham u yagona va asosiy vazn edi. Lekin Navoiygacha bo'lgan va undan keyin yaratilgan xalq og'zaki ijodi – barmoq vaznida. Mumtoz adabiyotimizda barmoqda yozilgan she'r deyarli uchramaydi. Lekin aruz murakkab, bo'ronli davrning goh shiddatkor, goh bo'g'iq nafasini keng ommaga yetkazishda uncha qulay emas edi. Shuning uchun ham Avloniy muhim ijtimoiy masalalardan bahs ochuvchi ko'pgina she'rlarini barmoqda yozdi. Barmoqni xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga olib o'tdi.

Avloniying barmoqdagi ilk she'rlari xalq qo'shiqlariga moslab yozildi.

Masalan, «To'y haqida» she'ri «Reza» kuyida:

Otma mani toshlar bilan yor-yor, yor-o'v,  
Uchub ketay qushlar bilan yor-yor, yor-o'v!, –

xalq ashulasi yo'lida yozilgan va hokazo.

Bu qo'shiqlar shoir tashkil qilgan «Turon» («Turkiston») truppasi ishtirokchilari ijrosida goh spektakllarga

<sup>1</sup> Xalqda qo'shiqlar aksariyat «yor-yor, yor-ey» bilan tugallanadi. Avloniy nima uchundir «o'v» shaklini keltiradi. Chamasi bu shakl ham bo'lgan.

singdirib yuborilar, goh antraktlarda ijro etilar, goh milliy konsert dasturlariga qistirilar edi.

**2. Poetik janrlarning yangilanishi:** Adabiyot shu yillarda xalq hayoti bilan yanada yaqinlashdi, yanada xalqchil, ommabop bo'ldi. Adiblar yangi janrlar, shakllarda o'z kuchlarini sinashga shaylandilar. Ko'hna an'anaviy shakllar yangi xususiyatlar orttirdi. Avloniyning «Oila munozarasi», «Shoir ila to'ti» kabi bir qator she'rlari munozara xarakterida yozilgan. Masalan, «Shoir ila to'ti» she'rini olaylik. She'r Shoir bilan To'ti o'rtasidagi dialogdan iborat. Asarning mazmuni quyidagicha: Shoir jahongashta To'tidan dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar, boshqa mamlakatlar, elatlarning ahvoli haqida so'raydi. To'ti Turkiston xalqi hali ham g'aflatda ekanligini, ilm, madaniyat egallash uchun, hayotda o'zining haqiqiy o'rnini topish uchun qo'zg'almaqaganini aytib, «shoiri shirinsuxan»ga «nadomat» aytadi.

**3. Poetik obrazlarning yangilanishi.** Klassik adabiyotimizda ming yillardan beri ishlaniq kelgan gul, bulbul, yor, ag'yor, may, charx (dunyo) kabi obrazlar bu davr adabiyotida, jumladan, Avloniy ijodida boshqacha ohang, boshqacha mazmun kasb etdi. Masalan, u «gul»ni shunday «ta'rif»laydi:

Xor alindan bag'ri qon o'l mish, bo'yan mish qona gul,  
G'uncha bag'rin chok etub, afg'on qilur afsona gul...

Yuzdag'i xoli emas, zolim tikonning yorasi,  
Kecha-kunduz zahmi g'am birlan butun o'rtona gul...

Subhidamda yuzlarindan mayj uran shabnam emas,  
Xor zulminden to'kar ko'z yoshini durdona gul...

Gar sabo tebratsa gulni, xush isi nevchun chiqar,  
Bag'riga botgan tikanlardan kelur afg'ona gul.

Naylasun bechora gul botmish vujudiga tikan,  
Zahmiga marham uchun yafrog'iga chulg'ona gul.

Dildagi qayg'ularin ko'rganmusiz, chun za'saron,  
Chok etub g'urbat yaqosin ko'rsatur insona gul...

(«Ta'rifi gul» she'ridan)

Bu yerdagi gul an'anaviy ma'shuqa emas. Subhidamda yuziga qo'ngan shabnam (durdoni ko'z yoshi) qat-qat alvon yaproqlar (bag'ri qon bo'lishi) oshiq iztiroblarini ifoda

etmaydi. Bu yerda gap muhabbat haqida emas: gul g'urbat va mashaqqatdan za'faron bo'lgan yuragini chok etib insonga ko'rsatadi... Beixtiyor xor (tikan) mustamlakachi istibdodini, bag'ri qon gul esa jafokash Turkistonni eslatadi. Shoир she'rlari orasida «Sadoyi bulbul», «Hijroni bulbul», «Fig'oni bulbul» kabi she'rlar bor. Bular ham aksariyat hollarda gul (ma'shuqa) ishqida yonib o'rtanayotgan oshiq emas. U ko'p o'rinnlarda mazlum Turkistonga qarata: «Uyg'on!» – deb bong urayotgan lirik qahramon – shoир obrazini ifodalaydi.

Qo'nub gul shoxiga bulbul der: «Ey insonlar, insonlar!  
Qilursiz tobakay g'osil yotib afg'onlar, insonlar».

(«Sadoyi bulbul» she'ridan)

Jahon bog'ini gulzorinda faryod etdi bir bulbul,  
O'turdi nag'mazorinda gulin yod etdi bir bulbul.

Ko'rub gul yafrog'ini hajridan dod etdi bir bulbul,  
Visoli yor uchun yuz navha inshod etdi bir bulbul...

(«Fig'oni bulbul» she'ridan)

«Hijroni bulbul» she'ri bu o'rinda juda diqqatga sazovor. She'rning mazmuni quyidagicha: bulbul – shoир guli – millati hajrida kecha-yu kunduz fig'on chekadi.

Butun umrini unga bag'ishlaydi. Lekin bulbul gulzorda bog'bon qo'liga tushib, qafasga tashlanadi. U endi qafasda «Gul!» deb faryod qiladi. Zolim «qafas» unga ozor beradi. Taajjub! Uning «faryod»ini hech kim tinglamaydi, hech kim unga «rahm» qilmaydi. «Gul» hajrida uning yo'ldoshi faqatgina «g'am» bo'lib qoladi...

Keyingi parchada gul obrazi ham bor. Bulbul gulini yod etyapti. U uchun iztirob chekyapti. Qafas – zamon. Millatning shoirga «kar»ligi, hech kimning e'tibor qilmasligi milliyat tuyg'usining so'nganligidir.

Kecha-kunduz qafasda, oh gul, deb aylayur faryod,  
Omon bermas ango zolim qafas, ozor o'lur bulbul.

Taajjub, rahm qilmas, yetmayur faryodina hech kim,  
Bu hijronlig'da doim g'am bilan g'amxor o'lur bulbul.

Shu tariqa Avloniy gul va bulbul obrazlariga faqat yangi ma'no yuklabgina qolmay, bu obrazlarni davom ettiradi. Darvoqe, Avloniy she'rlarida yor obrazi – ilm, ma'rifat,

taraqqiyot, xalq tushunchalarini, ag'yor — nodonlik, jaholat, zulm, istibdod ahli ma'nolarini ifodalaydi va hokazo. Bu obrazlarning aksariyati o'zlarining ilgarigi ma'nolaridan butunlay uzoqlashgan va zamon talabiga mos yangi mazmun, o'zga ohang kasb etgan.

**4. She'rlarning sarlavhalanishi.** Avloniy har bir she'rga sarlavha qo'yadi. Bu undagi kayfiyat va mazmunni ifodalashdan tashqari shoir lirikasining umumiy yo'nali-shini belgilaydi. Mana, ularning ayrimlariga e'tibor qilaylik: «Ey, jaholat nori birla yondi jismi pokimiz», «Haqiqat o'lsun bu xayol», «Oqma ko'z yoshim», «Kerakmu yo kerak-masmu?», «Oh bag'ri qonim», «Falak bizni nelar qildi?», «Guftori g'am», «Jigarso'z», «Dunyo fojiasindan», «Has-ratlik hollarimiz», «Girdobi g'amdin bir po'rtana», «G'a-lat», «Istiqbolimiz uchun bir jigarso'z», «Istiqboldan orzularim» va hokazo.

Avloniy, umuman, so'zga katta e'tibor beradi. Uning mo'jizaviy kuchini yaxshi biladi. Darhaqiqat, zamona ham-mani uyg'otadigan, barchani larzaga solib, olg'a undaydi-gan so'zlarni ko'proq talab etar edi.

**5. An'anaviy «hamd» va «na't»lar mazmunining o'zgarishi.** «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plami juzlarini ham udum bo'yicha Olloh madhi («hamd») va payg'ambarimiz sifatlari vasfi («na't») bilan boshlanadi. Biroq ularning barchasi oxir-oqibat millat g'amiga kelib bog'lanadi. Shoir Ollohga iltijo qilar ekan, millatning tanazzulidan «nifoq, bug'z, xurofot»dan dod soladi, Rasuli akramdan umma-tining «bemor, ham g'arib holi»ga uning muqaddas ruhidan madad tilaydi.

Abdulla Avloniy tatar, ozarboyjon, usmonli qardoshla-ri bilan yaqindan aloqa bog'ladi. Ulardan ko'p narsa o'r-gandi, o'rgatdi. Bu o'zaro hamkorlik ijodi va faoliyatida yorqin izlar qoldirdi. Shoir mashhur ozarboyjon kuychisi Muhammad Hodidan ilhom olib, unga naziralar bitdi. Goho bu ta'sir, tamoman ergashish, g'oya va obrazgina emas, ifoda vositalari izmida ham qolish darajasigacha etib boradiki, shoirning zamondoshi Mo'minjon Muhammadjonov bir maqolasida bunga shama' qilgan edi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Qarang: Bizda milliy shoirlar. «Sadoyi Farg'ona» g., 1914, 96–99-sonlar.

Avloniy she'rlari orasida yengil mutoyiba bilan yozilganlari ham uchiraydi. Muqimiyl davrida bu xil she'rlar yozish juda keng tus olgan edi. Avloniy mazkur an'anani davom ettiradi («To'y haqida latifago'yga», «Ko'knori va qimorboz», «Qimorbozni(ng) qimorbozga nasihatni»).

Avloniyning 10-yillarda yozgan «Pinak» (1915), «Advokatlik osonmi?!» (1916) dramatik asarlari<sup>1</sup>da she'riyat-dagi g'oya va fikrlar davom etdi. Jaholat va zulmatga botgan Turkistonning chirkin manzaralari kulgili lavhalarda sahnada namoyish qilindi. Chunonchi, «Pinak»da g'ayrat va shijoatlari bilan dunyoni larzaga solgan, kunchiqardan kunbotishgacha yurt so'rigan buyuk bobolarning zalolatga botgan avlodlari ko'knori va qimorbozlar hayoti orqali fosh etiladi. «Advokatlik osonmi?!»ning mazmuni quyidagicha: Davronbek Rossiyada yetti yil o'qiydi va Turkistonga advokat bo'lib qaytadi. Lekin shu o'tgan vaqt ichida uning turmushida biror o'zgarish bo'lmabdi. Xalq hali ham ilm-u ma'rifikatdan yiroq. Fuqarolik qoidalari, davlat qonunlari, huquqiy tartiblardan bexabardirlar. Shu sababli ular baxtsizdirlar. Davronbek shunday o'ylaydi va qo'lidan kelgancha ularga yordam bermoqchi bo'ladi.

Masalan, Xudoyberdi chol tirikchilikning og'irligidan otasidan qolgan ikki tanob yerning yarmini bir boyga sotishga majbur. Lekin pulining yarmini olib, yerdan foydalanib turganda, bilimsizligi, oldi-sotdining tartib-qoidalardan bexabarligi oqibatida «chuv tushadi». Ma'lum muddatda qaytaraman, deb tilxat berib olgan pulni «beparvolik qilib» qaytarmaydi. Undan foydalangan boy tezlik bilan yerni o'ziga xatlab olish chorasini ko'radi.

Baxtsiz Mehrinisa xola o'n besh yildan beri qimorboz eri qo'lida «o'tga yoqilib, toshga chaqiladi». Xullas, hamma yoq g'urbat.

Adibning «Biz va Siz» asari, nomlanishidan ko'rinalotganidek, turmushga ikki xil yondoshishni ifoda etadi. Unda jaholat mavzusi bilan yonma-yon muhabbat ham beriladi.

<sup>1</sup> Avloniy «Tarjimayi holida «To'rt teatr kitobi» yozganini ma'lum qiladi. Shaxsiy arxivda «To'rt teatr kitobi»ning avtoqrafi – ayrim ko'chirilgan nusxalari saqlanib qolgan. Shundan uchtasi («Advokatlik osonmi?!», «Pinak», «Biz va Siz» (1979 y.) e'lon qilindi. A. Avloniy, Toshkent tongi, 300–373-betlar.)

Uning markazida Yevropada o'n yil o'qib, «yangi hayot», «yangi turmush» haqidagi jo'shqin orzular bilan qaytgan Kamolning taqdiri turadi. U «churub, biljirab ketgon» «eski turmush»ni «tuzatmoq»chi. Uning butun fikri-zikri shu bilan band. U o'qimishli Maryamni sevadi. Uning sevgisi ham, aytish mumkinki, g'oyaviy-ma'naviy yaqinlik asosiga qurilgan. Biroq «eski turmush» kuchlari ustun keladi. Kamol va Maryam halok bo'ladilar. Ammo ularning o'limi optimistik mazmun uchun xizmat qiladi. Avloniy juda muhim bir masalani, insonning baxti va turmushini asar markaziga qo'yadi va jiddiy ijtimoiy ziddiyatni keskin vaziyatlarda ochib berishga urinadi.

### Inqilobdan umid qilib...

Fevral inqilobidan so'ng voqealar qizg'in va shiddatli kechdi. «Turon» zaminida 9-martda Munavvarqori «Sho'royi islam» jamiyatini tuzdi.

Lekin bir tomonidan, ketma-ket kelgan qurg'oqchilik va uning natijasi o'laroq ochlik, qahatlik, ikkinchi tomonidan, siyosiy beqarorlik Umumrusiyada bo'lganidek, Turkistonda ham vaziyatni keskinlashtirdi. Rus sotsialistlari vaziyatni qo'lga olish maqsadida Sovetlar tuzishga kirishdilar. 31-mart (12-aprel)da Toshkentda Sovetlarning I-o'lka syezdi ish boshladi. O'lka ishchi va soldat deputatlari Soveti tuzildi. Turkiston musulmonlari ham qarab turmadilar. 4(16)-aprelda o'lka musulmonlarining I-qurultoyi chaqirildi. Ushbu voqealarning jonli guvohi A. Z. Validiy Sovetlar syezdi hududiy muxtoriyat fikrini ilgari surganini ma'lum qiladi. Bu g'oya Angliya Hindistonidagi kabi Toshkentda ruslar va musulmonlarning ikki mustaqil hokimiyatini o'rnatishni va shu orqali rus hokimiyatini yerli musulmonlarning nufus ustunligidan ko'rsatmoqni ko'zda tutar edi. Bunga mahalliy ziyyolilarimizning bir qismi (M. Cho'qayev, T. Norbo'tabekov, P. Po'latxonov, I. Shohiahmedov) dastlabiga rozi ham bo'ldilar. Aslida bu ozchilikning ko'pchilik ustidan hukmronligini ta'min etuvchi ingliz mustamlakachiligi qonunlarining sal o'zgargan shakli edi. Buni peshqadam ziyyolilarimiz moddama-modda ko'rsatib bergenlaridan so'nggina musulmonlarimiz fikri o'zgaradi. Bu hol kadetlar va eserlarni shoshirib qo'yadi: Eserlar mahalliy xalqning

rag'batini qozonish uchun kadetlar va sotsial-demokrat-larga qarshi boradilar va musulmonlarning barcha masalada tenghuquqliligini ko'tarib chiqadilar. Syezd ko'pchilik ovoz bilan bu fikrni ma'qullaydi. Bunga ko'ra Turkistonning bo'lajak parlamenti («O'lka majlisi») o'lkadagi barcha millatlardan teng asoslarda saylanmog'i kerak edi.

Musulmonlar qurultoyida A. Z. Validiy ma'ruza qiladi. Turkistonning qurilajak idora usuli haqida so'z yuritib, federal muxtoriyat g'oyasini ilgari suradi Bu g'oyani ko'pchilik og'ir oladi. Ko'zga ko'ringan ziyorolarimiz – M. Cho'qayev, I. Shohiahmedov, «Vaqt» muharriri K. Bakir, qozonli mashhur S. Maqsudiylar qarshi chiqadilar. Munavvarqori betaraf qoladi. Behbudiy va A. Z. Validiygina federal muxtoriyat g'oyasini qattiq turib himoya qiladilar. Behbudiy hayajonli nutq so'zlaydi. Bu nutq qurultoyning federal muxtoriyat qarorini qabul qilishida hal etuvchi rol o'ynaydi.

1 (13) – 11 (23)-mayda Moskvada Umumrusiya musulmonlar qurultoyi bo'lib o'tdi. Bunda ham federal muxtoriyat masalasi ko'rildi. Turkistondan Ubaydulla Xo'jayev uni himoya qilib so'zga chiqdi. Moskva qurultoyi ham ushbu g'oyani ma'qul topdi. Turkistondan U. Xo'jayev, A. Z. Validiy, Abduxoliq o'g'li Qo'qonboy, Rahmonberdi o'g'li Mulla Kamoliddin, O'rınboy o'g'li Mulla Sulton – jami 7 kishi Umumrusiya Musulmon Markaziy Sho'rosiga saylandilar. Muxtoriyatchilik avj oldi. Milliy sho'rolar ko'payib bordi. Toshkentda «Musulmon deputatlarining Markaziy Sho'rosi» (raisi Mustafo Cho'qayev), Orenburgdag'i Boshqirdiston sho'rosi, Qozog'iston sho'rosi, Qozondagi Ichki Rusiya va Sibiriya musulmonlari sho'rosi bunga yorqin misol edi. Ayniqsa, Turkiston va qozoq, boshqird sho'rolarining qarashlari bir-biriga g'oyat yaqin edi. Ruslarning «pan-turkizm» deya ayyuhannos solishlari xavfigina ularni birlashib ketishdan saqlab turardi.

Siyosiy partiyalar jonlandi. Mahmudxo'ja Behbudiy hali ham kadetlar (konstitusion demokratlar) partiyasiga xayriyohlik bildirardi. U bu borada yolg'iz emas edi. «Alash o'rda» asoschisi mashhur Alixon Bukeyxonov ham unga hamfikr edi. Tatar inqilobchi adibi Olimjon Ibrohimov, unga ergashgan o'zbek jurnalisti Mirmuhsin Shermuhame-

dov rasman eserlar partiyasiga kirgan edilar. A. Z. Validiy a'zolik biletinigina olmagan edi.

O'lka musulmonlarining sentabr boshida bo'lib o'tgan 3-qurultoyi hokimiyatni Sovetlarga berishga qarshi chiqdi. 18 (30)-sentabrdagi Sovetlarning II o'lka syezdi esa hokimiyatni berishni talab qildi.

Avloniyning «Turon» jamiyati ham bu ta'sirlardan chetda qolmadı. Uning faollaridan Nizomiddin Xo'jayev sotsial-demokratlar bilan yaqinlashdi. So'ngroq Ozarboyjondan Mehmed Amin Afandizoda kelib qo'shilgach, jamiyat «Turk federalist» firqasiga aylanib bordi. Ayni paytda ochlik, qahatlik kuchayib bordi. Yetisuvdagagi mahalliy xalqning serhosil yerlarini rus muhajirlariga tortib olib berish, qarshilik ko'rsatganlarni yo'q qilish davom etdi. Pirovard-oqibatda «Sho'royi islomiya»dan ajralib chiqqan «Ulamo» kadetlar, monarchistlar bilan topishdi. Ularni podshoparastlik va eski shariatni ushslash g'oyalari birlashtirdi. Biroq ulamochilar zamonaviy ilmdan uzoq edilar. Shu sababli jilov kadetlar, eserlar qo'lida edi. Ikkinci tomondan, bolsheviklar mahalliy ziyo-lilarning bir qismiga yo'l topgach, mavqelari oshib bordi. Ayni paytda, mardikorlarning qaytib kelishi bilan musulmon ishchi deputatlari Sovetlari ham maydonga kela boshladi.

Avloniyning Sovetlarga va ular orqali bolsheviklarga yaqinlashishi 1917-yilning iyuniga to'g'ri keladi. Jumladan, 6-iyundan Toshkent ishchi va soldat deputatlari Soveti qaroriga ko'ra «Eski shahar oziq-ovqat komissiyasi a'zosi», 20-noyabrdan esa «Rusiyaning boshqa viloyat va guberniyaliga Sirdaryo viloyatidan yuboriladigan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarini ushlab qolish va Eski shahar oziq-ovqat komitetiga ma'lum qilish huquqi bilan nazorat etuvchi vakil» qilib tayinlanadi.

Shundan bir hafta keyin Qo'qonda Turkiston muxtoriyati e'lon qilindi. Yuragida Vatan va millat tuyg'usi qolgan har bir turkistonlik uni katta quvonch bilan kutib oldi. Unga bag'ishlangan o'nlab she'rlar paydo bo'ldi. Avloniyning qalbidan qanday kechinmalar kechdi ekan? Afsuski, muxtoriyatning bolsheviklar tomonidan inqilobga xiyonat sifatida baholanib, qonga botirilishi va Avloniyning o'sha paytlari uni bostirishni amalga oshirgan Toshkent Sovetida

rasmiy xizmatda bo'lganligi, adibning mazkur masalaga doir biror yozma qayd qoldirmaganligi bu borada aniq fikr yuritishga imkon bermaydi. Lekin Vatan istiqlolini har narsadan muqaddas tutgan Avloniyning Turkiston muxtoriyatini dil-dildan olqishlab, yo'q qilinganida qayg'urganiga shubha yo'q.

Avloniy 1917-yilda o'qituvchilik ishlari bilan shug'ullanishga ham imkon topdi. Shoirning arxivida saqlangan pasportida uning shu yili 31-iyun va 3-avgust kunlari Qozonda «Bolgar» mehmonxonasida yashaganligi qayd qilingan. Iyunda nima munosabat bilan borgani noma'lum, lekin 1-avgustda Qozonda Butunrossiya musulmon o'qituvchilarining II syezdi ochilgan va Avloniy unga vakil edi. Shoir 1917-yilda mahalliy muallimlar o'rtasida siyosiy ishlar olib boruvchi «O'qituvchilar soyuzu»ni tuzgan edi. 1918-yilda esa Kommunistik partiya safiga a'zo bo'lib kirdi. O'lka sovetiga saylandi. Toshkent partiya tashkiloti, shahar ijroiya komitetida mas'ul vazifalarda ishladi. «Ulug' Turkiston» gazetasining 1918-yil sonlaridan birida bosilgan rasmiy xabardan Avloniyning o'sha yili Eski shahar ijroiya komiteti raisi lavozimida ishlagani ma'lum bo'ladi. 17–29-dekabrda bo'lib o'tgan Turkiston Kommunistik partiyasining II syezdi Avloniyni Markaziy Komitetga a'zo qilib sayladi. 1919-yilning aprelida Turkiston Markaziy Ijroiya Komitetiga sayladi. «Ishtirokiyun» gazetasini yuzaga chiqaruvchi ham muharriri bo'lib ishladi.

1919-yilning iyunida Avloniy RSFSR hukumatining topshirig'i bilan Afg'onistonga boradi. 1919-yilning 28-sentabridan 1920-yilning 20-iyuligacha Hirotda bosh konsul bo'lib turadi. Afg'on safari Avloniydagagi bolsheviklar hukumatiga bo'lgan shubhani kuchaytirib yuboradi. O'zlari ni haqiqatchi deb jar solgan rus bolsheviklarining sobiq chor generallaridan mutlaqo qolishmasligiga amin bo'ladi. «Oh, na insoniyat, na barobarlik, na sotsialistik, na millat tafriq qilmaydurg'on internasionalistlar dunyo yuzinda topilar-mukin? — yozadi «Afg'on sayohati» xotiralarida. — Balki bordur, topilur, lekin vujudi anqoning tuxumidek kamyoob ekanlig'in Afg'oniston safariga chiqg'onda aniq bildim. Afg'onistong'a chiqg'on besh hay'ati vakolaning ichida birgina

musulmon man o'ldig'imdan har bir og'ir mehnatlar, har bir kulfat va aziyatlar meni ustimg'a yuklandi... O'rtoq Brovin<sup>1</sup> Afg'on tufrog'iga o'tgandan so'ng o'zini(ng) jeneroli chor noil e'lon qilmish edi»<sup>2</sup>.

Avloniy 1920-yilda sog'lig'i yomonlashgani tufayli Afg'onistondan chaqirib olinadi va Turkbyuroning madaniyat bo'limiga boshliq qilib tayinlanadi. U shu yillari «Kasabachilik harakati» jurnalining muharriri, «Qizil bayroq» gazetasining tahrir hay'ati a'zosi sifatida ish olib boradi.

1921-yildan maorif sohasiga o'tadi. O'sha yili Toshkent-dagi o'lka o'zbek bilim yurtida, 1923-yilda Toshkent xotin-qizlar bilim yurtida mudir, 1924-yilda V. I. Lenin nomli harbiy maktabda o'qituvchilik qiladi.

1925–1930-yillarda O'rta Osiyo Kommunistik universiteti (SAKU), O'rta Osiyo Qishloq xo'jaligi mактабида (SAVKSXSH), O'rta Osiyo Davlat universitetida (SAGU) dars beradi. Pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedrasи professori, so'ng mudiri bo'lib ishlaydi.

So'nggi paytlargacha Avloniyning Oktabrdan keyin yozgan asarlaridan «Ishtirokiyun» gazetasida e'lon qilin-gan «Qizil bayroq» (1918-yil, 64-son), «Ochlar holindan» (1919-yil, 91-son), «Firqamiz oloylarina» (1918-yil, 81-son), «Go'zal bahor» (1919-yil, 32-son), «Izchilarga tortiq» (1919-yil, 100-son), «Jamiyatlarga aralashmagan dangasa tilidan» (1919-yil, 70-son), «G'amlik soatda»<sup>3</sup> (1919-yil, 69-son), «So'z zamoni dagil ish zamoni» (1919-yil, 104-son), «Hurriyat marshi» (1919-yil, 110-son), «Qizil matbuot» («Turkiston» gazetasi, 1924-yil, 294-son), «Ko'klam keldi» («Kasabachilik harakati» 1921-yil, 5-son, 15–16-betlar) kabi she'rlari va bir nechta hikoya hamda maqolalari ma'lum edi, xolos. 60-yillarda uning o'sha yillari yozilgan talay qo'lyozma she'rlari borligi ma'lum bo'ldi va ulardan ayrim parchalar A. Boboxonov va M. Maxsumov-larning «Abdulla Avloniy. Pedagogik faoliyati»<sup>4</sup> kitobchasida va ushbu satrlar muallifining ba'zi maqolalarida keltirildi.

<sup>1</sup> N. Z. Brovin – RSFSRning Afg'onistonga yuborgan hay'ati vakolasi boshlig'i.

<sup>2</sup> A. Avloniy. Afg'on sayohati, qo'lyozma, 64-bet.

<sup>3</sup> Qo'lyozmada «Xafalik soatda».

<sup>4</sup> A. Boboxonov, M. Maxsumov. A. Avloniy. Pedagogik faoliyati, «O'qituvchi» nashriyoti, T., 1966-yil.

So'ng ularning katta qismi adibning 1979-yilda chop etilgan «Toshkent tongi» to'plamiga kiritildi.

Avloniyning shaxsiy arxivida «Po'rtugaliya inqilobi»<sup>1</sup> nomli bir dramatik asari bor. U adibning boshqa asarlaridan ajralib turadi, 5 parda 10 ko'rinishli bu asarni muallif fojia (tragediya) deb atasa-da, mazmuniga ko'ra u qahramonlik dramasiga yaqin. Qo'lyozma muqovasiga «1921-yil 23-yanvarda yozildi» deb qo'yilgan. 20-yillarda adabiyotimizda «jahon revolyusiyasi» degan gap keng tarqalgan payt edi. Shu jihatdan buni ham shu yillarda yozilgan deb taxmin qilish mumkin.

Asar 20-yillarda sahnaga qo'yilgan. 1924-yilda hatto nashrga tayyorlangan edi. Yuqoridagi sana shu munosabat bilan ko'chirilgan payti bo'lishi kerak.

Bir-ikki og'iz gap dramaning mazmuni haqida.

1910-yilning 5-oktabriga o'tar kechasi Portugaliyada Angliyaning tazyiqidan, monarxiyaning zulmidan toqati toq bo'lган xalq qo'zg'olon ko'taradi. Unga respublikachilar bosh bo'ladilar. Ularni armiya qismlari hamda harbiy-de-nqiz floti kuchlari quvvatlab chiqadi. Lissabonda butun xalq oyoqqa turadi. Qirol Manuel qochib ketadi. Shohlik tugatilib, Portugaliya Respublika deb e'lon qilinadi. Vaqtli hukumat boshlig'i qilib Broga tayinlanadi.

«Po'rtug'oliyo inqilobi» dramasi zaminida mana shu konkret tarixiy voqeа yotadi. Respublikachilar va shohparastlar o'rtasidagi shiddatli kurash — asarning bosh konflikti. Asosiy personajlar Dolqoriyo, Broga, Garsio, Difrorolar tarixiy shaxslar bo'lib, ular bir maqsad yo'lida — Portugaliyada shohlikni tugatib, Respublika o'rnatish uchun kurashadilar va g'alaba qozonadilar. Asar inqilobchilarning «Marselyeza» sadolari ostida sahnaga qizil bayroq ko'tarib kirib kelishi bilan tugaydi. Ko'rinyaptiki, Portugaliyadagi siyosiy ozodlik va mustaqillik yo'lida bo'lган qo'zg'olon bilan Turkistondagi qo'zg'olishlar o'rtasida ma'lum mushtaraklik bor. Asar badiiy jihatdan ancha bo'sh. Shunga qaramay, ada-

<sup>1</sup> Dramaning 2 qo'lyozma nusxasi saqlangan. 1-sida tuzatishlar ko'p, sahifalar 45-betgacha raqamlangan. 2-si ancha mukammal. Sarg'ish qog'ozdan tekis qilib dastalanib daftar qilingan. 1921-yil ko'chirilgan. Muqovada turkglavlitning 8.10.24 sanasi bilan 962-raqamli ruxsat muhri bor. Chamasi, u o'shanda nashrga tayyorlangan va noma'lum sabablarga ko'ra bosilmay qolgan.

biyotimizning 20-yillardagi ko‘lami va intilishlarini aniqroq tasavvur qilish uchun uni ham o‘quvchilar e’tiboriga havola qilishni lozim topdik.

Avloniy qo‘lyozmalari orasida yana bir tugallanmagan pyesa bor. U «Ikki sevgi» deb nomlangan<sup>1</sup>. Ikki pardalik fojia shaklida mo‘ljallangan bu drama 1908-yilgi Turkiyada bo‘lib o‘tgan yosh turklar inqilobiga bag‘ishlangan. U yerda asar qahramoni Nozimbekning ikki muhabbat – hurriyat va yor muhabbat haqida gap ketadi. Nozimbek – «Ittihod va taraqqiy» jamiyatining a’zosi. Kech tunda unga ertaga bo‘ladigan hal qiluvchi qo‘zg’olon haqida xabar keladi. Shu payt xotini Xolidaxonim kirib qoladi. Hurriyatichilarining shaharda qilayotgan ishlaridan so‘z ochadi. Nozimbek ichichidan Xolidaxonimning xayrixohligidan mammun bo‘lsada, ertangi qo‘zg’olon haqidagi maktubni undan bekitadi. Uning xatarlik bu ishga aralashishini istamaydi. Biroq uni bu yo‘ldan qaytarolmasligiga ishonch hosil qilgach, maktubni ko‘rsatishga majbur bo‘ladi. Er-xotin farzandlar taqdiri haqida uzoq tortishadilar. Lekin ularning grajdanilik tuyg‘ulari hamma narsadan ustun keladi. Ular kurash va o‘limni afzal biladilar.

Ikkinci pardada Nozimbekning jangda yarador bo‘lishi hikoya qilinadi. Voqeа yarador Nozimbekning Xolidaxonim halokati haqidagi xabarni eshitgan joyda uziladi.

Asarda Xolidaxonim ancha faol tasvirlangan. Bu Nozimbekning «Aybi yo‘q, jonim! Hurriyat erlardan ko‘proq xotunlarga kerak ekanlig‘in bilganingdan so‘ylayursan!<sup>2</sup> degan so‘zları bilan dalillanganday bo‘ladi. U Nozimbekni adolat va ozodlik uchun kurashga undaydi. Masalan, unga qarata: «Hurriyat o‘rdusi Istanbuli muhosara qilmishlar. Siz na uchun beg‘am o‘turasisiz? Oyo, bu g‘arib millatni(ng) asoratdan qutqarmoq sizning vazifa emasmi?! Bu zolim istibbdodparastlari yiqmoq uchun qahramon hurriyat o‘rdusiga ko‘mak-

<sup>1</sup> M. Rahmonov uni «Ikki muhabbat» deb bergen (O‘zbek teatri tarixi, T., 1968, 333-bet). Avloniy arxividagi tugallanmagan avtograf nusxada u «Ikki sevgi» deb nomlangan.

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Ikki sevgi (Ikki pardalik fojia), qo‘lyozma, 4-bet.

lashmoq lozim emasmi? (3-bet), — deydi. Inqilobni har narsadan muqaddas biladi. Uni erlarning ishi deb o'tirmaydi. Hatto, «agar hurriyat yo'linda o'lsam, banim uchun eng saodatlu o'lumdur. Agarda birorta mustabidlardan o'ldursam, o'z vazifamni ado qilg'on bo'lurman» (4-bet) deb hisoblaydi.

Parcha shuni ko'rsatadiki, Avloniy bu asarida personajlarning ruhiy dunyosiga alohida e'tibor bergan. Masa-lan, ular inqilobni shunchaki bir qahramonlikka vosita deb tushunmaydilar. Nozimbek uning hayot-mamot masalasi ekanligini, uning har lahzasi tahlika va xatar bilan to'la bo'lib, qurbonsiz qo'lga kirmayajagini yaxshi his qiladi:

Oh, bu hurriyat ehson istar,  
Inqilob qayda kezar, qon istar.

Halqa-halqa soch이나 har kishini aylar asir,  
Yuzini ruhina qo'ymoqg'a qizil qon istar.

Kimki ko'rди yuzini, toqat eta olmaydi,  
K-yena' vasl-u diyordini qurban istar.

O'yla bir mahvashi dildor erur hurriyat,  
Hajri-da vasli-da Hijron istar.

(2-bet)

U hurriyatning mazmun-mohiyati, uni dushmanlardan himoya qilish, asrab-avaylash haqida ham o'laydi: «Hurriyatni ko'rmoq va qo'lga olmoq oson bir shaydur. Lekin qo'lda ushlab turmoq, bu makkor mahbubni ag'yordan, dushmanidan qo'lda saqlamoq nihoyatda qiyindur» (1-bet).

1908-yildagi yosh turklar inqilobi g'alaba bilan tuga-gan bo'lsa-da, mamlakat va xalq qismatini yengillatish yo'lida biror jiddiy o'zgarish yasay olmadi. Biroq bu hodisaning xalq milliy ongi taraqqiyotida izsiz ketmagani aniq, albatta.

Xo'sh Avloniyning mana shunday inqilobga murojaat qilishining sababi nimada?

Avvalo, shuni aytish kerakki, u yosh turklar inqilobi-ning mazmun-mohiyatini anglab yetgan emas. Bu inqilob

---

<sup>1</sup>ki, yana demoqchi.

Turkiyada dastlabki paytlarda xalqning barcha qatlamlari tomonidan umumxalq inqilobi sifatida kutib olingan va olqishlangan edi<sup>1</sup>. Masalan, Tavfiq Fikrat «Millat sharqisi»ni yozib, uni:

Millat yo'lidur, haq yo'lidur tutdigimiz yo'l,  
Ey haq, yasha! Ey sevgili millat, yasha, vor o'll! –

deb kuyladi. «Do'g'on gunasha», «Ferdo» she'rlarini yozdi. Deyarli hamma shoirlar va adiblar unga bag'ishlab asarlar yozdilar. Uning benihoya tor, cheklangan, keng xalq manfaatlariga zid mohiyati so'ngroq ayon bo'ldi.

Turk adabiyotidan yaxshigina xabardor Avloniy o'sha ilk taassurotlar ta'sirida unga xayrixoh bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin, bizningcha, «Ikki sevgi»ga qo'l urilishida yosh turklar inqilobining mazmun-mohiyati u qadar muhim rol o'ynagan emas. Avloniy uchun eng muhimi inqilobiy mavzu bo'lgan. Ommani ijtimoiy-siyosiy uyg'otish, inqilobiy kayfiyatni tayyorlash, maslak va uning yo'lidagi fidoyilik bo'lgan. Ikkinchidan, til, urf-udum, e'tiqod va turmush tarzidagi yaqinlik mavzu va masalaning keng ommaga yetib borishini yengillashtirardi. Muallif shuni ham hisobga olgan. Bu ham Avloniyning yuqorida aytilgan, «maqsadimiz zohirda teatr bo'lsa ham botinda Turkiston yoshlarin siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi», degan gaplariga yana bir dalil bo'lib xizmat qiladi va uning inqilobiy faoliyatiga mos tushadi.

Shoirning inqilobiy to'ntarishlar davridagi faoliyati qanchalar tahlikali kechgan bo'lsa, ijodi ham shu qadar murakkab, ziddiyatli bo'ldi. U, bir tomondan, inqilobga katta umid bilan qaradi, o'z iste'dodini uning xizmatiga qo'ydi. Ikkinchchi tomondan, uning o'zgarishlaridan qanoatlanmadи. To'g'rirog'i, yurtning iqtisodiy talon qilinayotganligini, mahalliy xalqqa hech qanday huquq berilmaganligi, asriy tartib-udumlar, milliy an'analar oyoq osti bo'layotganini, din-diyonat yemirilayotganini ko'rib iztirobga tushdi. Masalan u o'zining «Qizil bayroq» she'rida bayroqni yangi dunyoning ramzi sifatida talqin qiladi:

<sup>1</sup> Qarang: В. С. Гарбузова. Поэты Турции первой четверти XX века. Изд-во ЛГУ, Ленинград, 1975, 5-бет.

Qo'ldagi qirmizi qizil bayroq,  
Ishchi mehnat eliga jondir bu!

Mustabidlarning ofati joni,  
Boylarga qip-qizil ziyondir bu!

«Barcha olam ishchilari»ni bu «muqaddas bayroq» tajiga «to'planish»ga chaqiradi. She'rda eski tuzum bilan yangi tuzum – «Qizil bayroq» va «Ola bayroq» qarama-qarshi qo'yiladi. Shoir sovet tuzumini shunday ulug'laydi:

Ola bayroq zamonini o'ylang,  
Siza onlar nalar qilar edilar.

Uyushing, to'planing – ko'tarmak uchun  
Butun olamg'a posibondur bu.

Partiyaning ko'ngilli otryadi – partiya drujinachilarini, yangi tashkil topgan «Qizil qo'shin»ni sidqidildan tabriklaydi. («Fikrimiz oloylarini», «Qizil qo'shin» kabi.) Firqa oloylarining zo'rlik asosiga qurilgan bolsheviklar nuqtayi nazarini qabul qilmagan barcha kishilarni dushman sifatida yo'q qila-yotganini, qizil qo'shin «Kim biz bilan birga bo'lmasa, dushmanimizdur!» degan shior asosida qirg'in-barot uyush-tirganini ko'pincha anglamaydi. Boshqa bir o'rinda esa mana bunday satrlarga duch kelasiz:

Har soniyada o'zga olam, o'zga jafodur ko'raman,  
Har soat ichinda necha bing dard-alamdur ko'raman.

Har kecha tilarsan o'lajak, ertasi ravshan,  
Ul kunduzi kechunda batar toza fanodur ko'raman.

Har kun boshinga turfa balo toshi yog'ilgay,  
Har go'shada bo'lsang-da, qudurat-la qazodur ko'raman.

Derlarki, oying yar(i)si qaro, yar(i)si ravshan,  
O'ttuz kuni ham bizga butun qop-qarodur ko'raman.

Derlarki, qiyomat o'lajaq juma kunida,  
Bayram kunimiz mahshari vahm ro'zi jazodur ko'raman.

Hijron o'tadur hasrat ila oy-u yilimiz,  
Har asr biza bir to'da g'am oh-navodur ko'raman<sup>1</sup>.

Inqilob baxt, farog'at olib kelmog'i, zulmning ildizi

<sup>1</sup> «Ishtirokiyun» g., 1919, 13-fevral, 69-son.

qirqilib, adolat gullari barq urishi lozim edi-ku! Nega bunday bo'ldi? Nahotki, «Inqilobni daholar tayyorlaydilar, muta-assiblar amalga oshiradilar, muttahamlar rohatini ko'radilar» degan Bismark yana haq bo'lib chiqdi<sup>1</sup>!

«Shonli inqilob»ning millatlar boshiga, birinchi navbatda, rusning o'ziga qancha ofat keltirganiga oid yangi-yangi hujjatlar, materiallar chiqmoqda. Mashhur Dostoyevskiy bundan yuz yilcha oldin sotsializm degan g'oya yuz million rusning boshiga yetishi mumkinligini aytgan ekan. Soljenitsin bir intervusida 1917-yildan 1959-yilgacha bo'lgan qatag'onlar misolida buni hisoblab chiqarib bergen edi<sup>1</sup>.

Lekin «shonli inqilob» yillari uning fojiali oqibatlari juda kam kishining xayoliga keldi. Deyarli hamma inqilobning tantanavor ohanglariga mast-u mustaq'riq edi, ixtiyorsiz u bilan baravar qadam tashlardi.

Avloniy ko'plab sharqiya mashqlar ham yozdi. Sharqiya-chilik inqilob yillarida juda keng tus olgan. Sabablari ma'lum. Ommaga ruh berish lozim edi. Avloniy o'sha yillari «Hurriyat marshi», «Qizil tayoqchilar marshi», «Tolibi ilm marshi» kabi bir necha marshlar yaratgan. Shoir «Hurriyat marshi» she'rida Turkistonni hurriyat bilan tabrik etadi, uni «hur bo'lib yashashga», «bir bo'lib yashash»ga undaydi:

Hur bo'lib yasha, bir bo'lib yasha!  
Hamla javobni emdi sen tasha!

Shonli hurriyat – Turkistonniki,  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!

Barcha ishchilar, hurriyat – sizning,  
Jahl-u zulmdan barchangiz bezing!

Shonli hurriyat – Turkistonniki,  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!

Ma'rifating qur, tezroq, ey o'g'ul,  
Ilm onasidan hur bo'lib tug'ul.

Shonli hurriyat – Turkistonniki,  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!

Ushbu «Hurriyat»ning «shonli» emasligi va Turkistonniki bo'Imaganligi unga hali ma'lum emas.

<sup>1</sup> Карап: «Комсомольская правда», 1991, 4-июнь.

Bu sharqiyalar, jumladan, «Hurriyat marshi» uning zamondoshlarida katta taassurot qoldirgan. Masalan, Sadriddin Ayniy she'rdan g'oyat ta'sirlangan va o'zining mashhur «Maktab marshi» («Ishtirokiyun» gazetasi, 1920-yil, 48-son) she'rini yozgan. Ayniy o'z she'riga Hijronning «Hurriyat sharqi»siga o'xshatma deb izoh bergen.

Avloniy 17-yildan keyin yana 17 yil yashagan bo'lsada, ijodda ham, faoliyatda ham inqilobdan ilgarigidek serharakat bo'lgan emas. Hatto birorta ham adabiy-badiiy kitob yoxud to'plami bosilmagani ham buni ko'rsatib turibdi. To'g'ri, «Nabil», «Indamas», «Shuhrat», «Tangriquli», «Surayyo», «Shapaloq», «Chol», «Ab», «Chegaboy», «Abdulhaq» kabi imzolar bilan gazeta-jurnallarda, ayniqsa, «Mushtum»da ko'plab hajviyalar — she'rlar, kulgi hikoyalar bostirib turdi. Lekin katta, jiddiy ishlar qilmadi. Ammo she'rlarida qochiriqlar, taggaplar ko'payib bordi. Masalan, uning «Mushtum»ning 1923-yil, 15-sonida bosilgan «Bir munofiq tilidan» she'rige e'tibor bering:

Men bir shunday kishidurkim, hech kimsa  
 «Sen yamon!» — deb hech shikoyat qilmag'an.  
 Men shunday bir usta kishidurmankim,  
 Kimsa mening qilar ishim bilmag'an.  
 Xalq qoshida dindor bo'lub, din lofin  
 Urub, tinmay: «Din, Din!» deya so'zlayman.  
 Agar biror jadid astlik uchrasa,  
 Maorifdan so'zlab, uni aldayman.  
 Chunki meni hech bir kimsa bilmaydir!  
 Men kimdirman — sira-sira sezmaydir.  
 Ayog'imga mahsi-kovush kiyganman,  
 Ustimga-da keng bir chopon ilganman.  
 Yolg'izgina ichdan kiygan kamzulum,  
 Kalta etib, miyiqni-da qirganman.  
 Ha-ha-ha-ha! Qanday aldab yuraman,  
 O'zim kimman? Oni o'zim bilaman.  
 Menga qolsa birdir yosh-u qarisi,  
 Yaxshi-yamon olamdag'i barisi.  
 Yolg'uz menga kerak erur shu qornim,  
 Budur mening kecha-kunduz tilagim.  
 Shu qornim-chun har ishni-da ishlarman,  
 Istar esam, xalqimni-da sotarman.

Kim u? Oddiy bir munofiqmi yoki inqilob irodasini bukib, intilishlarini jilovlab, o'z oqimiga ag'darib surib olib ketayotgan o'zbek ziyyolisingning tavba-tazarrusimi? Bizingcha, bu yerdagi ikkiyuzlamachilik u qadar jo'n emas. Uni shunchaki «kishi fe'lidagi bir qusur-da», deb o'tib ketib bo'limas. U atayin yaratilgan qusur. Muallif bir kishini emas, butun ziyyolini buqalamunga aylantirib qo'ygan inqilobni, sho'ro hukumatini nishonga olmayaptimikan?

O'ylaymizki, Avloniyning inqilobdan keyingi «faoliyatsiz»ligining shu xil teran sabablari bo'lishi kerak.

Julqunboy 1923-yildagi «Olti yillik bazm»da safdoshlariga hazil yozarkan, Avloniy haqida «bir mahal garmes tegib, kutilmagan joyda qora kosov bo'lib qoldi. Hozirda o'choq kovlashdan boshhqag'a yaramaydir», deydiki, bu gapning yuqoridagiga o'xhash izohlari bor.

Abdulla Avloniyni butunlay adabiyotdan chiqib ketdi deb bo'limas. Uning 20-yillardagi harakatchilikda, yosh qalam ahllarini voyaga etkazishda, ularda ijod sirlarini o'rgatishda faol ishtirok etgani ko'pchilikka ma'lum. Adabiyotga o'sha yillari kirib kelgan atoqli shoirimiz Mirtemir «Yosh leninchii» gazetasi qoshida Toshkent yosh proletar yozuvchilari seminari ish yuritgani haqida gapirib, mashg'ulotlarda Abdulla Avloniy tez-tez ishtirok etib turganini xotirlagan edi<sup>2</sup>.

Adib iste'dodli yosh hamkasblariga yo'l-yo'riq ko'rsatdi. «She'rda zo'r mahorat ko'rsatgan»<sup>3</sup> Hamid Olimjon, «iqtidorli shoir ham yozuvchi»<sup>4</sup> G'afur G'ulom, «taniqli shoir»<sup>5</sup> Uyg'un haqida matbuotda fikrlar bildirdi.

Fors, rus, ozarboyjon, arab tillarini durustgina bilgan, sharq va g'arb madaniyati klassiklari bilan yaxshigina tanish bo'lgan Avloniy 20-yillarda samarali ilmiy ishlar ham olib bordi. 1930-yilda SAGU pedagogika fakultetining til bilimi kafedrasi bo'yicha professor bo'lib tasdiqlangani bejiz emas. Ilmiy xodimlar seksiyasida, O'zdavnashrda, Respublika ter-

<sup>1</sup> «Mushtum». 1927, 4-son.

<sup>2</sup> Qarang: «O'zbek tili va adabiyoti» j., 1973, 6-son, 44-bet.

<sup>3</sup> Qarang: Prof. A. Avloniy. Adabiyot xrestomatiyasi, T.. 1933. 378-bet.

<sup>4</sup> Shu asar, 376-bet.

<sup>5</sup> Shu asar, 377-bet.

minologiya komitetida, Davlat ilmiy sovetida mas'ul vazifalarda ishladi.

1933-yili VII sinf uchun o'qish xrestomatiyasi tuzib nashr ettirdi. Unda 20–30-yillardagi o'nlab o'zbek adiblari hamda rus, Yevropa adabiyotining qator vakillari haqida biografik ma'lumotlar keltirilgan, ularning mashhur asarlaridan namunalar berilgan edi.

Avloniy 1927-yilda «Mehnat qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi. 1930-yilda unga «O'zbekiston xalq maorifi zarbdori» faxriy unvoni berildi.

Abdulla Avloniy 1934-yil 25-avgustda vafot etdi.

Adibning ijodiy faoliyati haqida gap ketganda, u bosib o'tgan bosqichlar, ziddiyatlar va buning samarasi o'laroq, ijodida namoyon bo'lgan ba'zi kamchiliklarni ham aytish kerak.

U o'z zamonasining jonli odami, farzandi edi. Shuning uchun uning ijodida ham zamon murakkabligi bilan izohlanadigan nuqsonlar yo'q emas. Lekin yuqorida shoirning ma'rifatchilik faoliyati va ijodiy merosi misolida ko'rib o'tganimizdek, Abdulla Avloniy hamisha o'z xalqiga, Vataniga sodiq qoldi. Buning guvohi – uning ijodi, uning faoliyat! U hamma vaqt xalq dardi bilan yashadi. U o'z xalqi g'amiga hamdardgina bo'lib qolmadi, uning istiqboli uchun qayg'urdi, unga ozodlik va baxt qidirdi, uni muqaddas g'oyalar uchun kurashga da'vat qildi. Maktablar ochib, keng xalqni ma'rifatli qilishga, yoshlarni davrning ilg'or ruhida tarbiyalashga urindi. Ta'limiy-axloqiy asarlar, darsliklar yozib, o'zbek pedagogik fikri taraqqiyotida sezilarli iz qoldirdi. Jadidchilik harakatining, o'zbek jadid adabiyotining, ya'ni milliy ong, milliy adabiyotning maydonga kelishi va taraqqiyotiga katta xizmat qildi.

Avloniy oilasi haqida.

Shoirning rafiqasi Salomat Islomova (1883–1971) uch qiz, uch o'g'il ko'rdi. O'g'llaridan Asatulla (1917–1933) va Otaliq (1925–1940) yosh, o'smirlik chog'larida vafot etdilar. 1902-yilda tug'ilgan, zamonaviy tahsil ko'rgan, har jihatdan mukammal to'ng'ich farzandlari Sora (Sobira, Sovra ham deyishadi) ning taqdiri murakkab kechdi, 46 yoshida vafot etdi. Bugungi taniqli teatr artisti Gavhar Zokirova

Sora opaning yakka-yu yagona farzandi Tuyg'unoy opa (1922-yilda tug'ilgan) ning qizi bo'ladi. Avloniying boshqa qizlari: Karima opa (1912–2001) – suv xo'jaligi muhandisi, bir qator mas'ul vazifalarda ishlagan; Hakima opa (1927-yilda tug'ilgan) – filolog, rus adabiyoti mutaxassisi. Har ikkalalari ham hozir pensiyada. So'nggi farzandlari Kenja aka (1927–1997) kimyogar edilar, uzoq yillar Toshkent texnika universitetida xizmat qildilar.

Hozirda Avloniy nomida bir qator maktablar bor. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bolalar adabiyoti bo'yicha uning nomida mukofot ta'sis etgan. Toshkent shahridagi ikki mahalla, uch maktab va ko'cha hamda Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish markaziy insitituti uning nomida.

Adib asarlarining 2 jildlik ushbu nashri uning ijodini oldingilariga nisbatan to'laroq qamrab oladi. Birinchi jildga Avloniying she'riyati va darsliklardagi ixcham hikoyalari hamda hajvlaridan namunalar kiritildi.

Ikkinci jiddan dramalari, sayohatnomasi, maqolalari va «Turkiy guliston...» o'rinni oldi.

**Begali Qosimov**

# «ADABIYOT YOXUD MILLIY SPE'RLAR»dan

## BIRINCHI JUZ\*

---

\* Birinchi (1909-y., T., Il'in litogr.) va uchinchi (1914-y. T., Il'in litogr.) nashrlariga asoslandik.

Bizim Turkiston makotibi islomiyasinda avvaldan oxira qadar ta'lim o'linajaq kitoblar «Chahor kitob», «Sabot ul-ojizin», «Fuzuliy», «Navoiy», «Xoja Hofiz», «Bedil» va «Maslak ul-muttaqin»lar kabi she'r kitoblari o'ldig'i jumlaning ma'lumidur. Bu kitoblarning ba'zisi oshiqona nazmlardan va ba'zilari e'tiqodot va amaliyoti islomiyag'a mutaalliq mushkul mas'alalardan iborat o'lg'onlardan moada aksarları forsiy tilda yozilg'onlari uchun turk o'g'li turk o'lan yosh bolalarimizning onlardan istifodalari, bir narsa anglamoqlari imkon xorijinda edi. Voqe'an, o'z ona tilini durust bilmag'on, emdigina harflarni bir-biridan ayirg'on bir yosh bolaning qo'liga «Chahor kitob» berib: «Ibtido mekunam banomi xudo» yoki «Sabot ul-ojizin» berib: «Sano lil-xoliqi g'abrov-u aflok» yoki «Fuzuliy» berib: «Qad anorral-ishqlil ushshoq minhojal-hudo» yoki «Xoja Hofiz» berib: «Alo yo ayyuhas-soqiy, adar ka'san va novilho» va soyiralalar kabi forsiy, arabiylisonlarida yozilmish eng adabiy va hikmatlik jumlalarni o'qutmak ila yerdan turib yulduzlariga qo'l uzatmak yoki igna ila quduq qazimak orasida farq yo'qtur, zanedaram. Vorsun, bu zannim xato o'lsun-da, bolalarning onlardan bir narsa anglamaklari mumkin-da o'lsun. Masalan, «Fuzuliy»dan: «Sanamlar sajdasidur bizda toat tangri chun zohid, Kimi ko'rsang, San o'z diningda taklifi namoz ayla» yoki «Navoiy»dan: «Yigitlikda qolib erdim atosini balosig'a, Qariganda dag'i qoldum balosini balosig'a»; yoki «Xoja Hofiz»dan «Nago'yamatki, hama sol mayparasti kun. Se moh may xo'ru no' moh porso mebosh» va soyiralalar kabi zohirda oshiqona o'lan g'azallarni ma'nolarin anglasunlar. Anglaganlaridan na foyda? Balki, «Falon aziz shunday deydur», — deb buzuq axloqlara mubtalol o'lmaklari tabiiydur. Mana shul sabab-la bizim yosh muharrirlarimiz bir-ikki yildan beri g'ayrat edarak, maktablar uchun o'z ona tilimizda adabiy, fanniyl, diniy va axloqiy

kitoblarni(ng) tahrir va tarjima qilmakda. Va yosh muallimlarimiz ham eski kitoblarning o'rnina ushbu yangi kitoblarni ta'lif bermakda edilar. Turkiston xalqi avvaldan she'rg'a xarisroq o'lub, savod chiqarmakni she'r kitoblarin durustlab o'quy olmakdan iborat bildiklarindan maktablarda o'qutmak uchun yana shul eski kitoblarning birina ehtiyoj ko'rulmakda edi. Kamina ham shul muallimlar jumlasidan o'ldug' umdan bu ehtiyojni-da arodan ko'tarmak va bolalarning tabiatlarina milliy hasrat va nadomatlardan iborat o'lan nasihatlarni o'rnashdurmak orzusinda o'z tarafimdan yozilmish she'rlar-g'a ba'zi adib va shoirlarimiz tarafidan yozilub, g'azeta va majmualarda nashr o'lumish milliy she'rlarni ilova edarak, «Adabiyot» unvoni ostinda ushbu majmuuning nashrina jasorat etdim. Shoyadki, birodarlarim — muallim afandilar-da banim bu jasoratimdagи qusuroti afu pardasi ila yopub, maktablarda ash'or ta'limi uchun bu majmuani intixob edarlar. Bozorlarda, do'konlarda «Bayoz» o'qub o'turguvchi adabiyot oshiqlari-da, «Qoshingdan okang, ko'zingdan okang» kabi ma'nosiz so'zlar ila to'b-to'la o'lan «Bayoz»lar o'rnig'a adabiyoti milliyamizdan iborat o'lan bu majmuani o'qusalar, daho foydaliroq o'lur edi.

## HAMD

Sanoyi hamd behad rabbanog'a,  
 Durud-u beedad haq mustafog'a.  
 Xudoning rahmati bo'lsun damodam,  
 Suyar yori aning to'rt rahnamog'a.  
 Abu Bakr-u Umar, Usmon, Haydar<sup>1</sup>,  
 Hasan birla Husayni Karbalog'a.  
 Aning avlodi as'hobig'a rahmat,  
 Yana hobi rasuli mujtabog'a.  
 Yog'ulsin doimo boroni rahmat,  
 Jamii ahli sunnat oshnog'a.  
 Illoho, qilmag'il xotir parishon,  
 Tutundim man bu kun bir ibtidog'a.  
 Xayolim lavhi ko'rsatmakda bir naqsh,  
 Habibning hurmati yetkur baqog'a.

<sup>1</sup> Alining laqabi.

Nafas tori bilan jon rastasidan  
Qo'shay ovoz bir millat sadog'a.  
Kecha-kunduz g'ami millatda Hijron,  
Gado, chun chang urur qimmatbahog'a.

### BIZ, MILLAT

Na xo'rliq, na kasołat? — Doimo afgor biz, millat,  
Hama gul dasta qilsa. Ne terarmiz? — Xor, biz, millat.  
Jaholat qaziyasi do'ndurdi istiqboli rif'attan,  
Ma'oz-illoki, na iqror, na inkor — biz, millat.  
Tutub selobi g'aflat mayji g'amg'a tashladi, hayhot,  
Jahon Jayhunlarig'a to'mayi tayyor — biz, millat.  
Tamaddunfeshalikdan o'zgalar ruhi mujassamdur,  
Hayota qobil ermas, surati devor — biz, millat.  
Hama ilm-u hunar asbobini olmaqni istarsa,  
Chafon, chalma, riyo sotmoqg'a xo'b tujjor — biz,  
millat.

Tafakkur soyasida o'zgalar shahd-u shakar ersa,  
Tururmiz baqrayib har go'shada bekor — biz, millat.  
May-u minosini tark aylasa ag'yor, bizlar, oh,  
Ichib jomi jaholatdan, hamisha zor — biz, millat.  
Hama kasb-u kamolot etsa hosil ilm-fan birla,  
Shifirguchi, yamoqchi, xayrchi — ko'b xor — biz, millat.  
Taqozoyi zamon, har jins kiysa jismig'a loyiq,  
Qilib qof-xaltadan ko'lmak-chopon — beor — biz, millat.  
O'zi bilmas, sani dushman, sani johil bilur, Hijron,  
Hayot-u ruh kerakmas — jismidan bezor — biz, millat.

### MAKTAB HAQINDA

Biling, o'g'lonlarim, sizlarni g'amdan qutqarur maktab,  
Siroti mustaqim, rohi adamdan qutqarur maktab,  
Maishat bobida ranj-u alamdan qutqarur maktab,  
Hayot-u ruha dushman jahli samdan qutqarur maktab,  
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,  
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Taraddud birla doim dur oling daryoyi maktabdan,  
Tering jon rastasig'a xo'b zabarjadhoi maktabdan,  
Topar maqsudini har kim qidirsa loyi maktabdan,  
Umidum shul, jo'juqlar, uzmasanglar poyi maktabdan —

Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,  
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Cholishmaq birla doim to lahad borguncha ilm ista,  
Hadisi mustafodir: Shahri Chin borguncha ilm ista,  
Sihatsan to badang'a harfi mad borguncha ilm ista,  
Qo'yub ohista-ohista qadam, horguncha ilm ista,  
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,  
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Jahonda barcha ne'matdan laziz ilm o'lmasa, nedir,  
Hunar bog'ida tubi qad aziz ilm o'lmasa, nedir,  
Nasimi mushki totori tamiz ilm o'lmasa, nedir,  
Gulob, tarbiyati jahli mariz ilm o'lmasa, nedir.  
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,  
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Hama xursandlikni ma'danidur ilm, ey o'g'lon,  
Hama fazl-u karamni manbayidur ilm, ey o'g'lon,  
Hama xo'blarni xo'bin maskanidir ilm, ey o'g'lon,  
Hama islom elini masnadidur ilm, ey o'g'lon,  
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,  
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Takabburlar qatorida havog'a bo'lmasang mag'rur,  
Dutor-u tanburu chang-u navog'a bo'lmasang mag'rur,  
Taraddud vaqtida bazm-u kazog'a bo'lmasang mag'rur,  
Bo'lib hajrida Hijron mahliqog'a bo'lmasang mag'rur,  
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,  
Shahodatnomayi firdavsi g'ilmonni berur maktab.

### FALAK KAJRAV, YO RAB

Falak kajrav bizi ag'fola aylandurdimu, yo Rab,  
Va yo xurshidi nuri ko'zлari tindirdimu, yo Rab,  
Qamar qon og'latib bizlarg'a nuqson verdimu, yo Rab,  
Taajjub, yulduzi iqbolimiz g'am yerdimu, yo Rab,  
Tutub abri jaholat bizni pinhon qildimu, yo Rab.

Tamoman bizg'a berdi yo zamin, yo osmon g'aflat,  
Havo berdi biza onjaq nasimi dilkushon g'aflat,  
Zamona nahri su o'mig'a berdi, oh, qon g'aflat,  
Zimistoni jahonda bormu bizdek titragon g'aflat,  
Bahori tarbiyat bizlarg'a to'fon erdimu, yo Rab.

Zamona ahli derlar bizni fandan bexabar, hayhot,  
Ziroatdan, sanoatdan xabarsiz besamar, hayhot,  
Qilib tark amrini sharr ishlayurmiz, alhazar, hayhot,  
Hunarda posibon hammoldurmiz darbadar, hayhot,  
Bu hikmatlar biza ro'zi azaldan erdimu, yo Rab.

Ulum ahli bo'lub bir-birg'a zid nafsonayi sarxush,  
Muallimlar usul atrofida parvonayi sarxush,  
Jo'juqlar tarbiyatsiz, ilmdan begonadur sarxush,  
Avomun-nos g'iybat hosili afsonadur sarxush,  
Eshon, so'si tama' jomig'a xo'randsirdimu, yo Rab.

G'anilar himmati to'y-u tamoshog'a ketar, Hijron,  
Zamona bo'stoni, fasli gul eldek o'tar, Hijron,  
Faqir bechora bulbuldek vatan g'amda yotar, Hijron  
Boqing ahli basirat g'uncha dilni chok etar, Hijron,  
Jaholat jismimizg'a xor o'mashtirdimu, yo Rab.

### ISTAMAS

Hech inson dunyoda faqr-u fanoni istamas,  
Hech tan o'z jonig'a ranj-u baloni istamas.  
Aylama pand-u nasihat nokasa behudakim,  
Qobiliyat bo'lmasa, sharm-u hayoni istamas.  
Ilm rohidan adashgan besarupolar abas,  
Bexabar kavnayndan, rohi xudoni istamas.  
Mayli jannat aylamas diydoridan ummidvor,  
Tolibi diydor emas, amri xudoni istamas.  
Sidq ila shar'i payambarg'a amal qilmaski ul,  
Ro'zi mahsharda Muhammad Mustafoni istamas.  
Choriyori bosafog'a har kishi munkir esa,  
Ul Hasan birla Husayni Karbaloni istamas.  
Har kishida bo'lmasa ixlos hubbi xonadon,  
Nuri chashmi Mustafo xayrul-nisoni istamas.  
Har kishini tab'ida gavharshinosi bo'lmasa,  
Qadri qimmat bilmasa, qimmatbahoni istamas.  
Kimki ummattur, biling, har ishda payravliq qilur,  
Aysh-u ishratdan kechub zavq-u safoni istamas.  
Ummat ersa har kishi millatni anduhin chekur,  
Kimki Hijron bo'lmasa, millat kazoni istamas.

**USHBU «ADABIYOT»A TURKISTON  
AHLINDAN JAVOB**

Afandim, bu sizning afg'oningiz bizlarga kor etmaz,  
Ocharga ko'z qani bizda, imolar aslo or etmas,  
Xazon bo'lg'on gulistonidur, gulini ixtiyor etmaz,  
Sizingdek bing muxotib dodi faryodi mador etmaz,  
Nechuk chiqsun bu millat, g'ayrat-u himmatni yor etmaz.

Qani er bizda uyqudan uyog', xotin qatorinda,  
Dil-u jonin jaholat qoplamish, yotmisht mazorinda,  
Nechuk ibrat olur jonsiz jamod ul qabri zorinda,  
Na deb so'z tinglayurkim, punba g'aflatgo' shikorinda,  
Nechun tursun bu g'aflatdan tag'oful e'tibor etmaz.

Bu jahliston eliga va'zlar kor etmagay, faryod,  
Bu sangin dillari tepkular ozor etmagay, faryod,  
Bu osiyo sangin ustida turpo ketmagay, faryod,  
Bu ko'histon dilini kahfi xobi bitmagay, faryod,  
Yotar doim farog'atda na nanggu or g'or etmaz.

Bu mavhistonda bermas ibrat-u g'ayrat samar, hayhot,  
Hama yo'l ko'rsatuchilar tama'chi, darbadar, hayhot,  
Bu fanlardan xabarsizdur, falaklar qars urar, hayhot,  
Yahud-u armani, lotishlar aylar alhazar, hayhot,  
Abu Jahl-u Yazidlar biz kabi millatni xor etmaz.

Taraqqiy yo'lini tushsunmi yo sha'sisidan qolsun,  
Funun-u ilmdan ibrat desa, pul topmadan qolsun,  
Maishat bobida pul topsin-u o'z jaybina solsun,  
Boqub hirsil ila ta'rixa, Qorundan na deb qolsun,  
Nasihat aqchasisiz bu sangi dillarda qaror etmaz.

Yahudiylar kelib savdoni andak qismini oldi,  
Shupurg'uchi, yamoqchi, xayrchilik bizg'a ham qoldi,  
Yahudiylar ko'rub turk ittifoqin aqlidan toldi,  
Yasab shirkat g'anilar yig'di pul, joyi asil qoldi,  
Tanazzul iftiroq etmakda bizlar sharm-u or etmaz.

Bu ko'histong'a maktabni solur sahroyilarmu, oh,  
Hunar birla funun tahsil etar qishloqilarmu, oh,  
Muallim yetkarur kim? Bu qadim taryokilarmu, oh,  
Madorislarni kim isloh edar, shalloqilarmu, oh,  
G'arib-u bekas-u bechorani odamqator etmaz.

G'anilar o'rtamizda bor, himmat nishlari burron,  
Faqirlar jismini tishlab olurg'a tishlari burron,  
Xusumat aylamakda dildagi g'ul-g'ishlari burron,  
Jamoat, xayrni buzmak uchun qirqishlari burron,  
G'ariblar jismig'a bunday alamni zahri mor etmaz.

Biza lozim erur axloq ta'limig'a bir o'n yil,  
Jaholat jomi bizdan tark o'lur, gar kechsa besh-o'n yil,  
Ulumi ma'rifatdan to xabar topmak-la o'n-o'n yil,  
Chirog'i ilm uchun Hijron bo'lub yotmakka yuz o'n yil,  
Agar bing yil nasihat yog'gani-la sabzazor etmaz.

## SADOQAT BIZDA YO'QDUR...

Sadoqat bizda yo'qdur, demakim, yalg'onimiz bordur,  
Ulum-u ma'rifatdan demakim, nuqsonimiz bordur.  
Demakim, amri ma'ruf aylamakka bizda yo'q bir kas,  
Ki har bir go'shai jome'da mashrabxonimiz bordur.  
Muddarislarda yo'q isloh, deb (on) oh urma behuda,  
Bo'lur tahsil hosil, deb dalil yozg'onimiz bordur.  
Tabobat bobida bizdan muqaddam hech millat yo'q,  
Alaflardan davo qilg'uvchi bing Luqmonimiz bordur.  
Tijorat aylamakda pasda qolduk, deb yema anduh,  
Tama'dan aqcha to'plar milyoner eshonimiz bordur.  
Hakimlik bizdadur onjaq, buni ag'yor bilmas, oh,  
Chibiqlar birla jin quvlar qasidaxonimiz bordir.  
Bizim ham ilm-u fandin bexabar, deb, aylama tahqir,  
Tramvoydan tusholmay dumbaloq otqonimiz bordur.  
Adab bobida tanho o'zgalar lof urmasun, oxir,  
Hazil o'rning'a badnom-u haqoratdonimiz bordur.  
Muhandis bizda yo'q, deb noraso so'z demagil, notiq,  
Sharorat tog'ida mino topib olg'onimiz bordur.  
Safoni so'fida, obidni mehrobida ko'r, doim,  
Ibodatni riyolay aylar bizim shaytonimiz bordur.  
Taajjublanma, Hijron, san, tafofulpeshadur  
kajrav,  
Yotar, yig'lar, kular, ishlar – ajab davronimiz  
bordur.

**OLAM ICHRA KO'RMADIM...**

Olam ichra ko'rmadim kizb-u xiyonatdan bo'lak,  
Mehr-u shafqat o'rniq'a shaxsiy adovatdan bo'lak.  
Hamshikamlar, hamnafaslardan farog'at ko'rmadim,  
Oh, ko'nglum pora-pora, dil jarohatdan bo'lak.  
Oshino yor-u birodardan muqarrar chektim al,  
Hech bir shay ko'rmadim g'iybat, haqoratdan bo'lak.  
Demak istarman xuruji Mahdii Iso qarib,  
Uchramas bir shay ko'za ayshu sharoratdan bo'lak.  
Shayxlar sayyod o'lub, saydi murid o'ldi, darig',  
Zuhd-u taqvoni va qilsunlar sayohatdan bo'lak.  
Ilm istarlar amaldan zarracha yo'qtur nishon,  
Istamaslar bir shayi nazr-u saxovatdan bo'lak.  
Millati islom uchun hech kimsa zahmat chekmasun,  
Bizga onjaq yo'q zarar zahmat xijolatdan bo'lak.  
Istama Hijron o'lub nojinslardan daf'i g'am,  
Bu shajarlarda samar yo'qtur jaholatdan bo'lak.

**AFSUS**

Afsus, bizim dog'ladi, yondurdi bu matlab,  
Na tab', na matbaamiz vor, na maktab.  
Na ilm-u na ta'limi qiroat, na murattab  
Hayhot, bizim qopladi, ko'r jahli murakkab,  
Ovorayi sargashtai zor og'ladik og'lab.

Xodimlik o'lubdur kecha-kunduz biza pesha,  
Hosidlik o'lub bir-birimiz birla hamisha,  
Donandayi fahmanda urur millata tesha,  
Millat shajarinda na qolub shox, na resha,  
Behosil o'lub hosil, xor og'ladik og'lab.

Qo'y zohid elin, go'shada qilsunla(r) ibodat,  
O'z nafsina oroyish o'lub solsun amorat,  
Balki avzina topar mahshar kuni jannat,  
Yo'x onlari daxli tusha gar cho'llara millat,  
Shaxsilik ila aksari kor, og'ladik og'lab.

Qo'y, boylaring holina etsunla(r) tijorat,  
Pullarni qo'yub bonkaya, topsunla(r) ijomat,  
Faqr ahli edub bir-birina kizb-u xiyonat,  
Ismi o'lan Isloma na maktab, na sinoat,  
Pul, pul qozonub, oxiri nor og'ladik og'lab.

Yo'x zarracha, e voy, g'anilar saxovati,  
Maktab so(l)sa bo'lsunmi ani xarj manoti,  
Ko'rsatma alarga din-u millat xarajoti,  
Ma'sum jo'juq o'ynaya bersun jasoti,  
Cho'b ota minub oxiri mor og'ladik og'lab.

Farmoyishi payg'ambara bizlarda amal yo'q,  
Farz-u vujubu sunnata bizlarda mahal yo'q,  
Millat ishini ishlamaga jahd-u jadal yo'q,  
O'lduk badaviy, bizda qavonini milal yo'q,  
Hosil ishimiz jurmi kibor og'ladik og'lab.

Sharb-u maya oludadu(r) bizlarda javonlar,  
Kanyak-la to'lur vaqtি safarda chamadonlar.  
Suhbat yerimiz bo'ldi numir-u resturanlar,  
Ko'r, ko'zlara, oh, uchramayur, g'ayri siyonlar,  
Sargarm o'lubon, dilda g'ubor og'ladik og'lab.

Hojilari ko'r, ishlari har yerda riyodur,  
Olimlari ko'r, domi tama', kori ribodur,  
Johillari ko'r, kizb-u xiyonatda jalodur,  
Ojizlari ko'r, zor-u giriftori balodur,  
Oluda o'lub abri bahor og'ladik og'lab.

Har yerdaki, ilma bizi targ'ib eta(r) mazhab,  
Tahsili ulum etmaka bizda qani maktab,  
Millat bolasi to o'qusun – hal o'la matlab,  
Nokaslara Hijron o'lubon, o'lma muxotab,  
Hayhot, jaholat biza yor, og'ladik og'lab.

# «ADABIYOT YOXUD MILLIY SHE'RLAR»dan

## IKKINCHI JUZ\*

*Fe 'li insonning haqiqiy foili vijdonidur,  
Hokimi qonuni hukmi hosili vijdonidur.*

---

\* Birinchi (1912-y. T., Il'in litogr.) va uchinchi (1917-y., T., «nar. Sos. Revolyus.» Tipolit.) nashrlariga asoslandik.

Qalam qudratini olama qilib insho,  
Iki jahong'a iki harf ayladi imlo.

Bu korxona bir ustoddin emas xoli,  
Kerak bu qudrata, albatta, qodir-u dono.

Yetolmas aql qushi uchgani-la bir chetina,  
Ajab vasi' bu ayvonin ayladi barpo.

Yaçatti ichrusida ins-u jinsnai sajda uchun,  
Malaklar aytadir tominda «robbi-al-a'lo».

Karamxonanda na'im oshno-u begona,  
Bu ostonaga bosh urmiyurmi shoh-u gado.

Karimdurki, kechar bandasin gunohini,  
Desa xatosini afuin tilab xudovando.

Azizdurki, eshidigin birovni gar quvsai,  
Iki jahon eshidigindan topolmayur ma'vo.

Ko'rurmiz olam aro turfa-turfa maxluqot,  
Yarotti barchasini juft xoliqi tanho.

Yaratti yer yuzida eng musharraf insonni,  
Berib farosat-u aql-u tilin qilib go'yo.

Bino qilib iki olamni hazrati fayyoz,  
Tufayli hazrati kavnayn, sayyidi barno.

Yubordi yer yuziga bir necha payambarlar,  
Arolarinda edi afzali habibi xudo.

Atomiz Odam-u Havvoni qo'ydi jannatiga,  
Tushirdi yer yuziga, aylab erdilarki xato.

Birini qavmini to'fon ila halok etdi,  
Birin tirikligida ayladi makonin a'lo.

Birini qavmini qildi halok sarsar ila,  
Biriga tosh ichidan teva chiqdi, tug'di balo.

Birini otasha otdurdi qudrati birla,  
Birini qavmini zer-u zabar qilib Mavlo.

Birini qildi o'n iki o'g'il ila xushhol,  
Xususan, ichlarida erdi Yusufi barno.

Hasad balosini berdi og'alarin dilina,  
Asir Yusuf-u Ya'qub Yusufina ado.

Sinor haqinda birin saxt ayladi ranjur,  
Baloga sobir ekan, berdi oxirida shifo.

Birini qavmini otash ila qilib barbod,  
Birini qavmini bir sayha birla jo bar jo.

Birini dushmanidan asradi aso birla,  
Suv uzra ko'pruk edi, dushman uzra ajdarho.

Birin qo'linda temir mum kabi erir erdi,  
Birini hukmini ostinda erdi bodi sabo.

Birovga Qodir atosiz o'g'il ato qildi,  
Zamona zolim ekan ko'p ko'rolmadi Iyso.

Birini ayladi me'roj kechasi mehmon,  
Bu rutba hech payambarga bo'llmab erdi ato.

Bularni har birini ko'ndurub bir ummatga,  
Bularni har biridin necha millat etdi bino.

Bularni ayladi taqsim firqa-firqa qilib,  
Biriga berdi xato yo'lini, biriga hudo.

Biri jafo qilur erdi o'zin payyambarina,  
Biri xulusi dil ila der erdi «Omanno».

Birini ayladi Iysoyi, birini Musoyi,  
Birini qalbini ko'r ayladi, birin bino.

Kifoyadur bu sharaf ummati Muhammadga,  
«Qoshimdadir, — dedi, — islom dinidur bolo».

Aziz ekan nega xor o'ldi, haq o'zi bilgay,  
Bizimcha, bunga sabab bo'ldi a'lam-u ulamo.

Saodat asrida qildi taraqqiy dini mubin,  
Uzoqladiqcha saodatdin o'ldi asr – asri fano.

Nifoq-u bug'z-u xurofota uchradi islom,  
Tushib amaldin asir o'ldi hikmati hukamo.

Tanazzul ayladi, bordiqcha millat o'ldi g'arib,  
Baloyi nafsa cholishdilar aksari xulafo.

G'arib millat uchun hech kim o'lindi Hijron,  
Tarahhum ayla o'zing, ey a'lami sirri xafo.

### **NA'TI RASULI AKRAM**

Ul kunki, erdi olami islom beadib,  
Insonlar edi kufr-u zalil ichra dilsirib,  
Lot-u Uzzoni vaqtি xarobi edi qarib,  
Islom uchun kerak edi bir rahnamo xatib,  
Dunyo quchog'ina sizi qildi xudo nasib,  
Mavludingiz-la berdi iki olamig'a zeb,  
Sizdin tarahhum istayur islom, yo habib,  
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Haq berdi sizga ul kuni lovlok xilqati,  
Mo'jiz uchun berib siza Furqon oyati,  
Oyni ikiga bo'ldingiz aylab ishorati,  
Ey, sohibi muassisi islom millati,  
Haqdin tilab hamisha gunohkor ummati,  
Haq va'da qildi kavsar-u jannat shafoati.  
Sizdin tarahhum istayur islom, yo habib,  
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Adl-uadolat erdi hama kori boringiz,  
Ummat debon kechur edi layl-u nahoringiz,  
Islom sabz ayladi fasli bahoringiz,  
Serob qildi tashnalari shar'i joringiz,  
Tutdi livoi shar'ingiz chahor yoringiz,  
Bul kun g'arib millat-u biz intizoringiz,  
Sizdin tarahhum istayur islom, yo habib,  
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Me'roja chorladi sizi qurbat uchun Jalil,  
Oyat buyurdi masjidi Aqsog'acha dalil,

Andin samog'a boshladi qo'lingizda(n) Jabroyil,  
Bo'ldi sayohatingiz-la samo atri zanjabil,  
Fazl-u fasohatingiz-la malaklar edi xijil,  
Topdi vujudingiz sharaf ayni salsabil,  
Sizdin tarahhum istayur islom, yo habib,  
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Rif'at buyurdi haq sizi to'qquz falaklara,  
Payg'ambar ayladi sizi ins-u malaklara,  
Ummat g'aminda bog'ladingiz tosh yuraklara,  
Haq jilva berdi siz bila shol-u yifaklara,  
Holi inoyatingizdan o'tdiki bu mardumaklara,  
Millat shafoat istadi bul kun tilaklara,  
Sizdin tarahhum istayur islom, yo habib,  
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Ummat xatog'a qildi jadal, qilmayur savob,  
Millat xarob-u hol xarob-u vatan xarob.  
Shar'i sharif ishlamayur holi iztirob,  
Bulbul yerina qildi vatan bu zamon g'arob,  
Ilm-u amalni o'rniga ummat ichar sharob,  
Dillar kabob-u bag'r kabob-u yurak kabob,  
Sizdin tarahhum istayur islom, yo habib,  
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

As'hobi shar' bo'ldi, ajab, zor-u notavon,  
Donanda lol-u johil sharmanda — nuktadon,  
Bog'i fasod gulshan-u millat guli — xazon,  
So'ldi guli shariat-u bulbullari — nihon,  
Ahkomi shar' o'rniga jahl o'ldi hukmron,  
Millatni bog'i bekas-u mahv o'ldi bog'bon,  
Sizdin tarahhum istayur islom, yo habib,  
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Bu na zamonki, millati holi zabundur,  
Bug'z-u adovat o'rtada haddan fuzundur,  
Har kas o'zining nafsi uchun sarnigundur,  
Jahl o'tina yonib dilimiz la'lgundur,  
Ummat amalni tashladi, ko'z yoshi xundur,  
Hijron — biz, o'zgalar hama sarvati funundur,  
Sizdin tarahhum istayur islom, yo habib,  
Boq, ummatingiz(ni) holina bemor ham g'arib.

Ilm bog'inda bizam toza bakom o'lmaliyuz,  
 Ilm gulzorina bulbul kabi rom o'lmaliyuz,  
 Ilm vaslina xiradmandi xirom o'lmaliyuz,  
 Ilm ila millati isloma g'ulom o'lmaliyuz,  
 Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,  
 Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

Ilm uchun bizga bo'laklar kabi g'ayrat lozim,  
 Ilm uchun bizga muallimlara diqqat lozim,  
 Ilm uchun bizga muruvvat bila himmat lozim,  
 Ilm uchun bizga taraddud bila xidmat lozim,  
 Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,  
 Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

Ilmsizlarga jahoning keng uyi tor o'ldi,  
 Ilmsizlarga zamon bermaki ozor o'ldi,  
 Ilmsizlarga hama dard-u alam yor o'ldi,  
 Ilmsizlarga maishat yo'li dushvor o'ldi,  
 Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,  
 Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

Ilmdur iki jahon manzilining a'losi,  
 Ilmdur iki jahon masnadining bolosi,  
 Ilmdur iki jahon rohatining ma'vosi,  
 Ilmdur iki jahon shavkatining barposi,  
 Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,  
 Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

Ilm bir gavhari noyob, yo'q, o'imas, bitmas,  
 Ilm bir nuri ziyodurki, jilosи ketmas,  
 Ilm bir nuri ilohiy – kishini xor etmas,  
 Ilm bir quvvat erur – millatini mahv etmas,  
 Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,  
 Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

Ilmsiz ushbu zamonlarda yashar kun bitdi,  
 Ilmsiz xobi kasolatda yotar kun ketdi,  
 Ilmsizlarni bilimlik yo'q etar kun etdi,  
 Ilmsizlik bizi, Hijron, yashatur kun o'tdi,  
 Yashamak istar esak, ilma ravon o'lmaliyuz,  
 Ilmsiz qolsak, asoratga nishon o'lmaliyuz.

## MAHBUBLARIMA BIR XITOB

Asrimiz asri taraqqiy, bizda mag'ruri xayol,  
Ittifoq-u ilmsizlik bizni qildi bemajol,  
Oh, g'ofil millating uyqudin uyg'otmak mahol,  
Og'lasun qon ko'zlarim millat g'aminda bemalol.

Ittifoq-u ilm, islom ahlina go'star jamol,  
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol?

Avvalo bizlarga xushguftor erding, tashladning,  
Biz bila har yerda hamraftor erding, tashladning,  
Bizlara xo'b munis-u g'amxor erding, tashladning,  
Qil muruvvatkim, qadimlar yor erding, tashladning.

Ittifoq-u ilm, islom ahlina go'star jamol,  
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol?

Ko'b zamondur yovrupalularg'a bo'ldung oshno,  
Jurmi ne bo'ldi, bizim zulmatda qoldi Osiyo,  
Amriqo vahshiylari nuringdin oldilar ziyo,  
Qoldimiz biz Amriqo, Oqyonusolardan fano.

Ittifoq-u ilm, islom ahlina go'star jamol,  
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol?

O'zgalar sen birla olamni musaxxar qildi, oh,  
Rahnamo aylab sani, kasb ayladi sun'i iloh,  
Dengiz-u yer – osmonlarda barobar topdi roh,  
Emdi navbat bizlara yetdimu, qil bir yo'l nigoh?

Ittifoq-u ilm, islom ahlina go'star jamol,  
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol?

Asrlardur boqmayin jahl o'tina yoqding bizi,  
Hasrat-u anduh ila bejon kabi boqding bizi,  
Mehnat-u g'am toshi birla doimo choqding bizi,  
Dahr fatvosi-la Mansur dorina toqding bizi,

Ittifoq-u ilm, islom ahlina go'star jamol,  
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol?

Ayrlub, sandan fano bir hola dushtuk oqibat,  
G'iybat-u bug'z-u adovat-la yurishtuk oqibat,  
Xayrdin yuz do'ndurub, sharrga tirishtuk oqibat,  
Masjid-u mehrob-u minbarda urushtuk oqibat,

Ittifoq-u ilm, islom ahlina go'star jamol,  
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol?

Jam'i mol-u mulk barbod o'ldi sandin ayrılib,  
Bo'ldi tafriq olami Islom sandin ayrılib,  
G'ayrlar zorib, biz(l)ar mazruba sandin ayrılib,  
Bo'ldimiz xo'b qobili taqsim sandin ayrılib.

Ittifoq-u ilm, islom ahlina go'star jamol,  
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol?

Har zamonning bir Zulayho, Yusufi barnosi bor,  
Vomiqing Uzrosi bo'lsa, Majnuning Laylosi bor,  
Ko'hkan boshinda Shirinning ajib savdosi bor,  
Bilmazam, mahbublarining buncha istig'nosi bor.

Ittifoq-u ilm, islom ahlina go'star jamol,  
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol?

Hosili sizdin umidim budur, ey mahbublar,  
Ko'z qarosi, bag'r qonimdan yozib maktublar,  
Derman: aldanmang falak zolim so'zina, xo'blar,  
Hajrida Hijron kabi ovozangizdur ko'blar.

Ittifoq-u ilm, islom ahlina go'star jamol,  
Tobakay hajringda bizlarni qilursan poymol?

### MAISHATDAN BIR MANZARA

Bizim yerlarda ixvat, shaxsi(y) rohatdin iboratdur,  
Hama a'molimiz shaxsiy adovatdin iboratdur.

Qani himmat, qani g'ayrat, qani bizlarda yangi hol,  
Butun avzoyimiz lof-u atolatdin iboratdur.

Qani shirkat, qani sarvat, qani bizlarda mulk-u mol,  
Hama a'morimiz eski amoratdin iboratdur,

Qani ulfat, qani shuhrat, qani bizlardagi iqbol,  
Butun afrodimiz sangi mazoratdin iboratdur.

Qani millat, qani hurmat, qani bizlar kabi pomol,  
Hama ash'orimiz xob-u atolatdin iboratdur.

Qani ilm-u qani omil, qani bizlarda iste'mol,  
Butun askorimiz hamyonga toatdin iboratdur.

Qani nahyu, qani munkar, qani bizlarda mosil-bol,  
Hama ahvolimiz yalg'on mahoratdin iboratdur.

Qani zohid, qani taqvo, qani bizlarda xush af'ol,  
Butun davronimiz anduh-u kulfatdin iboratdur.

Qani hol-u qani quvvat, qani ta'mini istiqbol,  
Hama atvorimiz moziy kasolatdin iboratdur.

Qani maktab, qani tolib, qani ta'limi istikmol,  
Butun avlodimiz vahshiy safohatdin iboratdur.

Qani mehr-u qani shafqat, qani tarbiyyati atfol,  
Hama afolimiz behuda odattin iboratdur.

Qani ummat, qani sunnat, qani bizlar qilgan a'mol,  
Butun qilg'onimiz bid'at — qabohatdin iboratdur.

Qani inson, qani Hijron, qani bizlarcha gung-u lol,  
Hama nodonemiz millatga hasratdin iboratdur.

### **QABRISTONA BIR NAZAR**

Ey ko'zim, dunyodan o'tmish bu qarindoshlarni ko'r,  
Ko'zlarina xok to'l mish bu qari-yoshlarni ko'r,  
Nasli inson-u malaksiymo parivashlarni ko'r,  
Bu Adam sahrosida tufroq aro lashlarni ko'r,  
Maqsudina etmayin yotgan dili g'ashlarni ko'r.

Bu vatan — shoh-u gado, yaxshi-yamon yaksonidur,  
Bu vatan hajrinda har kun necha jon qurbanidur,  
Bu vatan yo rohat-u yoxud alamning konidur,  
Bu vatan har bir vujudning mabdayi pinhonidur,  
Bir kafan shaydosi bo'lgan bu qalamqoshlarni ko'r.

Dunyoni arslon kabi tirnoqlamish bechoralar,  
Kecha-kunduz nafs uchun sarson o'lub ovoralar,  
Ba'zisin millat g'aminda bag'ridur sadporalar,  
Hosili inson dilini dog'-u hasrat yoralar,  
G'ayrati tufrog'a do'n mish bu aziz boshlarni ko'r.

Bunlaring turmushlari bir darsi ibrat go'starur,  
Bas, butun manzarlari bir ya'si hasrat go'starur,  
Har nazarda bir bo'lak anduh-u kulfat go'starur,  
Bu fano maydonidakim, holi quvvat go'starur,  
«Roje'un» xatti yozilmish bu qaro toshlarni ko'r.

Qiz anodan ayrilib, o'g'li atosindin judo,  
Shohlar taxt-u g'anilar mol-u mulkindin judo,  
Ba'zilar g'am qaydidan, ba'zi asoratdin judo,  
Oshiqi ma'shuqdan, ma'shuq oshiqdin judo,  
Hajrda marjon kabi oqmish qizil yoshlarni ko'r.

Dunyoda Doro kabi hikmat-la tadbir aylagon,  
Hashmati Xisrav kabi olamni tasxir aylagon,  
Hukmfarmonlig'da yuz-ming doimi tazvir aylagon,  
Birni nolon, birni giryon, birni tahqir aylagon,  
Bir siqim tufrog' o'lan arslona o'xshashlarni ko'r.

Kosayi Jamshid jomindan xabar verganlaring,  
Maskani Firdavs bog'indan xabar verganlaring,  
Manzili Kisroni tomindan xabar verganlaring,  
Xodimi Ma'mun g'ulomindan xabar verganlaring,  
Necha yuz-ming qarz ila, Hijron, siri foshlarni ko'r.

### DUNYO FOJIASINDAN

Olamni o'rab olg'on g'avg'osi nadur, bilmam,  
Bu odam o'g'ullarin da'vosi nadur, bilmam,  
Bir-birlariga qilg'on ig'vesi nadur, bilmam,  
Insonlari bu kori bejosi nadur, bilmam,

Ko'zlardin oqar qon yosh, bilmam, nechuk olamdur,  
Dunyoni bosub selob, har go'shada motamdur,  
To'fonmi, balodurmi — har qatrasи bir g'amdu, r  
Bunlarni yaratmoqdan savdosi nadur, bilmam.

Bilmamki xarob o'l mish bu olami insiyat,  
Gardunmi xato aylab vermas biza tarbiyat,  
Uyqudami insonlig', g'aflatdami ulviyat?  
Ro'yo esa bu olam, fardosi nadur, bilmam.

Hayvon kabi har yerda inson qilinur qurban,  
Fir'avna bu kunlarda taqlid ediyur inson,  
Bu kori fanolardin hatto o'rtanur shayton,  
Bu jabr-u sitamlarning ma'nosi nadur, bilmam.

Diqqat-la boqur bo'lsang, aqlingni bosur hayrat,  
Haq pastda qolub, nohaq pul birla topur quvvat.  
Bo'lg'usi zabun holing, yo'q sanda agar sarvat,  
Xalq(n)ing bu qiziqdirgon dunyosi nadur, bilmam.

Bechora-yu ojizlar dastindan etar faryod,  
Aftoda yetimlar ham jabrindan emas ozod,  
Dunyoning o'zi bilmam bo'lg'usi qachon barbod,  
Bu g'am uyidur, Hijron, axrosi<sup>1</sup> nadur, bilmam.

---

<sup>1</sup>Axros — sukunat ma'nosida.

## HASRATLIK HOLLARIMIZ

So'ldi g'aflatdan jahon bog'indag'i gul — yorimiz,  
Xor ila to'ldi gulistoni Eram — gulzorimiz.

Bo'ldi bizlarga vatan boyqush kabi vayronalar,  
Uchdi gulzori vatandan bulbuli hushyorimiz.

Bir boqub dunyo kitobindan xabardor o'lmaduk,  
Ilm o'qub, olamga sohib bo'ldilar ag'yorimiz.

Bormu olamda bizindek jahl bog'inda yotan,  
Xobi g'aflat birla yoz-u qishda biz bekormiz.

Fikrimiz aysh-u farog'at, dardimiz bazm-u nashot,  
Kayf yurg'onida yotgon bir kasal — bemorimiz.

Gardishi davron kabi ayrılmayın bir nuqtadin,  
Eski hammom, eski tos-u yangidin bezormiz.

Hayfim, ilm-u funun birla jahon purnur ekan,  
Vodiyi zulmatda bizlar jahl ila g'amxormiz.

Rahm-shafqat, marhamatdin yo'q erur bizda nishon,  
Zulm ila kizb-u xiyonatga, ajab, tayyormiz.

Ittifoq ila yashar ag'yor, bizda iftiroq,  
Ixvat-u fayz-u muhabbatdin qochar, beormiz.

Bu falokat uyqusi, bilmam, qachon bizdin qochar,  
Uyg'onub, ko'zni ochub bo'lg'aymukin bedor — biz?

Zodimiz yo'qdur amaldan kasb qilsak e'tibor,  
Kosibi ashror o'lub kosid erur bozorimiz.

Mahv o'lur har qaysi millat ichsa g'aflat bodasin,  
Moyili mayxona o'l mish ko'zları xummorimiz.

Ittifoq-u ilmsizlik bizni Hijron aylayur,  
Ma'rifatsiz ketdi qo'ldin har na yo'q-u borimiz.

**ILM AHVOLINDAN BIR MANZARA**

Havoyi nafsiz do'ndurdi bizni istiqomatdan,  
 Hayoti ilm tushdi xastaliqg'a holi sihhatdan,  
 Davosina cholishmay turdi olimlar adovatdan,  
 Ilojin qilmadi hech kimsa, tushdi lofi quvvatdan,  
 G'aribi so'rmayurlar, qo'rqlayurlarmu qiyomatdan.

Mizoji sustlandi, dardi kundan kun ziyod o'ldi,  
 Qizil gul yafrog'idek yuzlari isloh uchun so'ldi,  
 Vujudin g'am parishon ayladi, xo'b bag'ri qon o'ldi,  
 Ko'zining kosasi darmon uchun qon yosh ila to'ldi,  
 Nechun bizlarda yo'q bechora ilma mehr-u shafqatdan.

Hama ilm ahli o'z naf'i uchun har fe'l, har ko'yda,  
 Yotib bemorimiz uyda, yururmiz nafs uchun to'yda,  
 Osilmish necha shaytonlar bizim har tolayi mo'yda,  
 Hama isloh ila topdi ziyo, bizlar — qaro uyda,  
 Biza ortuq ko'rundi qornimiz ahvoli millatdan.

Ajab ibratnamo oyinadur bizlarga mozi(y)lar,  
 Boqing, Nu'mon, Abu Yusuf kabi alloma qozilar,  
 Rivoji ilm uchun bo'lmish edi zindong'a rozilar,  
 Bizim bu holimizni ko'rsalar bizdin arozilar,  
 Taajjub! Ilm uchun bizlarda yo'q bir zarra g'ayratdan.

Buyurdi: «Utlub ul-ilm va lav bi-s-Sini» payg'ambar,  
 Suruldi ilm ila har yon u dam farzini payg'ambar,  
 Qolib kisht o'rtasinda bu zamon shohini payg'ambar,  
 Amon, yo Rab, bu kun mot o'lmasun bu dini payg'ambar,  
 Qutulg'ay erdi, yo Rab, bu baloyi dardi mehnatdan.

Ko'zidan ketdi nuri, qolmadi millatni darmoni,  
 Qo'lidan ketdi davlat, bo'ldi ummat jahl qurbanini,  
 Yetarmu hech yerina ilmsiz bechora afg'oni,  
 Chirog'i ilm so'ndi, tark o'lub ahkomi Qur'oni,  
 Yaqin o'lruk shaqovatga, yiroq o'lruk shariatdan.

Zamona gulshaninda so'ldi tanho qomati Islom,  
 Tanazzul bog'ina yuzlanmak o'ldi odati Islom,  
 Maorifdin oyildi, g'amga do'ndi rohati Islom,  
 Ilmsizlik balosi bo'ldi oxir ofati Islom,  
 Asir o'lruk sharoratga, ba'id o'lruk saxovatdan.

Taraqqiy aylayur ag'yor, biz g'aflat quchog'inda,  
Taraddud qilmayin rohat, yoturmiz g'am po'chog'inda,  
Zamon bizlarni biryon aylayur mehnat o'chog'inda,  
G'animatdur otilmak ilm bog'ina bu chog'inda,  
O'sonmazmi, azizim, millati Islom g'aflatdan.

Yumulmish bizni ko'zlar bu jahon ma'murini ko'rmay,  
Jaholatdin chekilmay, ro'shnolik nurini ko'rmay,  
Yotibmiz vodiyi zulmatda kulfat davrini ko'rmay,  
Qutulmay necha g'aflatdan uxuvvat havrini ko'rmay,  
Tushib chohi mazzallatga, topib lazzat jaholatdan.

Qachon bizlardagi kin-u adovat mahv o'lur, yo Rab,  
Bahori tarbiyatda fayz olub, gulshan kulur, yo Rab,  
Adolat bog'iga gulhoyi hurriyat to'lur, yo Rab,  
Chiqib bulbul qafasdan, yori dildorin ko'rur, yo Rab,  
Yasharmiz tobakay, Hijron, chekilmasmizmi zulmatdan.

### DUNYO KITOBIDAN

Har kim kelur olamg'a bo'lur zor-u parishon,  
G'urbat-la, mashaqqat-la yashar dunyoda inson.

Hammoling og'ir bo'lsa yuki, mehnati ortur,  
Har kimki ulug' bo'lsa, bo'lur kulfati oson.

Har dardning o'lur chorasi, har yig'layan o'lmez,  
Har kulfata bir oxir o'lur, har g'ama poyon.

Bemoring agar sihhatini istasa Olloh,  
Kelgay qoshig'a doru bila sohibi darmon.

Har kimning agar umri tamomiga yetushsa,  
Yo'q foidasi kelgan ila qoshig'a Luqmon.

Zolimning o'zi zulma giriftor o'lur oxir,  
Albatta bo'lur uy buza(n)ning xonasi vayron.

Sabr et sitama, bo'lg'usidur oxiri rohat,  
Yusufg'a nechuk zulm qilur erdilar ixvon.

Sabr ayla, ko'zim, yig'lama mehnat-la, jafiga,  
Bir doirada davra qimaz gardishi davron.

Bir kun bu xarob olami oboda qo'yub yuz,  
Gullar ochilub, qilg'usi bulbullari javlon.

Beilmi amal aylama avqoting(n)i nobud,  
Fikr ayla, nechuk ishladilar ilm ila Luqmon.

Tufrog'dan o'lur masjid ila dayr binosi,  
Birdir nazari Haqda ma'jus-la musulmon.

Och ko'zni, ko'zim, davlati iqbola quvonma,  
G'aflat uyini(ng) yiqdi nechuk otashi Hijron.

### **AFSUSLIK HOLLAR**

Buncha, Rabbim, na uchun dahrda biz xor o'lduk,  
Ilmdan g'osil o'lub, jahla talabgor o'lduk.

Ushlamay shar'i nabiy, bo'lmadimiz rohnajot,  
To'g'ri yo'ldan qoyilib, egriga raftor o'lduk.

To'g'ri so'z qolmadni, bizlarga yolon bo'ldi mizoj,  
Tarbiyatsiz bu fano mulkida bemor o'lduk.

Qarzimiz bo'lsa birovdan, pulini bermasmiz,  
Aysh-u ishrat yo'liga oqchasi tayyor o'lduk.

Bu na hasratli hayot, odatimiz – fisq-u fujur,  
Shar'dan yuz o'gurub sharr bila g'amxor o'lduk.

Haqni boutilga sotub, qahr ila qilduk savdo,  
Mehr bozorida biz zulma xaridor o'lduk.

Quvlabon bulbuli sho'ridayi gulzori vatan (dan),  
Qo'ndurub o'mniga boyqushni mirishkor o'lduk.

Umrimiz jahl ila kechdi, dilimiz g'am birla,  
Dunyoda sud-u ziyon bilmagan ashror o'lduk.

Ishimiz bir-birimiz oldamak-u bo'ldi firib,  
Hiylagarlikda, ajab, tulkiyi ayyor o'lduk.

Surati haykalimiz jonlidur, ammo beruh,  
O'zgalarning ko'ziga surati devor o'lduk.

Ko'z oching, ahli Vatan, bo'yramidur insonlig',  
Xobi g'aflatga asir-u g'ama dildor o'lduk.

Amrini tashladimiz, nahiya bo'lduk qurban,  
Haq yo'lindan adashub, qahr-u giriftor o'lduk.

Ilmsiz bug'z-u adovat-la bo'lurmiz Hijron,  
Kech, Xudo, dargahinga toza gunohkor o'lduk.

### JANOBI HAQDAN BIR RIJO

Kayf-u safog'a ayladimiz sa'y ila shitob,  
Ketduk tariqi ma'siyata qilmayin savob,  
Na bizda yodi mahshar-u na rohat-u azob,  
Hosili savob bizda yo'q-u jurm behisob,  
Yo Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,  
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Bizdek jahonda g'aflat ila yor bormi, oh,  
Dunyoda bizcha millati bemor bormi, oh,  
Bizlar kabi adovata tayyor bormi, oh,  
Fisq-u fujura bizcha talabgor bormi, oh,  
Yo Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,  
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Yo'q bizda bir kishiki, talabgori ittifoq,  
Ilm ahlimiz g'urur ila allomayi nifoq,  
Uxuvat yerina dillara o'lturdi iftiroq,  
Avlod i millat o'ldi zamon ilmidan yiroq,  
Yo Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,  
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Millat xaroba olamida yurdi darbadar,  
Millat yuzina qilmadi hech kimsa bir nazar,  
Millat deganda barchani bo'ldi qulog'i kar,  
Millat chaqirsa, borgay eduk to'y qilib agar,  
Yo Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,  
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Ibrat ko'zi-la boqmaduk o'tgan zamoniylara,  
Idrokimiz yetushmadi sud-u ziyonlara,  
Ta'rixa boqmayin ko'zimiz to'ldi qonlara,  
G'aflat ajaldan ilgari qasd etdi jonlara,  
Yo Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,  
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Olamg'a to'ldi ilm-u hunar, bizda yo'q havas,  
Aytur otasi o'g'lini: xat chiqsa, emdi bas,

Bundan nari o'qish senga, o'g'lim, kerak emas,  
Mulloni qadr-qimmati bizlarda bo'ldi pas(t),  
Yo Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,  
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Yo Rab, bizim-da millatimiz hushyor qil,  
Insof ila hidoyati bizlarg'a yor qil,  
Ilm-u amalda jumlamizi barqaror qil,  
Din-u shariat uzra bizi ustivor qil,  
Yo Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,  
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

Yo Rab, ber emdi millati islom uchun rivoj,  
Jahlu nifoq dardina qilg'il o'zing iloj,  
Dildin adovati ko'tar, ulfatni qil mizoj,  
Lutf-u karamg'a biz kabi Hijronlar ehtiyoj,  
Yo Rab, tarahhum aylamasang, holimiz xarob,  
Yonduk jaholat otashina, bag'rimiz kabob.

### TAAJJUBLIK HOLLAR

Ajab hasratli olamdur, ko'ngillar dog'dor o'lmish,  
Jaholat zahmidin dillar — ko'ngillar lolazor o'lmish.

Jahon gulzorina ibrat bila boq, bulbuli g'ofil,  
Guli islomdek dunyo yuzinda bormi xor o'lmish.

Ayil, ey millati g'ofil, etar boshingga bu xobing,  
Nechun, bilmam, ochilmish ko'zlarining uyquga zor o'lmish.

Fano bir hola qolmish barcha avlodи vatan, yohu,  
Onosindan ayilgan qush kabi beixtiyor o'lmish.

Adovat band bo'lmish dillariga, band ne yanglig',  
Shakar o'mig'a to'ldirganlari kinu naqor o'lmish.

Muruvvat to'g'risinda o'zgalardin olmaduk ibrat,  
Shuning-chun boshqa millatlarga biz bee'tibor o'lmish.

Taajjubbdur, biza lozim ekan ta'mini istiqbol,  
Tashab ilm-u fununlarni, borub biz g'amga yor o'lmish.

Abas moziy kechurdi, emdi no'ldi millating holi,  
Yotib g'aflat kanorinda balolarga duchor o'lmish.

Na millat yodi moziying vor, na istiqboling ummidi,  
Vujuding punjayı vahşat ichindä tor-u mor o'lmış.

Hayoting tarbiyatsizlik to'fangiga nishon aylab,  
Chunon majruh, o'lub ruhlar, yuraklar zahmdor o'lmış.

Yotar millat, yotursan tobakay bu kahfi xobingda,  
Bo'lib Hijron ko'ngullar, dilda jonlar beqaror o'lmış.

### MILLAT HOLINDAN BIR YA'S

Ey millati najib, qolmadi avvalgi rohating,  
G'am birla to'ldi haykal – shakli qiyofating.

Yo'q bizda bir kishi sani holingni bilguchi,  
Xam bo'ldi kimsasiz sani shavkatli qomating.

Avloding o'ldi dahrda beilm, behunar,  
Qurban o'lub jaholata jismi salomating.

Bizdin umid aylama holingni so'rmog'i,  
Biz hoziriz agar bo'lsa to'y-u ziyofating.

Har kas o'zini nafsi uchun dar badar yurub,  
Esdan chiqordi mahshar-u yodi qiyomating.

Kimdan iloj istading, ey millati g'arib,  
Hozirgi eng hakim zamonalardur ofating.

Taqsim qilurg'a boshladilar mol-u mulkingni,  
Fors-u Eronda qolmadi qilgan imorating.

O'g'lonlaringni barchasi nodon o'lan jo'juq,  
Ollohdan o'zga qolmadi yor-u himoyating.

Har dardi vordur oxiri, har g'amga intiho,  
Haq vergusi jazosini chekkan riyozating.

Yo Rab, tarahhum aylamasang zor millata,  
Kamlarg'a bo'lg'usidur adadsiz inoyating.

Xolis dil ila qilmading, ey millato, amal,  
Barbod bo'ldi bir necha qilgon ibodating.

Ibrat ko'zini ochmading atrofinga boqub,  
Jahd-u jadalni tashlamak o'ldi qabohating.

Har yangi ishka qarshi turib aylading aroz,  
Hijron bo'lurg'a bo'ldi sabab eski odating.

To‘ldi olam nur ila yangi sinoatlar chiqib,  
 Yangi tartib-u nizom, yangi davlatlar chiqib,  
 Yangi yo‘l, yangi zamon-u yangi soatlar chiqib,  
 Yangi usto, yangi kor-u yangi hikmatlar chiqib,  
 Eski uyni buzdilar yangi mahoratlar chiqib.

Ilm ila olam musaxxar bo‘ldi, biz johil hanuz,  
 Hobi g‘aflat boshimizg‘a yetsa ham g‘osil hanuz,  
 Ochmayin ibrat ko‘zin biz uyquga moyil hanuz,  
 Ilm-u hikmatlarga bizlar bo‘lmaduk qoyil hanuz,  
 Boshimizda charx urar bolun sayohatlar chiqib.

Buncha g‘aflat, yo‘qmi fan tahsilini irshodimiz,  
 Yoki bizda yo‘qmi fan ilmin bilan ustodimiz,  
 Bizni yo ilm-u hunarga yo‘qmi iste‘dodimiz,  
 Bizg‘a mushkul bo‘lsa, yo‘qmi bizlari avlodimiz,  
 Bo‘yla tursak fasx etar bizni falokatlar chiqib.

Istasak ilm-u funun na shar‘imizdan man’ vor,  
 Kirsamiz dorulfununlarga bizi kimlar quvor,  
 Podshoh hazratlari har kimga bergen ixtiyor,  
 Bizlari ham haqqimiz vor boshqa millatlar qator,  
 Millati davlatga loyiq ahli xizmatlar chiqib.

Ilm o‘rgongil Xutoydin bo‘lsa ham der Mustafo,  
 Amri payg‘ambarni tutmay tutdimiz rohi xato,  
 Ilmi hikmatlarni tashlab qildimiz jonga jafo,  
 Vodiyi zulmatda qolduk topmayin rohi safo,  
 Mol-u davlat ketdi qo‘ldin ham shariatlar chiqib.

Din-u millatning baqosi ilm ila, ehson ila,  
 Biz esa mag‘rur nafs-u ishrat-u davron ila,  
 Ilmsiz, ta‘limsiz to‘lmish yuraklar qon ila,  
 Tarbiyatsiz, ruhsiz bu haykali bejon ila,  
 Xo‘b tamoshko ko‘rsaturniz jonli suratlar chiqib.

O‘zgalar sa‘y-u jadal birla yetib maqsudiga,  
 Bizni yalqovlik tutib otdi tanazzul o‘diga,  
 Ma‘rifatsizlar qachon yetgay ziyon-u sudiga,  
 Ilmsizlari(ng) chiqarmoqda zamon nobudiga,  
 Asrimizda kun ko‘rolmas befarosatlar chiqib.

**ISTIQBOLIMIZ UCHUN BIR JIGARSO'Z**

Kerak bu kunda biza ilma e'tibor etmak,  
 Funun uyina otilmakni ixtiyor etmak,  
 Ulum hosil edub, o'zni baxtiyor etmak,  
 Etar bu kung'acha g'aflatda ilmi xor etmak,  
 Funun-u ilm ila mumkindur iftixor etmak.

O'quvni farz debon qichqurur shariatimiz,  
 Nechuk bu amrg'a g'ayratsiz ahli millatimiz,  
 Sabab nadurki, yo'q o'lди bu yo'lда himmatimiz,  
 Bizim-da bor edi o'tgan zamonda g'ayratimiz,  
 Yiqitdi bizni ilm-u funundan or etmak.

Taraqqiy ayladi ag'yor ilm, g'ayrat ila,  
 Qutuldi jahl danidan funun, sarvat ila,  
 Yetushdi maqsudina ittifoq, ulfat ila,  
 Bizim nechun ishimiz yo'q hayot-u millat ila,  
 Biza najot yo'lidur, bularni yor etmak.

Qorong'ulikda qolubdur sa'id o'lan millat,  
 Fano uyinda yotur jonini siqub illat,  
 Solur boshini yana o'z o'g'illari kulfat,  
 Budurmi rohi payg'ambar, budurmidur ummat,  
 Bu holimizg'a kerak yig'lab oh-u zor etmak.

Jahonda qolmadi biz qilmagan yamonliqdan,  
 Zalil-u xor biz olamda notavonliqdan,  
 Ko'ngulda qolmadi bir zarra mehribonliqdan,  
 Ketib-ketib biza g'am qoldi bilmagonliqdan,  
 Butun-butun ishimiz jurmi oshkor etmak.

Bukun na bo'lди biza, ilmsiz o'g'il-qizlar,  
 Bo'lubdi millating avlodi barcha ishsizlar,  
 Kelurni o'ylamagan xom-u bexabar bizlar,  
 Budur saodatimiz – ilm ila hunar izlar,  
 Yetar bu damg'acha Hijronda intizor etmak.

**O'Z MILLATIMDAN RIJOYI OJIZONAM**

Yotursan tobakay g'aflat quchog'inda, uyon millat,  
 Jaholat jomasin ustingdan irg'it, tur, zamon, millat,  
 Ketib hamrohlar, san yo'lда qolmakdan o'ton, millat,  
 Tur, o'tmay vaqt noz uyqudan ko'bdur ziyon, millat,

Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,  
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Qani avvaldagi ilming, funundan e'tiroz etding,  
Jaholat yori bo'lning, oshinolardan aroz etding,  
Bilib do'stingni dushman, dushmaningni sarfarozi etding,  
Kirib g'aflatni xobiga o'zingni inqiroz etding.  
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,  
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Zamong'a boqmasang, sanga zamon aslo nazar qilmas,  
Ketar hamrohlar tashlab, sanga aslo xabar qilmas,  
Yetib g'ayrat ila bir yurmasang, aslo hazar qilmas,  
Tarozug'a qarab toshingni qo'y, aslo zarar qilmas.  
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,  
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Olub ta'lism sandin o'zgalar ilgori ketdilar,  
Funun ta'rixlaringni sharh etib asliga yetdilar.  
Falotun, Abu Ali Sinolaringdan ishlab o'tdilar,  
Sanu avloding osori qadimlarin unutdilar.  
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,  
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Zamon olimlari hasratli holing so'rmadilarmu?  
G'aniylar bul sani holi xarobing ko'rmadilarmu?  
Tanazzul bobida yoningda o'lturmadilarmu?  
Taraqqiy bog'ina yo'l boshlasang san, yurmadilarmu?  
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,  
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Marizing bir tarafdan, bir tarafdan xorsan, millat,  
Badandan doimo qon oldurur bemorsan, millat,  
Tiling yo'q, kar qulog'ing, surati devorsan, millat,  
Buzug'dir niyatting axloqsiz, beorsan, millat,  
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,  
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Zamonlardurki, boyqushdek xarobat istayursan oh,  
Tashab milliy sadolarni, xurofot istayursan oh,  
Gulistondan kechib sayri mazorot istayursan oh,  
Nadur bilmam muroding, buncha hayrot istayursan oh,  
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,  
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Sani holi xarobing ko'rsa Majnun zorlar yig'lar,  
G'arib-u bekas-u bechora dilaskorlar yig'lar,  
Zamin-u osmon, sang-u dar-u devorlar yig'lar,  
Bilib shoir muroding voqifi asrorlar yig'lar,  
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,  
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

Tamanno aylaram sandan, yotursan tobakay, ko'z och.  
Fano mulkina yuzlanmakdan avval ilm ila nur soch,  
G'animatdurdur, tanazzul bog'ini ilming-la tashlab qoch.  
Yetar maqsuda ag'yoring, bo'lib Hijron qolursan och,  
Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,  
Topar san birla avloding omon, millat, omon, millat.

### TARJI'BAND

Afsus bu zamonda, bizim e'tibor yo'q,  
Yosh-u qarida g'ayrat-u nomus-u or yo'q,  
Fisq-u fujur birla giriftor barcha jon,  
Ilm-u amalda bizda sabot-u viqor yo'q,  
Har kim sharobxona desang zavq ila borur,  
Ilm-u funung'a bizda nechun ixtiyor yo'q.  
Har kas baloyi nafs uchun bo'ldi mubtalo,  
Millat g'arib, kimsasiz-u g'amgusor yo'q,  
O'tmoqda umr hoy-u havas birla barhavo,  
Millat g'amini o'ylag'uchi hushyor yo'q.  
Yo Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,  
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Ey, millating ulug'lari, rohi Xudo uchun,  
Millatni yodingizg'a olingiz Xudo uchun.  
Maktab solub jo'juqlari tarbiyat aylangiz,  
Islom ham shariati Haq Mustafо uchun.  
Insof eding, jahonda bizimdek faqir yo'q,  
Isrof edurmiz oqchani kayf-u safo uchun.  
Maktab degonda barchani bo'lg'ay qulog'i kar,  
To'y qilsa bog'-hovli sotilgay havo uchun.  
Farz-u vujub ishlamayur, ishlanur bid'a(t),  
Millat ulug'lari borishur muddao uchun.

Yo Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,  
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Bu na zamonki, shayxi zamonlardur darbadar,  
Millat xarob bo'ldi, avlodи bexabar.

Kirdi tanazzul uyiga bizdan qilib aroz,  
Millat yuziga shafqat ila qilmaduk nazar.  
Qildi tadanniy millatimiz, biz hanuz mast,  
Millat uchun vujudimiz o'ldi butun zarar.  
Boq sohibi muruvvat, insof uchramas,  
Millat ishini ishlag'uchi(larni) bo'ldi qasdi zar.  
Har kim o'zini naf'i uchun, nafsining quli,  
Millat deganda ko'z yumulur ham qulog'i kar.

Yo Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,  
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Afsus, ahli ilm giriftori iftiro(q),  
Boy-u faqir barchasi vobastayi nifoq,  
Qizlar anoni so'zlarini qilmayur qabul,  
O'g'li atosining so'zina solmayur qulqoq,  
Er xotuni bilan qilodur erta-kech urush,  
Xotun erig'a qilg'uchi har kunda bir firoq.  
Qolsa meros iki birodar qilur talosh,  
Hosili, zamona ahlida yo'q zarra ittifoq,  
G'iybat, shikoyat o'ldi qarilar so'zi mudom,  
Yoshlarni barchasi adabu ilmdan yiroq.

Yo Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,  
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Turfa zamonki, xonayi millat xarobdur,  
Har kim o'zini naf'ini izlab shitobdur,  
Har kim bu kunda bo'ldi asiri manofe',  
Yo'q bir kishiki, millat uchun dili kabobdur.  
Bizlarda yo'q ulum-funung'a nechun jadal,  
Yo'q kimsa har savola hozirjavobbdur.  
Bu na zamonki, bo'ldi hama ilm ahli xor,  
To'y-u janzoza bunlara cho't-u hisobdur,  
Ilm ahli bo'ldi oz-u ziyod o'ldi johilon,  
Beilm qavm chekg'usi ranju azobdur.

Yo Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,  
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Bu na zamonki, g'am ila to'l mish bu kun jahon,  
Olam o't olsa yong'uchi har yerda musulmon,  
Chok o'ldi siyna, dog' ila qat-qat erur ko'ngil,  
Har jonda ya'si hasrat, har dilda bing fig'on.  
Har kim sonur o'zini bu olamda Zufunun,  
Islom uyinda qolmadni fandan biror nishon,

Hech biza ilm-ma'rifata qolmadi havas,  
Bo'lduk zaif, bekas-u bechora, notavon.  
Savdo qilurg'a sarvat-u sarmoya qolmadi,  
Bozori ma'rifatni bilmasa har kim qilur ziyon.

Yo Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,  
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Bu na zamondurki, ishlarimizdur butun fano,  
Har kim o'zini naf'i uchun bo'ldi mubtalo.  
Boylarni yo'q muruvvati aslo faqirga,  
Fikr-u xayol — sarvat-u sarmoya-yu g'ino,  
To'plar hamisha voris uchun mol-u oqchani,  
Millat yo'lina qilg'usi yo'q bir pulin fido.  
Obid qilur ibodatin el qoshida daroz,  
Bo'lmish asiri hirs ila aftodayi rivo,  
Yo'qdur xalosa bir amali pok dil bilan,  
Topdi rivoj bizda, ajab, xamr ila ribo.

Yo Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,  
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

Vo, hasrato, ki barchamiz isloma ofatiz,  
O'z fikrimizcha, olim shar'-u diyonatiz,  
Maqsudimiz farog'at ila firiblik,  
Millat g'amini o'ylamagan befarosatiz!  
Yo'l ko'rsatuvchi bosh kishilar bizda ozdur,  
Be ilm-u bezarofat koni jaholatiz.  
Har kim cholishsa millat uchun xalq ta'n edar,  
Bo'yni sinuq yetim kabi biz besaodatiz.  
O'tmish zamонни hech kishi olmas xayolina,  
Hijron zor, johil-u nodon jamoatiz.

Yo Rab, Muhammad ummati bo'ldi bu kun g'arib,  
Avvalda erdi sidq ila dargohinga qarib.

### FIG'ONI BULBUL

Jahon bog'ini gulzorinda faryod etdi bir bulbul,  
O'turdi nag'mazorinda gulin yod etdi bir bulbul,  
Ko'rub gul yafrog'ini hajridin dod etdi bir bulbul,  
Visoli yor uchun yuz navha inshod etdi bir bulbul.

Dili bizlar kabi majruh, visoli yordan mahrum,  
Ko'zi yoshlu: zamondin bexabar, dildordan mahrum,  
Guli ag'yora ulfat, munisi g'amxordan mahrum,  
Mayin ovoz ila dillarni noshod etdi bir bulbul.

Nechun bilmam, sarupo sho'rish-u sarshor g'aflatdур,  
Adashkon xonumondin, har so'zi bir darsi ibratdур,  
Vatan mahjur ekan har nag'masi go'yo shikoyatdур,  
Boqib so'yi samoga virdu avrod etdi bir bulbul.

O'lur behush inson gar falakdan aylasa faryod,  
Emas javlon ko'handa bir zamon to bir nafas dilshod,  
Xazonning dasti zulmindan qilub bing shikvalar te'dod,  
Fig'on-u nola birla dod-bedod etdi bir bulbul.

Sadoyi dil firibi aylayur dil g'unchasini chok,  
Nidoyi hayratafzosi qilur ko'z kosasin namnok,  
Navoyi sho'rish ohangi qilur inson vujudin pok,  
Lisoni hol ila jonlarga imdod etdi bir bulbul.

Vujudi mehnat-u g'am birla to'lgan qobil afg'ona,  
Tamoman turmushi bir darsi ibrat har bir insona,  
Aning faryodi afg'oni zamondan ermas afsona,  
Vujudin hajri dildorinda barbod etdi bir bulbul.

Taajjub, men kabi bechorada millat hisi vorkan,  
Muhabbatdan urar dam dilda millat qayg'usi vorkan.  
Na deb Hijron bo'lur g'aflat ko'zunda uyqusi vorkan,  
Sahargohi xayolimga bir irshod etti bir bulbul.

### AHVOLI OLAMDAN BIR NAMUNA

Qilur tokay jafosin, bizga ham dildor o'lur olam,  
To'lub mehr-u vafosi, qo'zg'alub, g'amxor o'lur olam,  
Tashab og'ushi nisyonin, turub hushyor o'lur olam,  
Muruvvatsizlig'indan jirkanub, bezor o'lur olam,  
Bahori ma'rifat uyg'otsa, xushguftor o'lur olam,  
O'sub rayhoni shafqat mushk ila totor o'lur olam,  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Kelur ulfat, adovat o'rtadin qalqur, ketar bir kun,  
Qaro kunlar ketub, o'rnig'a ravshanlik yetar bir kun,  
Adolat bog'ida gulhoysi tarbiyat bitar bir kun,  
Ochib g'uncha dahonin shodlig' izhor etar bir kun,  
O'lur olam guliston, qayg'u-kulfatlар yotar bir kun,  
Gulobi hurriyat atri musaffosin otar bir kun,  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Saodatbaxsh nuri ma'rifat ummatni ihyosi,  
Funun-u ilm ila barpo ekan millatni ashysi,  
Ketib islam alindan bog'i jannat sarv-u ra'nosи,  
Gulistonи jahoning bormi bizdek besaruposi,  
Hazor afsus, bizni yiqди shaxsiy nafs g'avg'osi,  
Jahon bog'inda so'ldi kimsasiz millatni lolosi,  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Adovat beslamakda bir-birina dom o'lduk biz,  
Kirib shayton so'zina puxta erkan, xom o'lduk biz,  
Sharaflik ummat erduk, ne uchun badnom o'lduk biz,  
Takabbur birla nodonlik yo'lini rom o'lduk biz,  
Ketib g'ayrat-shijoat, sohibi avhom o'lduk biz,  
Suxandon millat erduk, betil-u bekom o'lduk biz,  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Balo toshi yog'ildi boshimizga xobi g'aflatdan.  
Mizoji sust o'lub avlod, millat tushdi quvvatdan,  
Bilimsizlik tushirdi, yiqди bizni qadr-u qimmatdan,  
Jaholat quvdi bizni xonumon-u mol-u sarvatdan,  
Keyin qolduk, chekilduk har zamon ag'yor millatdan,  
Suruldiq dahraro bizlar qatori odamiyatdan,  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Adabsiz, tarbiyatsiz, ma'rifatsiz barchamiz – nodon,  
Tamaddunpeshalar bizlarni vahshiy deb otar har yon,  
Huquqing no'ldig'in idrok qilmas, jismimiz bejon,  
Amal yo'q, ilm yo'q haykal kabi (miz) ismimiz – inson,  
Eduk qimmatbaho avvalda, emdi qadrimiz arzon,  
Ko'ngulda dog'lar qat-qat, bo'lur ko'z yoshimiz marjon,  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Zamonning odatidur ilmsiz insonlari yutmak,  
Abas bir g'oyasiz dunyoyi dandan yaxshilik kutmak.  
Kerak bir maslak-u bir g'oya-u idyojni tutmak,  
Biza bir yo'lni ushlab nuri maqsuda borib yetmak,  
Sabovat gavharini loyi balchiqdan xalos etmak,  
Budur maqsud bizlarga, salaflar ortidan ketmak.  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

Yetar Hijronlig' emdi, tark lozim xobi g'aflatni,  
Qadim qo'ymak, kurashmak, axtarib nuri hidoyatni,  
Zamon to'fonidan qutqorg'ali avlodi millatni,  
Abas o'tkarmayin umri azizini — sabovatni,  
Munavvar fikr etib, ko'rsatmalidur yaxshi odatni,  
Tuzatmak ilm ila fikr-u xayol-u ruhi ummatni.  
Dilim, g'am chekma ko'b, bir kun kelur, bedor o'lur olam,  
Chiqib bulbullari chah-chah kulur, gulzor o'lur olam.

### MAORIFPARVAR G'ANIYLAR QULOG'INA

Bashorat, ey g'aniylar, judingiz manzuri olamdu,  
Ochilmish maktabingiz jahl amrozina malhamdu,  
Muqaddasdur, muborakdus, buyukdus, eng muazzamdu,  
Ko'rub shayton maorif uyini ma'yus purg'amdus.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Qilib barpo makotib g'ayrat ila bizga ehsonlar,  
Tamaddun nuri birla porloq o'ldi qalb-u vijdonlar,  
Vatan avlodi qildi iktisobi fayzi urfonlar,  
Ko'ngillar, ruhlar bo'ldi muzayyan ishta ixvonlar.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Haqiqat bahriga g'avvos-u diydoriga mahramsiz,  
Maorif bog'ining siz bog'boni, nura hamdamsiz,  
Makotib yo'lina ehson qilurg'a misli Adhamsiz,  
Saxiysiz, olihimmattursiz, ozodi jahannamsiz.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Jaholat dardining darmoni yo'q ursfondan boshqa,  
Maorif bog'ining dehqoni yo'q ehsondan boshqa,  
Taraqqiy yo'lining imkonii yo'q umrondan boshqa,  
Tamaddun charxining davroni yo'q hamyondan boshqa.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Daho yordam qiling, avlodi millat sizni yod aylar,  
Munavvar fikr birlan maqtar, ixlos ziyod aylar,  
Qolub sizdin keyin olamda sizg'a yaxshi od aylar,  
Duo aylar, bag'ishlar, ruhingiz o'lganda shod aylar,

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Bu kun afrodi millat madh etar sizni muhabbatdan,  
Tilab haqdin inoyat ham pay(g')ambardan shafoatdan,  
Ochub dasti tamanno ko'zlaruz boroni rahmatdan,  
Ochub maktab bizim-chun sarf etibsiz mol-u sarvatdan.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Hayoting bog'ini vayron edan bodi jaholatdur,  
Tamaddun nurini mastur edan avhomni g'aflatdur,  
Maorif shamsini benur edan abr-u adovatdur,  
Qulubi millating purnur edan ishta saxovatdur.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Ulum arbobina har bir mashaqqat ish bo'lur oson,  
Og'ir ishlar uchun mahkum edilmish johil-u nodon,  
Tabiiydurki, o'lguncha mashaqqat-la yashar hayvon,  
Bizi ilm uyina savq etdingizlar aylabon ehson.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Hama ilm-u funun axz etsa, biz g'aflatni oldimiz,  
Qilub bir necha kun to'y, surnay-u karnayni choldimiz,  
Ketub dasmoya qo'ldin bo'ynimiz sizlarga soldimiz,  
Bu kun shoyoni ehson, tarbiyatsiz g'amda qoldimiz.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Daho shafqat qiling, abnoyi millat kasbi kom etsun,  
Diyonatparvar o'lsun dunyoda ibrozi nom etsun,  
Muhibi millat o'lsun, mol-u mulkka ehtimom etsun,  
O'qub ilm-u funun kasbi kamolotin tamom etsun.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Nadur bu xobi g'aflat qoflamish avlodи islomi,  
Sharorat shiddatidan tebranur arsh-u qalam tomi,  
Shuning-chun hech yerga yetmayur ummatning anjomi,  
Muqaddas dinimizning bu zamon qolmish faqat nomi.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Bizim baxtiqaro ummidimizning sham'i yonmazmi?  
Falak kajrav biza jabr-u jafosindan o'tonmazmi?  
Maorif bongini qichqirsa ham ummat uyonmazmi?  
Ochildi ilm subhi, xobdin millat o'sonmazmi?

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

Rahi millatda himmatlu kishilar sarfi mol aylar,  
Saxiylar himmati to'plansa, qal'ai jibol aylar,  
Hamiyat bo'lsa avlodi Vatan ilm-u kamol aylar,  
Topar Hijron jo'juqlar tarbiyat, kasbi kamol aylar.

Bu kunda sizlara ins-u malaklar ehtirom aylar,  
Parilar, hurlar, rizvon-u jannatlar salom aylar.

### TURKISTON TUFROG'INDAN BIR SADO

Qilur bizlardin, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,  
Hama obod bo'ldi, bo'ljadi obod Turkiston,  
Ziroatdan xabarsiz bizlar, barbod Turkiston,  
Anomizdur, haqi vor bizdan etsa dod Turkiston,  
Vatan qadrini bilmas bo'ldi xo'b avlod Turkiston,  
Emolmaydur sutin avlodidan noshod Turkiston.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,  
Hama obod bo'ldi, bo'ljadi obod Turkiston.

Tushub savdoysi sot-sot boshimizg'a, bevatan qolduk,  
Sotub bog'-u ekin yerlar pulini kissag'a solduk,  
G'animat oqcha deb to'y-u tamoshalar qilib olduk,  
Tiyin o'rnig'a so'mlar sarf etub naqqoralar cholduk.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,  
Hama obod bo'ldi, bo'ljadi obod Turkiston.

Quchog'ina olib bizlarni qildi tarbiyat chandon,  
Anodek bag'rida bizlarni boqdi, bo'ldimiz ulkon,  
Yashab rohat bila ko'ksinda bo'ldi ismimiz inson,  
Haqiqiy modarin inson soturmi oqchag'a – arzon.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,  
Hama obod bo'ldi, bo'ljadi obod Turkiston.

Vatan bizlarg'a der: tahsil aylang ilm ila urfon,  
Yetar g'aflat, yetar zillat, yetar bu xobi bepoyon,  
Emas yotmoq zamoni, navbahor ayyomidur al'on,  
O'turma go'shayi g'aflatda, ekmak ilmini o'rgon.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,  
Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston.

Ziroat ilmiga taklif etar bizni Vatan yig'lab,  
Ziroatsiz yashar mumkin emas der bag'rini dog'lab,  
Ekinsiz yerda turmas qo'ysalar boyqushni gar bog'lab,  
O'sumlik yerlara ag'yor urdi o'zlarin chog'lab.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,  
Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston.

Boqilsa chashmi ibrat-la jahondur ilm ila purnur,  
Makotiblar ochildi, nur sochdi, biz mast-u (ham) mag'nur,  
Maorif birla bo'ldi changali Mozandaron ma'mur,  
Funun birla taraqqiy qildi olam, biz hamon ranjur.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,  
Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston.

Hayoting bog'ini selob edan boroni g'aflatdur,  
Behishtoso Vatan vayron, qurboni jaholatdur,  
Bu kun millat boshini past edan mezoni vahshatdur,  
Bizim olomi<sup>1</sup> g'urbatga solan, Hijron, adovatdur.

Qilur bizlardan, ey ahli Vatan, faryod Turkiston,  
Hama obod bo'ldi, bo'lmadi obod Turkiston.

### TURKISTON TUFROG'IGA XITOBI

Ey jahli, xobi g'amga talabgor o'lan Vatan!  
Bormi saningcha bekas-u beyor o'lan Vatan?!  
Sa'y-u jadalga munkir-u inkor o'lan Vatan!  
Avlodni barcha ishsiz-u bekor o'lan Vatan!  
Hoyu havasga munis-u g'amxor o'lan Vatan!  
O'z ahlidan zerikkan va bezor o'lan Vatan!

Avlodning o'lsa barchasi beilm —ofating,  
Bo'lmish malul haykal-u shakl-u qiyofating.  
Vayrona bo'ldi manzil-u joyi ziroating,  
Boyqushlar o'ldi hamdam, yor-u qarobating.  
Ilm-u amalni tarkina tayyor o'lan Vatan!  
Ey jomi jahla ko'zlarini xummor o'lan Vatan!

Ey, manbayi adovat-u maydoni kinazor,  
Avlodning o'lsa jonsiz-u san — bir buyuk mazor,  
Jonlik janoga birla to'lub sahning, ey diyor,

<sup>1</sup> Olom — alamlar.

Xomam sanga shu so'zлari ko'z yosh ila yozor.

Ey, bodi jahli toza griftor o'lan Vatan!

Bormi jahonda san kabi bemor o'lan Vatan?!

Tiri qazoya bizlari qilding nishona san,

Bizg'a mazor, o'zgalara darsxonasan,

Ag'yora yor o'lubsan-u bizdan begonasan,

Boqmazsan iqtizoyi charxa – na hukm zamonasan.

Bizdan bezub, bo'laklara dildor o'lan Vatan!

Ilm ahlina vasi', biza tor o'lan Vatan!

Xoki mazallatingda yoturmiz bo'lub g'arib,

Har kunda bing fig'on chekamiz misli andalib,

G'unchang ochildimi – hukamolar olur terib,

Biz ersa, xor ilan qolamiz, zor benasib,

Ey, gullari fununa havaskor o'lan Vatan!

Ey, g'unchasi maorif uchun zor o'lan Vatan!

Ey zindalari – madfun, ey, xonumon – xarob,

Vayrona uylaring ko'rinur sahnayi hisob,

Sonkim bu manzarang biza bir mahshari azob,

Har bir boqishda jon siqilur, bag'r o'lur kabob,

Bog'i jinon, bizg'a alamzor o'lan Vatan!

Ob-u havosi zahr ila ozor o'lan Vatan!

Ey modarim, jo'juqlaring iflos, beziyo,

Ostingdan usting o'ldi biza tar(i)qa fuqaro,

Sandin umid shulmidi, jondan aziz ano?!

Kundan kun aylading bizi Hijrona mubtalo,

Ey, shiri shafqati biza xunbor o'lan Vatan!

Bormi jahonda sancha sitamgor o'lan Vatan!

## ORZUYI VISOL

*Hofizdan*

G'oyib o'lgan Yusufing kelg'usi Kan'on, chekma g'am,  
Qayg'ulik uy bo'lg'usi bir kun guliston, chekma g'am.

Ey dilo, qayg'u chekan, xushhol o'lursan, urma oh,  
Kelgusi qaytub qoshingga ul yo'qotg'on, chekma g'am.

Bir-iki kunda murodingcha falak aylanmasa,  
Doimo bir yo'l bila ketmas bu davron, chekma g'am.

Yetsa umringni bahori, kelgusidur bulbuling,  
Bo‘lg‘usi gullar, chamanlar bulbuliston, chekma g‘am,

Bo‘limg‘il navmid hargiz, bexabarsan g‘aybdan,  
Parda ichra bo‘lg‘usi ko‘b sirri pinhon, chekma g‘am.

Har kishi olamda sargardon kezar g‘amxorsiz,  
Oxiri yordamchi bo‘lg‘ay anga bir jon, chekma g‘am.

Ka’ba istab gar qadam qo‘ysang biyobonlar aro,  
Bersa zahmatlar sanga ori mug‘ilon, chekma g‘am.

Bir tarafdan dog‘i hijron, bir tarafdan ta’nalar,  
Qayg‘uliklar holini bilmazmi rahmon, chekma g‘am.

Sel kelub dunyoni barbod etgali qilsa xuruj,  
Nuh suvchidur, sanga tegmaz bu to‘fon, chekma g‘am.

Garchi manzildur xatarlik, ham yiroq maqsudimiz,  
Hech yo‘l yo‘qdurki, bo‘lmas anda poyon, chekma g‘am.

Hofizo, faqr uyida tanho qorong‘uda yotub,  
Toki virdingdur duo-u darsi Qur’on, chekma g‘am.

Har kishida bir g‘arazdur, har ko‘ngulda bir xayol,  
Har kim o‘z umidining qurbanisi, Hijron, chekma g‘am.

### MAKTAB

Maktabdur oftobi jahon saodating,  
Maktabdur osmoni zamon sabovating.

Maktabdur eng ziyoli puranvor jilvagar,  
Maktabdur oshyoni hama fayz qudrating.

Maktab qoshina kimni chaqirsa, qilur adib,  
Maktab makoni manba‘i insof-u g‘ayrating.

Maktab u joyi dilkash shirin maqomdur,  
Maktab behisht-u jannat hur tabiating.

Maktab jahonni(ng) bir chamani lolazorkim,  
Maktabki, sarvi sunbulidur qadr-u qimmatting.

Maktab nasimi subh kabi fikra jon verar,  
Maktab hayot ziynatidur odamiyating.

Maktab qilur jaholat-u nodonlig'a iloj,  
Maktab baloyi ofatidur qayg'u, kulfating.

Maktab ko'ngulni zułmat-u g'amdan qilur xalos,  
Maktab kalidi, ochquchidur bobi rohating.

Maktab dilingga sochg'usi ilm-u fununni,  
Maktab ziyoda qilg'uchidur aql-u hikmating.

Maktab hakimi hoziq erur jahl dardina,  
Maktab gulob ma'junidur dard-u hasrating.

Maktab dilingi pok qilur zanggi vahmdan,  
Maktab egov-u arrasidur faqr-u zillating.

Maktab qo'lingni tutdimi, boshlar hidoyata,  
Maktab rais-u rahbaridur din, millating.

Maktab – u chashmaiki, suyi kavsari jinon,  
Maktab – u manba'iki, sochar fayzi rahmating.

Maktab yo'lini tutsa kishi tobg'usi najot,  
Maktab – u manziliki, mururi salomating.

Maktab uyeki, Ka'bayi maqsud shundadur,  
Maktab sharafli jome'i har bir ibodating.

Maktab zakot ro'za-yu hajni bayon qilur,  
Maktab namoz ta'lif edar ham tahorating.

Maktab – xulosa bog'i adab, koni ma'rifikat,  
Maktab hariq vulqoni, Hijron, jaholating.

### **MAORIF NADUR**

Maorif ostobi partavi nuri haqiqatdur,  
Maorif jilvagarkim, hosiloti fayzi rahmatdur.

Maorif bir chamandur, gullari ta'mini istiqbol,  
Maorif millatini xor qilmas, sarvi jannatdur.

Maorif bir behisht – hur-u g'ilmonlar makonikim,  
Maorif xobi g'aflatdan qochar bog'i salomatdur.

Maorif o'lmasaydi nuri ilma qiymat o'lmazdi,  
Maorif bir adibi tarjimon qadri qiymatdur.

Maorif tarqatur olamg'a har xil fayzi ulviyat,  
Maorif noshiri ravnaqfizoyi qalb-u fikratdur.

Maorif bir uzukkim, qaysi millat taqsa bołodur,  
Maorif xotami muhri Sulaymoni tabiatdur.

Maorif bir suvekim, qaysi millat ichsa, ul o'lmash,  
Maorif chashmayi obi hayoti odamiyatdur.

Maorif bir sadafdur (to) mahmini qornida dur aylar,  
Maorif tarbiyat baxshoyi qiymat, sha'ni millatdur.

Maorif bir sahab-u so'ng bahori nozparvarkim,  
Maorif-la o'son dillarda anvori sadoqatdur.

Maorif o'yla bir ohangrabodur fikr, vijdona,  
Maorif joziba fan, dofeyi jomi jaholatdur.

Maorif bildirur ilm-u funun yo'lini insona,  
Maorif bir muallimdurki darsi aqla rif'atdur.

Maorif sham'durkim, ravshan aylar dili shabro'ni,  
Maorif nurining parvonasi ozod ummatdur.

Maorif rahnamo – yo'lboshchidur rohi haqiqatga,  
Maorifdan judo millatni holi ya'si hasratdur.

Maorif soyasinda chiqdi buncha yangi san'atlar,  
Maorifning vujudi turmushi bir ilmi hikmatdur.

Maorif-la taraqqiy qildilar ag'yor, biz qolduk,  
Maorifsizlaring chekdiklari olomi g'urbatdur.

Maorif birla qilsa ahli olam kasbi ulfatni,  
Maorifdin qochib, Hijron, bo'lub bizg'a nadomatdur.

### **GIRDOBI G'AMDAN BIR FO'RTANA**

Keldi gulzori jahonga qaysi gul, xor o'lmadi?!  
Qaysi bir bulbul jafoyi yordan zor o'lmadi?!

Ko'rdingizmi bir chechak – dahr ichra oxir so'imasun,  
Qaysi gulni ko'rdingiz, bog' ichra bexor o'lmadi?!

Qavmiga ming yil nasihat qildi Nuh – kor etmadni,  
Qaysi payg'ambar xaloyiqdan dilozor o'lmadi?!

Ko'rsating bir Yusufi qardoshlari zulm etmagan,  
Qaysi bir Ya'qub dog'i hajri diyordi o'lindi?!

Qaysi Muso chekmadi ranj-u alam fir'avndan,  
Bormi bir Ilyos qavmidinki, bezor o'lindi?!

Ash'iyo qilsa nasihat qavmiga, qildi shahid,  
Qaysi Zikriyo boshida arra tayyor o'lindi?!

Tashladi Namrud o't ichra (ul) Xalilullohni,  
Qaysi bir Yahyo shahidi tig'i xunxor o'lindi?!

Qaysi Yunus otmedi dengiz quchog'ina o'zin,  
Bormi bir Isoyi Ruhullohki, bardor o'lindi?!

Barcha payg'ambar jahonda qavmidin chekdi jafo,  
Bormi bir Ahmad, duchori zulmi kuffor o'lindi?!

Bormi bir Siddiq, og'u ichmasin bu dahrda,  
Qaysi bir Umar shahodatga giriftor o'lindi?!

Bormi bir Usmon shahodat sharbatin no'sh etmagan,  
Qaysi Haydar boshida tig'i sitamkor o'lindi?!

Xonadoni Mustafokim, zahr ichib o'ldi Hasan,  
Qaysi sahrodur Husayn qoni-la anhor o'lindi?!

Bormi bir Suqrot olam ichra og'u ichmasun,  
Kimki hikmat sohibidur dahr anga yor o'lindi?!

Qaysi Bistomiyni ko'rding xalq takfir etmagon,  
Bormi bir Mansur «Analhaq» desa sangsor o'lindi?!

Laylining Majnunina yo'l vermedi kajrab zamон,  
Kimki oshiqdur, jahonda vasli dildor o'lindi.

Bermadi Farhodina bu bevafo Shirinini,  
Vomiqing Uzrosina bu charx g'amxor o'lindi.

Ko'rmadingmi: sham' yonmazmi visoli yor uchun,  
Bormi bir parvona, Hijron, shu'lai nor o'lindi?!

### **PARISHON HOLLAR**

Haqiqatdan, saodatdan yiroq ahli fano bizlar,  
Safolatda, razolatda chekarmiz bing jafo bizlar.

Sanoye' soyasida kasbi shavkat aylasa ag'yor,  
G'arib millat boshiga behunar bitgan balo bizlar.

Maorifsiz, sanoatsiz, tijoratsiz, ziroatsiz,  
Yotib xobi kasolatda jahondan mosuvo bizlar.

Zamonning iqtizosi yangi olmoq, eskini otmoq,  
Kulunj ahvolimizdur, eski fikr Abdulqafo bizlar.

Nechun bizlarda qadrin bilmayur hech kim badan ilmin,  
Qolub g'aflat ichinda ko'rmayin ro'yi ziyo bizlar.

Tamaddun olamindan darsi ibrat olmayurbiz, oh,  
Jahondan ko'rmayin o'tmakda osori zako bizlar.

Bizim xilvatda ko'rsa, qilmishimizdin qochar shayton,  
Xaloyiq oldida xo'b muttaqiy, so'finamo bizlar.

Biza lozim kefurmi eski hammom, eski tos o'lmoq,  
Taraqqiy yo'lini yuzlandi olam ro'dafo bizlar.

Funun-u ilm olub, hamsoyalar etdi murodina,  
Jaholatga bo'lub hamdam g'arib-u benavo bizlar.

Sharorat aylamakda barcha millatdan o'zub ketduk,  
Asiri fisq bo'lduk, misli qavmi naynavo bizlar.

Ota o'g'lin o'qutmas, qizni qilmas tarbiyat modar,  
O'sub beilm, beta'lim, besharm-u behayo bizlar.

O'quvni farz der bizni shariat har o'g'il-qizg'a,  
O'qutmay qizlarimizni, shariatdan judo bizlar.

Kiyib xirqa-rido, gardong'a solib sotdimiz taqvo,  
Vatandan, xonumondan, bog'-u bo'stondan raho bizlar.

Agar ahd aylasang, qilg'il vafo, der tangri bizlarg'a.  
Ki har kun va'dasin bing marta buzgon bevafo bizlar.

Ilmsiz, tarbiyasiz, mol-u sarvatsiz bo'lub Hijron,  
Hamiyatsiz, bilimsiz darbadar yurgon gado, bizlar.

### FALAKDAN BIR SHIKOYAT

Bu kajrab qurub bizlara turfa dom,  
Qaro-oq ila aylayur bizni rom.  
Gunash nuridan ayladi bizni dur,  
Hama ilm subhidadur, bizg'a shom.  
Qamar shu'lasindan ololmay ziyo,  
Tanazzul yo'lin qildimiz ehtirom.

Ko'rinxas bizni baxtimiz yulduzi,  
Zamon to'rba<sup>1</sup> sin qilmayin ko'zg'a rom.  
Funun ko'kida o'zgalar barqdek,  
Qilur jilvasin boshimizda davom.  
Falak markazidur qaro baxtimiz,  
Qachondur o'lur chambari kajmarom.  
Ziyo ro'zi ta'mini ag'yor uchun,  
Qaro kechasin pos etar, biz g'ulom.  
Bu zulmatni bizdan ko'tar, ey falak,  
Bahaqqi Muhammad alayhissalom.  
Qachon tebratur ilm subhing nasim?  
Nasib o'lmayin go'staror'umi qiyom?  
Havong bizlara tarbiyat vermasa.  
Emrilub-emrilub buzulsun tamom.  
Qazo bodi Hijron solub charxinga,  
Xarob aylasun, aylasun vassalom.

### QIT'ALAR

Bing ayshimni qiluram hadya birgina g'amga –  
Ki, aysh-u xobu xayol-u g'amim banga yo'ldosh,  
Agarchi baxti qaroyam, ki hech g'am chekmam,  
Charoki, baxtim erur holi millata o'xshosh.

\* \* \*

Maorif uyini bolosidur o'y-u vatanim,  
Funun bog'ini ra'nosidur gul-u chamanim,  
G'ubora do'nsa g'amim yo'q vujuda ziri vahm,  
G'arib millatimning xokidur go'r-u kafanim.

\* \* \*

Suhbati solih qilur komil sani,  
Suhbati johil qilur fosiq sani,  
Tirgizodur ko'nglingni arbobi hol,  
O'ldurodir qalbing(n)i arbobi zilot.

\* \* \*

Yaxshi do'st aybi yor-do'stini,  
Ko'zgudek ro'baro'sida so'zlar.  
Yamon o'rtog' tarog'cha ming til ila,  
Orqadan burmalab tarab so'zlar.

---

<sup>1</sup> To'rba – to'rva.

# «ADABIYOT YOXUD MILLIY SHE'RLAR»dan

## UCHINCHI JUZ\*

*Qalam qarosidur ogoh dostonimdin,  
Hazin qayg'um eshiting u tarjumonimdin.  
Nechun farah bo'layin, oh, beziyo ko'ruram,  
Kelan zamоними, Hijron, kechan zamонимдин.*

---

\* 1916-yilgi (T., Orifjonov litogr.) ikkinchi nashriga asoslandik.

Ey Xudovandi jahon, loyiq senga hamd-u sano,  
Iki harf ila iki olamni san qilding bino.

Har nimakim, bor-yo‘q qilmoq senga oson erur,  
Istasang bo‘lg‘usi barpo, istasang bo‘lg‘ay fano.

Bu jahon(u) ins(u) jon bir kun hama yo‘q bo‘lg‘usi,  
Bir o‘zingg‘a xos erur qolmoq hayot ila baqo.

Har nafasda iki ne’mat sandan osori hayot,  
Barcha mavjudoti olam iktisob aylab havo.

Gabr-u tarso, mo‘min-u kofir qilur qulliq sanga,  
Dargahingga bosh egar yosh-u qari, shoh-u gado.

Barcha millatlar senga o‘z hojicha toat qilur,  
Qahr(u) lutfingdin emas xoli adib-u porso.

Gardishi xoningda alvon ne’matingdan yeb-ichar –  
Suvda mohi, ko‘kda murg‘on, yerda inson, chahorpo.

Bu dabistoni jahondan har kim olgay bir sabaq,  
Ba’zilar beklar hudoni, ba’zilar beklar xato.

Rahmatingdan kesmagay ummidini har bir vujud,  
Borgohi kibriyodan aylayur xavf-u rijo.

Marhamat bobida ismingdurki: «Rahmoni-r-rahim»,  
Bizdan isyon-u xatolar, sendan ehson-u ato.

Adl(u) ehson-u karimlik sha’ning(g)a shoyistadur,  
Har ne bersang shokiriz, bo‘lmas demak chun-u charo.

Nur(u) zulmat, shod(u) g‘am, fagr-u fano sandan etor,  
Zahr ortidan chiqar bol, to‘y ortidan azo.

Bir kishin aylab funun-u ilmdan idroksiz,  
Birning Aflatun kabi ko‘nglina solding kimyo.

Ba'zini(ng) johil, dani — qilding dilin aylab qaro,  
Ba'zini(ng) allomai dahr aylading — verding ziyo.

Bir kase afsun o'qur o'rtaga tafriq solgali,  
Birtasi tasxir uchun boylar tugun, yozgay duo.

Ba'zilar bir shayxni ushlab, pirim deb, qo'l berib,  
Xoki poyini qilurlar ko'zlariga to'tiyo.

Ba'zi bir so'finamolar nafs uchun toat qilur,  
Hirs ila bo'lmish biri aftodai ko'yi riyoy.

Ba'zilar bo'lmish musaxxar bir go'zal dildorga,  
Bog'lamish mehr(u) muhabbat zulfi yor-u dirlab.

Obidu zohid, muridu murshid-u shogird-pir,  
Nafsi ammora alinda umrini aylar habo.

Zulm edar mazluma zolim, aylamas sandan haros,  
Qolmadi ushbu zamonda Odam o'g'lida vafo.

Ag'niyolar notavonlarga qilur zulm-u sitam,  
Faqr ahli bo'ldilar sabr-u qanoatdan judo.

G'ayrat-u nomus ila sharm-u hayo yo'q kimsada,  
Rahm-shafqatlar ozaydi, qolmadi xayr-u saxo.

Moyai iqbol uchun ba'zi qilur jahd-u jadal,  
Sarvati sarmoyai davlatga ba'zi mubtalo.

Aylading, yo Rab, chibinga qandi shirindan nasib,  
O'tkarur avqotini yeb ustixon murg'i humo.

Sher dandoniga qilding luqma oh-u zorni,  
Bo'ri changolida qo'yni aylading motamsaro.

Ankabuta pashshani qilding yemush, mushxora mush,  
Chok etar bag'rin — kabutarni qilur lochin g'izo.

Chok o'lur miskin sadaf ko'ksida vor durdoncha chun,  
Bulbuli sho'ridani(ng) solgay qafasga xush sado..

Qayda ko'rsang g'olibi mag'lubni aylar poymol,  
Yerdadur, suvda, havoda yo'q bo'lish g'amdan raho.

Ey Xudo, hayratda qolgan aql sun'ingg'a seni,  
Charxi davron o'zgarish-la aylanur subh-u maso.

Bir zamon bo'lg'ay gunash nuri ila ravshan jahon,  
Bir zamon chiqg'ay bulut – ravshan jahon bo'lg'ay qaro.

Muncha zulmat ichra, yo Rab, qoldi Hijron millatim,  
Millatim, milliyatim hajrida bo'lsun jon fido.

### NA'TI SARVARI OLAM

Tutundim na'tinga, ahmad, qilub himmatni bologa,  
Sifoting jonga marham deb qalam tebratdim inshoga.  
Vujudingkim tuyassar bo'ldi ul kun dori dunyoga,  
Abiri mushki totoring yetushdi arzi Bathoga  
Yiqildi Ka'bardin but, larza tushdi qasri Kisroga.

Yuzing nurini ko'rganda malaklar sajda aylardi,  
Ko'zing shahlosiga Jabr(o)il o'zini banda aylardi,  
Yer-u ko'k xalqi, ins-u jin(s) boshin askanda aylardi,  
Jamolingga vuushush-u tayr tabriki xanda aylardi,  
Muqavvas qoshlarling ta'rifi yetti go'shi anqoga.

O'shal kunkim, Buroq-u Rafraf ila aylading me'roj,  
Vujuding-la samoga Haq sanikim ayladi ixroj,  
Kiyib erding muborak boshing uzra san la'oliy toj,  
Tamomi anbiyo ruhi yo'lingda erdilar muhtoj,  
Ziyorat qilg'ali keldilar ul kun Baytul Aqsoga.

U chohi sultanatkim, sanga berdi xilqati lavlok,  
Tufaylingdur iki olam, vujuding nur(u) nasling xok,  
Quduming gardidan bo'ldi muattar etti qat aflok,  
Jamolingga shavqida huri jinon etdi yaqosin chok,  
Tilarding osiy ummatni chiqub san arshi a'loga.

Bu dunyo lazzatiga qilmas erding zarracha parvo,  
Qadamgohing edi ul jannati firdavsdan bolo,  
Pay(g')ambarlar barisidan sani rutbang edi a'llo,  
Malaklar ham sani ko'rgan zamon der erdi: «Omanno»,  
Nechuk bosh egmasunlar sen kabi oliy shahanshoga.

Hamisha go'shi joningg'a yetub ilhomni rabboniylar,  
Payo-pay yetgay erdi qalbinga oyoti Qur'oniy,  
Jilo bergay edi yuz gulshaningga nuri rahmoniy,  
Saxovat sohibi erding, shafoat javharin koni,  
Sig'inmasmi bu ummatlar seningdek durri yaktoga?!

Qani ummatki, bilsa gavhari qiyomatbahosini,  
Yo'lidan chiqmasa o'lguncha sandek rahnamosini,  
Ajab ermaski, topsa iki dunyo muddaosini,  
Tufaylingdin qabul etsa Xudo shoyad duosini,  
Shafe' aylab sani qilsa tazarru' robbi Allo(h)ga.

Ilohiy – sen, Rahim – sen, rahmating behadd-u bepoyon,  
Habibing hurmatidan millati xor etma, ey Rahmon,  
Bu ummatlar bu kunda qildilarkim haddidan tug'yon,  
Gunoh loyiga botdi, qolmadi qo'zg'almoqa darmon,  
O'zing yetkur bu Hijron osi(y)larni Ka'batullo(h)ga.

### BIZLARDA NIMALAR BOR

Qaysi millatning bizimdek voizi xushxoni bor?  
Kimni beshta xotun olgan qorni to'q eshoni bor?

Ko'zi og'riq bir kishi borsa tabib surgi berur,  
Ko'rdingizmi, kimni mundog' Zufunun, Luqmoni bor?

Ilm uchun sarf aylayur bor-u yo'qin ag'yorlar,  
Bazm-u to'yga kimni bizdek sohibi ehsoni bor?

Mehr-u shafqat o'zgada, bizlardadur kin-u nifoq,  
Qaysi ummatning bizimdek besar-u somoni bor?

Gar gadoy don topsa, to'rba topmagay degondek,  
Kimni bizdek belbog'ida to'rt qabat hamyonи bor?

Gar safarga chiqsamiz xurjin to'la go'sht-u qazi,  
Yog'i chiqg'on to'rbasidin kimni so'k-talqoni bor?

Gar qulay bo'lsa yoturmiz hafta mehmonxonada,  
Kimni bizdek bemalol ishsiz – bekor mehmoni bor?

Me'damizdur boquvat<sup>1</sup> – xom-u fishiq birdek biza,  
Kimni bizdek mahmidaklik<sup>2</sup> qora bug'doy noni bor?

Yengil ishlarni qilurlar o'zgalar san'at bilan,  
Qof-qaro xidmat bizimkidurki, o'limas joni bor.

Jon suchukmi halvo deb so'rsa agar bizdan birov,  
Halvo shirin deb javob bermoqni xo'b imkonи bor.

<sup>1</sup> Baquvvat.

<sup>2</sup> Chamasi, sedananing bir turi haqida gap ketayotir.

Ota-bobodan meros qolgan uchun arzon baho,  
Yerlarimizni(ng) sotarmiz, bizda pulning koni bor.

Katta-katta oqchalarni(ng) sarf edub bid'atlara,  
Qars urub, qarzdor bo'lub qolmoq yo'lin osoni bor.

So'ylagan, yozgan bilan bo'lmas ado hasratlarim,  
Qayda mendek millating qayg'usida Hijroni bor.

### MILLAT HOLINDAN BIR JIGARSO'Z

Ey Xudovandi jahon, maxfiy emasdur sanga hol,  
Bizlara berding jaholat, o'zgag'a izz-u kamol.

Buncha kulfat, buncha g'am to'plandi millat boshiga,  
O'yla behol o'ldikim, qo'zg'olmaka yo'qdir majol.

Bir tarafdan ilmsizlik, bir tarafdan xorlik  
Tutdi millatning yaqosindin – qutulmog'i mahol.

Ro'shnolig' ko'rmayur, kundan kun ortur mehnati,  
Bu razolatdin xalos o'lmoqg'a yo'qdur ehtimol.

Shul qadar ma'yus holin so'rg'oli yo'q kimsasi,  
Barcha avlodи bilimsiz, kar qulog'-u gung(u) lol.

Har kim o'z nafsi uchun shom(u) sahar javlon urar,  
Millating ahvoldan voqif emasdur yosh-u chol.

Iki-uch dona jaridasi chiqodur kuch bila,  
Bizni Turkiston maorif yo'lig'a qilmas jadol.

Toza qotmis uyguga, kirmas qulog'iga sado,  
Qahf xobida yotar to ro'zi mahshar bemalol.

Bu taraqqiy davrida nechun ochilmas ko'zları,  
Uyqumi, g'aflatmi bu – bitmas-tuganmas moh(u) sol.

Sezmayur jismi hisi, tuyg'usi yo'q surat kabi,  
Tepsangiz tebranmayur boshiga monandi devol.

O'ylamas, afsus, aslo bir-da istiqbolini,  
Qoflamish atrofini qayg'umi, hasrat yo xayol?

Buncha Hijronlig'da afg'onlar chekodur har zamon,  
Qil tarahhum holina, lutf et o'zing, yo Zuljalol.

## RAMAZONI SHARIF

Keldi bizlarga bu kun mohi safodur ramazon,  
Miskin-u zorlara xayri saxodur ramazon.

Kechasi xatmi tarovih, kunidur ro'za ila,  
Ichi-toshi to'la nur — durri bahodur ramazon.

Kambag'allarga berur mol-u zakotin boylar,  
Siylar iftor qilub, mehr-u vafodur ramazon.

Laylatu-l-qadr kechasi yoshirin bu oyda,  
Kimki bedor esa, albatta topodur, ramazon.

Har kim ixlos ila tutsa butun oy ro'zasini,  
Ushlabon ilkini jannatga chopodur ramazon.

Ro'za tutmoq biza islom dinining bir rukini,  
Qoralangan dilimiz pok yopodur, ramazon.

Ilmi tib, hifz-u sihat yo'llarina hoviydur<sup>1</sup>,  
Bobi hikmatlarini bizga ochodur ramazon.

Me'damizni qiladur toza va ishlaydurgon,  
Tomir-u nervimiza doru sochodur ramazon.

Qalbimiz pok qilur ruhimizni tasfiyasi<sup>2</sup>,  
Ko'b yemoq ayni xatodurki, qochodur ramazon.

Halqini<sup>3</sup> toza qilub, pok qilur vijdonini,  
Quvvai hozimamiz mahkam etadur ramazon.

Nafsimiz rom o'ladur, halqumiz olg'ay orom,  
Ko'nglimizni qilub ozoda, ketodur ramazon.

Rahmati haqdin umiding bo'lsa tut ro'zasini,  
Ko'za bo'lsang sanga Hijron-u jafodur ramazon.

---

<sup>1</sup> Hoviy — qamrab oluvchi.

<sup>2</sup> Tasfiya — poklash, sof qilish.

<sup>3</sup> Halq — halqum, tomoq.

**XAROBALARGA XITOB**

Assalom, ey xaroba ayvonlar,  
Ey safolatga g'arq o'lan shonlar.

Toqlar, qasri oliv, ey vayron,  
Toshlar – qubbasi yera yakson.

Na uchun, ey xaroba, jimjitsan,  
Eski bir shona toza hujatsan.

Tor o'lubsan baxilni fikridek,  
Buzilubsan hasudni ko'nglidek.

Kunduzing eski bir ridoyi kafan,  
Kechangiz tor bir buyuk madfan.

Osmon ruh, yer mazor o'lmish,  
Qurrai arz na'sh ila to'lmish.

Yo'q karam gardishi muhitingdan,  
Qof-qarodurki usting ostingdan.

Jim bo'lib qol mish, oh, ovozing,  
Churumish jismi nag'ma-yu sozing.

Manzaring ko'zga ro'zi mahsharsan,  
Noma yoxud kitoba o'xsharsan.

Holdandur butun sahifalaring,  
Na'shlardur xututi feasaring.

Tufrog'ing har biri bo'lakcha kitob,  
Zulmating qilur zamonga xitob.

Derki: – Ey shoni shavkata mag'rur,  
Bu jahon ayladi kimi masrur.

Bu parishon zamon hol bila,  
Umring o'tkarma, – der, – xayol bila.

Goh shabdek sukut ichra tarob,  
Goh mahsharsan, ey jahoni xarob.

Shul fano olaminda san hayron,  
Kes umidingni dunyodan, Hijron.

## MAYXONALAR YOPILUVI MUNOSABATI-LA

Shukurlar o'lsun Xudoga man' o'lub sahbo sharob,  
Xalq ichmay tinchlandi, qolmadi rasvo sharob.

Podsho hazratlari bog'latdimi mayxonani,  
Qolmadi hech bir shaharda soqiy-u mino, sharob.

Ichkulik «Ummul jinoyat» deydilar payg'ambarim,  
Bu gunohlar onasi qursun, butun g'avg'o sharob.

Dinimiz man' aylagan bizga olib-sotmoqni ham,  
Doimiy bitsun jahonda, bo'lmasun savdo sharob.

Bog'lanub mayxonalar, shaytonlara ish qolmadi,  
Xonadonlarga solurdi har kuni ig'vo sharob.

Tun-u kun yig'laydir iblis motami mayxonada,  
To qiyomat ko'rmasun dunyo ko'zi aslo sharob.

Bizni(ng) Islom dini maydan o'yla qilmishkim, hazar,  
Toza bir xum suvni iflos aylagay tomsa sharob.

Ko'b kishini qildi rasvo, xonadonlarni buzub,  
Ichkan insonlar(n)ing aqlini qilub bejo sharob.

Ichkuliqg'a o'rganub bo'ldi «fyon» bir nechalar,  
Ko'b kishilar boshiga soldi quruq da'vo sharob.

«Alkagul» og'usi birlan xo'b churutdi xalqini,  
Ba'zin etdi qaltiroq, ba'zin qilub a'mo sharob.

Zaharlab, ichgan kishilarning buzub axloqini,  
Boshlab elni o'g'rilikg'a qildi ko'b yag'mo sharob.

Ba'zi o'rgangan kishilar emdi Hijronlig'dadur,  
Qancha kulfatlar chiqordi bir o'zi tanho sharob.

## SAYOHAT SAMARASI

Hamdlar o'lsun Xudoga, qayda ko'rsang yoshlari,  
Milliy ishlarga tashabbuslar qilur, kengoshlar.

Andijon-u Marg'inon-u O'sh-u Namangon-u Ho'qand  
Yoshlari bir-birlari birlan bo'lub sirdoshlar.

Ketdi g'aflat, keldi ulfat – tug'di davri intiboh,  
Qayda ko'rsang yoshlari, bir tug'madek qardoshlar.

Bu zamondan necha yil avval qayon erdi bu hol,  
Yosh bo'lsun xoh qari go'yo edi kundoshlar.

Kechdi avvalgi zamon, bitdi adovat kunlari,  
Chiqdi anvori muhabbat, ochilib ko'z-qoshlar.

Kattalar aylar kichiklarga tarahhum lutf ilan,  
Ham kichiklar kattalarning yo'liga ergoshlar.

Ba'zi ko'ngli qoralar yo'qdur demang, har yerda bor,  
Dengiz ostida sadaf bo'lg'usidur ham toshlar.

Yangi milliy ishlara har yerda bor sa'y-u jadal,  
Birga ish, birga taraqqiy, birga yerlar oshlar.

Kattalar, sizdan umid shul: tashlangiz san-manlig'i,  
Sizga bizlar ergashayluk, bizga siz — yo'lboshlar.

Basdur emdi, shuncha Hijronlig'da o'tdi oy-u yil,  
Ilgariga hatlashayluk bir bo'lub yo'ldoshlar.

### OILA MUNOZARASI

#### O t a

O'g'limizni o'qutsamiz-chi, xotun?  
Qizimiz ham o'qusa, bo'lg'ay otun,  
Ilmsizlar ko'rар qaro kunlar,  
Yoshlik vaqtidur kumush, oltun.

#### O n a

O'g'limiz o'qubon eshon bo'lmas,  
Qiz o'qusa uy ishlarin bilmas.  
O'qugonlar bo'ladi mahmadona,  
Sizu bizni nazar-pisand qilmas.

#### O t a

O'g'limiz o'qusa, bo'lur mullo,  
Qizimiz ham o'qur, yozur imlo.  
Maktaba kirsun, ilm o'rgansun,  
Zargar ishlab qilur misi tillo.

#### O n a

O'quganni birimu Ahmadjon,  
Yegali uyida topilmas non.

Meni so'zimni tinglang, ey otasi,  
O'quganiga yer emish pushmon.

O t a

Bu zamonda o'qumagan kish(i)lar,  
Non, osh o'miga kesak tishlar.  
Angladingmi so'zimni, ey onasi,  
Ilmsizlar qiyin ishi ishlar.

O n a

O'g'il o'qusa, sigirni kim boqadur?  
Qiz o'qusa, olovni kim yoqadur?  
O'qugoñlar bo'ladi beixlos,  
Olamunchoq tumorni kim taqadur?

O t a

O'g'il-qiz o'qusa bo'lur olim,  
Johil odamlar bo'ladur zolim.  
Baxt-u iqbol ilma bog'liqdur,  
Ilm o'qutmoq ahsan a'molim.

O n a

O'qubon o'g'lingiz bo'lurmu imom?  
Mullodan qadrlik shu kunda avom.  
Roziya, Marziya ilmsiz-ku,  
Tikish-u osh, ish biladi — tamom.

O t a

O'qumasa o'g'il chapan bo'lodur,  
Ilmsiz qiz vafosi kam bo'lodur.  
Mol-u davlat besh-olti kunlikdur,  
Dunyo moli go'r-u kafan bo'lodur.

O n a

Bolalarni o'qutmasak nima g'am?  
Ilm uchun qancha pul berub barham.  
Hama birdek barobar insondur,  
Mullodan ilmsizning qay eri kam?

O t a

Farz o'qutmoq o'g'il-qizini ota,  
Yordam etmoq kerak bularga ona.

Muncha bema'ni so'zlar aytursan,  
So'zlagan so'zlarining barisi xato.

O n a

O'g'lingizni o'qutsangiz o'quting,  
Manga desa bo'z-u elak to'quting.  
Qiz degan o'qusa, yomon bo'lodur,  
Bu so'zimni xayolingizda tuting.

O t a

Qo'y, gapurma kelishmagan so'zni,  
O'qutaylik o'g'il bilan qizni.  
Ikisi ham uluma tolibdur,  
Bo'lsa olim, qilur duo bizni.

O n a

Ilm uchun muncha bo'lasiz Hijron,  
O'zgalar ham sizing kabi inson.  
Nega onlar o'qutmayur bolasin,  
Bu ishingizga man juda hayron.

O t a

Sen o'zingni bil, o'zgani qo'yaver,  
Yaxshi ko'rsang bolangni mактаб ber.  
Xulq, odob, ilm o'rgansun,  
Sanga ham, manga ham xalq rahmat der.

**KO'BDAN UNUTMOQ KERAK EDI**

Ey ko'ngul, atrofinga boq, jomi sahboni unut,  
Bazmi ayyomi dagildur, qaddi zeboni unut.

Ichma g'aflat bodasin ey millati olivjanob,  
Bas, yetar sарxushlig'ing, bu kori bejoni unut.

Shunchakim qilding o'yun, to'y-u tamosholar yetar,  
Endi g'ayrat vaqtidur, ortiq taqozoni unut.

Shayx, so'filer sanga dunyo najas deb ko'rsatur,  
Maqsadidur aldamoq, san tarki dunyonи unut.

O'rнashubdur jisminga bir necha af'oli qabih,  
To'g'ri kelmas bu zamonga rasmi boboni unut.

Ilm-u san'at-la jahon ayvonidur oyinaband,  
San yotar beg'am qaro uyda, bu zindonni unut.

Ma'rifat bozorida moling sotolmaysan, g'arib,  
Eski chig'riq, eski charx-u eski do'konni unut.

Ilm-u donish yaxshi ziynatdur xotun-qiz ahlina,  
Qo'y qadam ilm uyina, tumor-u marjonnini unut.

Yetdilar maqsudiga ag'yor, sen qolding yozuq,  
Izla darmon-u ilojin, chekma afg'on(n)i, unut.

Tarbiyatsizlik bilan so'ldi ochilgan gullaring,  
Qolmadni imkonni yo'q ish sanda «lo-lo»ni unut.

Turmushing g'aflatmi yo uyqu, bilolmaysan hamon,  
Tashlagil vahm-u xayoltingni ro'yoni unut.

Vaqti o'tsa har bir ishning oxiri Hijron va g'am,  
Qilma to'yni, berma joma, qo'y, saruponi unut.

### MOZORIM LAVHINDAN

Shoiram, ban so'ylaram, sizg'a zabonim arz etar,  
Jon qulog'i birla tinglang, sizg'a jonim arz etar.

Xoli ermas bir zamon jismim jafoi ta'nadan,  
Holi ahvolim siza ruhi ravonim arz etar.

Ban nihon o'lsam-da, osorim nihon o'lmez, qolur –  
Qayg'ulik holimni axlofa nihonim arz etar.

Har zamon holi dilim xomam siza aylar bayon,  
Ojiz o'lsam so'ylamakdin, tarjumonim arz etar.

Ban yiqlisam yo yo'q o'lsam, kimsadan so'rmang bani,  
Ko'ngluming yosin yiqlimish xonumonim arz etar.

Bir zamon bo'lg'ay manga lavhi mazorim tarjumon,  
Millatim hijronda, Hijron, jovidonim arz etar.

### DEVONI HOFIZDAN TARJIMA

Bu xirqaki kiygonim, mayga alishur yaxshi,  
Bul ma'nisiz daftarni mayga botiruv yaxshi.

Urimni yamon qildim, ko'b vaqt qarab yurdim,  
Vayronani burjida aftoda bo'lув yaxshi.

Zohidlaring ahvolin elga aytosim kelmay,  
Bu qissani gar aytsam, chang birla aytuv yaxshi.

Ahvoli falak shunday bebosh(u) oyog' bo'lsa,  
Ma'shuq havasi, soqiyl, may qo'lda tutuv yaxshi.

San munchaki dildorsan, dilni uza olmiyman,  
Ko'b dardiki tortarman, ul sochi echuv yaxshi.

Chunki qariding, Hofiz, chiq maykadadan emdi,  
Rindiy-u havasgarlik yoshlikda bituv yaxshi.

Ey millati hasratkash, muncha bo'lasan Hijron,  
Mastiy-u g'ururlikni emdi tugatuv yaxshi.

### MAKTABGA TARG'IB

(«*Latifa*» kuyi'ga)

Milliy kuylarimizdan biri «Og'ajon latifa, gulidan latifa»,  
«Shoxida o'ynang, bargida sayrang, bog' latifa»dur.

Teatru va adabiyot kechalarida sahnada quyida yozilmish  
milliy she'rlardan bir bayt bir yoki iki kishi tarafidan  
o'qilub, so'ngidan ko'b kishilar tarafidan xo'r, sozlar ila  
jo'r qilub, ikinchi bayt o'qilur.

Oqil qoshida, millat boshida  
Nurlar sochub, yashnab turgon mакtab emasmi?  
O'qusun yoshlarimiz, bid'atni tashlarmiz,  
Ketsun g'aflat! Kelsun himmat! Yashasun millat!  
Ilm-u hunarlar, gullar chamanlar

<sup>1</sup> Hammaning ma'lumidirki, har kimning o'z ona tili, o'z adabiyoti turgan yerda boshqalarning til va lug'atini ishlatsmak va so'ylamakcha kulunj bir ish yo'qdur. Biz bechora bobolarimiz qazigan arig'dan suv ichmay, ko'rgan birovdan suv tilab ichamiz. Bu-da, bizning o'z milliy narsalarimizning suymaganimizni namunasidur. Mana shul to'g'rida bobolarimiz tarafidan «Har kimniki o'ziga, oy ko'rinxur ko'ziga», deb so'zlangan hikmatli so'zlarining da yodimizdan chiqarayotmishtibiz. Va shul jumladan biri milliy musiqiy soz ila chalinadurgon, jirlanadurgon milliy kuylarimizni ba'zilar arabcha «maqom», ba'zilar forscha «ohang» deb atamishlar ekan. Ammo, mencha, bobolarimiz tarafidan «Kirma sanamning uyg'a, sanam solur o'z kuyiga», deb so'yangan ibratlari ona tilimizga suyalub, «kuy» demoq yaxshiroq ko'rindi (*Avloniy izohi*).

Yoshlar uchun ochib turgon maktab emasmi?  
Bobi adabdan, ilm-u funundan  
Ta'lim berib, so'ylab turgon maktab emasmi?  
Ahli vatanga, sarv-u chamanga  
Bulbul kabi sayrab turgon maktab emasmi?  
Bog'i jinondan, ham bo'stondan  
Milliy gullar terub turgon maktab emasmi?  
Zulm-u jahlga, nodon, baxilga  
Ko'kragini kerub turgon maktab emasmi?  
Illatga luqmon, zahmatga hoziq  
Hikmat darsi berub turgon maktab emasmi?  
Bilganga darmon, bilmasga armon,  
Johillarni turtub turgon maktab emasmi?  
Maktabda odob, maktabda axloq,  
Xat-u savod chiqarub turgon maktab emasmi?  
Dorul uluma, dorulfununa  
Avlodini yuborub turgon maktab emasmi?  
G'aflat jafosin, jahling yaqosin  
Qo'lini cho'zub ushlab turgon maktab emasmi?  
Har bir kishiga, savdo ishiga  
Yo'l ko'rsatub, boshlab turgon maktab emasmi?  
Dunyoda san'at, bizlarda bid'at  
Tashlang, debon yalinub turgon maktab emasmi?  
Ko'ngulda armon, yuz dog'i Hijron,  
Millat ruhini ko'tarub turgon maktab emasmi?

### ISTIQBOLDAN ORZULARIM

Garchi man ma'yus-u purg'am millatim ahvolidan,  
Qat' ummid aylamam ta'mini istiqboldidan,  
Ilma rag'bat istaram millatni yosh-u cholidan,  
Ilm-u donish yaxshi ziynat qiz-xotunga molidan,  
Ilm olub, shoyad qutulsa g'aflat(n)ing changolidan.

G'iybat-u bug'z-u adovatni agar tark aylasak,  
Ilm-u fan tahsilina himmat-la belni boylasak,  
Bilmak, o'rganmakni kasb aylab, dil uzra joylasak,  
Xobi g'aflat o'rniga sa'yi jadalni poylasak,  
Jilva qilsa ma'rifat oyinayi iqbolidan.

Har g'amming poyoni vordur, har alamning oxiri,  
Har zimistonning bahori, har xazonning oxiri,

Munqalib bo'lmak tabiiy har zamonning oxiri,  
Shodliqg'a do'nmayurmi har fig'onning oxiri,  
Dardimizningdur davosi ilm(n)ing iste'molidan.

Ilmsiz mumkinmidur topmak biza rohi najot,  
Jahl ila ichmak o'lurmi Hizrtak obi hayot,  
Ilm arbobic to'fangidur qalam, o'qi — davot —  
Basdur, avlodim, otil ilma, jaholatdin uyot,  
Meva chiqg'aymu, ko'zim, shung-u daraxtning tolidan.

Tarbiyatsiz bog'-u bo'stondan samar kutmak abas,  
Ishlamay gulzorda bekor gul kutmak abas,  
Bulbuli sho'ridani dom ila hurkutmak abas,  
Yoshlig' gul g'unchasin ochmay, gulob etmak abas,  
Zahriga bardosh edan totgay arining bolidan.

O'ynamoq-kulmoqmidur dunyoga kelmakdin murod,  
Bilmoq, o'rganmoq ila olmoq kerakdur yaxshi ot,  
Yaxshi ishlar ishlamak xalq ichra kun-kundan ziyod,  
Gar temir ishlov esa, o'tkur bo'lur, ismi fo'lod,  
Hech sado chiqg'oymi ruhsiz Mirquruq ashkolidin.

Qaysi millat bilmasa ilm-u hunar, bo'lg'usi xor,  
Ming mashaqqatlar bilan avqotini zo'rg'a topor,  
Yaxshilab boqilmagan ot poyga-ko'kbur<sup>1</sup> mi chopor,  
Qorni och bechoralar millatga xizmatmi yopor,  
Yaxshi ish mumkinmi ummid arbakash — hammoldan.

Ishta, ey millat, eshit, bu so'zlarim senga xitob,  
Yozdig'im bu satrlar har qaysi go'yo bir kitob,  
Chiq mozoringdan o'qub, qarshingdadur yavmul hisob,  
Ilm olib a'mola boq, ey millati olijanob,  
Hashrda bo'lg'aymi Hijron mard-zan juhholidan.

## KO'KNORI VA QIMORBOZ

(«Yig'lama yorim»<sup>2</sup> kuyiga)

Barcha qildi taraqqiy, bizlar uqlashmayluk,  
Eski odat — bid'atni mahkam ushlashmayluk.

<sup>1</sup> Ko'kbur — ko'pkari.

<sup>2</sup> Kuylarimizdan biri: «Yig'lama yorim, yig'loma, yallolashayluk, to'rtta, beshta bo'lub olibon, gulbog'lashayluk»dur. Shul kuya solinub, yuqorida yozilgan milliy she'riardan bir bayt bir kishi tarafidan o'qilub, so'ngidan ko'b kishilar tarafidan xo'r, sozlar ila jo'r qilub ikinchi bayt o'qilur (*Avloniy izohi*).

Ichma ko'knori, ichma, tashla past ishlarni,  
O'ynama qimor, qimor, boz tashla mushlashlarni.

Sabab nedur, bizlarda ilma rag'bat yo'qdur,  
Sarxushlik kayfi birlan qornimiz xo'b to'qdur.

Ilm-u hunar o'rgansun bizni(ng) ham avlodlar,  
Bo'lg'usidir ilm ila har bir ish bunyodlar.

O'zgalar kirdi yo'lga, bizlar g'ofillarmiz,  
Avlodimiz bilimsiz, barcha johillarmiz.

Buzuq ishdan dinimiz bizlarni man' etgan,  
Bizning ishlar barchasi teskariga ketgan.

Ko'zni oching, yoronlar, bizlar ham inson-ku?  
Mana, bizning millatning ahvolidur — ushbu?

Bormu bizdek dunyoda notavon hech millat,  
Qilmushi koni zarar, turmushi hab illat?

Millat holin ko'rganda ko'zlarimdur giryon,  
Muncha pastlab ketdi deb bo'ladurman Hijron.

Ichma ko'knori, ichma, tashla past ishlarni,  
O'ynama qimor, qimor, boz tashla mushlashlarni.

### TO'Y HAQIDA

(«Reza»<sup>1</sup> kuyiga)

O'g'lingizni o'qitmoqg'a bo'lasiz ayyor-o'v,  
To'y qilsangiz osh bermoqg'a aqchangiz bisyor-o'v.

Kambag'al kelub to'yga kirsa, ket, nari bor, bor-o',  
Boylar kelsa, to'rga olib, oshu to'n tayyor-o'v.

Bid'at uchun sarf o'ladir oltin-u dinor-o',  
Maktab desa, pul yo'q, dersiz, — bu nechuk kirdor-o'v?!

<sup>1</sup> Milliy kuylarimizdan biri:

«Otma mani toshlar bilan, yor-yor, yor-o'v,

Uchub ketay qushlar bilan, yor-yor, yor-o'v»dur. Shul kuya solinib, yuqorida yozilgan milliy she'dan bir bayt bir kishi tarafidan o'qulub, so'ngidan ko'b kishilar tarafidan xo'r, sozlar ila jo'r qilub, ikinchi bayt o'qilur (*Avloniy izohi*).

Turkistonga o'mab qolmish to'y degan isrof-o',  
Boylar yerlar yog'liq oshni, kambag'al ozor-o'v.

Bid'atmi bu? Odatmi bu? — Nag'ora qoqmog'-o',  
Shavkatmi bu, tom boshida surnayin tortor-o'v.

Kulgan bizning bu ishlarga boshqa millatlar-o',  
Pul sarf etub hajviy bo'lmaq bizga ne darkor-o'v.

Bizning dinda bormi, aytинг, to'rt kun osh bermog'-o',  
Boyni siylab, bechorani ko'ksiga turtor-o'v.

Haq der, bizga yordam qil, deb notavonlarga-o',  
Ochni qo'yub to'qg'a bersak Tangrimiz bezor-o'v.

Do'st tutdilar faqirlarni payg'ambarimiz-o',  
Ummat bo'lsak, sabab nedir, biz qilamiz xor-o'v?!

Bizning to'ylar ko'rinish turgon maxzani bid'at-o',  
Bo'lg'umizdur aybimizg'a biz qachon iqror-o'v?!

Emdi bizning bu holinchcha bu zamon qo'ymas-o',  
Bosh devorga taq etgan so'ng bo'lamiz hushyor-o'v.

Kundan kunga taraqqiyda boshqa millatlar-o',  
Bilmam qachon biz bo'lamiz uyqudan bedor-o'v.

To'yga borub, oshlarni yeb, qornimiz siypab-o',  
Shul kun umr o'tkaramiz biz butun bekor-o'v.

Esiz, to'yga sarf o'ladir oqchalar Hijron-o',  
Ilm uyidan qizg'onadir pullarin boygor-o'v.

### **BIZ NALAR QILAMIZ**

Xayol aylamakim, xayri beriyo qilamiz,  
Ulum hosil edub, o'zni peshvo qilamiz.

Xulus niyat ila hech isha kirishmaymiz,  
Etushsa bir amali, daf'atan havo qilamiz.

Hamisha aldanamiz, aldanmoqdu(r) niyatimiz,  
Tushunmay ish tubiga jang-u mojarlo qilamiz.

Falak bizi bivatadur hamisha o'z kuyina,  
Bilib turib o'zimizni, anga fido qilamiz.

Kimiki johil-u sharmanda, oni maqtaymiz,  
G‘ubori muqaddamini ko‘zga to‘tiyo qilamiz.

Kimiki manfaati xalq uchun qadam qo‘ysa,  
Oning haqida tun-u kun(da) bad duo qilamiz.

Agarda bir kishi ming yaxshilik barobarida  
Birorta ayb ish qilsa, anga jafo qilamiz.

Savob qilg‘uchi ozdir desam xato qilmam,  
Gunoh ishlari hab kayfi maisho qilamiz.

Agarda bir so‘zimiz tashlasa, o‘g‘il-qizimiz,  
«Juvonmarg, yo‘qol!» – deb oq-u qaro qilamiz.

Birovni xizmati taqdir qilinmayur bizda,  
Xatosi bo‘lsa zig‘irdek, dil uzra jo qilamiz.

Zamonaga yorashur ilma bizda rag‘bat yo‘q,  
Funun o‘rnig‘a biz kayf ila safo qilamiz.

Qilursa boshqala(r) hikmat-la kimyogarlik,  
Biz ersa «gardkam» urub, misni kimyo qilamiz.

Saodatini qachon bilg‘usi bilimsizlar,  
Aziz umrimizni jahla hab-habo qilamiz.

Bu dahri ko‘hnada shab-u ro‘z sham’tek yonamiz,  
Kuyub turub yana parvonadin gino qilamiz.

Ketib turub qo‘limizdan hunar tijoratimiz,  
Umidi sarvat-u sarmoyai g‘ino qilamiz.

Bo‘lakda bor ekan bizda yo‘qmi iste’dod,  
Qachong‘acha o‘zimiz(ni) g‘amg‘a mubtalo qilamiz.

Muhabbatini bo‘laklar uluma band etsa,  
Mudom, yosh-u qari bizim, dilrabo qilamiz.

O‘qub yetushsa kamolota g‘ayrilalar bolasi,  
O‘qutmayin, boshimizga biz(l)ar balo qilamiz.

Kech o‘lsa-da, keling emdi, kirayluk ilm uyina,  
O‘qub o‘qutmag‘a bu kundan ibtido qilamiz.

Yetar bu damg‘acha Hijronlig‘, ey musulmonlar,  
Keling, hayotimiza ilmi rahnamo qilamiz.

## IKI SADO

Bu ajab ish qilur kishini ado,  
Iki kun ichra chiqdi iki sado.  
Bir kun avval qilub sado Ho'qand,  
Ertasi Toshkand qildi navo.

Tug'dilar bir Vatan onosindan,  
Iki o'g'lon chiqishdi, qildi nido,  
Asra, yo Rab, baloyi ofatdan,  
Cho'q umr ver har ikisina, Xudo.

Yashasunlar og'o-ini birdek,  
Birisini birindan etma judo.  
Ko'rmasun dog'i hajrini onosi,  
Qilsun o'g'lonlari-la kasbi havo.

Sandan umidimiz budur, yo Rab,  
Arosun millatina siyna rohi hudo,  
So'zlasun doimo shirin til ila,  
Suyodur yaxshi so'zni shoh-u gado.

## JARIDA MUHIBLARINA

Do'ndi fasli bahora xoriston,  
Gul ochildi bo'lub bahoriston,  
Qo'ndi bulbul, chaman ochib bo'ston,  
Eshiting, aylayur siza doston.

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,  
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

Maslaki betaraf, taraqqiy yo'li,  
Qalamin ilm uchun tutubdir qo'li,  
Sarf etar qancha bo'lsa bor puli,  
Odvakatdур mudiri mas'uli.

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,  
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

So'zidur to'g'ri, rost-haqgo'ylik,  
Maqsadi ilm ila xudojo'ylik,  
Yordam aylang, qiling duogo'ylik,  
Sizdan aylar umid xushro'ylik.

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,  
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

Millating holini bayon aylar,  
Husni qabihin siza ayon aylar,  
Sahfasin sizg'a tarjimon aylar,  
O'qumoqg'a tilin ravon aylar.

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,  
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

Ulamo ahlini dilin choqlar,  
Ag'niyolarni xotirin soqlar,  
Fuqaroni huquqini yoqlar,  
Millatin jahl xobidin oqlar.

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,  
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

So'z yozar Lo'ndin, Piterburgdan,  
Berlin, Istanbul-u Parijlardan,  
Pekin-u To'kiy-u Misr, Qohir(a)dan,  
Rim, Kobul, Tunis, Jazoirdan.

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,  
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

Kina, bug'z-u adovati tashlang,  
Emdi chinlab o'qumaqa boshlang,  
Olmak uchun yoningizi qoshlang,  
Ibrat olub ko'zingizi yoshtaglang.

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,  
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

Haftada iki martadur chiqishi,  
Yilg'a to'rt so'm bahosi, yoz-u qishi,  
Bir manat – besh tiyin, olishu berishi,  
O'qumasmi olib aqlli kishi?!

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,  
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

Kutgan erdi gazitni xalqimiz,  
G'ayrat etgan kishini olqiyimiz,  
Soli ta'rixini shuni deymiz:  
«Amr etibdur o'qurni dinimiz».

Chiqdi boshlab «Sadoyi Turkiston»,  
O'qungiz shavq birla, ey do'ston.

## SHOIRILA TO'TI

### Shoir:

Kel, ey to'ti, ikovlon so'ylashayluk holi millatdan,  
Eshutdimki, emishsan boxabar ahvoli millatdan.

Ko'rub Makka, Madina, Misr, Istanbul-u Eronni,  
Nalar ko'rdung, eshitding, so'yla, jonim,  
mol-u sarvatdan.

Kezub Fos-u Yaman, Afg'on-u Hindiston, Jazoirni,  
Ridodan, hirqadan, tasbehdan, so'yla ibodatdan.

Qrim, Qofqoz, Qozon, Ufa, O'rungburglarni  
kezmishsan,  
Musulmonlar arosida na ko'rding yaxshi odatdan.

Ko'rubsan Yovruponi, holini bir-bir bayon ayla,  
Maorifdan, funundan, ilmdan, bobi hukumatdan.

Arablar, fosilar, turklar, totar-u hindiyilar,  
Taraqqiy qildilarmi, yo'qmi, so'yla kori ummatdan.

Bular ham ilm-fandan, ma'rifatdan boxabarlarimi,  
Ziroatdan, sanoatdan, hunardan, ilmi hikmatdan?

Kelibsan bizni Turkiston aro, ey murg'i jonparvar,  
Bu so'zlarning javobini menga bergil muruvvatdan.

### To'ti:

Savol aylab so'rarsan bandadan ahvoli millatni,  
Eshit, ey shoiri shirinsuxan, mandan nadomatni.

Butun islomiyon g'aflatda, shaxsiylik ila mag'rur,  
Xayoliga keturmaydur sira asri saodatni.

Maorifdan, funundan istasang topmassan osore,  
Daroz aylab qilurlar el qoshida haqg'a toatni.

Sharorat bo'lsa tish-tirnoqlari birla yopushgaylar,  
Riyosiz yo'q ibodat, ochquchi yo'q chashmi ibratni.

Hama islom elining sahnai ummidi bog'lang'on,  
Firib-u aldamoqni kasb qilmishlar, kasolatni.

Ziroatdan, sanoatdan xabarsiz Fos-u Eronlar,  
Asiri asr bo'ldi tashlamay bug'z-u adovatni.

Arabdur, turkdur, totor, hindidur, musulmondur,  
Xurus har yerda birdek qichqiribdur, olg'il ibratni.

Hunar yo'q, ilm yo'q, fan yo'q, taraqqiyidan  
nishon yo'qdur,  
Musulmon kissasidan el esadur ishta sarvatni.

### IFFATLI INSONLAR

Bo'ynini egmas kishig'a haqni bilgon nafs uchun,  
Molin isrof aylamas olivjanobon nafs uchun,  
Maslak-u maqsadni sotmas chin musulmon nafs uchun,  
Yirtmas iffat pardasin arbobi urfon nafs uchun.

Har kishining ko'nglida mastur bir omoli bor,  
Ba'zining baxt-u saodat, ba'zining iqboli bor,  
Ba'zining na kulbasi, na sarf etarga moli bor,  
Ismatini buzmag'ay har xonavayron nafs uchun.

Turmag'ay bobi tama'da himmat-u g'ayratlik er,  
Bo'lsa gar bir burda noni, kambag'allar birla yer,  
Ojiz-u bechorani ko'rgan zamon onlarga der:  
Cho'zmag'ay dasti tama'ni yaxshi inson nafs uchun.

Parcha non deb sindirarmi odamiyat shonini?  
Go'sht yig'moqg'a verarmi nafsa minnat nonini?  
Minnat ichra band etarmi har kishi jononini?  
Chindan ishlab keltirar chin mardi maydon nafs uchun.

Sotmag'ay iffat-hayosin nafs uchun arzon baho,  
O'zdan ojizroq kishilarg'a qilur xayri saxo,  
So'zida sodiq turur, ahdig'a ham qilgay vafo,  
So'yamas aslo yolonni ahli vijdon nafs uchun.

Mor zahridin yomonroqdur baxilning bir puli,  
Ham chayonni nayzasidan puralam nokas tili,  
Yumshamas tun-kun eritganda danining tosh dili,  
Nokasa sunmas bo'yin gavharshunoson nafs uchun.

Bir qarn ichra qorin deb obro' to'kmak abas,  
Arzi<sup>1</sup> nomusni yo'qtganlar bo'lurlar xor-u xas,

<sup>1</sup>Arz – qiymat, qadr.

Xalqqa minnatdorliq hargiz kerak ermas emas,  
Olat etmas g'ayratin nomusdoron nafs uchun.

Rizq topmaqda chumolidek kuchingg'a yig'lag'il,  
Pashshadek xonish qilub har sufradan quvlanmag'il,  
G'ayratingni, arzi nomusingni, Hijron, saqlag'il,  
Pardai insoniyat yirtarmu inson nafs uchun.

### GAPURMANGLAR

Keling, insof eting, bug'z-u adovatdan gapurmanglar!  
Masojid oldida g'iybat, shikoyatdan gapurmanglar!

Saxiylikni qiling odat, bo'ling shafqat-muruvvatlik,  
Baxilning qoshida xayr-u saxovatdan gapurmanglar!

Yetar g'aflat, yetar zillat, yetar beilmilik, jonon,  
Oching ibrat ko'zini, xobi g'aflatdan gapurmanglar!

Tijoratga, sanoatga kirayluk boshqa millatdek,  
Yo'q o'sun ma'raka, to'y-u ziyoftdan gapurmanglar!

Ibodatni qiling ixlos ila, Olloh uchun xolis,  
Riyo aylab xaloyiqg'a riyozatdan gapurmanglar!

Jin-u dev-u pari deb bolalarni dillarin buzmang,  
Kelur «Olabo'ji» deb, hech xurofotdan gapurmanglar!

O'g'ul, qizlarni yaxshi tarbiyat birla qiling ulkan,  
G'azab, achchig' ila dahshat siyosatdan gapurmanglar!

Bolasini o'qutmak farzdur har bir otolarga,  
O'qutmasdan, ish o'tgan so'ng nadomatdan gapurmanglar!

Sabiylar oldida bema'ni so'zlab xulqini buzmang,  
Juvon-u bachcha deb ko'z-qosh, ishoratdan gapurmanglar!

Tama'dan, moli mardumxo'rlikdan ehtiyyot aylab,  
Firib-u hiylagarlikdan, xiyonatdan gapurmanglar!

Nasha, afyun-u ko'knor, ichkulikning nomini aytmang,  
Shularga o'xshagan fisq-u sharoratdan gapurmanglar!

Bolalarga «Onangni ur, otangni so'k» deb o'rgatmang,  
Urish, mushlash kabi bejo jinoyatdan gapurmanglar!

Ziyonlik, dilga o'rnashgan yomon ishlarni tashlayluk,  
Ota-bobom qilgan deb urf-u odatdan gapurmanglar!

Siza arzim budur, ey shoiron, ishqiya nazm etmang,  
Qalam qosh, zulfi sunbul, sarvi qomatdan  
gapurmanglar!

Payambar aydi: «Ba'zi she'r – hikmat, ba'zisidir sehr»,  
Amal aylang bu so'zg'a, hajv-u bid'atdan gapurmanglar!

Keling, emdi yozayluk, so'ylashayluk kamchiliklardan,  
Yetar Hijronlig' emdi, jomi ishratdan gapurmanglar!

### **SADOYI BULBUL**

Qo'nub gul shoxiga bulbul der: Ey insonlar, insonlar,  
Qilursiz tobakay g'ofil yotib afg'onlar, insonlar.

Turing uyquni tashlang, ilm oling, yoshlik g'animatdur,  
Yo'q ersa, bo'lg'ungizdur jahl uchun qurbanlar, insonlar.

Tuganmish sizdag'i insoniyatning obi hayvoni,  
Adovat dengizingiz to'lqin-u to'fonlar, insonlar.

Uchub ketmish dilingizdan birodarlikning osori,  
Ko'runmas zarracha shafqat, his-u vijdonlar, insonlar.

Jahon tor o'ldi sizning dastingizdan barcha qushlarga,  
Qamab dom-u qafasga some' ilhonlar, insonlar.

Qarong'u qildingiz dunyo yuzin johil dili yanglig',  
Dilingizni yorutmas ilm ila urfonlar, insonlar.

Faqir-u notavon har yerda biz qushlar kabi nolon,  
Qani yordam debon Haqdan kelan farmonlar, insonlar.

Tun-u kun aylasam faryod sizlarga asar qilmas,  
Dili tog'lar toshidek yumshamas qotgonlar, insonlar.

Adovatni tash(l)ang, ulfat bo'lingiz, bir tug'ushg'ondek,  
Bu olamga erursiz necha kun mehmonlar, insonlar.

Muruvvatlik bo'lingiz, bir kishining jonin  
og'ritmang,  
G'arib-u benavolarga qiling ehsонlar, insonlar.

Saxovat bo'stoniga ko'ngul murg'ini rom aylang,  
Sanoxon o'lg'usidur hurlar, rizvonlar, insonlar.

Taraqqiy ayladi dunyoda har millat ilm birla,  
Nechun siz qoldingiz pastlab, musulmonlar, insonlar.

Kuchingizning boricha umringizni ilma sarf aylang,  
Bilimsizlar iki olamdadur Hijronlar, insonlar.

### MUXOTABIM QALAM

Ayo ey sohibi urfon! Vatan bog'inda faryod et!  
Otib tashla arodin eski odatlarni, barbod et!

Maorif-la funun tahsilina qil rahnamolig' san,  
Qarong'uda qolan millatni nuri ilma irshod et!

Sadoi dil firibing-la o'chur kin-u adovatni,  
Adolat orzusi-la to'kub yoshingni, inshod et!

Jaholat, zulmat ichra qoldi avlodi Vatan mag'mum,  
Nazar qil, marhamat qil, jahl changolidin ozod et!

Kerak, oqil esang, dunyoga ortuq hirsingi qo'yma,  
Qo'lingdin kelganicha ilm arbobina imdod et!

Karamxoningni yozgil ne'mati alvon ila har on,  
Shakargustor ila avlodi millatni dilin shod et!

Kirish, ojizlara imdod qilmak punjasin boshla,  
Bu millat xonadonin toza ta'miring-la bunyod et!

Maishat bobida islomiyon har yerda mehnatkash,  
Ziyyoti ilma targ'ib ayla, mehnat bog'in obod et!

Agar qolsun desang olamda bir ta'ixi osoring,  
Cholish millat ishina bir binotek yaxshi bir od et!

G'arib millatni afrodi tilar sendan shu umidi,  
Chaqir ilma, Vatan avlodini chin odamizod et!

Belingni bog'la mahkam, shar'i onhazratga xizmat qil,  
Qaro yoshingni to'k shom-u saharlar virdi avrod et!

Vatan mehri agar bo'lsa, dilingda ishq savdosi,  
Otil nuri maorifga, o'zingni misli Farhod et!

Yetar g'aflatda Hijronlig', qadam qo'y bog'i ta'lima,  
Cholishmishlar nechuk tafsila o'tmisht ta'rixing yod et!

## G'ALAT

Shayxlik da'vo qilub, beilm guftoring g'alat,  
Shayx San'on bo'lmasang, bo'yningda zunnorning g'alat.  
So'fiman deb sof dil birla ibodat qilmasang,  
So'zing(g)a to'g'ri emasdir jumla kirdoring g'alat,  
Ilm lofin urding el qoshida manmanlik qilub,  
Qo'lda tasbeh, mag'zsiz bosh uzra dastoring g'alat.  
Zohido, zuhdingga mag'rur o'limg'il san zinhor,  
Qilmasa tangri qabul toati darkoring g'alat.  
Ro'za tutgach, mushlashursan ko'chada har kim bila,  
Gar savol o'lsa, xumoriman deb iqroring g'alat.  
Haqni amr etgan zakotini mukammal bermayin,  
Hiyla aylab kambag'al haqqiga inkoring g'alat.  
Hoji desun xalq, deb qilding ziyorat Ka'bani,  
Aqrabo avlodining qilg'on jafokorining g'alat.  
Xalq oldida ibodatni qilib dur-u daroz,  
Maxfida qulluq adosi bo'lsa dashvoring g'alat.  
Kambag'allarni qo'yub boying chaqirding ro'zada,  
Xolisona qilmag'on xayrot-u iftoring g'alat.  
Qoriyo, qilding tilovat doimo dunyo uchun,  
Gar xudo rahm etmasa, shab-ro'z takroring g'alat.  
Ilmdan yo'q sanda osori duixonlik qilub,  
Yozibon bergan ezibichki-yu tumorining g'alat.  
To'rt adad tosh tashlabon, kasb aylading rommollik,  
Jin-u shaytondin yalondan bergan axborining g'alat.  
Bizga eshon-u tabiblik otadan meros deb,  
Za'faron hubbulmalikdin doru tayyoring g'alat.  
«Askiyoman» deb tilingg'a harna kelsa so'ylabon,  
Majlis-u ulfatchilikda mardum ozoring g'alat.  
Dod-faryod etganing birla qulog'i kar eling,  
Ters to'nini tashlamas, Hijron, bu axtorining g'alat!

## DIQQATMAN

Aromizda muhabbatni urushkoniga diqqatman,  
Musulmonlarning axloqin qurishkoniga diqqatman.

Olarda aqchani olg‘ay xamirdan qil sug‘urg‘ondek,  
Berurda to‘rtta tuqg‘ondek tirishkoniga diqqatman.

Agar so‘fi chaqirsa, masjida kirmas, ibodatg‘a,  
Xudoyi osh desang saf-saf kirishkoniga diqqatman.

Agar ilm-u maorifg‘a taraddud qilsa bir inson,  
Anga qarshi turub, xalqning qizishkoniga diqqatman.

Taajjub, bu zamonda to‘g‘ri so‘z tuvg‘ong‘a yoqmaydur,  
Temurchidek yalon so‘zni cho‘zishkoniga diqqatman.

Icharlar och yurakg‘a choyni shilqillatib doim,  
Kishilarni samovarda qirishkoniga diqqatman.

Agarda yetti yerda to‘y bo‘sса, oshni tushurgaylar,  
To‘yub qorni, kekurub, ko‘b kerushkoniga diqqatman.

Maorif, ilm yo‘lina tiyinni ko‘zлari qiymas,  
Bazmda bachchaga so‘mlar berishkoniga diqqatman.

Bo‘laklarni bolasi ilm uyina otulganda,  
Bizim avlodimiz o‘ynab yurishkoniga diqqatman.

Yo(v)rupo xalqi har ishga nazar ibrat uchun boqsа,  
Bizim el qof yo‘qotgandek turishkoniga diqqatman.

O‘qub hamsoyamizning qizlari zebo tikish tiksa,  
Bizi qizlarni tikg‘oni burushgoniga diqqatman.

Bo‘laklar ilm durrin rishtai joniga tizganda,  
Bizimki ilmsiz cho‘pchak terishkoniga diqqatman.

Hama dehqonchilikni yangi asboblar bilan qilsa,  
Omoch-bo‘yinturuq-la yer surishkoniga diqqatman.

Havosi yaxshi uylarni yasab rohat yashar ag‘yor,  
Bizimkilar zax uylarda churishkoniga diqqatman.

Xaloyiqdan mani Hijronlig‘im behuda ermaskim,  
Firibgarlik qilub, yumshоq ko‘rishkoniga diqqatman.

**BIZ NIMA HOLDAMIZ**

Eye, jaholat nori birla yondi jismi pokimiz,  
Ilmsiz qolduk ayoq ostida misli xokmiz.  
O'sdi ilm-u ma'rifat-la boshqalar ar-ar kabi,  
Tarbiyatsiz, majmag'il monandi zangi tokmiz.  
Jismin, axloqin tuzatdi noslar, tannoslar,  
Kir chopon, ko'krak ochuq, yaxtak yaqosi chokmiz.  
G'ayrilar tashlab jaholat bodasin g'amdan xalos,  
Biz esa masti jaholat, ko'knori taryokmiz.  
Aysh-u ishrat bo'lsa har qancha qilurmiz bema'lol,  
Diniy ishlardan, ibodatdan qochar bebokmiz.  
Dori dunyo ilm ila purnur o'lan bir vaqtida,  
Jahli vodiysinda yotgandur xotun-erkakmiz.  
O'ylamak lozim emasmi, ey Muhammad ummati,  
Farzi sunnatdan chiqub, bizlar qayon ketmoqmiz?!  
Johilon bilgaymu naf'i-sudini, ey olimon,  
Tobakay yaxshi-yomonga yetmagay idrokimiz?  
Ilm yaxshimi, jaholatmi, tushunmaymiz hanuz,  
Aqlimiz yo'qmi bizim, majnunmi yo tentokmiz?  
Ichkilik, ummul xabois<sup>1</sup>, deydilar payg'ambarim.  
Kecha-kunduz ko'p icharmiz, johil-u nopokmiz.  
Basdur, ey Hijron, jaholatdan gapurmak shunchalar,  
To'g'ri so'z tuvg'ong'a yoqmaydur, demish o'rnikimiz.

**MUSIQI**

Mast o'lur har kim eshitsa, shavq ila ovozingi,  
O'ynamoq aylar taqozo, tinglasa jon sozingi.  
Mayji ovozing asir aylar qulub-u jonlari,  
Some' aylarsan sado qilsang agar insonlari.  
Chashmi ruhoning necha ming jonlari jazb aylagay,  
Murda dillar junbushingdan to'tiyo kasb aylagay.  
Elni eltar zavq diydoring tamanno aylasa,  
Kim musaxxar o'lmagay vasling tamosho aylasa.  
Kayflanmazmu seningdek dilkusho mastonadan,  
Qaysi jon ayrilmoq istar san kabi jononadan,  
So'ylagan kimdur dahoningdan azal asrorini,  
Nag'mang ochgay elni askorin, tuzar jon torini.

<sup>1</sup> Ummul xabois – qabihliklar, tubanliklar manbayi.

Larza tushgay jismi insona tarannum aylasang,  
 Qalblar larzishga tushgay san takallum aylasang.  
 Suvrating ko'rganda, ey jonparvari zebo maqom,  
 Otashi ishqing-la har jon suvrati bo'lg'ay g'ulom.  
 Kuyla, so'yla she'rimi, ey ruhparvar, bemalol,  
 Bir sado qil, bir nido qil, ko'rsat ohangi jamol.  
 Koinota chiq uyingdan, aylagil bir iltifot,  
 Shaklingi ko'rganda, sendan ruh kasb aylar hayot.  
 Nag'masozingdur madori jism, qudsiy so'zlarin,  
 Ruhbaxshodur sado qilganda, Hijron, ko'zlarin.

### MILLAT HAYKALIGA XITOB<sup>1</sup>

Tur, ey millat, uyqudan, hasratlashayluk,  
 Ilm uyiga kirmoqg'a suhbatlashayluk.

Yotma, millat, uxlama, bedorlashayluk,  
 Milliy ishlar ishlarga, tur, bel bog'lashayluk.

Yotmoq bo'lsa xo'b yotding, emdi turmoq zamoni,  
 Uyqu, g'aflat, yalqovlik – jaholatning nishoni.

So'lmish guldek yuzlarin, yoshlar sochur ko'zlarin,  
 Uzma umid dunyodan, ayt qayg'ulik so'zlarin.

Tilsiz, ishsiz, bilimsiz, bemor, millat – avloding,  
 Hech bir yeriga yetmas oh-u fig'on, faryoding.

Olam nurga to'lganda, bizlar vulqon ichida,  
 Barcha chiqdi sohilga, bizlar to'fon ichida.

Dunyoga boq diqqat-la, yotma g'aflat, hasratda,  
 Olamdag'i san'atga ko'z qamashgan fursatda.

Kechdi ul o'tgan zamon, hozirda yangi zamon,  
 Nodon millat mahv o'lgan, o'qugan, bilgan – omon.

So'lgan gulingni bo'yla, tarixlaringdan so'yla,  
 Ko'b zamon chekding g'urbat, istiqbolingni o'yla.

Uxlading bir necha yil, emdi ilma g'ayrat qil,  
 Yalqovlikni tark ayla, fan-u ilming yaxshi bil.

<sup>1</sup> «Yig'lama yorim» kuyida (*Avloniy izohi*).

Tur, bizlarga yo'l ko'rsat, ko'r pangni ustingdan ot,  
Bul taraqqiy davrinda yotmog'lik sanga uyot.

Ma'yus o'lma, ey millat, bo'lma navmid ham diqqat,  
Savq et ilma avloding, g'ayrat qil, chekma g'urbat.

Ag'yor – olim, biz nodon, barcha – ruhlik, biz bejon,  
O'zgaga dunyo bo'ston, bizlarga zindon Hijron.

### BAHOR

Ko'nglum xush erdi mavsumi fasli bahordan,  
Bodi sabo keturdi xabar vasli yordan.  
Tab'i tabiat aylamish atrofni sabzazor,  
Rashk aylayurdi Bog'i Eram bu diyordan.  
Bir yonda gul-chechaklar otub, tebranur chaman,  
Bir yonda bulbul oh chekur intizordan.  
Bir shavq xush latofat ila kelturur nasim,  
Bir qo'quni chamandan va bir lolazordan.  
Boq diqqating-la bir gula, bir sarv-u sunbula,  
Och ko'zlariningi, qilma gina ro'zgordan.  
Ag'yoring oldi gulni gulobin terib-terib,  
Gulshan xazona do'ndi tushub e'tibordan.  
Na sanda yora mayl, na vasl uchun havas,  
Chek allaringni emdi bu zavq-u ixtiyor dan.  
Avvalda sanda bor edi ilm-u funung'a ishq,  
Shimdi iborat o'lding u eski mazordan.  
Ko'b yotma, qotma, ista visoli jamoli yor,  
Bo'lma bahor so'ngida Hijroni zordan.

### O'Z MAISHATIMIZDAN

Ko'b qiziq bul jahoning savdosi,  
Ko'rinur rang-barang tamoshosi.  
Har yera borsa, so'zi maqbuldir  
Kimni bor bo'lsa nuqra-tillosi.  
Gar faqir o'lsa, ochligidankim,  
Bo'Imag'ay boyni zarra parvosi,  
To'y qilib, osh berur g'aniylarga,  
Kambag'al kirsa, hayda-haydosi.  
To'n berur ag'niyo-imomlarga,

Kambag'al – parcha nonni shaydosi.  
Sarf etar to'yga pulni ming-minglab,  
Yo'q xayolinda maktab inshosi.  
Ilm uchun pulni ko'zлari qiymas,  
Kim bilur, bormi-yo'q foydosi?!  
Jumlesi boyni so'zini aytur,  
Xohi eshon-u xohi mullosi.  
Ilmdan istasang, nishon yo'qdur,  
Boshida bor qozoncha sallosi.  
Xalqqa bir pulcha qimmati yo'qdur,  
Har kim(n)ing bo'lsa ilmi-donosi.  
Tong otur – kun botur – o'tar davron –  
Yo'qtur millatni zarra bolosi.  
Har kishi o'z maishatin istar,  
Kimga lozim malolni g'avg'osi.  
To'g'ri so'z tuvg'onig'a yoqmaydur,  
Bu so'zimdur zamon taqozosi.  
Ko'rdimi parcha manfaat millat,  
Ey, zamonning adibi a'losi?!  
Jamiyat majlisina bormaslar –  
Yo'qtur yog'li palov, nishollosi.  
Ey ko'zum, qon to'k, og'la, Hijron bo'l,  
Ishda millatga buldur avlosi.

### MAISHATIMIZDAN BIR MANZARA

Ko'b vaqlar uxladuk, emdi turayluk,  
Tong otdi, uyqudan ko'zni yirayluk.  
O'tmasun vaqtimiz, ilma yurayluk,  
Tezgina ilm(n)ing uyiga kirayluk.  
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,  
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Tangrimiz farz qilmish bizga o'qurni,  
Ko'bimiz bilmasmiz o'qur, yozurni,  
Biz yaxshi ko'ramiz uxbab yoturni,  
Boshqalar o'qutur gung-u so'qurni.  
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,  
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Umrini sarf etmish ilma bobolar,  
Chekmishlar ilm uchun jabr-u jafolar,  
Bizlar ham bo'lmayluk baxti qarolar,  
Bitsun, yo'q o'lson bu kayf-u safolar.  
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i.  
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Bobolar qilmishlar ilma shitob,  
Yozmishlar qancha hisob-kitob,  
Solmishlar mакtab, madrasa, mehrob,  
Bizlar yotarmiz o'qumayin uxbab.  
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,  
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Oz bizda yaxshi tartiblik maktablar,  
Yo'q bizlarda ilma jiddiy talablar,  
Otalar ilma pul bermas – yer gaplar,  
To'ylarga oqchalar necha ming sarflar.  
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,  
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

O'zgalar ittifoq, bizda xiyonat,  
O'zgada ilm olmaq, bizda jaholat,  
O'zgalarda g'ayrat, bizda atolat,  
O'zgada iqtisod, bizda safohat,  
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,  
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Dinimiz man' etgan kishi haqin yerdan,  
Biz hazar qilmaymiz haqqing yo'q derdan,  
Pul desa qattig'miz tosh-u temirdan,  
«Ol» demak yoqadur, bezormiz «ber»dan.  
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,  
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

Har yerda ko'chdi juhudlarga savdo,  
Bizlara hovli sot, bog'ni sot, yallo,  
Ilmsiz har bir ish oxir vovaylo,  
Och ko'zni, ey Hijron, ilma bel boylo.  
Ey millat, uxlama, ilm olur chog'i,  
Har millat ilm oldi – yondi chirog'i.

**Birinchi bo'lim**

Otam edi boylar boyi, ko'b edi er-suv, joyi,  
Uyimizda har kun falov – tagida oqurdi moyi.

Gumashtalar, xidmatchilar, rivojlik yururdi ishlar,  
Necha yerda saroy-do'kon – naqshkorlik imoratlar.

Bir tarafda dehqonchilik, sahrolarda chorvachilik,  
Bir tarafda bog'-u bo'ston – yaxshi edi tirikchilik.

Yog'liq oshlar oshar edim, farog'atda yashar edim,  
Otam, onam ish buyursa, bo'yin tovlab qochar edim.

Uxlар edim kun chiqg'uncha, o'ynar edim kun botguncha,  
Pul tikub oshug' o'ynashni o'rgандим man uncha-muncha.

Yoshim bo'ldi sakkiz yoshar, ishim erdi o'ynar, oshar,  
Tarbiyatsiz katta bo'ldim, hasratlarim haddan oshar.

O'rgangil deb ilm-u adab, otam eltub berdi maktab,  
Shogirdlar o'qusa saboq, man o'lтурар edim qarab.

Domlamda bor uch gaz tayoq, yo'g'onlig'i iki barmoq,  
Podachining gavronidek boshga tushar taroq-taroq.

Maktab menga bo'ldi zindon, aqlim hayron, ko'zim giryon,  
Shunday mashaqqatlar bilan o'qub yurdim necha zamon.

O'skan edim erka bo'lub, yurgan edim o'ynab-kulub,  
Maktab desa bezillardim, yig'lar edim o'fkam to'lub.

Bir kun so'rdi otam holim, bayon qildim o'z ahvolim,  
O'z aybimni yoshibrub qo'yub, ota, domlam,— derdim,— zolim.

Otam, «jur», — deb, qo'lim tutdi, boshqa bir  
maktabga eltdi,

Domлага tayinlab meni, o'zi uyga qarab ketdi.

Ammo bu maktabda kaltak, yo'q ekan charxfalak, chalfak,  
Domlasi ham yaxshigina, ko'rdi mani o'z o'g'lidak.

Tarbiyat qildi har kuni, o'qusun, bilsun deb meni,  
Ammo manda qayda qulqoq, tinglamadim hech birini.

Meni ishim erdi mushlash, yoqa yirtish, urish-talash,  
Oshig' o'ynash, yang'oq otish, bel bog'lashib tushmoq kurash.

Domlam qildi ko'b nasihat, o'yin o'rniga yoz deb xat,  
Domla so'zi yoqmas edi, bo'lur edim juda diqqat.

Domla bo'ldi mandan bezor, bolalar ham chekdi ozor,  
Quvdi, mакtabdan haydadi, emdi bo'ldim toza bekor.

### **Ikkinchи bo'lim**

Har kun chiqib samovarga, ulfat bo'ldim yamonlarga,  
O'rgandim qimor o'ynashni, yo'ldosh bo'lub chafanlarga.

Saodat dunyodan kechdim, nasha chekdim, sharob ichdim,  
To'g'ri yo'ldan ozg'urdilar – mayxonalarda pul sochdim.

Beboklarga qo'shilub yurdim, maxfiy buzuq suhbat qurdim,  
Otam nasihatini olmay, turma, zindonlarni ko'rdim.

Yuriy-yuriy bo'ldim yamon, mehribonlar qochdi mandan,  
Qimor sharobxonalarda har kuni qilur erdim javlon.

Bo'ldim musriflar musrifi, garov erdi to'n-u do'fi,  
Och qolganda uyga kelub, bo'lur edim mo'min so'fi.

Ish qilmoqg'a ayyor edim, osh vaqtida tayyor edim,  
Nasihat qilgan kishidan dunyoda man bezor edim.

Urish, mushlash erdi ishim, og'u erdi ichgan oshim,  
Bir kun boshim yorilurdi, bir kun sinur erdi tishim.

Otim bor yaxshi arg'imoq, chopar erdim har kun uloq,  
Bir kun ma'yib bo'lub kelub, bir kun bo'lur erdim cho'loq.

Mehribon onam yig'lar zor, men berurdim yana ozor,  
Sut haqini haqlamadim, oxirda bo'ldim shunday xor.

O'n sakkizga to'ldi yoshim, yo'q erdi o'zga qardoshim,  
Otam o'ldi, yer-suv qoldi, zarga botdi yolg'uz boshim.

Dunyo mani quturturdi, yamon do'stlar yo'ldan urdi,  
Oxirini o'ylamadim, mag'rurlik yo'ldan ozg'urdi.

Safohatga bo'ldim mag'rur, sharoratga erdim masrur,  
Gostinsa, resto'ranlarda kecha-kunduz qildim murur.

Qildi qo'ldan dunyo guzor, bo'ldim toza ranj-u xummor,  
Yer sotishga qoldi kunim, bo'ldim oxir g'amga duchor.

Dunyo manga berdi firib, davlat ketub bo'ldim g'arib,  
Saodatdan ba'id o'ldum, falokatga bo'ldim qarib.

Kulfat menga eshik ochdi, g'urbat boshga mehnat sochdi,  
Mol-u dunyo, davlat ketdi, hamrohlarim tashlab qochdi.

Bog'-u bo'ston ketdi qo'ldan, cho'ntak quruq qoldi puldan,  
Barchasini berdim barbod, turmushim farqi yo'q quldan.

Hasratlarim haddin fuzun, hech kim mandek bo'lmas zabun,  
Ko'zlarimdan oqar qon-yosh, jigarlar pora, bag'rim xun.

Tirikligim jahannamdur, turmushim tun-u kun g'amdur,  
So'ng fushaymon foyda bermas, ko'zim giryon, diydam namdur.

Yemoqg'a nonga bo'ldim zor, choponim eski, o'zim xor,  
Kuch-u quvvat ketdi qo'ldan, qimirlashga yo'qdur mador.

O'qumadim – bo'ldim nodon, hazar qilur mandin inson,  
Sizlar mendan ibrat oling, jaholatga bo'ldim qurban.

Ibrat bo'lsun sizga bu hol, jaholatda yo'qtur kamol,  
Ilmsizlik qilgay xarob, Hijron bo'lur ahli zalol.

### O'Z MAISHATIMIZDAN

Arbamiz g'ildiragi uch gaz-u g'ildir-g'ildir,  
Olti botmon yuki birlan qiladur pildir-pildir.

Millat avlodi hama arbakash va hammollar –  
Afti angori qaro, kiygani – juldur-juldur.

Boshqalar ilm-u hunar soyasida yaxshi yashar,  
Ilmsiz faqri zaruratga biz(l)ar quldur-quldur.

To'ldi tobe'lig'imiz Rusiyaga ellik yil,  
Bilmayin rus lisonin, ko'zimiz mo'ldur-mo'ldur.

Biz qachon ajratamiz foyda birlan zararni,  
Lof, yolg'on gap-so'zda qilamiz guldur-guldur.

Kimga o'g'lingni o'qut ruscha – desang, yoqmaysan,  
Ruscha bilsa buzilur der, vaji buldur-buldur.

Samovarga chiqishub yosh-qari chuldirashur,  
Ertadan kechq'acha choyni ichadur sho'ldur-sho'ldur.

O'l turub maqtashadur otini, eshshaklarini,  
Biri der: yo'rg'a, biri der, meniki – duldur-duldur.

Uyda och o'l turodur xotuni, er to'kma yeyar,  
Kelturub bachcha, bazmlarga ketar puldur-puldur.

O'ynabon qarta-qimor, pullarini boy beribon,  
Tom teshub, bo'g'cha o'g'urlab, odam o'ldur-o'ldur.

So'z quruq bo'lsa, kishining qulog'iga yoqmas,  
Osh berub, to'n berubon qo'ynini to'ldur-to'ldur.

Muncha behuda tutoshub qizishursan, Hijron,  
Elga ohing asar etmas, o'tuning ho'ldur-ho'ldur.

### **SAFOHAT – AYNI FALOKAT**

Safohat ofati jondur jahonda,  
Safohat bizdadur ushbu zamonda.

Yuqumlik bir marazdandur safohat,  
Yuqub, andan tug'ulur har falokat.

Safohat mahv etar umring, hayoting,  
Umid etmas safohatdan najoting.

Safohat aylagay molingni toroj,  
Bo'larsan oxiri nomarda muhtoj.

Beribdur Haq senga juz ixtiyor,  
Rizo ermas buzuq koringga bore.

Aziz umringni g'aflatda kechurma,  
Safohat jomini nafsa ichurma.

Shariat yo'lida qil istiqomat,  
Safohat oxiri hasrat, nadomat.

Dushun joni azizing, ehtiyyot et,  
Musaffo bo'l, pay(g')ambar ortidan ket.

Safohat o'ylama oromi jondur,  
Butun vijdon ila jonga ziyondur.

Faqirlikni pula sotub olursan,  
Dushungil, dushmanha muhtoj qolursan.

Safohat dushmani nomus-u sha'ning,  
Buyuk bir ofati ruhi ravoning.

Qabohatdur, safolatdur safohat,  
Na Hijronlig' falokatdur safohat.

### NIMA KIMNIKI

Xo'ja xor-u so'z hama bandoniki,  
Oqcha pullar sohibi jandoniki.  
Nega xomush o'lding, ey ahli xirad,  
Bo'ldi dunyo kori sharmandoniki.  
Shirkat aylab, arbakash ham bo'lmaduk,  
Har kuni minglarcha so'm ko'nkoniki.  
Nasya olub sut ichadur bizni xalq,  
Maska, qaymoq fabrik-u bankoniki.  
Bo'lmasa moyi g'ijirlaydur o'qi,  
Barcha ishning mehvari tangoniki.  
Gar faqir o'lsang, demas holing nadur?  
Mehribonlig' oltin-u dengoniki.  
Eski to'n bo'lsang, bo'lursan xor-u zor,  
Izzat-u hurmat to'ni yangoniki.  
Ilmdan boylik yuqorida turar,  
Suhbat-u majlis siliq-salloni.  
Ilm uchun bir pulni qiymas ko'zları,  
Resto'randa tangalar yalloniki.  
Chashmimizni bosdi g'aflat pardasi,  
Tinch-u rohat ko'zları binoniki.  
Soddalik bozori bo'ldi xo'b kasod,  
Sud qilmoq mahkam-u dononiki.  
Kamchilikni nazm ila taqdim etar,  
Ishda bu Hijron degan ustонiki.

# «ADABIYOT YOXUD MILLIY SHE'RLAR»dan

## TO'RTINCHI JUZ\*

*Xomam to 'kiyur xuni jigardin g'azaliyot,  
Oyinai har millat erur til-adabiyot.*

---

\* 1916-yilgi (T., Orifjonov litografiyası) birinchi nashriga asoslandik.

Lillohilhamdu va-l-mannahu, ban o'z qalamim ila nashr o'linan «Adabiyot» ismli milliy she'rlar majmuasining to'rtinchi juzining matbuot olaminda jilvagar o'lmosq'ina muvaffaq o'lustum. Muhtaram millatparvar muallim afandilar va adabiyot muhiblari, banim bu asari nochizonalarami iltifotsiz qoldurmadilar. Turkistonning eng mashhur muallimlari dars jadvalina kiritub, maydoni ta'lima qo'ydilar. Ulardan boshqa o'z qalamim ila maydoni matbuotda jilvagar o'lan «Birinchi muallim», «Ikinchi muallim», «Adabiyot», «Turkiy guliston», «Tarixi anbiyo» ismli asarlarim maktablarda o'qulmoqda. Millat bolalari banim bu asarlarimdan istifoda qilmoqda ekan, banim bu xususdagi g'ayrat va jasoratim daho ziyoda o'Imag'a boshladи. Inshoolloh, tezdan dilimda xat tortilmish yana bir necha asarlarning matbuot vositasi-la qoriini kiromlaring anzori oliylarina taqdim qilmoqg'a bandani majbur qildi. Tabiiy o'lan nuqson va kamchiliklarimi tanbih va tanqid qilmaqda himmat va marhamatlarini bandadan darig' tutmasalar edi.

Cholishmoq bandadan, tavsiq Ollohdan,  
Oyinasi ishdur kishining, lofa boqilmas,  
Shaxsining ko'rinur rutbasi, aqli asarindan.

*Toshkent, Abdulla Avloniy, taxallus  
«Hijron».*

### HAMD

Hamd o'lsun, ey Xudoyo, senga beedad sano,  
Odamni aylading qora tufrog'din bino.

Ko'kda malaklar arzi ubudiyating qilur,  
Yerda qilur ibodating insonlaring ado.

Qudratlaringni hech yeriga aql erishmagay,  
San'atlaringdan ojiz erur fahm, ey Xudo.

Sun'ing bahoridin o'sadur bog' aro chaman,  
Rayhon-u sunbul-u gul-u ra'noi jonfizo.

Tushmish dimog'i bulbula gulning muhabbati,  
Shom-u sahar gul ishqida bulbul qilur sado.

So'ylar shakaring ishqida to'tiyi bezabon,  
Qumrini qaydi dom qilan dona bebah.

Har zi vujuda nafs veru bas, hayot ichun,  
Har zi hayot nafsi ichun jon qilur fido.

Ag'yora verding ilm-u funun ishqini o'zing,  
Biz ersa barcha johil-u nodon, benavo.

Do'sting habibi sayyidi muxtor hurmati,  
Ummatlarini xobi kasolatdin et judo.

Yo Rab, g'arib millati hushyor ayla deb,  
Hijron quling ko'tardi qo'lin aylab iltijo.

### NA'TI HAZRATI RASULI AKRAM

Qur'oni karim nozil edub bizlara Xoliq,  
Vahyi ila yubordi oni payg'ambara Xoliq,  
Amr ayladi bizlarga amal qilmag'a Xoliq,  
Ko'ndirdi rasulini bu ummatlara Xoliq.

X o' r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad, qurbon anga  
ummat,  
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,  
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,  
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Biz ummat erur senga, ayo sayyidi barno,  
Payg'ambarimizsan bizi, ey gavhari yakto,  
San iki jahon boisisan, xojai «Toho»,  
San birla, ajab, topdi sharaf Yasrib-u Batho.

X o' r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad, qurbon anga  
ummat,  
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,

Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,  
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Bir shar'i sharif ummat uchun aylading ehson,  
To ro'zi jazo joridur ahkomi farovon,  
Ey ummi laqab sohibi donandai Qur'on,  
Kim zikr eta(r) nomingni mukammal o'lur iymon.

### X o' r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad, qurban anga  
ummatt,  
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,  
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,  
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazlu karamina.

Olam hama gumroh edi, san rohbar o'lding,  
Oyni bir ishorat edubon ikiga bo'lding,  
Ummat g'amida shom-u sahar qayg'uga to'lding,  
Lolo gulini olama nashr etding-u so'lding.

### X o' r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad, qurban anga  
ummatt,  
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,  
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,  
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazlu karamina.

Ul kunki, chiqib arshi mualloni yorutding,  
Lavh-u qalami, kursi-yu zeboni yorutding,  
Ul jannati firdavsi musaffoni yorutding,  
Shams-u qamar-u manzili ma'voni yorutding.

### X o' r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad, qurban anga  
ummatt,  
Ul ma'dani ilma, ul hodiyi dina, ul sohibi hilma,  
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,  
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazlu karamina.

Haq verdi senga chun sharafi xilqati lavlok,  
Gardi qadaming birla muattar edi aflok,  
Rizvon-u malak husniga ahsan dedi, ey pok,  
Avsosingi mingdin birina yetmagay idrok.

### Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad, qurban anga  
ummat,

Ul ma'dani ilma, ul hодиёйи dina, ul sohibi hilma,  
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,  
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Dunyo ko'zi hech ko'rgan emas san kabi ustod,  
Faqr ahlini ko'nglini qilurding hama vaqt shod,  
Ey durri yatim, olama verding go'zal irshod,  
Chin hurriyat erdi u zamon, har kishi ozod.

### Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad, qurban anga  
ummat,

Ul ma'dani ilma, ul hодиёйи dina, ul sohibi hilma,  
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,  
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

Ey qiblai olam, san eding rahmati ma'bud,  
Bu dini mubin o'lди vujuding ila mavjud,  
Sonsiz salovat o'lsun, ayo Ahmadi Mahmud,  
Hijronlari mahsharda shafoatga choqir zud.

### Xo'r

Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad, qurban anga  
ummat,

Ul ma'dani ilma, ul hодиёйи dina, ul sohibi hilma,  
Ahsan to'g'ri ilma, to'g'ri fana, to'g'ri dina,  
Jon sadqa bo'(l)sun xulqina, fazl-u karamina.

### ADIBI SHAHIR ISMOILBEK RUHINA

Ey millatning bobosi, buyuk nuktadon eding,  
Millatni holina dushunon tarjimon eding,  
Erding adibi komil-u sohibi lison eding,  
Islom olamina go'zal mehribon eding,  
Millat ishina hab cholishub ishlagon eding,  
Haq rahmatiga loyiq-u jannatmakon eding.

To'lsun xudoni(ng) rahmatiga marqading seni(ng),  
Do'nsun saroyi mag'firatga masnading seni(ng),  
O'zgarmadi o'lancha go'zal maslaking seni(ng),  
Savq etdi ilma bizni butun g'ayrating seni(ng),

Asling qrimlik erding, ulug' zodagon eding,  
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Har jonga soldi hasrat ila ya'sa motaming,  
G'ayb etdi shonli bir kishin islom olaming,  
Dunyodan uchdi oxirata ruhi purg'aming,  
Bo'lsun behishtda hur ila rizvon hamdaming,  
Millat ishida qartayubon charchagon eding,  
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Dunyoga sencha dohiyi donanda kelmagay,  
Faryoda sencha bulbuli xonanda kelmagay,  
Sandek fatonat ahli, metin banda kelmagay,  
Fi'ol ichinda sen kabi bofanda kelmagay,  
Bizlarni nuri ma'rifata boshlagon eding,  
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Ey sohibi lison, fasohatlu, ey najib!  
Ustoz eding, muallim eding, bizga, ey adib!  
Notiq eding, muharrir eding, eng buyuk xatib,  
Nutqingdan o'ldi millating afrodi benasib,  
Obi hayot barcha labi tashnagon eding,  
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Dunyoga kelsa har kishi, bir kun qilur safar,  
Har jism o'lur jahonda fano, ishta nomvar,  
Lekin seningcha sha'n ila ketmoqg'a kim etar?  
Maydoni ma'rifatda topar sancha kim zafar?  
Erding g'ayuri Rustami islomiyon eding,  
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Dunyoda har kim ishlasa, xayr ishta nom olur,  
Olamda qancha yurdimi, eldan salom olur,  
Dunyodan o'tsa jismi ketar, ismi kom olur,  
O'lgan so'ng anga har kishi tilga kalom olur,  
Ustodi xalq, davlata sohibnishon eding,  
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

Ayt hasratingni emdi huzuri payambara,  
Chekg'on g'amingni so'yla u hодии akbara,  
Bizdin shikoyat ayla borub ruhi sarvara,  
Bir nutq so'yla bizdan o'shal shohi rahbari,  
So'z so'yamoqg'a notiq-u har qahramon eding,  
Haq rahmatina loyiq-u jannatmakon eding.

**HOFIZDAN**

*«Bayoti sheroz» kuyiga'*

Yetushdi mujdaki, qayg'uli kunlaring qolmas,  
 Ulayda qolmadig'idek bulaydag'i qolmas.  
 Agarchi man nazari yora xoksor o'ldim,  
 Raqibim manga o'xshash shod o'la qolmas.  
 Ko'tarsa bayrog'ini, ursa xanjari birlan,  
 O'y-u uyi ichra turgan bir kishi omon qolmas.  
 Faqirlaring dilini ovla, qo'lga ol, ey boy,  
 Xazina-yu zar-u oltun, kumushlarling qolmas.  
 Senga g'animat, ayo sham'i vasl-u parvona,  
 Bulay muomalangiz subhidamgacha qolmas.  
 Xabar keturdi farishta u olami g'aybdan,  
 Kishi karam eshikida umidsiz qolmas.  
 Ravoq uzra zabarjad bila yozilmish bu,  
 Karam egasini ehsonidan bo'lak qolmas.  
 Bu so'zni Jamshid u bazminda shod o'lub dediki,  
 Ketur piyolada mayni, ki Jomi Jam qolmas.  
 Shikoyating yeri ermas, yozilgani bo'ladur,  
 Kishi hamisha giriftori g'am bo'lub qolmas.  
 Nigor mehr qo'yar deb, tama' qi(l)ma, Hofiz,  
 Nishoni mehr yo'qidek sitamlari qolmas.  
 Falakni ters ketar deb bo'Imagil Hijron,  
 Ki bizni ezbani birlan o'zi-da sog' qolmas.

**HOFIZDAN TARJIMA**

Tanbur, dutor, angla, na taqrir qilurlar,  
 Avloqda iching ichkuni, takfir qilurlar.  
 Ushshoqlaring pardasini ishq o'zi yirtar,  
 Yoshlarni, qarilarni-da tahqir qilurlar.  
 Dilda xiralikdan bo'lak ish hosili yo'q-ku,  
 Yanglish bu xiyolindaka dilgir qilurlar.  
 Derlarki, eshitma, dema ham ishq ramuzin,

<sup>1</sup> «Devoni Hofiz»dan tarjima. Milliy kuylarimizdan biri «Bayoti sheroz» kuyidirkim, kuy shundan iboratdur:

Rasid mujda, ki ayyomi g'am naxohad mond,  
 Chunon namond-u chunin niz ham naxohad mond.

(Avloniy izohi)

Qandoqcha qiyin qissani ta'bir qilurlar.  
Tashvishga solub vaqtlarim may ko'tarubon,  
Xilvatda ko'ring, pir-murid «gir» qilurlar.  
Yuz mulk dili yorti boqishda olinurkan,  
Bu to'g'rida xo'blar nega taqsir qilurlar.  
Biz hiylasiga aldanubon tashqari qolduk,  
Ichkarida onlar nima tadbir qilurlar.  
Bir firqa e(y)tar: «Sa'yi jadal vasla eturgay»,  
Bir firqa buni «soyai taqdir» qilurlar.  
Birdek turajak dermusev ahvoli zamonni,  
Bu ishxonani har kuni tag'yir qilurlar.  
Mayni ichaver! So'fi-yu shayx, mufti, raislar,  
Diqqat ila boq! — Hammasi tazvir qilurlar!  
O'ylab ko'r o'zing, ichkulik ig'vega sabab, chun,  
Shore'larimiz bizlari tanfir qilurlar.

### RO'YO

U kechakim shabi torik qildi istilo,  
Bu sahnada ko'rinur bango bir ajib ro'yo.  
Jahon yuzini bosib qirmizi qizil to'fon,  
Faje' qo'qusi vordurki, jirkanur inson.  
Vabomi, qahr al-haymi ne balo, bilmam,  
G'azabmi margi mufojatmi — daho bilmam.  
Faqat ko'ngul mutaraddud, puriztirob, malul,  
Qilur faje' bu shabni qachon sabohi halul.  
Sukut ichinda shu qon-jona aylayur-yilon,  
Farroshi xoba chekilmakda xalq bepoyon.  
Nadur bu ma'raka maydonidur baloyi hayot,  
Shu sahna fojiasidan bo'lurmi favzi najot.  
Qilur shu dengiza inson o'zini parvona,  
Kechub o'g'il-qizidan, boqmayur pul-u jona.  
Bunga zamon hukamosi topolmayur chora,  
Butun jahon bu kechik tongi birla ovora.  
Bu zulmat ichra judo necha xonumonindan,  
Bu charxi kajrav o'tonmazmi imtihonindan.  
Shu asr emish madaniyat, shu — davr emish go'yo,  
Jahon ichindagi insoniyat, emish ro'yo.  
Saboh umidida seskandim uyqudan, Hijron,  
Tushummi yoki xiyolimmi, bilmazam, al-on.

**QIMORBOZNI(NG) QIMORBOZGA NASIHATI**

Banda bo'lsang yutquzub, beorman, deb yig'lag'il,  
 Cho'ntagimda bir pulim yo'q, zorman, deb yig'lag'il.  
 Volidangni paxtasini ur, qimorga boy ber,  
 O'g'risan, deb ushlasa, nochorman, deb yig'lag'il'.  
 Ertadin axshomg'acha o'ynab yurugil bemalol,  
 Kechqurun osh vaqtida tayyorman, deb yig'lag'il.  
 Yaxshilikg'a undasa har kim seni, solma quloq,  
 Man nasihat ahlidin bezorman, deb yig'lag'il.  
 Ishlasang bo'lmaydimi, kuch-quvvating bor-ku desa,  
 Sog' emasman, bequt-u bemorman, deb yig'lag'il.  
 Ko'kraging zaxga berib yotgil, yoqongni chok etib,  
 Tur bolam, — desa onang, — uxlorman, deb yig'lag'il.  
 Gar yomonlar suhbatig'a chorlasa, tayyor bo'l,  
 Yaxshilar yo'qlar esa, murdorman, deb yig'lag'il.  
 O'ynama, o'g'lim, qimor, deb yig'lasa, Hijron, onang,  
 O'rganib qoldim netay, xummorman, deb yig'lag'il.

**ARZIMAS**

Ayo g'ofil, jahon ayshi bag'ir qoningg'a arzimu?  
 Esiz umring jaholatda yegan noningg'a arzimu?  
 Ulum-u tarbiyatdan bexabar avloding, ey g'ofil,  
 Qilan to'y-u tamoshong xonavayroningg'a arzimu?  
 Bu dunyo ayshiga bor-u yo'qingni sarf qilg'aysan,  
 Qaro yer ostiga kirganda armoningg'a arzimu?  
 Xayol-u xotiringda benavolarga muruvvat yo'q,  
 Xasislikda kechan holi parishoningg'a arzimu?  
 Urug'-tuvg'onlaringni barchasi sendan emas xushnud,  
 Bu yanglig' mehrsizliq bag'ri so'zoningg'a arzimu?  
 ...<sup>2</sup> jam' qilg'on shaylaring go'r og'zida qolgay,  
 Saxovatsiz, muruvvatsiz keden joningga arzimu?  
 Qolur dunyoda moling, san ketarsan dori uxroga,  
 Saxiyalar oldida qilgan pushaymoningg'a arzimu?  
 Ish o'tgan so'ng pushaymon, ey birodar, kor qilmaydur,  
 Chekib hasrat-nadomat, oh-afg'oningg'a arzimu?

<sup>1</sup> Bu iki bayt xalq adabiyotidan olinub yozildi (*Avloniy izohi*).

<sup>2</sup> O'qib bo'lmadi.

Bilursanmi, sen ul qavmi najib islomiyonsankim,  
Sahoyif birla dunyo to'lsa Qur'oningga arzirmu?

Adolat, to'g'rilikni amr etar Qur'onimiz bizga,  
Dushun, kin-u adovat nuri ijmoningg'a arzirmu?

Chiqib «Al-mo'minuna ixvat»dan maslaking, yohu,  
Oyil, do'stim, fano ish poki vijdoningg'a arzirmu?

Qani ulfat, qani ixvat, qani haqdin kel(g)an farmon,  
Qani bizlarda omil, dog'i Hijroningg'a arzirmu?

### HAQIQAT O'LSUN BU XAYOL

Keling, ey do'stlar, kayf-u safoni tashlamaymizmu,  
Vafosiz dunyoda mehr-u vafoni boshlamaymizmu?!  
O'tar dunyo, ketar dunyo, qolur ko'nglingdag'i armon,  
G'animatdur, azizim, umrimiz, ish ishlamaymizmu?!  
Aromizda bizim ishchi kishining qiymati yo'qdur,  
Boqib insof ila ishlovchini olqishlamaymizmu?!  
Bizim avlodimiz ham ilm-u urfon bilsun, o'rgansun,  
Yetar g'aflat, yetar zillat binoni xushlamaymizmu?!  
Fununi ilmsiz dunyoda turmog'liq mahol-alhol,  
Bu kundan ibtido nur-u ziyoni ushlamaymizmu?!  
Kelur bir kun ajal bodi, xazona do'ndirur umring,  
Aziz jondan aziz avlodimiz bo xushlamaymizmu?!  
Jahon bozorida, afsus, tushdik qadr-u qimmatdan,  
Jaholatdan kechub ilm o'yini og'ushlamaymizmu?!  
Yetar oh-u fig'on, Hijron, yetar bu xobi bepoyon,  
Oyilmoq vaqtidur, g'aflat boshiga mushtlamaymizmu?!

### ILMA TARG'IB

«*Layli Majnun*» operasindagi kuylardan sharqi;  
«*Ey bekas-u bechora*» kuyiga solinub yozildi.

Ey, ilmsiz, ahvoli zabun, g'ofil-u nodon millat,  
Afsuski, har bir ishing o'lди g'am-u anduh.

### Naqarot

Oh, jahl, jahl! — Balodur, balodur!  
Johil kishilar darda mubtalodur<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Bu bir bayt Kashko'kda yozilmish muallim Osaf afandining she'rindan olindi (*Avloniy izohi*). Muallif Bokuda Ja'far Bunyodzoda nashr etgan «Gashgo'k» (nag'malar majmuasi)ni ko'zda tutmoqda. Qarang: 2-tab', 1914-yil, Boku.

Maktabda erur nuri ziyo, hosili urfon millat,  
Maktab deganing jahl balosini davosi...

Ag'yorlar oldinda butun besar-u somon millat,  
Yovruponi ko'r, nayladi ilm ila jahonni...

Basdur bo'yla g'aflat senga, ey xotiri vayron millat,  
Shoyad topilur istasa bu dardingni davosi...

Atrofinga boq, ko'zlarining och, diydasi giryon millat,  
Boq diqqat ila, ilm ila purnurdur olam...

Ilm olmaqi farz etdi biza oyati Qur'on, millat,  
Sad hayfki, bizlara amal qilg'uchidur oz...

Payg'ambarimiz ilm o'qu, deb ayladi farmon, millat,  
Tokayg'acha bizlar qolamiz johili nodon...

Har toifa ilm ila, sanoye'-la qilur har yeri bo'ston, millat,  
Bizlar esa yalqovlik ila jahlga qurban...

O'ylab ko'ring, olamdamni bor biz kabi Hijron, millat,  
Oh, dangasaliq, dangasaliq bizni yiqodur.

### N a q a r o t

Oh, jahl, jahl! — Balodur, balodur!  
Johil kishilar darda muftalodur.

### MILLATGA XITOB<sup>1</sup>

Ko'zlarining och, ey millat,  
Ko'b zamon g'ofil yotding.  
Umrin o'tdi yotmakda,  
Qayg'uga toza botding.  
Ketdi shon-u sharafing,  
Mozor toshidek qotding.

### X o' r

E!.. Tokayg'acha g'aflat ichra yotamiz!  
Keling yoshlar, jaholatni otamiz.  
Bizga bu kun ilma kirishmak kerak,  
Bizga bu kun ilma tirishmak kerak.

<sup>1</sup> Sharqi kuylardan «So'yla bir ko'rki arab» kuyiga solinub yozildi (*Avloniy izohi*).

Ey millat hasratkash,  
Yo'q sanda ilma rag'bat.  
Ilm olmaq-la ag'yoring  
Rohat yashayur, rohat.

Bo'lma navmid, ey islom, san-da ayla bir g'ayrat.

X o' r

E!.. Tokayg'acha biz o'quvdan qo chamiz!  
Keling yoshlar, milliy maktab ochamiz.  
Bizga bu kun ilma kirishmak kerak.  
Bizga bu kun ilma tirishmak kerak.

### MILLIY NAG'MA

*«Shoh Abbos» operasindagi sharqi kuylardan biriga –  
«Tasnif»ga solinub yozildi.*

Bormi, millat, xabaring, qirildi bol-u paring,  
Ulumsiz yashamoqdan sen o'lmishsan taqachi,  
Fununsiz yashamoqdan sen o'lmishsan podachi.

X o' r

Yasha, yasha, yasha millat, zakovating vordur?!

Saodating seni ilm iladur, kechurma zamon,  
Yashamoqing seni ilm iladur, bo'lursan amon,  
Ilm olmasang – xataring, hech qolmagay asaring!

Ulumsiz yashamoqdan sen o'lmishsan chaqachi,  
Fununsiz yashamoqdan sen o'lmishsan yoqachi.

X o' r

Yasha, yasha, yasha millat, zakovating vordur?!

Saodating seni ilm iladur, kechurma zamon,  
Yashamoqing seni ilm iladur, bo'lursan amon,  
Bormi g'ayrat nazaring, hech qolmadi hunaring!

Yalqovlikda yashamoqdan sen o'lmishsan chegachi,  
Ilm olmayin yashamoqdan sen o'lmishsan bedachi.

X o' r

Ortar g'amming, alaming, yo'qtur qo'lda qalaming,  
Yozuv bilmay yashamoqdan sen o'lmishsan mozachi,

O'qumayin yashamoqdan sen o'l mishsan azachi,  
Yo'qdur hissing – sezaring, tilsiz, quloq karing!

Anqovlikda yashamoqdan sen o'l mishsan ko'zachi,  
Bekorlikda yashamoqdan sen o'l mishsan bo'zachi.

### X o' r

Yasha, yasha, yasha millat, zakovating vordur?!

Saodating seni ilm iladur, kechurma zamon,  
Yashamoqing seni ilm iladur, bo'lursan amon,  
Ketdi guling, chamaning, vayronadur vataning!

Choyxonada yashamoqdan sen o'l mishsan bolachi,  
Mayxonada yashamoqdan sen o'l mishsan modachi.

### X o' r

Yasha, yasha, yasha millat, zakovating vordur?!

Saodating seni ilm iladur, kechurma zamon,  
Yashamoqing seni ilm iladur, bil ani Hijron.

## MILLATA SALOM

Ey sabo, yetur bu salomimi,  
Ilm ko'yida yuran habibim, dilrabolari,  
Tong otibdi, ko'r, nur o'lib jahon,  
Boq, ko'zing ochib, azizim, ro'shnolara.  
Boq, ziyolara, hamsoyalara,  
Ilm ila uchar, azizim, boq havolara.

Bu zamonada ilmsiz zalil,  
Ilm yo'lida, otalar, bo'l mangiz baxil,  
Jahldur balo, aylangiz hazar,  
Ilmlik etar, azizim, muddaolara.

Boq, ziyolara, hamsoyalara,  
Ilm ila uchar, azizim, boq havolara.

Sa'y ila topar har kishi murod,  
Ilm ila o'lur kishida aql-hush ziyod,  
G'ofil uyquda yaslanib yotur,  
Bir nazar aylang, azizim, oshnolara.  
Boq, ziyolara, hamsoyalara,  
Ilm ila uchar, azizim, boq havolara.

Kim bilur qachon biz bo'lur uyog',  
Xobi jahldan bo'lamiz, oh, qachon uzog'.  
Na ravo biza mubtaloyi azim,  
Qoldi boshimiz, azizim, ko'b jafolara.  
Boq, ziyolara, hamsoyalara,  
Ilm ila uchar, azizim, boq havolara.

So'yla, ey sabo, millata salom,  
Bo'lmasun deram, hech bizda bir avom.  
Men, g'ułomam, Hijron, ey sabo,  
Ilm olan yetar, azizim, hap safolara.  
Boq, ziyolara, hamsoyalara,  
Ilm ila uchar, azizim, boq samolara.

### MAVLUDI NABAVIYA

Ey ahli Qur'on, bu kun payg'ambar tug'ilgan kun,  
Nurlar to'lgan dunyoga, dinimiz boshlangan kun.

#### Naqarot

Shod o'lingiz, shod o'lingiz, shodlik kunimiz – bu kun,  
Yod aylangiz, yod aylangiz, shonli kunimizdur bul.

Tug'di nuri nubuvvat, to'ldi olam nur ila,  
Yerga indi malaklar, osmonda shuur ila.

#### Naqarot

Shod o'lingiz, shod o'lingiz, shodlik kunidir bu kun,  
Yod aylangiz, yod aylangiz, shonli kunimizdur bul.

Haq ko'ndardi dunyoga eng shonli payg'ambarin,  
Ko'rdi dunyoning ko'zi oxir zamon rahbarin.

#### Naqarot

Shod o'lingiz, shod o'lingiz, shodlik kunimiz bu kun,  
Yod aylangiz, yod aylangiz, shonli kunimizdur bul.

Keldi rahmatning koni, sallallohi Muhammad,  
Ahsan daryosin duri sayyidino Muhammad.

#### Naqarot

Shod o'lingiz, shod o'lingiz, shodlik kunidir bu kun,  
Yod aylangiz, yod aylangiz, shonli kunimizdur bul.

Bo'lguncha to qiyomat joriydur oning dini,  
Eng mukammal dinlardan, akmaldur oning dini.

### N a q a r o t

Shod o'lingiz, shod o'lingiz, shodlik kunidir bu kun,  
Yod aylangiz, yod aylangiz, shonli kunimizdur bul.

Har kun ummatdur anga payravlik qilmak kerak,  
Eng shonli payg'ambarin qadrini bilmak kerak.

### N a q a r o t

Shod o'lingiz, shod o'lingiz, shodlik kunidir bu kun,  
Yod aylangiz, yod aylangiz, shonli kunimizdur bul.

Hijron shafoat istar, ro'zi jazoda sizdan,  
Jurm-u gunohdan o'zga yo'q tuhfa sizga bizdan.

### N a q a r o t

Shod o'l, millat, shod o'l, millat, shodlik kunimiz – bu kun,  
Yod et, millat, yod et, millat, shonli bayramdur bu kun.  
Shonli bayramdur bukun, shonli bayramdur bukun.

## OQMA, KO'Z YOSHIM

(*Uskudor kuyiga*)

Oqma, ko'z yoshim, oqma, basdur giryoning,  
Nodonlikdan kelmish seni bu bag'ri qoning.

### N a q a r o t

Qodir Olloh, qodir Olloh, bu na zamondur,  
Ilmsiz millatning holi behad yamondur?

Ibrat ko'zing ochub, bir boq zamona,  
Ilm-u san'at nur sochurlar jahona, (jahona).

### N a q a r o t

Qodir Olloh, qodir Olloh, bu na zamondur,  
Ilmsiz millatning holi behad yamondur?

Qaysi millat yotsa rohat, kayf-u safoda,  
Nodon millat bo'lur har vaqt jabr-u jafoda.

### N a q a r o t

Qodir Olloh, qodir Olloh, bu na zamondur,  
Ilmsiz millatning holi behad yamondur?

O'qumasa inson bo'lurmi inson,  
Har bir ishda hayron, ko'zlar giryon.

### N a q a r o t

Qodir Olloh, qodir Olloh, bu na zamondur,  
Ilmsiz millatning holi behad yamondur?

Ilm olganlarga boq, nalar qilurlar,  
Har bir ishning haqiqatin yaxshi bilurlar.

### N a q a r o t

Qodir Olloh, qodir Olloh, bu na zamondur,  
Ilmsiz millatning holi behad yamondur?

Johil bo'lsa har bir millat o'g'li, avlodni,  
Ul millat ko'rmaydur dunyoda shodi.

### N a q a r o t

Qodir Olloh, qodir Olloh, bu na zamondur,  
Ilmsiz millatning holi behad yamondur?

Yig'lama ko'zum, senga jonim og'rib achiyur,  
O'zga millat g'ayrat qilib maktab ochiyur.

### N a q a r o t

Qodir Olloh, qodir Olloh, bu na zamondur,  
Ilmsiz millatning holi behad yamondur?

Oqma, Hijron, ey ko'z yoshim, buzma ko'nglimni,  
To o'lguncha ilm o'yidan uzma ko'nglimni.

### N a q a r o t

Qodir Olloh, qodir Olloh, bu na zamondur,  
Ilmsiz millatning holi behad yamondur?

## KERAKMI YO KERAKMAZMI

Senga, millat, bu kunda ilm ila urfon kerakmazmi?  
Jaholat illatig'a sa'y ila darmon kerakmazmi?

O'g'ul-qizni o'qutmasdan ketarsan dunyodan g'ofil,  
Qaro go'rda duoyi xayr ila Qur'on kerakmazmi?

Xudo amrin qo'yub hab ishlayursan turfa isyonlar,  
Bihishtu kavsar-u diydor ila rizvon kerakmazmi?

Hayotingda havo birla havas yo'lini izlarsan,  
Faqir-u benavoga xayr ila ehson kerakmazmi?

Qo'lingdan kelsa, o'z dindoshlaringg'a berasan ozor,  
Muruvvat sanda yo'q, insof ila vijdon kerakmazmi?

Jadal birla jahonda ishla, sandin o'zga xayr olsun,  
Ki, har bir ishda, jonim, pul ila javlon kerakmazmi?

Ziroat ishlarida nega bizlarda havas yo'qdur,  
Bu dunyo ziynati-chun bog' ila bo'ston kerakmazmi?

Jahonda bormi bizdek ilmsiz, johil qolan millat,  
Parishon holimizga, oh ila afg'on kerakmazmi?

Dilo, tokay yotarsan xobi g'aflat yo'rg'oni uzra,  
Bilimsiz o'tmish umring dog' ila Hijron kerakmazmi?

### OH, BAG'RI QONIM<sup>1</sup>

Aytsam g'amimni sizlara devonalar kabi,  
Yonsam firoqi millata parvonalar kabi,  
Yo'q bir kishiki, so'rsa bu ahvoli zorimi,  
Qilsam bayon xotiri vayronalar kabi.

Oh, bag'ri qonim,  
O'rtandi jonim,  
Chekdim jafo —  
Yo'qdur vafo,  
Insonlarda  
Kayf-u safo.

Hosil jahonda ko'ngli ochiq banda ko'rmadim,  
Inson kabi o'z ahlina darranda ko'rmadim,

<sup>1</sup> Sharqi navolardan «Rost» kuyiga solinub yozildi (*Avloniy iżohi*).

Donanda – lol-u johil-u sharmanda – sarfaroz,  
Afsus, to'g'ri, odil-u donanda ko'rmadim.

Oh, bag'ri qonim,  
O'rtandi jonim,  
Chekdim jafo –  
Yo'qdur vafo,  
Insonlarda  
Kayf-u safo.

Har kim o'zini naf'i uchun jonini verar,  
Parvosi yo'q bo'laklara kelsa jahon zarar,  
Kuchsizlar(n)i urub so'kadur tab'ini qirub,  
Kuchliklara tavoze' ila bel bukub turar.

Oh, bag'ri qonim,  
O'rtandi jonim,  
Chekdim jafo –  
Yo'qdur vafo,  
Insonlarda  
Kayf-u safo.

Sufrangda sanga do'st bo'lub g'iybating qilur,  
Do'sting iloj topsa, sani po'sting(n)i shilur,  
Aldar toshini shaldiratub, qo'lda o'ynatub,  
Tadbir – hiyla, dom qurub, kim – nalar qilur.

Oh, bag'ri qonim,  
O'rtandi jonim,  
Chekdim jafo –  
Yo'qdur vafo,  
Insonlarda  
Kayf-u safo.

Taqvo libosi egnida zohidlig'in sotur,  
El oldida ibodat uchun jonini otur,  
Xilvatda xo'bro'lar ila bazmi dilkusho,  
Pinhonda ko'rsang, aysh-u farog'at bilan yotur.

Oh, bag'ri qonim,  
O'rtandi jonim,  
Chekdim jafo –  
Yo'qdur vafo,  
Insonlarda  
Kayf-u safo.

Aftodalarni holina rahm aylamas g'ani,  
Allomalarни so'zina qulq solmayur dani.  
Haq so'zni so'ylagan kishini xalq suymayur,  
Hijron, gapurma, so'ylama, qadring ketar sani.

Oh, bag'ri qonim,  
O'rtandi jonim,  
Chekdim jafo —  
Yo'qdur vafo,  
Insonlarda  
Kayf-u safo.

MUSTAHZOD

Hasrat ila har shab ko'ruram uyqudan ozor,  
yo Rab, bu na kirdor!  
To subha qadar to'lg'anuram misli kasal, mor,  
bilmam, bu na asror.  
Yonub, yiqilub, goh turib, goh o'tirurman,  
g'amlarga boturman.  
O'rtab yonuram har kecha parvona kabi zor,  
man bekas-u beyor.  
Borgan sari chulg'or bani avhomni xayolot,  
Tangrimg'a munojot,  
Bu dard-u alamlar qiladur uyquni bedor,  
ko'b qayg'ularim bor.  
Qonlar yuturam, xobi xayolimdan o'tondim,  
jonimdan o'sondim,  
Yalg'on ulamolardan o'lubman juda bezor,  
shayton kabi makkor.  
Insof ila vijdondan uzog' ko'ngli qarolar,  
ul so'finamolar,  
Kofir qimog'a muhri ani yonida tayyor,  
tasbih sanar ayyor.  
O'z nafsi uchun o'zgalari qilmadi qurban,  
qani axvat so'zi — Qur'on,  
Dindan xabari yo'q sonur, ul o'zini dindor,  
ul mo'mini jindor.  
Naqdinai jon hadyai haqqoniyat o'lsun,  
ig'vochi yo'q o'lsun,  
Bizlarda qachon bo'lg'usi o'z aybig'a iqror,  
tokayg'acha inkor.

Hosil haq-u haqqoniyat ahli topilurmi,  
yo tug'ilurmi?!  
Hijronlaring ahvoldidan Olloh xabardor,  
Haq o'zi g'amxor.

### FALAK BIZNI NALAR QILDI

Falak motamsaro ko'zyoshimizni qona do'ndurdi,  
Muruvvatsizlig'i-la bag'rimiz bir yona do'ndurdi.

Biza g'amxona qildi bu Vatan tufrog'ini holo,  
Bo'laklarga maishat yo'llarin osona do'ndurdi.

Funun-u ilmdin zolim falak bizlarni dur aylab,  
Butun avqotimizni xayr ila ehsona do'ndurdi.

Shikoyat aylasam joiz bu kajrav gardishindankim,  
Hayoti umrimizni besar-u somona do'ndurdi.

Nalar qildi jahonda bizni beparvo falak makkor,  
Farog'at ayshimizni oh ila afg'ona do'ndurdi.

Na ilma bizda rag'bat, na fununa yo'q havas bizda,  
Halovat huzrimizni hasrat-u armona do'ndurdi.

Faqirlikg'a boturdi, oshimizda qolmadi lazzat,  
Palov, norinlarimiz qoqshagan qoq nona do'ndurdi.

Kasolat dardiga chandon bizikim mubtalo qildi,  
Salomat-sog'lig'imiz bedavo darmona do'ndurdi.

Biza ozor vermakdin soqinmaz, rahmi kelmazmi,  
Umid-u orzumiz(ni) dam-badam Hijrona do'ndurdi.

### TA'RIFI GUL

Xor alindan bag'ri qon o'lmish, bo'yan mish, qona gul,  
G'uncha bag'rin choc etub, afg'on qilur afsona gul.

Elni gulg'a rag'bati chekg'on azobindan kelur,  
Ul tikan dastida yon mish otashi so'zona gul.

Yuzdag'i xoli emas — zolim tikonnig yorasi,  
Kecha-kunduz zahmi g'am birlan butun o'rtona gul.

Gulni gul dermu kishi gulning tikoni bo'lmasa,  
Oning uchun loyiq o'lmish izzat-u ehsona gul.

Subhidamda yuzlarindan mayj uran shabnam emas,  
Xor zulmidan to'kar ko'z yoshini durdona gul.

Kimki hamdam bo'lsa noqobil bila zahmat chekar,  
Bemuruvvat xor alindan har taraf to'lg'ona gul.

Gar sabo tebratsa gulni, xush isi nevchun chiqar,  
Bag'rig'a botgan tikonlardan kelur afg'ona gul.

Naylasun bechora gul, botmish vujudiga tikon,  
Zahmiga marham uchun yaprog'iga chulg'ona gul.

Dildagi qayg'ularin ko'rganmusiz chun za'faron,  
Chok etib g'urbat yaqosin ko'rsatur insona gul.

Qadrini bilmas kishilar so'ldurur gul yuzlarin,  
Tushmasun johil qo'liga, bitmasun nodona gul.

Hosili bechora gul, ovora gul, aftoda gul,  
Oxiri so'lgay yuzi g'am bodi-la Hijrona gul.

### HIJRONI BULBUL

Bahor o'lsa, shabi hijron hamisha zor o'lur bulbul,  
Gulining ishqida faryodi xushguftor o'lur bulbul.

Nidoyi jon fizosi aylayur dil g'unchasini chok,  
Muhabbat soyasida jonidan bezor o'lur bulbul.

Xudodan boshqa yo'q bechoraning bir voqif asrori,  
Bo'lur noloni giryon, hajr ila bemor o'lur bulbul.

Yemoq-ichmoq butun yodig'a kelmas yoridan boshqa,  
Tutar doim o'tar ro'zaki, beiftor o'lur bulbul.

Kamoli ya'sidan, bekaslig'indan oh-zor aylar,  
Umid andin uzub, ummidi g'amga yor o'lur bulbul.

Nechun g'amga giriftor o'ldi, bulbul bag'ri qon o'ldi,  
Jazosi shul: gul istab moyili gulzor o'lur bulbul.

Vatandan, xonumonindan yo'q oni zarra parvosi,  
Bo'lib sho'rida shaydo masti behushyor o'lur bulbul.

Qachon gulni uzub, sotmoq uchun band aylasa gulchi,  
Tushub sayyod alina, tolibi mozor o'lur bulbul.

Bo'lurman gulg'a hamdam deb, o'zini bog'latur doma,  
Fidoyi jon etar mushtoq chin diydor o'lur bulbul.

Kecha-kunduz qafasda, oh gul, deb aylayur faryod,  
Omon bermas anga zolim qafas, ozor o'lur bulbul.

Taajjub, rahm qilmas, etmayur faryodina hech kim,  
Bu Hijronlig'da doim g'am bilan g'amxor o'lur bulbul.

### JOHIL NA BILUR

Bilmagay johil jahonda lazzati dunyo nadur,  
Balki bilmas, anglamas, dunyo nadur, uqbo nadur.  
Oh-u faryod-u fig'oni injitodur o'zini,  
Bilmayur dunyoga qilmoqdan quruq g'avg'o nadur.  
Faqr-u g'urbatdan shikoyat aylayur sa'y etmayin,  
Kunchilik aylar bo'lakg'a, bilmas istig'no nadur.  
Bilmagay tartib nadur, har ish qilur qilgay ziyon,  
Olmog'-u sotmoq tijorat, bilmayur savdo nadur?  
Ilmsiz o'sganlig'indan ilm qadrin bilmagay,  
Xat nadur, yozmoq nadur, bilmiq nadur, imlo nadur.  
Xor-u zor o'lgay hamisha boshqalarga qul bo'lub,  
Mehnat-u g'am shu'lasiga ro'z-u shab parvo nadur.  
Kulfati kun-kundan ortar, hech bo'lmaz rohati,  
Qayg'u-hasrat otashiga yonadur, o'rtonadur,  
Majlisi suhbatda bo'lsa bosh qoturg'ay so'zları,  
G'oyadan, maqsaddan o'lmas gaplari – afsonadur.  
Yaxshi bo'lmaydur yamon hargiz nasihat aylasang,  
Jahl g'avg'osi-la mag'rur, aqlidan begonadur.  
Jon nadur, jonon nadur, bilmam ziyon-u sudini,  
Vodiyi hayrat aro bilmas g'ami fardo nadur.  
Jahl agar jahli basit o'lsa, davosi vordur,  
Qolsa kim jahli murakkabda, dali devonadur.  
Hosili, johi g'am-u anduhdan bo'lmas xalos,  
Bilmayur rohat nadur, hasrat nadur, Hijron nadur.

### SAODAT SHUNDADIR

*Milliy kuyularimizdan «Qoshg'archa»,  
«Anorxon yorima» kuyiga solinub yozildi.*

Mullo bo'lsang, takror qil-a,  
Dehqon bo'lsang, shudgor qil-a,  
Har ishga g'ayrat kerak hozirda.

## X o‘r

Ilma sa'y-u g'ayrat qil, oltunum, saodat shundandur.

Bog‘ing bo‘lsa, meva qil-a,  
O‘g‘ling bo‘lsa, mullo qil-a,  
Har ilmi bilmak kerak hozirda.

## X o‘r

Ilma sa'y-u g'ayrat qil, oltunum, saodat shundandur.

Bog‘ atrofi shaftolu-ya,  
Bilgan yozar daftori-ya,  
Jahldan qochmak kerak hozirda.

## X o‘r

Ilma sa'y-u g'ayrat qil, oltunum, saodat shundandur.

O‘qugan xushbaxt o‘lur-a,  
Johil ishi saxt o‘lur-a,  
O‘qumak, bilmak kerak hozirda.

## X o‘r

Ilma sa'y-u g'ayrat qil, oltunum, saodat shundandur.

Musulmondur ismimiz-a,  
O‘quv-yozuv bilmaymiz-a,  
Bilmak, o‘rganmak kerak hozirda.

## X o‘r

Ilma sa'y-u g'ayrat qil, oltunum, saodat shundandur.

Barcha etdi maqsudga-ya,  
Biz-da ketayluk birga-ya,  
Yaxshi o‘ylamak kerak hozirda.

## X o‘r

Ilma sa'y-u g'ayrat qil, oltunum, saodat shundandur.

Ilm-u hunar ustinda-ya,  
Johil oyoq ostinda-ya,  
Jahli tark etmak kerak hozirda.

## X o‘r

Ilma sa'y-u g'ayrat qil, oltunum, saodat shundandur.

O'qingiz, o'g'lonlarim,  
Ketsun dildan g'amlarim,  
Ilma tirishmak kerak hozirda.

### X o ' r

Ilma sa'y-u g'ayrat qil, oltunum, saodat shundandur.

Ag'yor olim, biz nodon,  
Bormi bizlardek, Hijron,  
Himmat va g'ayrat kerak hozirda.

### X o ' r

Ilma sa'y-u g'ayrat qil, oltunum, saodat shundandur.

### JAHOLAT

Sabab nedur ilm uyiga bizlar kirmasmiz,  
Bizga no'ldi, ilming qadrin yaxshi bilmasmiz,  
O'qusak-da chala-chulpa, tamom qilmasmiz.  
Qani oliv tahlil ko'rgan millat donosi?

### N a q a r o t

Oh, muncha jaholat, o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!  
Mundoqcha kasolat o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!<sup>1</sup>

Har kimning bor jonidan aziz bolasi,  
Suyuklusi, ko'zining oq-u qorasi,  
Jigarpora, shirin, qimmatbahosi,  
Farzandin o'qutmas ota-onasi.

### N a q a r o t

Oh, muncha jaholat, o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!  
Mundoqcha kasolat o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!

Dillarga o'mashmush bug'z-u adovat,  
Ilma yo'qdur biza sa'y ila g'ayrat,  
Xor o'lmiss, zor o'lmiss, bechora millat!  
Qani allomasi? Yo'q, rahnamosi!

### N a q a r o t

Oh, muncha jaholat, o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!  
Mundoqcha kasolat o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!

<sup>1</sup> Bu bayt Kashko'kda «Millat navhasi» sarlavhasi-la yozilmish she'r dan olinub yozildi (*Aytoniy izohi*).

Bizlarning ishimiz ko'b yamon o'ldi,  
Xotirlar parishon, bag'ir qon o'ldi,  
Millatning bog'ining gullari so'ldi,  
Qolmadi donosi, guli ra'nosi.

### N a q a r o t

Oh, muncha jaholat, o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!  
Mundoqcha kasolat o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!

G'aflatda yotsamiz o'tar zamonlar,  
Zamon bermas bizga so'ngra amonlar,  
Jaholat nori-la o'rtanur jonlar,  
Qani ilma rog'ib millat bolasi.

### N a q a r o t

Oh, muncha jaholat, o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!  
Mundoqcha kasolat o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!

Bizda yo'q g'ayratdan, yo'qdur himmatdan,  
Savdo-tijoratdan, hunar, san'atdan,  
Ziroatdan mahrum, funun, sarvatdan,  
Barcha millatlarning bo'lduk gadosi.

### N a q a r o t

Oh, muncha jaholat, o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!  
Mundoqcha kasolat o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!

Ishlar butun ovora-sargardonlig',  
Uyimizni yiqди bizni nodonlig',  
Ilmsizlig', oh Hijronlig', Hijronlig',  
Qolmadi millatning ruh va ziyosi.

### N a q a r o t

Oh, muncha jaholat, o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!  
Mundoqcha kasolat o'lmaZ, o'lmaZ, o'lmaZ!

## JAHLDAN NAFRAT

*Milliy kuylarimizdan «Dugoh»  
kuyiga solinub yozildi.*

Ilm nuri-la bu kunda xo'b ishiqlandi jahon,  
Ilm-u san'at hosil etganlar jahonda shodumon,  
Johil-u nodon qutulmas dard-u g'amdan bir zamon.

## N a q a r o t

Al-amon, yo Rab, jaholat kulfatidan al-amon!

Ilmliklar oldida beilm bo'lgay sharmisor.

Ilmlik izzatda bo'lg'ay, ilmsizlar xor-u zor,

Johil-u nodonlaring ko'z yoshi bo'lgay shashqator.

## N a q a r o t

Al-amon, yo Rab, jaholat kulfatidan al-amon!

Ahli urfon qayda bo'lsa, izzat-u rohatdadur,

O'qugan, bilgan kishilar shon ila shavkatdadur,

Johil-u nodon hamisha mehnatu kulfatdadur.

## N a q a r o t

Al-amon, yo Rab, jaholat kulfatidan al-amon!

Sohibi urfon kechurgay dunyoda beg'am hayot,

Ilm ila mumkin faqat topmoq jaholatdan najot,

Jahl vodiyida yotmoqliq uyot uzra uyot.

## N a q a r o t

Al-amon, yo Rab, jaholat kulfatidan al-amon!

Ilmdur har bir zamon kasb-u maishat teshasi,

Ilm o'lan yerda quruq g'aflat jaholat reshasi,

Ilmsizlarda bo'lurmi millating andeshasi.

## N a q a r o t

Al-amon, yo Rab, jaholat kulfatidan al-amon!

Hosili ilm o'lmasa, dunyoda kun ko'rmaq og'ir,

Millatim ahvolig'a Hijron bo'lub yongay bag'ir,

Sa'y-g'ayrat bo'lmasa, ilm osmondanmi yog'ir?!

## N a q a r o t

Al-amon, yo Rab, jaholat kulfatidan al-amon!

## GUFTORI G'AM

Har kima ag'yor bo'lsa, menga xo'b dildor g'am,

Kecha-kunduz hamdamim, har yerda hamasror g'am.

Shodlig'ini naylaram, yo'qtur vafosi bir zamon,

Qayda bo'lsam birgadur, menga anis-u yor g'am.

O'yla xo' qilmish banim-la, bir nafas ayrlmayur,

O'zgaga ozor bo'lsa, menga beozor g'am.  
G'am boshiga kelsa g'am, qayg'ularin so'yilar banga.  
Kulbai ahzonimi ravshan qilub, har bor g'am.  
Dahr bog'ida bo'lolmas hech kishi g'amdan raho,  
Har qayu gul jismida bo'lgay tizilgan xor g'am.  
Olim-u johil, faqir, shoh-u gado yaksonidur,  
Boriga boricha g'am, yo'g'iga yo'qcha vor g'am.  
Hosili dunyoda g'amsiz bo'limgay Xizri hayot,  
Har birin boshida bordur ming tuman osor g'am.  
Xoli ermas g'am alindan har adib-u porso,  
Istamas bo'lsangda oni ul seni istor g'am.  
Bir nafas mendan judoliqg'a rizosi yo'q ani,  
Ketsa ham bir onda kelg'ay qoshima takror g'am.  
Yondurar, ammo bu otashlar kabi yoqmas kishin,  
Yo jahannam noridek mag'z — ustixon o'rton g'am,  
So'zlarim sizlarni Hijron etmasun deb qo'rqaram,  
Chunki doim men bila shom-u sahar g'amxor g'am.

### JIGARSO'Z

Har nafas dardi dilimdan dog'i hijronim chiqar,  
Chiqsa jonim jismidin, ko'nglumdin armonim chiqar.  
  
Siynayi so'zonimi yorsa agar, boqsa tabib,  
Shubhasiz, bag'ri siyohimdan qalamdonim chiqar.  
  
Ta'nayi insonlara bo'l mish hadaf hijron dilim,  
Har jarohat o'rnidan bir ohi afg'onim chiqar.  
  
Oshinolig' ko'rsatur qoshimda yuz nayrang ila,  
Oshino zan etdikim, bir dushmani jonim chiqar.  
  
Xanjari tildin dilimda yoralar turna qator,  
So'z emas, Hijron dilimdan tirqirab qonim chiqar.  
  
Ey, adibo, yaxshi tadqiq aylangiz yozmishlarim,  
Satrlarda qora ermas diyda gironim chiqar.  
  
Sahfalarda satr ulanmush xat(ti) holimdu yozuq,  
Har parishon jumladin holi parishonim chiqar.  
  
Gar hayoti jovidonim tan ila qilsa vido',  
Dildagi qayg'ularimdan joni so'zonim chiqar.

Zohido, tasbih o'gurmam, san kabi istab behisht,  
Dildadur diydori tildan zikri hamyonim chiqar.

Istasa Hijronlig a har kishi mendan dalil,  
Safhai dilg yozilmish to'la burhonim chiqar.

### MUNOJOT

*Milliy kuylarimizdan «Segoh»  
kuyiga solinub yozildi.*

Yo Rab, tarahhum et biza, qilg'il inoyati,  
Bir sandin o'zga millati yo'qtur himoyati.

Tushduk baloyi g'amga bilimsiz gado bo'lub,  
Avlodimizga dardimizning vor siroyati.

Bo'luk faqir-u zor-u dilafgor-u notavon,  
Nodonlig jona yetushdik nihoyati.

Har darda bir davo bo'la, har g'amga intiho,  
Yo Rab, bu jahl dardini bo'lg'aymi g'oyati.

Ornashdi bizda aqla sig'ishmas xurofalar,  
Kimdani erishdi bizlara yolg'on hikoyati.

Qildin qiyiq topib bizim alloma-yu mullolar,  
Muslimni kufrina topadurlar rivoyati.

Yo Rab, bu mojarolara Hijron o'lur ko'ngil,  
Sandin bo'lakg'a aylamak o'lmas shikoyati.

### QARS FALOKATZADALARINING HOLI'

Ardahon, Qars boshiga keldi baloyi nogahon,  
Qichqirub yosh-u qari faryod o'lub der: Al-amon!  
Kimsasiz qolmish yetimlar yig'lab istar osh-u non,  
Qaysi bir vijdon qilur toqat bu hola bir zamom,

Bo'ldi hap vayrona Qars-u Ardashon,  
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

Necha modar jonidan – shirin bolosindan judo,  
O'g'li ayrildi atodan, qiz anosindan judo,

<sup>1</sup> 1914-yilda Qars va Ardashon shaharlarida yuz bergan yer qimirlash munosabati bilan yozilgan.

Qiz-xotunlar nechasi iffat-hayosindan judo,  
Och-yalang'och barchasi, zavq-u safosindan judo.

Bo'ldi hap vayrona Qars-u Ardahon,  
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

Yetmadi zolim falak bechoralar imdodina,  
Rahm-shafqat qilmadi ins-u malak faryodina,  
Cho'q musulmonlar fido bo'ldi ajal sayyodina,  
Bizga vojibdur ko'mak qilmak ular avlodina.

Bo'ldi hap vayrona Qars-u Ardahon,  
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

Necha kun avval g'ani bir oila bo'ldi safil,  
Mol-u dunyo, mulku ashyo barchasi qoldi sabil,  
Farcha non istab egur bo'ynin bu kun xor-u zalil,  
Vaqtim imdod, ey Vatan ahli, vering, bo'lmanq baxil.

Bo'ldi hap vayrona Qars-u Ardahon,  
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

Ey muruvvat ahli, imdod-u inoyat vaqtidur,  
Oh, non deb jon otonlarga ionat vaqtidur,  
Kimsasiz qiz-u juvonlarga muruvvat vaqtidur,  
Tez yeting faryodina, eng so'ng zarurat vaqtidur.

Bo'ldi hap vayrona Qars-u Ardahon,  
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

Bu yoziqlar holina qaysi musulmon og'lamaz,  
Bu fajoye' sahnani ko'rganda kim qon og'lamaz,  
Bu musibat dog'ida qay ahli Qur'on og'lamaz,  
Shuncha iymon ahli qurban, qaysi Hijron og'lamaz.

Bo'ldi hap vayrona Qars-u Ardahon,  
Xonavayron, bachchagiryon, soldi boyqush oshyon.

### O'Z AHVOLIMIZDAN

Bu Turkistonda zebo qir-u soy ko'b,  
O'sumlik tufrog'i, keng, yaxshi joy ko'b,  
Sigir, qo'y, ot-u teva birla toy ko'b,  
Qimiz, qaymoq, qatiq va et-u moy ko'b,  
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b<sup>1</sup>,  
Hisobin bilmagan bema'ni boy ko'b.

<sup>1</sup> Jargonda «loy» pul demakdir.

Pulin sarf aylayur to'y-u azoga,  
Yo'q-u bori ketar bod-u havoga,  
O'qurman, desa, pul bermas bologa,  
Davo bormi bu dardi bedavoga?  
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b,  
Hisobin bilmagan bema'ni boy ko'b.

Havosi qarzdordek zor yig'lar,  
Ekinsiz yer yotib bermor, yig'lar,  
Guliston bog'larida xor yig'lar,  
Bilimsizlar ishi dushvor, yig'lar.  
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b,  
Hisobin bilmagan bema'ni boy ko'b.

Ko'zi qiymas maorif yo'lig'a pul,  
Bu Turkiston elining odati – shul,  
Bu turmush, bu yashovni boshig'a kul,  
Biluvchi bilmaganni aylagay qul.  
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b,  
Hisobin bilmagan bema'ni boy ko'b.

Xarojoldin qochur boddek g'izillab,  
Kelabersa, to'da yoqdan sharillab,  
Qo'lidan uchmasa bir pul pirillab,  
Chiqim hech bo'lmasa, kelsa g'irillab.  
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b,  
Hisobin bilmagan bema'ni boy ko'b.

Yetim-u beva-yu bechoralarni,  
Dilin shod aylamas aftodalarni,  
Vali derlar bo'shang-u sodalarni,  
Koyirlar ilmlik ozodalarni.  
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b,  
Hisobin bilmagan bema'ni boy ko'b.

Terak yafrog'idek titrar bizi xalq,  
Qochar, qo'ydek avodisdan bizi xalq,  
Ilmsiz, tarbiyatsiz – po'k, bizi xalq,  
Yuraksizlik bilan Hijron bizi xalq.  
Bizim Toshkand elida oncha «loy» ko'b,  
Puli ko'b, aqli kam bema'ni boy ko'b.

# MAKTAB GULISTONI\*

## MILLIY SHE'RLARDAN 5-JUZ

*Maktab – xazinai adabu ilm(u) izzating,  
Maktab – bog'i jannati firdavs, ne 'mating,  
Maktab kishini jahl(u) daniydan qilur xalos,  
Maktab – kalidi ka 'bai qalb(u) zakovating.*

Adabiy axloqiy maroq-u shavq ila o'quladurgan hikoyalar, she'r ila Turkiston maktablarining ikinchi sinflaridan boshlab o'qutmoqg'a muvofiq ravishda yosh bolalar uchun yengil vazn va oson sheva uzra tartib berildi.

---

\* 1916-yilgi birinchi nashri (T., Yakovlev litogr.) asosida tayyorlandi.

**MAKTAB BOLASI**

Bir kuni go'dak, shirin harakot,  
 (Bersin Olloh umrina barakot),  
 Jildini bo'yniga olib osdi,  
 Maktabg'a qarab qadam bosdi.  
 Yo'lda bir o'rtog'i anga uchrab,  
 So'yladi o'ynamoq uchun ko'b gab.  
 «Keł, bu kun borma maktabg'a», — dedi.  
 Aldabon nonidan biroz yedi.  
 — Keł, birodar, buguncha o'ynayluk,  
 Katta suvlar bo'yini bo'ylayluk.  
 O'rtog'ining javobini berdi,  
 So'z ila xo'b odobini berdi.  
 Man emasman saning kabi ahmaq,  
 Fikr-u zikrim emas o'yin, kulmaq.  
 O'ynasam o'ynaram ozod bo'lib,  
 Ota-onamni xizmatini qilib.  
 Maktabga borub sabaq oluram,  
 O'qumasam, san kabi chafan qoluram.  
 Jur, sanam bor banim-la maktabg'a,  
 Ko'b havaskor bo'limg'il gabg'a.  
 Yo'lga soldi til ila yo'ldoshin,  
 Maktabga moyil ayladi boshin.  
 Soldi o'rtog'ining so'zina qulog',  
 Bosdi ul ham o'quv yo'lini oyog'.  
 Ikisi birga bo'ldilar mullo,  
 Chiqdi xat-u savod ham imlo.  
 Yaxshilar yaxshilikg'a boshlaydur,  
 Yamon o'rtog' yaqongdan ushlaydur.

**VATAN**

Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,  
 Har kim sening qadring bilmas — aqli pastdur.  
 Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,  
 Sening darding boshqa dardni tortib olur.

Yering, suvning bizni boqub to'ydiradur,  
Semiz-semiz qo'ylaringni so'ydiradur.  
Olma-anor, anjir, uzum – mevalaring,  
Ot-u ho'kuz, echki, taka, tevalaring.  
Bizlar uchun xizmat qilur barchalari,  
Har birlari noz-u ne'mat parchalari.  
Sendan tug'ub, katta bo'lub, qaytib borub,  
Yana senga kiradurmiz bag'ring yorub.  
Onamizsan! Bizni(ng) mushfiq onamizsan!  
Javlon urub yashaydurgon xonamizsan!  
Seni sotmoq mumkinmidur, o'zing o'yla,  
Tiling bo'lsa, hasratlaring tuzoq so'yla!  
Bizlar sotmas burun qilur erding faryod,  
Biz sotgan so'ng nega dersan bizlardan dod.  
Ayb bizlarda, seni sog'ub emolmaduk,  
Yemush berib yem o'miga yem olmaduk.  
Bilolmaduk ko'ksingdag'i xazinani,  
Biz bilmasmiz tosh-tarozu, mazinani,  
Sotib-sotib qoladurmiz g'amga botub,  
Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.  
Seni sotub pul qilurmiz – ketur-qolur,  
Bir yildan so'ng bahong iki bo'lub olur.  
Tarbiyatsiz, ilmsizlik jazosidur,  
Jaholatning boshga solgan azosidur.  
Selobi g'am kelmas burun jadal birlan,  
Tu(v)g'onini to'xtatmagan bo'lur Hijron.

### HIJRON SO'ZI

Tug'ub o'sdim bu Vatanda,  
Vatanim misli yo'q jahonda!  
Tufrog'lari o'sumlikdur,  
Manzarasi ko'r umlikdur.  
Bir tarafda tog'lari bor,  
Mevasi mo'l bog'lari bor.  
Tog'laridan konlar chiqar,  
Yerlaridan donlar chiqar.  
Suvsaridur tamlu-totli,  
Mevasi qand-u nobotli.  
Bog'laridur shirin-sharbat,  
Anjir, uzum, anor, nashvat.  
Daraxtlari o'sar firosh,  
Falak uzra ko'tarub bosh.

Havosi o'ta yoqimlik,  
Cho'llari bor toshlik, qumlik.  
Toshkand emas, toshqand erur,  
Kesaklari gulqand erur.  
Ishlagang'a xazinadur,  
Dangasaga harinadur.  
Kecha-kunduz faryod etub,  
Ishlovchini yotur kutub.  
O'tar kunlar, o'tar zamon,  
Ey Vatanim, bo'lma Hijron!  
Men ketsam-da, sen bo'l omon!  
Omon – Vatan, Vatan – omon!

### NAMOZ

Tangrini farmonidur bizg'a namoz,  
Dinimiz arkonidur bizg'a namoz.  
Erkag-u qizg'a barobar qilmag'i,  
Har kuni besh vaqt farz bizg'a namoz.  
Qalbimizdan qayg'ularni yo'q qilur,  
Hikmati Luqmonidur bizg'a namoz.  
Jahl(u) g'aflat otashini past etar,  
Kavsari obi hayot bizg'a namoz.  
Farqsiz shoh(u) gado safda turar,  
Hurriyat maydonidur bizg'a namoz.  
Har qayu mo'min kerak qilmak ado,  
Buyrug'i Qur'onidur bizg'a namoz.  
Tark qilganlar gunohkor o'lg'usi,  
Qilmog'i lozim erur bizg'a namoz.  
Dunyoda izz-u sharaf, uxroda ham,  
Lutfi Haq rahmonidur bizg'a namoz.  
Benamozlar ko'rmagay rohat yuzin,  
Iki dunyoga kerak bizg'a namoz.

### RO'ZA

Ey mohi munavvari muborak,  
Farz etdi sani biza taborak.  
Insonga sharaf virdi quduming,  
Shod etguchi san erur umuming.

Sansan hama oy ichinda sarvar,  
Sandan dil-u jon o'lur munavvar.  
Ta'rif qilur sani malaklar,  
Tabrik qilur zamin, falaklar.  
Ey jome'i jud(u) lutf(u) ehson,  
Ey manba'i nur-u fayz(i) Rahmon.  
Vor sanda u rahmati ilohi(y),  
Afu o'lg'usi bandang gunohi.  
Haq lutfini sanda aylar izhor,  
Ehsonli, karamli, baxshishing vor.  
Masjidlar aro to'lur xaloyiq,  
Tangring ibodatiga loyiq.  
Mo'minlar edub Xudoga sajda,  
Boshini egub umumi banda.  
Har kimda ibodata havas vor,  
Har dilda surur, shod bisyor.  
Ovozai shavkating bo'lakcha,  
Sanda so'rolur go'zal tilakcha.  
Xursand bo'(l)masinmi ro'zadorlar,  
Rahmat ishqib bu oyda porlar.  
Ehsoni Xudosan, ey sharif oy,  
Bechorani sanda shod etar boy.  
Yuz shukr Muhammad ummatiga,  
Shoyista Xudoni rahmatiga.  
Gar tutmasa ro'za qay musulmon,  
Bo'lg'usi gunohkor, (ey) Hijron.

### ZAKOT

Xudo amrin tutungiz, ey g'aniyilar,  
Qulq solmas nasihatga daniylar.  
Beribdur mol(u) dunyo sizg'a Rahmon,  
Qo'lingizdan kelancha aylang ehson.  
Zakotini bering bechoralarg'a,  
G'aribu benavo, ovoralarg'a.  
Bu ishni hiyla yo'lga burmang aslo,  
Xudoni aldamoqg'a yurmang aslo.

Yig‘ilgan molingiz chirkdan qiling pok,  
Yaqongiz ro‘zi mahshar bo‘lmasun chok.

Hazar aylang faqirlar hissasidin,  
Bo‘ling ogoh Qorun qissasidin.

Beranlarni(ng) Xudo yaxshi ko‘rodur,  
Nainki har kishi oni urodur.

Sulaymon qoshiga kirganda har jon,  
Quruq qo‘l xushima kełmas, der erkon.

Beringizlar Xudoni b erganidin,  
Beran qo‘l ustun o‘lg‘ay olg‘onidin.

Xudoni amriga aylang itoat,  
Saxovatni qiling boqadri toqat.

Hal jazou-l-ehson illal ehson,  
Jazo vaqtida bo‘lmang zori Hijron.

### HAJ

Bu kun bayti Xudo ajmo‘i ummat-la muzayyandur,  
Muazzazdur, mukarramdur, muqaddas, eng muazzamdur.

Butun dunyo musulmonlaring iyd azholari bo‘lg‘ay,  
Butun islom elin anda bu kun sho‘rolari bo‘lg‘ay.

Biza hajdan murod haq yig‘in qilmog‘i ummatdur,  
Payg‘ambar aydilar bizga: «Jamoat fayzi rahmatdur».

Bukun qurban kesurlar Haq rizosini tilab islom,  
Xudo amrin ado aylab qilurlar bandalik e’lom.

Faqirlar siylanur har yerda joriy xayr ila ehson,  
G‘arib-u benavo, miskin, yetimlar shod ila xandon.

Fig‘on, islomiyon g‘aflat, jaholat-la parishondur,  
Amal yo‘q, ilm yo‘q, birlik-da yo‘q, arbobi isyondur.

Ajab, ehsona loyiq bir siqim majruh o‘lub qolduk,  
Maorifdan oyilduk, mustahiq beruh o‘lub qolduk.

Ochib dasti tamanno bir duo aylang, musulmonlar,  
Bu kun g‘am dastida bo‘lduk parishonlig‘da sarsonlar.

G‘arib ummat, faqir millat, Vatan avlodи g‘urbatda,  
Yo‘qoldi moyamiz, yo‘q kasbimiz, biz – dard(u) mehnatda.

Fununa hashr ochildi, ilm tahsili uchun mezon,  
Hisobini berolmay biz faqat a’moldan Hijron.

**BAHOR**

Avval bahor bo'lsa, qilur chamanlar,  
 Bargak yozur gullar, g'unchadahanlar.  
 Barcha qushlar uchar, o'qur chamanda,  
 Bog'-u bo'ston, tog'-u sahro, o'rmonda.  
 Yaylovlarda qo'zichoqlar mag'rashur,  
 Ovozları yuraklarni dog'lashur.  
 Har tarafdan suvlar shildirab oqar,  
 Shildiragan tov(u)shi odamga yoqar.  
 G'ir-g'ir shamol yelpillatur gullarni,  
 Gul tebranub sayratur bulbullarni.  
 Har narsada shodlig' asar ko'rيلur,  
 Ko'kmak bo'lub beda-pichan o'rيلur.  
 Ekinchilar har xil oshliq ekarlar,  
 Tuxumlarin yerni haydab tikarlar.  
 Dangasalar bo'lar-ketar, deb yotur,  
 Qish kunida ot-u to'nini sotur.  
 Ko'b ishlagan ko'b olur, oz ishlagan – oz,  
 Qish kuni rohatdadur kim ishlasa yoz.  
 Har kim nima eksa, albat, shuni o'rodur,  
 Ekmaganlar o'zgalarg'a muhtoj bo'lodur.  
 Keling, biz ham ekinimiz boshlab ekamiz,  
 Imtihonda ekg'animiz o'rib yig'amiz.  
 Har kim avval bahorini o'tkarsa bekor,  
 Yoz kelganda Hijron bo'lur, ul-tangri bezor.

**YOZ**

Yozda pishar barcha ekin, mevalar,  
 Shod o'ladur zor yetim-bevalar.  
 Har yera borsang, hama ma'murchilik:  
 Handalag-u tarbuz-u qovun – tilik.  
 Yer gunasha yaqin o'lub nur olur,  
 Yerga muhabbatli ziyozin solur.  
 Har kishi o'z nafsi uchun ishlagay,  
 Ishlamagan qishda nima tishlagay?  
 Bog'lari, bo'stonlari rang-barang,  
 Mevasi-yu gullariga bir qarang,  
 Gullari, bulbullari bor, bog'lari,  
 Qo'ylari, qo'zchoqlari bor, tog'lari.  
 Sutlar-u, qaymog'-qimizlar serob,  
 Suvlar oqur soylar aro sharqirob.

Bir taraf(d)a ekinchi – xirmonchilar,  
Bir taraf(d)a o'roqchi – ketmonchilar.  
G'ayratililar g'amini yer vaqtinda,  
Tirtishub ishlaydur g'animat kunda.  
Ishyoqmaslar yozda yurar guldurab,  
Qish kelganda qolgay ko'zi mo'ltilrab.

### KUZ

Kuz kuni ko'zlara yamon ko'rur,  
Yafrog'i misli za'faron ko'rur.  
Meva o'rniga bog'-u bo'stonda  
Shaldirab qaqshagan xazon ko'rur.  
Gullar o'rnida xor ila xashak,  
Bulbul o'rnida zag'izg'on ko'rur.  
Ketgay Odam Atoni jannatidek,  
Jo'yłari bir sovuq-yilon ko'rur.  
Yozni ko'rding, kuzni ham ko'rasan,  
Shodlig' ortidan fig'on ko'rur.  
Har kishi foyda ko'rmagay doim,  
Sud orqasidan ziyon ko'rur.  
Yig'lagan shod o'lur, kulan yig'lar.  
Har daqqa bo'lak zamon ko'rur.  
Aylanub-jaylanub o'ta(r) bu zamon,  
Keti avvalgidan yamon ko'rur.  
Qish kelur boshinga qilich ko'tarub,  
Qalqoning paxtalik chapon ko'rur.  
Yoz ishlamading, san ishyoqmas,  
Yig'mading don – poxol-u somon ko'rur.  
Ko'zlarining joydirar yeganga boqib,  
Ishchi oldinda osh-u non ko'rur.  
Yoz ko'zim, yoz xating(n)i, tez-tez yoz,  
Yoz – omon, kuz – omon, omon ko'rur.

### QISH

Kelsa qish, bo'lsa sovuq, har kimg'a me'yorincha vor:  
Yo'qg'a-yo'xcha, borlara-borincha vor.  
Boylar yog'liq palovni tanchada g'amsiz emas,  
Kambag'allar och-yalang'och chekg'on ozorincha vor.  
Yerlara tushgan qirovlar ham daraxtda bulduruq,  
Yozni yashnab o'sadurgon sabza gulzorincha vor.  
Qish kuninda ho'l o'tunning achchig'i,

Yoz kunining mushki totorincha vor.  
Ul sovuqni shiddatidin yaxlagan muzni ko'ring,  
Boylarning oynabandlik sirdi devo(r)inchcha vor.  
Har kim uyiga yig'ilgan to'da qorlarga qarang,  
Unfurush xannotlarning yig'gan omborincha vor.  
Siz daraxt ustidagi oq qorlara aylang nazar,  
Mullaarning chulg'agan boshiga dastorincha vor.  
Bir tarafda qaltirab turgan tilanchiga boqing,  
Ko'zlarining yoshi irmoqlarni(ng) asrorincha vor.  
Bu sovuq rahm aylamas beva-yetimlar holina,  
Kim yetar faryodina? – Bu hol dushvorincha vor?  
Ko'rdingizmi, yaxshi qushlarni quvar o'z mulkidan,  
Olti oy surgunda jon(i)vor, joni bezorincha vor.  
Hosili: qish borni selob, yo'qlari Hijron qilur –  
Bu sovuqning zulmi zolimlarning atvorincha vor.

### OLLO(H) TAOLONING «QUDRATI»

Qodir Ollo(h), qodir Ollo(h) tog'ni yaratdi,  
Tog'ning ichi qarong'u deb oyni yaratdi,  
Yaylovlarda o'tlar chorva hayvonlar,  
Bo'ronlardan saqlansun deb soy ni yaratdi.  
Qo'y-u qo'zi, teva-sigir o'tlar tog'larda,  
Minmak uchun ot-u eshak, toyni yaratdi.  
Qorlar erub, oqar suvlar shovlab-shaldirab,  
Shalolasi manzaralik joyni yaratdi.  
Tog'-u toshlar havosidur go'zal, musaffo,  
Shaharlarning tufrog'i ko'b – loyni yaratdi.  
Kambag'alni muhtoj qildi bir parcha nonga,  
Katta-katta to'y qilsun deb boyni yaratdi.  
Kambag'allar moshxo'rdani yavg'on ichadur,  
Yog'liq palov boy yesun deb moyni yaratdi.  
Bechoralar go'rdek tor uy-vayronda yashar,  
Boylar uchun sirlik uyluk joyni yaratdi.  
Har kim keldi bu dunyoga bo'lg'usi Hijron,  
Tangrim har ish oxirida voyni yaratdi.

### MAKTAB

Firdavsi jinon maktab, nodonlara jon maktab,  
Bilgan kishiga qadrin bir dorulomon maktab.  
Ko'ngul oshig'i maktab, ruhing pishig'i maktab,

Ilm-u adabi o'rgatgay, donanda, ko(r)don maktab.  
Johillara g'am mактаб, yalqovlara kam mактаб,  
Husnixat kishilarga chin ruhi ravon mактаб.  
Har kim o'qusa mактаб, yo'ldoshi bo'(l)sa mактаб,  
Qandoqcha saodatdur, ey ahli zamon, mактаб.  
Dinning yozug'i mактаб, ruhning ozug'i mактаб,  
Millat bolalariga ham osh ila non mактаб.  
Kimki o'qumas mактаб, kirmas-qaramas mактаб,  
Qilgay bu kishilardan faryod-u fig'on mактаб.  
Jonim, o'qungiz mактаб, bor-u yo'qingiz mактаб,  
Sizlar uchun, avlodim, bog'i guliston mактаб.  
Manbayidur fan mактаб, eng yaxshi chaman mактаб,  
Axloq-u odobsizga olmoqlig'a kon mактаб.  
Guldastai gul mактаб, sunbul-u jambul mактаб,  
Bulbul kabi tolibga gulzori jahon mактаб.  
Milliy uyimiz mактаб, to'n-u to'yimiz mактаб,  
Ta'lim uyidur, Hijron, eng yaxshi makon mактаб.

### TOG'LARDAN BIR MANZARA

Turkiston tog'lari to'la kon emish,  
Ichi, toshi butun osh-u non emish.  
Nodonlikdan bizlar oni tosh derduk,  
Kumush-oltin ichinda pinhon emish.  
Jusha, zinnix, navshadil, oltingovut,  
Tog' ichinda tosh kabi qotgon emish.  
Neft-u ko'mir, paxta, sobunlar tog'da,  
Qo'rg'osh(in), qalay, mis, cho'yan chandon emish.  
Yovrupo ma'danlarni istab topur,  
Afsus, biz fan ilmini otgon emish.  
Zar qadrini zargar bilar degandek,  
Biz, nodon g'am loyiga botgan emish.  
Bizga dunyo ilmi kerak ermas deb,  
Oxirat dunyoni biz sotgon emish.  
Kecha-kunduz bizlar dard-u mehnatda,  
Ilm ila yovrropolik xandon emish.  
Nonimizni teva qilub berurlar,  
Bizlar xo'b befarosat, nodon emish.  
Onlar faqat ilma g'ayrat qilurlar,  
Onlar -inson, bizlar ham inson emish.  
Har millatning taraqqiysi ilm ila,

Nodon xalqning ko'z yoshi marjon emish.  
O'qumasa, bilmasa har bir millat,  
Hozirgi zamonda Hijron emish.

### BECHORA CHOL

Bir faqiram, kunim o'tar kuch ila  
Ishim yo'qtur go'sht-yog'-u guruch ila.  
O'tun sotub, zo'rg'a avqot qilurman,  
O'zimdan o'tganini o'zim bilurman.  
Hech kim ogoh emas holi zorimdan,  
Pushaymonman nodonlig'da korimdan.  
Sovuq, sahar demay, tun-kun ishlaram,  
Mehnat-mashaqqatda qoq non tishlaram.  
Kunduzi oromim, kech rohatim yo'q,  
Borgan sari rohat oz, kulfatim cho'q.  
Bilmam, bu mehnatlar qaydan yopishdi?!  
Qayga borsam, qayg'u-g'amlar topishdi.  
Olimlarni ko'ram doim rohatda,  
Johil qolib men benavo mehnatda.  
Yoshligimda otam o'qutgan bo'lsa,  
Olim bo'lub, qalbim nur ilan to'lsa,  
Qaro kunlar tushmas edi boshimga,  
Ranj-u mehnat kelmas edi qoshimga.  
Qaro baxtim ibrat ko'zimni ochdi,  
Hijron bo'lur, har kimki o'qurdin qochdi.  
Shuning uchun o'quturman Ahmadni,  
Ahmad o'qur man o'lgan so'ng rahmatni.

### BOLAILA GUL

Bir bola yoz kunida bir bog'da  
Sayr etardi kezub dil chog'da.  
Ko'rdikim, bog'da gul turur ochilib,  
Atirdek islari chiqar sochilib.  
Gulni uzmoq uchun uzatdi qo'lin,  
Uzubon iskamoqni tutdi yo'lin.  
Egdi gul shoxini u bulbuli sho'x,  
O'ylab erdi gulning tikoni yo'x.  
Botdi nozuk qo'lig'a gul tikoni,  
Gul kabi qo'lidan chiqordi qoni.  
Boqdi gulg'a kulub, tabassum ila:  
— Yo'q ekan senda hech rahm, siyla.

Yoshiribsan dilingda nashtari tez,  
Suvrating yaxshi, nashtaring xunrez.  
Zulm ermasmi bu ishing, ey gul?  
Qo'nmasunmi shoxingga hech bulbul?  
Qilmasunmi fig'oni faryodin,  
Qo'rqlmayursanmi qahri Ollodin?  
Bahramand o'lmasunmi sandin jon?  
Syrating – zahar, suvrating – jonon.  
Qilmushingdan chekar hama ozor,  
Dillarozordan Xudo bezor.  
Yarashurmi sanga shu badxo'ylik,  
Esiz, ey gul, sanga u xushro'ylik.  
Ot, chiqar dildagi tikonlarni,  
Bo'lma xunrez, siqma jonlarni.  
Bu ishingdur butun pushaymonlig',  
Zulming so'ngi dog'i Hijronlig'.

### BULBUL

Bahor o'ldi bu on bulbul,  
Ochildi guliston bulbul.  
Yuraging bo'ldi qon bulbul,  
O'qu oromijon, bulbul.  
Bahoring husni guldur, gul,  
Binafsha, lolau sunbul.  
Yuzing shaydosidur bulbul,  
O'qu, har bir zamon, bulbul.  
Bahor ovorasidursen,  
Guling parvonasidursen,  
Jahon afsonasidursen,  
Eram taxtina xon bulbul.  
Chaman kulgay gar o'lsa yoz,  
Gulistonlar bo'lur xo'b soz,  
Guling qadrin bilanlar oz,  
Sen ul xo'b qadrdon, bulbul.  
Yoz o'lmafsa, gul o'lmafsi,  
Chaman ham bulbul o'lmafsi,  
O'qugon johil o'lmafsi,  
O'qu, ey xushfig'on bulbul.  
Yozi suymas kishi yo'qdur,  
Guli istar kishi cho'qdur,  
Valek bulbulda ortuqdur,  
Gula eng mehribon – bulbul.

Bahor ayyomidur ayyom,  
Demish shoir Umar Xayyom,  
Ketur, ey soqi, gulgun jom,  
Bo'lur Hijron chunon bulbul.

### YALQOV

Uyon g'aflatdan, uyqudan,  
Cho'zilma, yotma qo'rquvdan,  
Nasihat tingla haqgo'dan,  
Quloq sol so'zima, yalqov.  
Tasha katta dumog'ingni,  
Daroz etma qulog'ingni,  
Kechurma yosh chog'ingni,  
Dedurma o'zinga «yalqov».  
Cholishmoq jong'a rohatdur,  
Cholishmaslik hamoqatdur,  
Ham ofatdur, qabohatdur,  
Zarardur o'zinga, yalqov.  
Jadal qit, ilm uchun sa'y et,  
Murod-u maqsadingg'a yet,  
Ulug'larning yo'lidan ket,  
Boq o'z ahvolinga, yalqov.  
O'qub ilm-u adab o'rgan,  
Yoqil, ilm o'tina o'rtan,  
Avom insonmidur inson,  
Davo qil dardinga, yalqov.  
Hamisha xor – shaltoqlar,  
O'qing, ey do'st – o'rtoqlar,  
Nodonlik o'ylamang, yoqlar,  
Jafodur joninga, yalqov.

### G'AYRIJINS ITTIFOQ

(Krilovdan tarjima)

Bir kuni Toshbaqa, Baliq, O'rdak,  
Qildilar maslahat uchi birkak,  
Dedilar: Biz arobakash bo'lamiz,  
Tortarmiz arbani va yo o'lamiz.  
Yopishub bir arbaga mahkam,  
Jon-dildan chekurdi uch hamdam,  
Kuchlari arbaga yetushmas edi,  
Arba bunlar yo'licha ketmas edi.  
O'rdak osmon sariga tortardi,

(Krilovdan tarjima)

Kechqurun yo'l ketardi iki kishi,  
 So'zlashurdan yo'q erdi o'zga ishi.  
 Nogahon bir kuchuk chiqib bog'dan –  
 Vovulladi bunlara so'l va sog'dan.  
 It ovozin eshitdi boshqalari –  
 Keldilar, jam bo'ldi yosh-u qari.  
 Yig'ilub barchasi hujum etdi,  
 Yo'lchilar aqli boshidan ketdi.  
 Yo'lchilardan biri olib bir tosh,  
 Urmoq o'lg'onda aytdi bir yo'ldosh:  
 «Qo'y, qo'ling og'ritub nima qilasan,  
 Itlarning fe'lini o'zing bilasan.  
 Hamla qilgang'a vermayur rohat,  
 It guruhindan bo'yladur odat».  
 Itlara solmayin qulog' onlar,  
 To'g'ri ketaverdilar iki jonlar.  
 Darhaqiqat, sekin-sekin hamasi,  
 Tarqalub ketdi, qolmadi birisi.  
 It degan itligin qilaberadur,  
 E'tibor etmasang ketaberadur.

**QARG'A ILA ZAG'IZG'ON**

Qarg'a bir kun dedi Zag'izg'onga:  
 – Qoch, agar ovchi duch ke(l)sa sanga.  
 Ehtiyyot et o'zingni miltig'dan,  
 Otsa poylab, yiqilmag'il birdan.  
 Qarg'aga Zag'izg'on dedi: – Nodon!  
 Go'shtimizni yemas bizi inson.  
 Sen-u bizga kerak emas qo'rqmoq,  
 Nega qo'rqarsan, ey boshi to'qmoq?  
 Ovchi ahmoq emas, biza o'q otib,  
 Bizni otmoqg'a bir o'qin yo'qotib.  
 Go'shtimiz onlara halol ermas.

.....  
 Qarg'a bu so'zni ayladi takror:  
 – Dermusan odam o'g'lida rahm vor?!

Sen ajab bir qiziq so'zi aytasan,  
 So'zima kirmasang, o'lub ketasan.  
 Boqmagaylar seni kalomingg'a,

<sup>1</sup> O'qib bo'lmadi.

Go'sht-mo'sht-u halol-haromingg'a.  
Ishlaridur alarni qon to'kmak,  
To'g'ri kelganni urmak-u yiymak.  
To'g'ri kelsa, urar birini biri,  
O'qu nayza urish – alar hunari.  
Onlari yo'q ishi fig'onning ila,  
Xonavayron-u aziz joning ila.  
Ko'saturlar sanga hunarlarini,  
Bu hunardan chiqqan unarlarini.  
Hosili: Qoch, ko'randa inson, qoch!  
Borma yoniga, garchi ersang och!  
Onlaring kori-bori dushmanlig',  
Hech yarashmas onlara insonlig', –  
Deb so'zini tamom qilan yo'q edi,  
Ovchidan bexabar, ko'ngul to'q edi,  
«Tars» etub, ovchi Qarg'ani otdi,  
Qarg'a bechora tosh kabi qotdi.  
Zag'izg'on ham yiqildi bir o'q ila,  
Ikisi ham ketishdi chag'-chug' ila.

### QAMISHILA QOVG'A

Qovg'a ila Qamish bo'lub yondosh,  
Ikisi ham ko'targan erdi bosh.  
Qildilar suhbat ikisi bir kun,  
Qizishub ketdi so'zları ul kun.  
Qamisha ta'n ayladi Qovg'a:  
– Turmushingdur seni butun g'ovg'a,  
Shaldirab lof urmog'a ketma,  
Sen bo'yingg'a inonma, faxr etma.  
So'rrayibsan, beling bukulmaydur,  
Salla – boshda, bo'ying egilmaydur.  
Ko'k choponingni yengi shalbirlar,  
Boylaring to'nlaricha shaldirlar.  
Savlating shayxdek, ichingdur bo'sh,  
Yoqilursan o'tun bo'lub xomush.  
Qomating to'g'ri, lek mevang yo'q.  
Oning uchun dilingda qayg'ung cho'q.  
To'g'ri so'zga Qamish sukut etdi,  
Orodan bir necha zamon o'tdi.  
Nogahon guldirab shamol yetdi,  
Qamishing boshini uzub ketdi.  
Qovg'a do'stindan ayrilib hayron,  
Kim egilmas, dedi: – Bo'lur Hijron.

### **QUSH ILA ILON**

Er-u xotun bo'lub edi iki qush,  
Yashar edi hamisha vaqtı xush.  
Bir kuni avval bahor o'ldi,  
Yer yuzi sabza — lolazor o'ldi.  
Suv bo'yida daraxt shoxiga,  
In qo'yub tuxm uchun butog'iga.  
Shod-xurram uchar-qo'nar edilar,  
Sayrashub, nag'malar qilar edilar.  
Orodan bir necha zamon o'tdi,  
Tuxmdan bolalar chiqub yetdi.  
Bunlara bo'ldi ro'zgor katta —  
Bola boqmoq kerakdur albatta.  
Biri avqot uchun ketar erdi,  
Biri uy ishlarin kutar erdi.  
Bir kuni inida otosi(z) edi,  
Bir ilon chirmashub chiqub keldi.  
Dod-faryod qildi bechora,  
Etmadi rahm anga yuzi qora.  
Azroyil qush bolalarin yutdi,  
Otasi nola motamin tutdi.  
Onasi keldi, ayladi faryod:  
— Dod, zolimlaring alindan dod!  
Aydi bu so'zni o'tanub Hijron:  
Uy buzuvchi bo'lur xonavayron!

### **VALINING JUMA BAYRAMI**

Man jumani suyurman,	So'ngra borub jome'ga,
Shod-u xurram bo'lurman.	Jum'a namoz o'qurman.
Bu kun juma axshomi,	Qarindoshlarni ko'rub,
ERTA BAYRAM	Uyga qaytub kelurman.
Ertaga erta turub,	Otam, onam xizmati,
Yuzu ko'zim yuvurman.	Bo'lsa ado eturman.
Choyimni ichib bo'lub,	So'ngra saboqlarimni
Biroz o'ynab kelurman.	Takror qilub bilurman.

Qur'on qilub tilovat,  
Xuhton o'qub yoturman.

### **GULISTONDAN BIR MANZARA**

Sanoye' o'sturub alvon rang-barang gullar,  
Qizil oq-u qaro turli-turli sunbullar.  
Bularni manzarasi jonlara safo veradur,  
Bo'lakcha ruh, bo'lakcha go'zal sabo veradur.

Yashilcha barg ichindan qizilcha g'unchalari  
Bo'yin cho'zib chiqishi uyg'otur dushunchalari.  
Oq ochilan guli oppoq go'zal qizi yuzidek,  
Qizilcha qirmizi gul bargi yuzing ruhidek,  
Sarig' guli ko'riyur ishq eli kabi Hijron,  
Yuzi visoli tilab hajr o'tida sarg'aygan.  
Nigorgul yuzin ustida qosha tortilgan,  
Misoli o'sma kabi barggulga ortilgan,  
Bu manzara, bu tamosho, bu qudrat – bori –  
Yetishmayur biza, onjaq uyar g'amxori.

### BAHOR KELDI

G'ofil qolma, keldi bahor,  
Ekinlarni ekding, o'sor.  
Bog'bon ekar gul bog'iga,  
Bulbul qo'nar gul shoxiga.  
Gul ochilur, bulbul sayrar,  
Ko'ngillarni masrur aylar.  
Gul ishqida sayrar bulbul,  
Lekin bilmaydur muni gul.  
Kecha-kunduz aylar fig'on,  
Gul fig'onin bilmas bejon.  
Bulbul gulning isin suyar,  
Chumaki-la har kun tuyar.  
Hech narsag'a yo'q parvosi,  
Boshida gulning savdosi.  
Kecha-kunduz tinmay o'qur,  
Xat yozay deb gulni cho'qur.  
Bahor o'tar, gullar – xazon,  
Bulbul bo'lur yana Hijron.  
Siz ham o'qing yosh chog'inda,  
Umringizning bahorinda.  
Jadal qiling, vaqt o'tmasun,  
Xazonning vaqt yetmasun.  
So'nggi pushmon – jong'a dushmon,  
G'ayrat qiling, bo'lmanq Hijron.

### ZULUKILA ILON

Bir kuni bir Ilon Zuluk ko'rди,  
Bu so'zni Zulukdan ul so'rди.  
Dedi: Hayratda men, bu ishga, ajab,  
Menga suvratda o'xshayursan hab.  
Nima uchun seni suyar inson,

Meni ko'rsa, bo'lur joni larzon?  
Nimaga suymayur meni birisi,  
Seni siylab boqadur har birisi?  
San-da sancharsan odami, man-da,  
Na sabab bor, bilmazam munda.  
So'zini sob qilub edi u Ilon,  
Kulubon so'yladi Zuluk chunon:  
— So'zlarin to'g'ridur, borisi — haq,  
Haqqini so'ylayin senga onjaq.  
Men tabiatda sancharam sendek,  
Nashtar urmoqda ikimiz birdek.  
Qay zamon sanchsang sen insonni,  
U zamonda chiqar aning joni.  
Men esa sanchuram ho'b ohista,  
Sog'olur tishlasam qayu xasta.  
Menga boqmay senga boqarmu kishi?  
Zulm hech kimsaga yoqarmu kishi?  
Zulmdan doimo qochar inson,  
Nashtaring jonlari qilar Hijron.

### TULKI ILA QARG'A

Bir kuni och qolib edi Tulki,  
Ochlig'indan tolib edi Tulki.  
Necha xil hiylalarni o'ylar edi,  
Ochlig'in o'z-o'ziga so'ylar edi.  
Hech kishi yetmas erdi dodiga,  
Bir qiziq hiyla tushdi yodiga.  
Bir chinorda bor erdi Laklak ini,  
Uchta yosh bolasi bor erdi ani,  
Tulki qurdi u domi tazvirin,  
Ishlatur bo'ldi hiyla-tadbirin.  
Oldi arra-teshasini ko'tarib,  
Kesmaq uchun chinor tubiga borib,  
Laklaka aydi: — Ey, uzun bo'ylik!  
Bizni yerda bo'lurmusan o'yluk?  
Bu daraxt, yer meros manga otadan.  
O'zga joyda in qo'yub yotasan.  
Ket bu erdan, bo'lak yera in sol,  
Man kesarman chinorimi al-hol.  
Laklak aydi: — Birodarjonim,  
Holima rahm ayla, jononim.  
Buzub uyimni, qilmag'il giryon.  
Uyi yiqqanlar bo'lur xonavayron.

Marhamat qil bu yosh go'daklarima,  
Mone' o'lma butun tilaklarima.  
Bir bolamni beray, yebon to'yg'il,  
Xonavayron qilma, tinch qo'yg'il.  
Bir bolasini Tulkig'a otdi,  
Bo'ldi ma'yus, qay(g')uga botdi.  
Tulki qornini to'yg'azub ketdi,  
Hiyla birlan murodiga yetdi.  
Qarg'a voqif edi bu ishlardan,  
Laklaka o'rgatay, dedi bir fan:  
— Xo'b uzundur bo'ying-u aqling oz,  
Qishga yo'q toqating, tilarsan yoz.  
Tulkining korimu o'tin kesmoq,  
Shunga ham yetmas aqling, ey ahmoq.  
Yo'qg'a bir bola aylading qurban,  
Befarosat, tushunchasiz, nodon.  
Qarg'aning so'zlari qilub ta'sir,  
Bildi, Tulki so'zlari ekan tadbir.  
Ertasi keldi hiylagar Tulki,  
Tama'i qo'zg'alub chu avvalgi.  
Yana osti chinoriga yetdi,  
Ket, debon Laklakka xitob etdi.  
Laklak aytdi: — Yo'qol, ayo xoin!  
Ishlat hiylangni san bilub joyin.  
Qarg'aning pand bergenin bildi,  
Ochlik bag'rini yana tildi.  
Hiylasin Qarg'a soriga burdi,  
Qarg'ani(ng) tutmog'a tuzog' qurdi.  
Bir baland yerda yotdi o'lgandek,  
Ko'zlarin yumdi murda bo'lgandek.  
Qarg'a Tulkini o'luk gumon aylab,  
Qo'ndi boshining ustiga poylab,  
Cho'qumoqchi bo'lub edi ko'zini,  
Hiylagar Tulki tishladi o'zini.  
Dodi faryodiga nazar solmay,  
Qarg'ani(ng) Tulki boshladi yamlay.  
Qarg'a chindan o'larini bildi,  
Bu-da bir yaxshi hiylani qildi.  
Tulkig'a: — Ey, birodarjonim!  
Senga bo'lsun halol et-u qonim.  
Bu baytni o'qub, yegil go'shtim,  
Bu vasiyatni senga men qo'shtim:  
«Bevatan, bego'r-u kafan Qarg'a,

Laklak(k)a yaxshilik edan Qarg'a!»  
Tulki bu baytni o'qumoq uchun  
Shavq ila yig'di tanda bor kuchin:  
«Bevatan, bego'r-u kafan Qarg'a,  
Laklak(k)a yaxshilik edan Qarg'a!»  
Tulki «Qarg'a» deganda og'zin ochib,  
O'q kibi Qarg'a chiqtி-ketdi qochib.  
Tulki hayronda qoldi aqli shoshub,  
Bo'lди Hijron bo'g'umlar bo'shashub  
Hiylada mandan o'tdi Qarg'a debon,  
O'kunub, xo'rsunub edi pushmon.  
Qarg'a maqsud-murodiga yetdi,  
Hiylagar Tulki och qolub ketdi.

### **YOLG'ONCHI CHO'PON**

Bir kuni bir Cho'pon qilub faryod,  
«Bo'ri keldi!» debon choqirdi dod.  
Qishloqilar yugurdilar birdan,  
Qo'ylari asramoq uchun bo'ridan.  
Bunlari holini ko'rub Cho'pon,  
Qahqaha ila kulub dedi: — Yoron!  
Aldabon sizlarni chaqirmish edim,  
Sinamoqg'a sizni baqirmish edim.  
Aldanub qaytdilar alar ul on,  
Ertasiga yana chaqirdi Cho'pon.  
«Bo'ri keldi!» — debon fig'on etdi.  
Bo'rilar qo'ylara kelub yetdi.  
Eshit(g)anlar bunga inonmadilar,  
Dodi faryodiga ishonmadilar.  
Yedilar bo'rilar hama qo'yini,  
Mana, jonim, yalonchilik o'yini!  
Ko'rdingizmi yalonchilik zararin,  
Bir yalon so'z yo'q etdi bol-u parin.  
Bir yalonchi bo'lub edi Cho'pon,  
To'g'ri so'zlasa ham ko'rundi yalon.  
O'g'lim, aytma yalon so'zi aslo,  
Do'st tutmas yalonchini Ollo.  
Hamda el ichra hurmati bo'lmas,  
Xalq aro qadr-u qiymati bo'lmas.  
Uyi kuysa yalonchini dedilar,  
Ango hech kim ishonmayur edilar.  
To'g'ri so'z qutqarur balolardan,  
Dog'i Hijron va mojarolardan.

## «MARDIKORLAR ASHUVLASI»\*dan



\* 1917-yilgi nashri (T., G'ulom Hasan Orifjonov litogr.) asosida tayyorlandi. Muallif uni «Adabiyot yoxud milliy she'rlar»ning 6-juzi deb izohlagan.

## BIR MARDIKORNING OTASI O'G'LIGA AYTGAN SO'ZLARI

Qancha mehnatlar bilan o'g'lim, sani boqg'on edim,  
Man sani deb g'am o'tiga jonimi yoqg'on edim.

San ketarsan, man qolurman ko'zlarim giryon bo'lub,  
Bu judolig' otashiga o'rtanub, biryon bo'lub.

Dastyorim, hamdamim, oromijonim sen eding,  
Belginamning quvvati, ruhiravonim sen eding.

Naylayin, ketding qoshimdan, qoldim emdi ayrilib,  
San ketarsan, man g'aribga kim boqodur qayrilib?!

Qo'lda kuch-u belda quvvat, tanda darmon qolmadi,  
Ko'zda nur-u boshda aql-u sar-u somon qolmadi.

Har g'amining poyoni bordur, har alamning oxiri,  
Shodlikg'a aylonodur har fig'onning oxiri.

G'am yema, o'g'lum, qaro kunlar ketub oq kun chiqar,  
Yerga nam, qo'rquunch bulutlar daf o'lub, oydin chiqar.

Haq taolo manga sabr-u sanga umr etsun ato.  
Sog'-salomat kel Vatang'a, bo'lmasun o'mnung xato...

Bor, Xudo yoring bo'sun, Ollog'a tobshurdum sani,  
Sog' borib kelg'il amon, mavlog'a tobshurdim sani.

Mehribonlardan ayilding, bo'lma Hijron, ey bolam,  
Ham Vatandan ayrilib san diyda giryon, ey bolam.

1916

## ONASINING O'G'LIGA AYTGAN SO'ZLARI

Jon bolam, jonom bolam, Olloh sani yoring bo'sun,  
Kecha-kunduz yo'lda-cho'lda Tangri g'amxorning bo'sun.

Man sani bag'rimga bosub o'stirib erdim, bolam,  
Kim, qaro kunda boqarsan san mani derdim, bolam.

Oh, naylay, bo'shga chiqdi bu mani xush niyyatim,  
San ketar bo'lding qoshimdan, kim qilur tarbiyyatim.

Naylayin, zolim falak ahvolima rahm etmadni,  
Bu falakning davrida kimg'a judolig' yetmadni.

Ey bolam, naylay, judolig' o'ti bag'rim yoqadur,  
Mehribonim, san ketar bo'lding, mani kim boqadur?!

Dilda sabrim, ko'zda yoshim, tanda jonim qolmadi,  
O'rtanib yondim, qimirlashga majolim qolmadi.

Holi zorimkim nechuk kechq'usi, sandin ayrilib,  
Mohi solim qandoq o'tgay, zor sandin ayrilib.

Hech qayg'u yo'q jahonda bu judolig'din yamon,  
San kulub o'ynab yurursan, man bo'lub rangi samon.

Naylayin man mushtipar, bechora baxti qoramani,  
Kecha-kunduz o'z g'amim birlan o'zim ovoramani.

Na qilay, bu ko'bg'a kelg'on to'y, mani choram nadur?  
Man kimam? Bu oh-u voh-u nolai zoram nadur?!

Chordevor ichra yotib, yig'lab sani yod etaman,  
Qismati haq shul ekan – man kimg'a faryod etaman?!

Ey bolam, mandin duodin boshqa yordam yo'q sanga,  
Qayda borsang, iki enlik xat yozib turgin manga.

Yaxshi bor, jonim bolam, kelg'il qoshimg'a ertaroq,  
Qilmasun Olloh sani soyangni boshimdan yiroq.

Tez ko'ray, jonim bolam, tezlikda diydoring sani,  
Qayg'a borsang Haq o'zi bo'lsun madadkoring sani.

Ko'b uzoq ketma, ishingdan bo'sh bo'sang, kel qoshima,  
Rahm qil, jonim bolam, bu ko'zdan oqg'an yoshima.

Yig'latub qo'yma yo'lungda zori sargardon qilub,  
Tezgina kel qoshima, yurma mani Hijron qilub.

1916

### O'G'LINING ONASIGA AYTGAN SO'ZLARI

Validam, Makkam, Madinam – mehribonim sen eding,  
G'amguzorim, mushfiqim, oromijonim sen eding.  
Ey, vujudimg'a sabab bo'lgan meni mushfiq onam,

Jismiming ruhi — hayoti, jovidonim sen eding.  
 Oq sutingga, oh, loyiq sanga xizmat qilmadim,  
 Marhami jonim, muhibbi xonadonim sen eding.  
 Boshingizdan, ey ona, parvonadek aylanmadim,  
 O'rtanurding man uchun, sham'i shabonim sen eding.  
 Bu falak soldi judolig' boshimizga, ey ona,  
 Qayg'ulik vaqtimda kayf-u shodmonim sen eding.  
 Man ketar bo'lqidim, qolursan ko'zlariningdan yosh oqub,  
 Man g'aribni katta qilgan posbonim sen eding.  
 Qo'ltug'ingda tarbiyat topdim, yashab, o'ynab-kulub,  
 Bilguchi dard-u g'amim, sirr-u nihonim sen eding.  
 Naylayin, emdi judolig' pora aylar bag'rimi  
 Zor Hijronlig' tunida oshiyonim sen eding.

1916

### XOTUNIGA AYTGAN SO'ZLARI

Yaxshi qol, ey munisi g'amxor, ko'rsam-ko'rmasam,  
 Ey ko'zimning nuri puravror, ko'rsam-ko'rmasam.  
 Naylayin, soldi judolig' boshimizg'a kaj murod,  
 Zulfi sunbul, ko'zlar xummor, ko'rsam-ko'rmasam.  
 Ayshimiz gulzoriga o't tushdi barqi charxdan,  
 Ma'zuram man, ey guli bexor, ko'rsam-ko'rmasam.  
 Yolg'iz uylarda rafiqi mehribonim sen eding,  
 Yor-u jonim, hamdamim, takror ko'rsam-ko'rmasam.  
 Bul emas erdi umidim, boshima soldi qazo,  
 Sabr etarsan, ey shakarguftor, ko'rsam-ko'rmasam.  
 Hech dushvor ish bo'lurmu bu judolig'din yomon,  
 Xush qol emdi, qaytadan diyord ko'rsam-ko'rmasam.  
 Bir-birimizga muhabbat rishtasin bog'lab eduk,  
 Toqatim yo'q hajringa, ey yor, ko'rsam-ko'rmasam.  
 Kecha-kunduz fikr-u zikrim oy yuzing vasli o'lur,  
 Ko'zlarim yo uyqu, yo bedor ko'rsam-ko'rmasam.  
 Bir-birimizdan tirik zolim falak qildi judo,  
 Ayrilib sandin o'lum — bemor ko'rsam-ko'rmasam.  
 Haq taolo manga toqat, sanga sabr etsun ato,  
 Guluzorim, yaxshi qol, man zor, ko'rsam-ko'rmasam.  
 Man ketarman, san qolursan, ayrilib, Hijron bo'lub,  
 Ko'z yoshingni to'kma, ey dildor, ko'rsam-ko'rmasam.

1916

## TURLI SHE'RLAR

Jahonda ittifoq-u ilm uchun overadur «Shuhrat»,  
 Zuhuri ro'shnoyi ilm uchun mahforadur «Shuhrat»,  
 Vujudin sarf qilg'on ilm uchun bechoradur «Shuhrat»,  
 Dili millat g'amida dam-badam sadporadur «Shuhrat».

Kalomi xushtakallum to'tii zebosifat so'zlar,  
 Maqomi hurriyatda bulbuli shaydosifat so'zlar,  
 Zamona gulshanida qumriyi tanhosifat so'zlar,  
 Gulistonlarda doim sayr etar tayyoradur «Shuhrat».

Xabar bergay zamona go'shig'a atrof – har yondan,  
 Yozar har sahfasina ziynat ila har xil e'londan,

.....<sup>1</sup>

Dili xush, ramzi xushalfoz, xushafkordur «Shuhrat».

Qo'yub sarlavhasina ilm istar muddaosini,  
 Yana debochasida sharh etar millat bahosini,  
 Qani xushfahm bilsa, gavhari qimmat bahosini,  
 Zamona ma'danida bir zumurradporadur «Shuhrat».

Xaloyiq go'shidin xomushi g'aflat finsa<sup>2</sup>sin tortur,  
 G'arib millat ko'zidin sahfasi-la yoshini artur,  
 Xulusi niyat ila zori millat so'zini aytur,  
 Farog'at, xobi g'aflatdan kecha bedoradur «Shuhrat».

Xarobatxonada yotsang, bizim-chun kim qilur ta'mir,  
 Buzulsun, qadri ketsun, deb qilur hamsoyamiz tadbir,  
 Al ila turtmasang qilmas qalam o'zdan o'zi tahrir,  
 Qilub izhori hasrat har kima yolboradur «Shuhrat».

1907

<sup>1</sup> Manbada shunday.

<sup>2</sup> Finsa – tijonch ma'nosida (*Avloniy izohi*).

## JOHIL TILINDAN

Nafs-u ovqotim uchun qopqonda yurdim axtarib,  
Kim ketursa g'alla ko'p sotqonda yurdim axtarib.

Pul qilib yoniga solg'on chog'ini poylab turib,  
Kesmoq uchun kissai hamyonda yurdim axtarib.

Ot bozor-u mol bozorina kezubon bemalol,  
Gar qulay kelgaymu, deb karmonda yurdim axtarib.

Ko'nnkaning oldida tushgan-chiqqan odamlarni man,  
Cho'ntagiga bir qo'lim solg'onda, yurdim axtarib.

Ittifoqo, bir kuni qo'lg'a tushib qoldim o'zim,  
O'yla kaltaklar edim, darmonda yurdim axtarib.

Shuncha ko'rgan rohatim talx o'ldi, tushdim turmaga,  
Olti oyga hukm o'lib, zindonda yurdim axtarib.

Bu fano ishga sabab kimdur, biling, man aytayin,  
Tarbiyat qilmay onam, maydonda yurdim axtarib.

Ko'cha kezdim, ilma targ'ib qilmadi johil otam,  
Oshiq o'ynab, pul tikub har yonda yurdim axtarib.

Bora-bora zo'r qimorbozning biri bo'ldim raso,  
Goh yutub, goh yutqazub, gulxonda yurdim axtarib.

Katta bo'ldim, kasb ham o'rgatmadi otam-onam,  
O'tti umrim lof ila yolg'onda, yurdim axtarib.

Bo'ldim ishyoqmas, bilimsiz bo'ldim, kasbim o'g'rilik,  
Oqibat jonim aziz qurbonda yurdim axtarib.

Ey otalar, bu mani yozg'on so'zim ibrat siza,  
Kecha-kunduz ilm uchun Hirronda yurdim axtarib.

1914

## MUHORABA NATIJASI

Yovrupoda o't chiqdi raqobat asarindan,  
Milyo'nlab ayildi azamat jon-jigarindan.  
Inson na zamon al chekadur qon icharindan,  
Ne vaqt o'sonur yer talashub jon chekarindan?  
Yer kurrasining mehvari chiqdi ucharindan,  
Yovrupo olovlandi bu yong'in safarindan.

Angletar<sup>1</sup> (ing) hokimlig‘ edi fikr-u xayoli,  
 Olmoniyoni(ng) bo‘g‘moq edi asl omoli.  
 Olmonga ma’lum edi dushmanni bu holi,  
 Hozirlar edi tezlik ila to‘n-u quroli.  
 Yer kurrasining mehvari chiqdi ucharindan,  
 Yovrupo olovlandi bu yong‘in safarindan.

Bul iki bahodir o‘ziga maydon arodur,  
 Atrofiga yordamga bahodir chaqirodur,  
 Bir yonda Georg dahshat ila na’ra urodur,  
 Bir yonda Vilhelm turubon murt burodur.  
 Yer kurrasining mehvari chiqdi ucharindan,  
 Yovrupo olovlandi bu yong‘in safarindan.

1914

### HURRIYAT SHARAFINA

Chun bahor o‘ldi, ochildi – gul ochildi har yondan,  
 Bulbul aytdi oh-zorini, nola chekdi, o‘qudi.  
 Ko‘rdi bulbul hurriyatni so‘yladiki: ey jonon,  
 To qiyomat barqaror o‘l, hech yo‘q o‘lma olamdan!  
 Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,  
 Jon qilibdur necha inson senga qurban, hurriyat.

Tushsa zindon, cheksa afg‘on, nola qilsa mazlumlar,  
 Qi p-qizil qong‘a bo‘yardi begunohni zolimlar.  
 Rahmi keldi tangrimizni, bizg‘a dedi, oh bandam,  
 Olg‘il emdi hurriyatni, bor, qo‘pg‘il motamdan.  
 Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,  
 Jon qilibdur necha inson senga qurban, hurriyat.

Ko‘p onolar sanga qildilar fido o‘z jonini,  
 Ko‘p yetimlar och-yalang‘och zor-giryon yig‘lardi,  
 Mustabid eski hukumat rahm-shafqat qilmazdi,  
 Bir tarafdan zulm etardi, qon to‘kardi bir yondan.  
 Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,  
 Jon qilibdur necha inson senga qurban, hurriyat.

Hech kishi yetmaz edi bechoralar faryodina,  
 Oxiri Olloh etishdi onlaring imdodina.  
 Zulm elini azl etib, qo‘ydi yeriga odil(n)i,

<sup>1</sup> Angletar – Angliya.

Yashasun eski hukumat, elga yaxshi xondan.  
 Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,  
 Jon qilibdur necha inson senga qurban, hurriyat.

Keldi odil, ketdi zolim, qo‘y-bo‘ri o‘ldi sherik,  
 Zulming odini unutmoq lozim erur odamdan,  
 Kimki zulm etsa birovg‘a, Haq yuzin etsin qaro,  
 Ko‘rmasun rohat yuzin chiqmasun aslo g‘amdan.  
 Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,  
 Jon qilibdur necha inson senga qurban, hurriyat.

Uxlamoq yotmoq zamoni o‘tdi emdi, ey do‘srlar,  
 Ishlamoq, yurmoq zamoni ilgaridur har yondan.  
 Bu saodatning zamoni sa'yimizg‘a bog‘lidur,  
 Qaysi ishning vaqtি o‘tsa bo‘lg‘usidur Hijrondan.  
 Ko‘p kishilar oshiq erdi senga, jonon hurriyat,  
 Jon qilibdur necha inson senga qurban, hurriyat.

1917-y., «Turon» g.

### QUTULDIK

Qutuldi barcha millat zolimi xunxor zulmindan,  
 Romanov<sup>1</sup> xonavayron bo‘ldi, badkirdor zulmindan,  
 Asir o‘ldi, haqir o‘ldi ham o‘ldi xor zulmindan,  
 Qutuldi qancha jonlar Rasputin<sup>2</sup> dumdor zulmindan,  
 Bu ibratxonada zolimlar etsun or zulmindan.

Guliston o‘ldi olam, har tarafda sayradi bulbul,  
 Asoratdan qutuldi barcha millat, istayur hur yo‘l,  
 Xazondan saqla, yo Rab! Istayur millat tikonsiz gul,  
 Yetushmoq muddaoga ilmsiz hayhot, erur mushkul,  
 Na mehnatlarni ko‘rduk, har qayu ag‘yor zulmindan.

Siqardi har tarafdan bizni ul zolim hukumatlar,  
 Yo‘limizni kesardi behayo fosid tabiatlar,  
 Taraqqiy yo‘liga sad bog‘layurdi behamiyatlar,

<sup>1</sup> Romanov — Rusiyada 304 yil (1613–1917) hukmronlik qilgan romanovlar sulolasining so‘nggi vakili Nikolay II (1868–1918) (podshohlik davri: 1894–1917) ko‘zda tutilmoqda.

<sup>2</sup> Rasputin (asl nomi Novix) Grigoriy Yefimovich. Tobolskdan chiq-qan «mujik». Tovlamachilik va firibgarlik bilan «avliyo» sifatida podsho saroyida juda katta mavqega erishgan. Buzuqligi, axloqsizligi bilan shuhrat topgan. Monarxistlar tomonidan o‘ldirilgan.

Oxirda bo'lma purg'am-u chashm-u purobdin.  
Hijron, zor yotma deb, ey, millati najib,  
Qalqing! Qonib iching hurriyat sharobidin!

### XAFALIK SOATDA

Har soniyada o'zga alam, o'zga jafodur ko'raman,  
Har soat ichinda necha bing dard-u alamdur ko'raman.  
Har kecha tilarsan o'lajak ertasi ravshan,  
Ul kunduzi kechunda bat(t)ar toza fanodur ko'raman...  
Har kun boshinga turfa balo toshi yog'ilgay,  
Har go'shada bo'lsang-da qudratli qazodur ko'raman.  
Derlarki, oy(n)ing yarmi qaro, yarmisi ravshan,  
O'ttuz kuni ham bizga butun qop-qarodur ko'raman.  
Derlarki, qiyomat o'lajak jum'a kunida,  
Bayram klinik mahshari vahm, ro'zi jazodur ko'raman.  
Hijron o'tadur hasrat ila oy-u yilimiz,  
Har asr biza bir to'da g'am oh – navodur ko'raman.

1919-yil, fevral

### IZCHI'LARGA TORTUQ

Izingiz elga armug'on ko'rinxur,  
Boqsa har kima, sizdan non ko'rinxur.  
Sizdag'i ruh(g)a boqsa har inson,  
Ko'ziga arshi osmon ko'rinxur.  
  
Sizni ko'rsa yo'qotgay el o'zini,  
Boshqa dunyo, bo'lak jahon ko'rinxur.  
  
Sizlar Turkiston bolasimi, ayting,  
Aql inonmas, dila gumon ko'rinxur.  
  
Siz qayon erdingiz bu kundan ilik,  
Ruh veran sizga zamon ko'rinxur.  
  
Qush kabi siz asir edingiz avval,  
Qurtulishdan bu bir nishon ko'rinxur.  
  
Siz chiqorgon ul nag'ma-yu faryod,  
O'lu(k)ni turguzon fig'on ko'rinxur.

<sup>1</sup> Izchi, izchilar to'dasi – shu yillari tashkil topgan o'quvchi bolalar uyushmasi.

Sayrashing o'tmayin bahoringiz,  
Kelsa yoz, ortidan xazon ko'rinur.

Ochiling, ey Vatan guli, ochiling,  
Sizga bo'yла bahor qachon ko'rinur?!

G'unchalarni ochay debon Hijron  
Elga ko'pdan beri yamon ko'rinur.

### OCHLAR HOLINDAN

Bog'da bulbul, sayrama,  
Gul ishqida yig'lama,  
Bejo bag'ring dog'lama,  
Sayra, bulbul, yig'lab-yig'lab ochlar holina.

Keldi fasli bahoring,  
Ochilgay guli yoring,  
Fig'ondir holi zoring,  
Sayra, bulbul, yig'lab-yig'lab ochlar holina.

Bog', sarg'aymish yuzlari,  
Jovdiraydir ko'zları,  
Jonni yoqur so'zları,  
Sayra, bulbul, yig'lab-yig'lab ochlar holina.

Mol-u jondan ayrilmish,  
O'tga tushib qovrilmish,  
Vatanindan sovrilmish,  
Sayra, bulbul, yig'lab-yig'lab ochlar holina.

Zolim falak xor etmish,  
Parcha nonga zor etmish,  
Balolarga yor etmish,  
Sayra, bulbul, yig'lab-yig'lab ochlar holina.

Ko'r, ul ochni na aylar?  
Axlat ichini kovlar.  
Murdor sarqitni poylar,  
Sayra, bulbul, yig'lab-yig'lab ochlar holina.

To'qlik nelar dedirmas,  
Ochlik neni yedirmas,  
Bekor nelar ketirmas,  
Sayra, bulbul, yig'lab-yig'lab ochlar holina.

Hijron, bo'l bulbuli zor,  
 Insonlar hayvondan xor,  
 Uyqudin ayla bedor,  
 Sayra, bulbul, yig'lab-yig'lab ochlar holina.

1919

### BIR KAMPIR TILINDAN

(*NEP davrida*)

Chol bilan tortishamiz turmush uchun har kechasi,  
 Har kuni janjalimizning chiqadur o'zgachasi,  
 O'tmush oylarda edi turmushimiz o'rtagina,  
 Ushbu kunlarda og'irlashdi bozor mashmashasi.  
 Har tarafdan chiqadur yangi chiqimlar o'ralib,  
 Vaqtida bermasamiz tez o'sadur o'smachasi.  
 Ikimizning kuchimiz yo'q topishg'a parcha non(n)i,  
 Cholginamning yonida qolmadi hech oqchachasi.  
 Pulimiz borida bozorg'a borardi yugurub,  
 Ozuq olib kelar erdi to'lubon to'rvachasi.  
 Sigirim bor edi, ko'z tegdimi, suttan chiqdi,  
 Qoq bo'lib qoldi qoshimda osilib xurmachasi.  
 Sut sotib, bir qo'y olib erduk, uni ham sotdik,  
 Semirib qolmish edi, katta bo'lub dumbachasi.  
 Uydagi narsamizi sotmog'a tushdi cholim,  
 Qolmadi ko'zga ilingan chopon-u ko'rpanchasi.  
 «Sirri va-l-qayroq» o'lub ro'zaga tushdi kunimiz,  
 Yo'q ko'mir, g'urrak ochibdur bola, uy tanchachasi.  
 Bolta o'tmas, tesha cho'ltoq, ar(r)amizning tishi yo'q,  
 Hech yorilmaydur erimning bu chatoq to'nkachasi.  
 Qisqasi, turmushimiz buncha siqilg'on yo'q edi,  
 Bordi botmon, yo'qda yo'qcha, bizda hech-hech gachasi.

### HURRIYAT MARSHI

Hur bo'lub yasha, bir bo'lub yasha,  
 Hamla javobni emdi san tash(l)a,  
 Shonli hurriyat – Turkistonnik!  
 Shonli Turkiston – ishlagonniki!  
 Barcha ishchilar – hurriyat sizing,  
 Jahl, zulmdan emdi siz bezing.  
 Shonli hurriyat – Turkistonnik!  
 Shonli Turkiston – ishlagonniki!

Ma'rifating qur, tezroq, ey o'g'il,  
Ilm onasidan hur bo'lib tug'il,  
Shonli hurriyat – Turkistonniki!  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!  
Yotding, uxlading ko'p zamon, yetar,  
Emdi boshingni uyqudan ko'tar.  
Shonli hurriyat – Turkistonniki!  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!  
Tashla uyquni, ishga hozir o'l,  
Yo'qlamas yoring – sanda hozir ul.  
Shonli hurriyat – Turkistonniki!  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!  
Bir kuni kelur, dunyo qo'zg'alur,  
Lo'nda boylaring kimsasiz qolur,  
Shonli hurriyat – Turkistonniki!  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!  
Podshoh degan mahv o'lub bitar,  
Taxti-toji ham yo'q bo'lib ketar.  
Shonli hurriyat – Turkistonniki!  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!  
Ushbu yaxshi uy – ishchilar uyi,  
Tezgina bo'lur bu uyning to'yi,  
Shonli hurriyat – Turkistonniki!  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!  
Barcha, ishchilar, tezda birlashing,  
Qo'lga-qo'l berib, birga ishlasshing,  
Shonli hurriyat – Turkistonniki!  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!  
Do'st shod o'lub, dushman og'lasun,  
Sizga qarshilar bag'rin dog'lasun,  
Shonli hurriyat – Turkistonniki!  
Shonli Turkiston – ishlagonniki!

1919

#### JAMIYATLARGA ARALASHMAGAN DANGASA TILINDAN

Tashqari chiqmam bosib ostonadan,  
Ko'chaga chiqmam o'tirgan xonadan.

Anglamayman dard nadur, hasrat nadur,  
Bilmasman himmat-u g'ayrat nadur.  
Majlis nadur... jamiyat nadur,  
Nutq so'ylab, elga unsiyat nadur.

Tinch o'tirmoq yaxshi ming afsonadan,  
Tilni tiymoq yaxshidur so'zonadan.

Dunyoni sel olsa olsun, manga na?  
Xalqingiz to'fonda qolsun, manga na?  
O'zgalar olamni olsun, manga na?  
Boshimizga no'xta solsun, manga na?  
Boshga to'qmoq tushsa, sho'r peshonadan,  
Kelsa kulfat, ko'rmali paymonadan.

Tinch, toshdek uxlaram har kechasi,  
Aysh-ishrat aylaram kunduz base,  
Muncha rohat yo'q jahonda hech kase,  
Yo'q boshimda jam'iyat xarxashasi,  
Bosh ko'tarmam bul buzuq vayronadan,  
Kamligim yo'q tentag-u devonadan.

Zohiri mullo bilan yo'qdur ishim,  
Bosh bilan aslo chiqishmaydur hushim.  
Yashirganni xohlamaydur turmushim,  
Hosili, dunyoda yo'q do'st bir kishim.  
O'tanurman o'rganib parvonadan,  
Bir moshomman do'stdan, begonadan.

Mencha yo'q olam ishidin anglag'on,  
Kimni ko'rsang, o'z huquqin bilmagon,  
Bir kishi yo'q haq so'zingni tinglagon,  
Boylar o'lsa, oqchani ming-minglagon,  
Chiqmayurlar resto'ran, mayxonadan,  
Ko'ngul uzmas madmazel jononadan.

Hosili, har kimsadan ozorman,  
Har bir inson o'g'lidan bezorman.  
Notiq insondan kuyibman, orman,  
G'ayri notiqlarga ul dam yorman,  
Ko'ngul uzmam ko'knor-u bedonadan,  
Xo'p zerikdim suvrat-u afsonadan.

Hech kishida to'g'ri niyat ko'rmadim,  
Mullada va'z-u nasihat ko'rmadim.  
Boylaringda mehr-u shafqat ko'rmadim,  
Oilada istiqomat ko'rmadim.  
Yo'q aysh Turonda bir durdonadan,  
Bir kishi yo'q mardumi mardonadan.

«Ishtirokiyun» g., 1919-y., 15-fevral, 70-son.

**GO'ZAL BAHOR**

Ey bahor, olam aro uyg'otursan kukulari,  
Uyg'otolmassan va lekin tosh yurakli turklari.

Ko'kdagi yig'lar bulutlar oy jamoling(ni) ko'rub,  
Yerdagi oshno salohlar yangi holingni ko'rub.

Gul chamanda ochilur har kun sani(ng) zavqing ila,  
Bog'da bulbul nag'malar aylar sani(ng) savqing ila.

Mavj uran sahro yuzinda qirmizi ul lolalar,  
Mustabidlar dastidan senga qilurlar nolalar.

Har tarafda turli qushlar chuldirar chah-chahlashub,  
Qishni zulmidin sanga aylashurlar sirlashub.

Bog'-u bo'stonda daraxtlar gul solub, yafrog' ochur,  
Har biri olam kitobindan senga sano sochur.

Er yuzi ko'kmak bo'lub ko'k kiygani bejo emas,  
Zulm ila o'lmish kishilar chun azo qilmish havas.

Ey go'zal fasli bahor! Og'la faqirlar holina,  
Ochligindin gul yuzi so'lmish g'arib ahvolina.

Qurt-u qushga, ey muruvvat qilguchi, fasli bahor,  
Ne sababdandurki, insonlar kezarlar xor-u zor?!

Tez javob ber! Yo'qsa qilmas kimsa senga iltifot,  
Tezgina Hijron bo'lursan, yoz o'tur, sanga uyot.

1919

**YOSH SAVDOGAR TILINDAN<sup>1</sup>**

O'rinsizdur, o'git bermang, o'zim xo'p ishni bilganman,  
Otam qilg'on nasihatni quloqg'a yaxshi ilganman,  
Butun tasdiqi iqroramni tanho pulg'a qilganman,

<sup>1</sup> She'mning muallif qo'lyozma nusxasi va bosma nusxasi mayjud bo'lib, bir-biridan farqlanadi. Bosma nusxa («Shapaloq», «Yosh savdogar tilindan», «Mushtum» j., 1924, 9-son)da 4-band to'la bo'lib, quyidagichadir:

Jinoyat orqasida qo'lg'a tushsam, asqotar oqcham,  
Tasodifdan qamalsam, xatti ozodim olar oqcham,  
Yo'lungsam zaxm-u siflis-u balog'a dam solar oqcham,  
Sig'insam har eshikka yolborib yig'lar mening oqcham.  
Anisim, munisim, jonim, tanim, doruyi darmonim.

Ushbu nashr uchun qo'lyozma asos qilib olindi.

Ko'paytirmoqg'a pulni hajrida bag'rimni tilganman,  
Onam — oqcha, tog'am — oltun, otam — cho'ntakda chervonim.

Hazil qilmang mening birlan, bu pullar menga askardur,  
Biri — arslon, biri — qoplon, birisi misli ajdardur,  
Ishorat birla dunyo ayshi qoshimg'a musaxxardur,  
Qoshimda — huru g'ilmonim, sharobim havzi kavasdurdur,  
Eshon-mullo egilg'aylar to'la bo'lg'onda karmonim.

Zerikkan chog'larimda daf'i savdog'a chiqarman xo'b,  
Semiz ot-u kalaska gumbur-u yonimda bir mahbub,  
Beli nozik, ko'zi feruzadek, qaddi kelishgan xo'b,  
Kishi yo'q yerda yuz-u lablaridan o'paman cho'lp-cho'lp,  
Qilib xilvatda ayshimni yurakda qolmas armonim.

Yo'luqsam so'zag-u siflis-u zaxma dam solur oqcham,  
Bahovaddin balogardon ko'ziga cho'b solur oqcham,  
Sig'insa har eshikg'a meni yoqlab yolborur oqcham,

Anisim, munisim, jon-u tanim, doruyi darmonim.

1924-yil, 12-24-avgust, Toshkand.

### KIMDAN GINA QILAMIZ

O'ylang, o'rtoqlar, ochub ko'zni, bir atrofa qarang,  
Ilm-u urfon aylayur bizni(ng) qulqlarni garang.  
Biz hamon uyquda — g'aflatda o'yun-kulgi bilan,  
Bir yog'och ustosini(ng) ismin qo'yodirmiz farang.  
Jondin ortiq bolamizg'a o'qumoq bo'lsa agar,  
Jondin uzgandek berarmiz bir yarim tanga arang.  
Boshimiz tegsa devorg'a taq etib-da ko'z yumuq,  
Bilgisiz miya bilan har qayda borsang, biz sarang.  
Oz-moz ish bilgan kishi o'rtog'iga qilmas ko'mak,  
Yolborub borsa, qoshiga to'lg'anub qilg'ay tarang.  
O'zini bilmas kishiga so'z tushuntirmoq qiyin,  
Toshga ta'sir aylamas so'z kecha-kunduz valdirang.  
Bu bilimsizlik bilan borganda holdan toyamiz,  
Haqqizingizni bilmasangiz, manga desa galdirang.  
Bu bilim dengiz deyurlar, siz oqin-oqin oqing,  
Asta oqmoqg'a qanoat qilmasangiz shaldirang.  
Bu maorifning taraqqiy davrida tek yotsangiz,  
Munqariz bo'lg'uncha olam sudraling ham shalbirang.

<sup>1</sup> Qo'lyozmada o'chirilgan.

## YALQOV SHOGIRD TILINDAN

Men mакtabга kelmas edim,  
Kirmas, o'qumas edim.  
Meni zo'rлab yubordilar –  
G'arib onam yig'lab qoldi.

Yallo qilib yurgонларим,  
Aysh-u ishrat qurg'onларим,  
Esimga tushib, yodimga tushib,  
Fikrim-ko'nglim buzilib qoldi.

O'yin-kulgi qanday yaxshi,  
.....  
.....

Kayf-u safom uzilib qoldi.

Ketay desam, yubormiylar,  
Qochsam, dezertir qilalar.  
Kasalman deb qutulmayman,  
Qayg'u-hasrat tizilib qoldi.

Kelaman-da to'polon qilaman,  
Tumtarayda egri turaman.  
Qorovulda uxlab qolib,  
Nardudlarim chizilib qoldi.

Shogirdlar meni suymaydir,  
Meni yo'limga yurmaydir,  
O'qug'in, yozgin deb qistaylor,  
Yurak-bag'tim ezilib qoldi.

O'rtoqlарим tuppa-tuzuk,  
O'zi ham tuzuk, so'zi ham tuzuk.  
Birgina meni qora bosqon  
Yalqov miya suyilib qoldi.

Chakkam tirishib qoldi,  
Xafalam burishib qoldi.  
G'ayrat urishib ketdi,  
Yalqovlik ko'rishib qoldi.

---

<sup>1</sup> Qo'lyozmada o'chirilgan.

## YER TARIXI

Ey, yerning shari,  
 Sen allaqancha  
 Ming yil ilgari,  
 Sonsiz-sanoqsiz  
 Asrlar burun  
 Quyoshdan chaqnab  
 Chiqq'an o't parcha,  
 Yong'in bo'lagi.  
 Otilg'on bir to'p  
 O'qig'a o'xshash  
 Bir narsa eding.

Quyosh bag'ridan,  
 O'tlar ichindan,  
 To'fang o'qidek  
 Yumaloq bo'lib  
 Otilib chiqding.  
 Ul quyosh sendan,  
 Sen ul quyoshdan  
 Mangu ayrilding.

Iki arog'a  
 Ayriliq tushdi.  
 Qaytadan quyosh  
 Seni o'zig'a  
 Tortmoq istadi –  
 Istig'no qilding.  
 Qochmoq istading,  
 Iki arog'a  
 Sovuqlik tushdi.

O'zbek qizidek,  
 O't dengizidan  
 Qutulg'onning'a  
 Suyung'oniningdan,  
 Quvong'oniningdan  
 O'yunchi qizdek  
 O'yunga tushding,  
 Havoda uchding.  
 Ochiq havoda,  
 Yoruq dunyoda,

O'z erking bilan  
 Quvnab-quvonib,  
 Pirildoq kabi  
 Pir-pir aylanding!  
 Quvnab yayranding!  
 Gir-gir yaylanding!

Ul o'tlik quyosh  
 Ajdarho kabi  
 Og'izlaridan  
 Olovlar sochib,  
 Seni kuydirmak,  
 Yondirmak bo'ldi.

Sen bo'sh kelmading,  
 Tutqich bermading,  
 Pirillab qochding!  
 G'irillab qochding!  
 Chunki ul seni  
 Kuydirmoq edi,  
 O't qilmoq edi,  
 Yondirmoq edi.  
 O'z moddasig'a  
 Do'ndirmoq edi.

Sen bu pallada  
 O'ynab yalla-la,  
 Quyoshdan ko'ngling  
 Sovig'on edi.  
 Yolg'iz yashashga  
 Ko'nikkan eding.

Sening ishqingda  
 Ul o't dengizi  
 Hamon kuyadir,  
 Hamon yonadir.  
 Aslo o'chmaydir,  
 Tinmay yonadir.  
 Sen unga aslo  
 Parvo qilmaysan,  
 Rahming kelmaydir.  
 O'z mehvaringda

O'ynay berasan, Quyosh hajringda Yig'lay boshlaydir. Ko'zin yoshlaydir. Ul yig'lag'oncha, Sen o'ynag'oncha, Selob to'fonlar Ustingga tushib, Tavba yasaydir. Qizg'in bag'ringg'a Suvlar sepadir, Yillar o'tadir, Oylar o'tadir. Muloyim ko'ngling	Muzdek qotadir, Toshdek qotadir. Aylangan saring, O'ynagan saring Sovub borasan, Qotub borasan. Boshqa moddag'a O'tib borasan. Oxir vujuding Sovib qotadir. Ustingda gullar To'lqin otadir. Hozirda endi Sen boshqa olam...
--	--

### «BAHOR KELDI» QO'SHIG'I

Yozuvchisi usta shapaloq,  
Kuya soluvchi shalponquloq,  
No'taga olg'on majmag'il cho'loq,  
Tarqatuvchisi choponi yamoq,  
Bostiruvchisi «Mushtum» yumaloq,  
Taraqa-taraq, sharaqa-sharaq.

Jag'iga tushur, jig'iga tushur,  
Fikri buzuqni lunjiga tushur,  
Qulog'i tagida shovla qaynasun,  
Bahor keldi, qizlar kuylasun.

Dehqon tog'angiz omochin tutar,  
Ho'kuzin qo'shib yerini titar,  
Qichigan yering qayerda deb,  
Qulqoq to'rani yo'lini kutar,  
Tarallo lalo, tarallo lalo.

Jag'iga tushur, jig'iga tushur,  
Qulqoq «to'ra»ni lunjiga tushur.  
Qulog'i tagida shovla qaynasun,  
Bahor keldi – o'tlar o'ynasun.

Bir pora dehqon dangasa bo'lur,  
Ishyoqmas bo'lib, yalqovlik qilur,

Ishlash vaqtini o'tkazib qo'yib,  
Attanga vaqtin yetkazib qo'yur,  
Otini sotur, ho'kuzin so'yur.

Ana hangama, mana hangama,  
Taxta-o'qlog'i yig'ishtirilgan.  
Qanda qoruq, osuq xurmacha,  
Qozon-tovoq, ko'rpa-ko'rpacha –  
Bahor kepti, bozorda ko'ring!

Bahor keldi, o'tlar ko'karur,  
O'tlar ko'karur, gullar ochilur,  
Otlar kishnashur, qo'ylar mag'rashur.  
G'unajin bir dam ko'zini suzar,  
Buqaxon to'ra ipini uzar.

Qushlar uchishub, chah-chah sayrashur,  
Ishchi dehqonlar yayrab ishlashur.  
Bolta-o'roq sharaqa-sharaq,  
Tarallo lalo, tarallo lalo.

Bular yugurub, xo'rsinub qo'yar,  
Yegan oshlari tez bo'lur hazm.  
O'yun-qo'shuq, ashuvla-bazm,  
Qorni katta boy – Mulla Azim,  
Yeyar-icharga baloyi azim.  
O'ita dehqon-u batrak – ikisi,  
Hamjihat bo'lib yashar ikisi,  
Uchinchisi, to'rtinchisi  
Bularga dushman bular ikisi,  
Tarallo lalo, tarallo lalo.

Peshana bog'liq, qo'llarda ketmon,  
Eski-tuski g'imirlashur sekin.  
Bahor keldi, ketmon o'ynasun,  
Dehqon tomirin qoni qaynasun,  
Kollektivg'a to'y yasasun,  
Chamoxqa uza o'tub yayrasun,  
Ko'z quvonib, qushlar sayrasun!

## HAJVIYOT\*



---

\* «Mushtum» jurnalidan olingan ushbu namunalarni yosh tadqiqotchi U. Xolmuhammedova tayyorlagan.

Ko'zimni ocha olmayman!

Ochar-ochmas ko'rnaturg'on narsalar ma'lum.

«Qadimi yodgorliklarni saqlash qo'mitasi»ning g'ayrati bilan qancha-qancha pullar sarf qilinub buzulg'on, ag'darilg'on, yiqilg'on eski, qadimi yodgorliklar, madrasa va jomelar...

San'at suyguchi, lokin xalta-cho'ntakka jon qurbon qilg'uvchi ahli g'ayratning fidokorlig'i orqasida eski Toshkentda milliardlarcha pul xarjlanib, so'ng bitirilgan, Janggoh va Xadra mozorlariga ko'milgan marhum teatr binosi... Sharif Buxoroda «ulug' mutaxassislar» nazorati ostida qop-qop oltin sarflanib solinaturg'on davlat teatrining rejasi buzilib qolq'on burchagi va ul burchakning ustida qora dastro'mol ushlab yig'lab o'tirg'on shoir — ministr va uning yonida tilini iki qarich cho'zib, «milliy motam» kuyini ming'illab yotqon mashhur o'zbek bastakori...

G'araż, ko'zimni ocha olmayman!

1923-yil, 5-son.

### BIR MUNOFIQ TILINDAN

Men bir shunday kishimanki, hech kimsa  
 «Sen yamon!» — deb hech shikoyat qilmag'an.  
 Men shunday bir usta kishidurmankim,  
 Kimsa mening qilar ishim bilmag'an.  
 Xalq qoshida dindor bo'lub, din lofin  
 Urub tinmay: «Din, Din!» — deya so'zlayman.  
 Agar biror jadid astlik uchrasa,  
 Maorisdan so'zlab, uni aldayman.  
 Chunki meni biror kimsa bilmaydir!  
 Men kimdirman — sira-sira sezmaydir.  
 Ayog'imga mahsi-kovush kiyganman,  
 Ustimga-da keng bir chopon ilganman.  
 Yolg'izgina ichdan kiygon kamzulum,

Kalta etib, miyiqni-da qirganman.  
Ha, ha, ha, ha! Qanday aldab yuraman,  
O'zim kimman? Oni o'zim bilaman.  
Menga qolsa birdir yosh-u qarisi,  
Yaxshi-yamon odamdag'i barisi.  
Yolg'uz menga kerak erur shu qornim,  
Budur mening kecha-kunduz tilagim...  
Shul qornim-chun har ishni-da ishlarman,  
Istar esam xalqimni-da sotarman.

1923-yil, 15-son.

### JULQUNBOY KASAL

Jurnalimizning birdan bir yozg'uvchilaridan o'rtoq Julqunboy qattiq og'rib qolg'on. Do'xtirlarning aytishlari-cha, o'rtoq xafaqon kasaliga yo'liqub, bora-bora bu kasali zo'rayib diqqinafasga aylangan emish.

Do'xtirlar bu o'rtoqning tezda tuzalib ketishi uchun oshig'ich choralar ko'rub, quyidagi maslahatlarni berdilar.

1 — Yozuv-chizuv ishlardan qo'l yig'ib, xush havoli yerlarga sayohatga chiqish.

2 — Har kun uch martaba «noz» dorusidan yeb turish.

3 — Kitoblarni ko'p o'qumaslik, o'qugon chog'da ham, qiziq roman-jurnallardan kulgilik, ko'ngilochar, ayniqsa «Mushtum»ning 14-sonig'acha yozilg'on eshonlar mazohakasini o'qub turush.

Mana shu ishlarni qilg'och, o'rtoq Julqunboy tezdan tuzalib qolsa kerak, degan umiddabiz.

1923-yil, 15-son.

### BILIMSIZ OLIFTALARGA

Ko'zida ko'zoynak, yovrupocha kiyungan uzun bo'yli bu yigitning sartarosh do'konidan hozir chiqib kelgani betini yiltiraganidan ma'lum edi.

U olifta yigit g'oyat vigor bilan menim yonimg'a o'ltdi. Yonidan popirus qutisini olib tutatdi. Juda zavqlandim. Bu o'zbek millatining bir foydalıq kishisi, balki ulug' bir adibi bo'lsamukin deb so'z qotdim. Puch yong'oq, azbaroyi xudo, shaqir-shuqur. U zot boshqani emas, o'zining kim ekanligini bilmaydir. G'irt avom, johil. Birgina surat joyida.

Ey, o'l! — dedim. Qiyofang boshingni yesin, — dedim. Alhazar, sizdek johil oliftaga! — deb tizzamning ko'ziga tupurib, o'z yo'limga ketdim.

1924-yil, 14-son.

### HAQIQIY MA'NOSI

Jam'iki bandalarni, baliq yeganda — qiltanog'idan asragil, yo Rab.

(*Jo'ra qiziqdani*)

Ma'nosi: Qozilarimiz pora yeb qo'yib, jig'ildonlaridan o'tmasdan qo'lg'a tushib sharmanda bo'lishidir.

Jam'iki bandalarni terak yiqilishida yonig'a qochmay, bo'yig'a qochishdan asrag'il, yo Rab.

(*Jo'ra qiziqdani*)

Ma'nosi: Terakning yonig'a qarab qochish — yangi maktabga borish, bo'yiga qochish — eski mакtabga borish.

Jam'iki bandaлarni ot olib qochganda, aravadan asrag'il, yo Rab.

(*Jo'ra qiziqdani*)

Ma'nosi: ot olib qochish degan so'z, hukumat ishida turib, shishinib ketgan mas'ul ishchilarga aytiladir. Aravadan asrag'il, ya'ni qing'ir kelish, ahmoqlanishdan asrag'il, degan so'zdir.

1925-yil, 8-son.

### DANGASAMAN

Agar men dangasa bo'lmasam edi, Namangan tuman (rayon) Qo'shechi raisi Aminjonovning qirmajuvon saqlab, hammaga gap-so'z bo'lib yurganidan yozar edim.

Agarda dangasa bo'lmasam edi, 2-xalq qozisi bo'lib o'tgan Toji Rahmonovning Qosimxon, Usmonxon degan bolalarni juvon qilib, el ko'zida o'z-o'zini ta'viya qilib yurganini yozar edim.

Agar dangasalik balosidan qutulsam edi, Namangan raysoyuzining ish yurituvchisi Abdurauf Qori bilan Ma'rufxon to'ramning Qalandarxonan masjididagi bir hujrani resto'ran qilib olg'onini yozar edim.

1925-yil, 15-son.

## YER YUZIDA NIMALAR BOR

Mana bu, sezilmagan va ko'rinxmayturg'on boqqol yoki kooperativning, «g'irrom»lik tarozusi yoki oxiratda gunoh, savob o'chayturg'on tarozu emas. Davlat nashriyotining bir pallasiga muharrirlarning qimmatli fikrlarini va matbaa ishchilarining tortqon mehnat mashaqqatlarining qiymati uchun to'langan chaqlar bilan xorilqulodda chiqimlar uchun to'lanadurg'on chervonlar ikkinchi pallasiga kitobni solib tortib sotadirg'on tarozusidir.

Mana bu, patirnon yoki hujjat akamning aqchadoni emas. Anov narigilari o'yinchiq yoki matbaa xatosi emas. Mashhur akademiklarning dengiz kechib, sho'r suv ichib, quса-quса Baku qurultoyidan bo'shab'on yuraklariga joylab, hal qilib kelgan masalalaridir.

Mana bu, ko'z oldingizdagи lash-lushlar lablarni qon ichkandek qizil, chiroylik qilishdan ham boshqa bir xosiyati bor.

Agar bir yigit bir qizni sevsa, uning ishq o'tini o'chirish uchun qizning lablariga shul yuqoridag'i moydan surish kerak.

So'ngra ul yigit qizning ko'chasidan o'tmay qo'yadi.

Hozirda shoirlarimizning ishq fikrlari ham shul moyg'a qo'shib ketgani uchun bundan buyoq har yerda bunday ishqiy she'rlarga uchrash «Maorif va o'qitg'uchi» jurnali ning adabiyot muzasidan boshqa joyda topish ehtimoli bo'lmay qoladir.

1926-yil, 29-sod.

### SAMARQAND

Kunlardan bir kun yo'lim Shayboniyxon madrasasi oldidan tushib qoldi. Yo'limni topib olish umidida tuproqlar ni elab turg'on edim, esimning tilagiga, u yerdagi ta'lim va tarbiya kursida o'qib turg'on og'aynilar chiqib qoldi. Bir ko'rib o'tay deb kirgan edim, haytovur: «San farg'onaliklar o'zingga tortding, g'alcha tojiklar falon qilding!!» — degan safsatalarning nihoyat sergo'sht, seryog' joyidan nasibador bo'lib qoldim. To'polonlar hammasi majlis uchun to'plang'on o'rtoqlarning majlis ochilg'uncha qilib turg'on ermaklari ekan. Haytovur ro'znomadagi masalalarni ko'rish-

ga fursat qo'ymasdan arazlab, tortishib, keta qoldilar. Ta'limtarbiya kishilarida shunday gruppabozlik bo'lishiga hayron bo'lib qoldim.

1926-yil, 33–34-son.

### OXIRZAMON ALOMATI

Zamona oxir o'lsa, ey birodar,  
Chiqar har turli ishlar, ayla bovar!

Buxoroda tug'ilgay bir ulug' eshon,  
Uning ismi mukammal Ibni Burhon.

Zarafshon vaqfida bo'lg'oy mudir ul,  
Hamoqat gulshanida benazir ul.

Uning yoshi bo'lur oltmis yana uch,  
Ato qilg'ay xudo shahvonidan kuch.

Xotinliqqa olur o'n uch yasharni,  
Qilur hayron bu ishlarda basharni.

Jenotdel bilgay-u, qilg'oy rioxay,  
Rivoj olg'ay bu ishlar poya-poya.

Hazoron alhazar undoq zamondan,  
Jahonda qo'zg'olur ofat yomondan.

1926-yil, 35-son.

### MANI MUXBIR DEYDILAR

Ko'p kishilar kaminangizning bo'yniga muxbirlik chambaragini tashlab, machitning tomidan yiqtmoqchi bo'ldilar. Vaholanki, manda muxbirlikka layoqat yoki qobiliyat degan narsa tagi bilan yo'q.

Men muxbir bo'lsaydim: butun qing'ir-qiyshiq, egribugri, epaqaga kelmaydirgan lash-lushlarni yig'ib, uzun bir karnay yasar edim-da, matbuot maydoniga chiqib, haqiqat zamzamasiga to'g'ri kelmagan mashqlarni chalib, ko'p kishilarning esini chiqarib qo'yar edim, afsuski, man muxbir emasman.

Muxbirlikka salgina layoqatim bo'lganda: Buxoro amirining sarqitxo'rlaridan bo'lgan Qosimovning qo'y terisiga yopinib, Zarafshon vaqf idorasida ijara shu'ba mudiri bo'lib, o'zining e'tiborini ko'tarish maqsadida bir-ikki yevropa-

liklarni o'ziga taraf dor qilib, mudiriyatga va firqa a'zolariga qarashli qilib yurganini yozib, masxarasini chiqarar edim.

Agar mening muxbirlik hunarim bo'lsa edi, viloyat huquqshunosi o'rtoq Maslovni konyak no'sh qilib, har kun qip-qizil mast holda kelib, katta ijarachilarni qarzdor bo'lganidan foydalanib, ularga o'zlarini azroyildek qilib ko'rsatib, qulay kelgan vaqtida «chervon qistirish» degan hunarlarining bo'lib turishini ham, ijarachilar bilan aka-uka og'iz o'pishib, ziyofatlarini yeb, qaymoqlashib yurganlarini ham yozib, tutunlarini ko'kka chiqarar edim.

1926-yil, 40-sod.

### **IBRAT OLDIK**

Tushimmi, o'ngimmi? Ta'birlarini Kalvak mahzum qilsinlar. Tushimiz o'ng chiqsa, har mozorg'a bittadan qo'tir echki hadya qilg'onimiz bo'lsin, chunki:

ko'rgan ko'zlarimizga ham ishonmay qoldik. Xolam to'qqiz jup Hasan-Husan tug'ib tashladilar. Jigarso'xtalar dan bizlarkim: Akbar Azimov, Mirsiddiq Muhammadiyev, Turg'un Dumaloqlar dermiz;

ko'nglimizning yong'on o'tini pastlamoq maqsadida 2–3-darajada oylik oladirg'on bedavolardan 4 so'mdan pul yig'ib, 5 chelak (100 butilka) piva, 10 ta oqidan olib, Yo'lchi Azamatovning bog'ida qo'y so'yib qilg'on ziyofatimizdan ibrat oldik.

Shuncha harakat qilib murodg'a yetolmay, izvosh kiraga sur bo'lib, bozorda jiqqamush yoqa tutishib, jirillashqanimizdan ibrat oldik.

1926-yil, 40-sod.

### **LAVAND BOTIRLAR**

Buxoro milisalaridan judayam yolchidik. Nahotki mili sa Xudoyorxonning lavandidek shalviragan bo'lsa? Milisalarimizning tezkorliklari ustiga sharobxonalar taraqqiy qilib, ikki oyoqlik quturg'on itlar sanoqqa sig'may ketdi. Qaysi jinko'chaga kirsangiz, kuniga o'n sakkizta piyonini uchratmasangiz, Bahovuddin pirimning arvochlari sizni ursin.

Koshki bu quturgan itvachchalar tinchgina kayf-u safosini sursa, ko'ringan jo'nibo'sh shavladahanlarning lunjiga tushirib, hammani dabdala qilib yuboradir. Bu voqeani ko'rib turgan haligi jin botir, lavand milisa pochchamni shu minutda bezgak tutadir-da, o'zlarini pastqamga tortadirlar.

Tangrining bemahal lutf-u karamiga qul bo'lay. Bechora shavladahan «bama'ni(lik) qilib» lunjiga nogahoniy nasibani yeb bo'lg'ondan keyin dard ustiga chi pqon, yara ustiga tuz degandek «hozir bosh, nozir bosh» deb, yurakni tog'dek qilib milisa akasi hozir bo'ladilar!

Xo'sh, nima gap o'zi, demaysizmi? «Boyagi urushkanlar qayoqqa ketdi?» — deb egov qilishni qo'yaberasiz.

Nachora va na iloj. Tajanglikning zo'ridan: «Bemahal arvohga fotiha yo'q», — deb javob qaytarasiz. Manavi bizning bir pardalik komediyamizga kulmaganning uyi kuysin.

1926-yil, 41-son.

### ESKI BUXORODA YANGI ASHULA

Arzimni aytay «Mushtum» akog'a,  
Qilsun tarahhum mendek ukog'a.

Ko'zları cho'lpon, Qori Saidjon,  
Qosh qoqqanig'a jonlar sadog'a.

Qo'chqor akangman, ishqingda sarson,  
Kamisa bo'lubon, chiqsak dialog'a.

Bo'lsak ikovlon Ochilg'a mehmon,  
Ichsak vinojon nash'-u namog'a.

Mastlikni qilsak tong otqonicha,  
Yetsak urunib, har muddaog'a.

Yor qahr qilsa, solib qovog'in,  
Mastlikda bo'lg'on turluk xatog'a...

Sizlarga banda shoir qulingiz  
Yuz joni birlan mashg'ul duog'a.

1926-yil, 43-son.

**HAR XIL BALO BO'LG'UM KELUR**

Boshim kadir, ta'bim nozik, ayo, do'stlar,  
Har kun bitta yangi xotin olg'um kelur.

Yoshim yetib oltmis birga, qartang cholman,  
Bahovuddin sud raisi bo'lg'um kelur.

O'lib qolsa eski xotin voy-voy, do'stlar,  
Qayta boshdan dunyo sari kelgum kelur.

Uchta-to'rtta o'g'lum bordur o'zimga teng,  
Shu holimg'a yosh qizlarni olg'um kelur...

Xotin olsam, bilib qolsa, amaldorlar,  
Yeng uchida nazr-u niyoz bergum kelur...

1927-yil, 2-sod.

**SOQOV RAPORT**

«Kambag'al dehqon» gazetasining 22-yanvarda chiqqan 10-sonini dehqonlar o'qib tashlagandirlar, albatta. Unda kambag'allar orasida ishlayturg'on rahbar tomonidan «Kambag'al dehqon» idorasiga yuborilgan «raport» bosilib o'tdi. Raport gazetada bosilib chiqqanda juda ham soqovlashib ketibdi. Biz uning sarlavhasidagi «Partiya yorluvlarini bajaramiz» degan «qisqacha» xatolari ustida vaysab o'tirmaymiz.

Uning («Kambag'al dehqon»ning, albatta) oyiga 500 so'm olaturg'on «adabiy» xodimlari shu pul badaliga Afanding kovshi singari jumlalar tuzib beradilar:

— «Qo'qon shahar rayon O'rta Osiyo byurosi va hunarmandlar soyuzi VKP(b) Markazkom O'zkompartiya markazkomining kambag'allarni uyushtirish haqidagi qarorini amalga oshirish asosida kustar artillarida kambag'allar guruhlari turli ishlaring o'tkazib, tubandagicha amaliy ishlarini qildi...»

Agarda xafaqonga yo'liqmagan bo'lsangiz, buni o'qiguncha asabiy tomiringiz yelkangizga chiqib ketgandir. Xayriyatki, «Kambag'al dehqon» boshqarmasida bir vagon ishchilar bor. Bo'lmasa nima qilar edik?

Biz, shu moshova aralash gap atalani o'z lavzingizga havola qildik. Toki raportimizni qabul qilgaysiz, deb «Ab».

1931-yil.

**«Adabiyot yoxud milliy she'rlar»dan birinchi juzi.**

Dastlab 1909-yilda Toshkentda Ilin tipo-litografiyasida bosingan. 1912-yilda – ikkinchi, 1914-yilda – uchinchi, 1916-yilda – to'rtinchi nashri amalga oshirilgan. To'plam antologiya xarakterida bo'lib, unda boshqa shoirlarning ham she'rlari bor. Birinchi nashrida har bir she'mning vazni ko'rsatilgan. Sovet davrida shoirning boshqa asarlari singari undan ham ayrim namunalar muallifning 1979-yilda chop etilgan «Toshkent tongi» to'plamiga kiritilgan edi.

Qisqartirib nashr etilmoqda.

**Ikkinci juz.**

Sovetlarga qadar uch marta (1912, 1915, 1917) bosingan. Keyingi 80 yil davomida birinchi marotaba to'liq e'lon qilinmoqda.

**Uchinchi juz.**

1917-yilga qadar ikki marta chop etilgan. Ikkinci nashr 1916-yilda G'ulomiya matbaasida amalga oshirilgan.

Ayrim qisqartishlar bilan chop etilmoqda.

**To'rtinchi juz.**

1916-yilda G'ulomiya matbaasi (Orifjonov litografiyasida)da bosingan. Noshiri: Maktab kutubxonasi.

Ayrim qisqartishlar bilan e'lon qilinmoqda.

**Maktab gulistonı.**

1916-yil Toshkentda Yakovlev litografiyasida bosingan. Noshiri: Mirzaolim Mulla Rustambek Yusufbek hoji o'g'li.

Muallif uni «Milliy she'rlar»ning 5-juzi deb izohlaydi.

To'liq e'lon qilinmoqda.

**Mardikorlar ashuvlasi.**

1917-yilda Orifjonov litografiyasida bosingan. «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» majmuasining 6-juzi. Muallif shunday izohlaydi: «...Birinchi to'da mardikorlarni jo'natmoq uchun chiqishda yasalgan namoyishda Toshkentdag'i teatruga maxsus «Turon» to'dasi tarafidan turli latif kuylarda o'qulgan edi. Ko'b kishilar iltimos qiluvi sababli jam' qilinib, nashr qilindi. Va boshqa bir necha shoirlarning yozgan she'rlari o'zlarining ruxsatlari ila ushbu adabiyotga ilova qilindi».

To'plamdag'i she'rlardan ayrim namunalar berilmoqda.

**«Chahor kitob»** – madrasalarda o'qitib keligan to'rt qismidan iborat darslik kitob. Fors tilida. 1,2,3-qismlari shariat qoidalariga oid bo'lib,

nazmda yozilgan. 4-qismi esa Imom Buxoriyning «Al-jomi' as-sahih»idan olingen hadislardan iborat.

«**Sabot ul-ojizin**» – muallifi So'fi Olloyor. Shar'iy qoidalar va diniy nasihatlardan iborat. She'riy yo'sinda, shirali tilda yozilgan. O'zbekcha. Shuning uchun ham dastlabki bosqichdagi madrasa talabalarining sevimli kitobiga aylangan.

«**Navoiy**» – Nizomiddin Amir Alisher Navoiy (1441–1501) ning asarlari ko'zda tutilmoqda.

«**Fuzuliy**» – Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy (1498–1556), ulug' ozarboyjon shoiri va mutafakkiri. Ozarboyjon tilidan tashqari fors va arab tillarida ham ijod qilgan. She'riyatda Jomiy va Navoiy an'analarini davom ettirgan. «Muhabbatnoma», «Layli va Majnun», «Matla' ul-e'tiqod», «Suhbat ul-asmor», «Bang-u boda», «Haft jom», «Sihat va maraz», «Anis ul-qalb» kabi asarlari bor. Madrasalarda asosan «Devoni Fuzuliy» o'qitilgan.

«**Xoja Hofiz**» – Shamsiddin Muhammad Xoja Hofiz Sheroyziy (1325–1389). Mashhur fors shoiri. G'azallari bilan Sharq-u G'arbdan taniqli. Navoiy bu shoir haqida, g'azal janrining mislsiz va tengi yo'q ustasi, degan bo'lsa, olmon shoiri Gyote uning g'azallari haqida: «Bir marta ma'nosini anglagan kishi uchun u butun umrga eng sevikli yo'ldosh bo'lib qoladi», – deb ta'rif beradi. Hofizning devoni inqilobgacha madrasalar dasturidan mustahkam o'rinni olgan edi.

«**Bedil**» – Mirza Abdulqodir Bedil. 1644-yil Bengaliyaning Azimobod shahrida tug'ilib, 1721-yilda Dehlida vafot etgan. Sharq xalqlarining buyuk shoiri va mutafakkiri. O'z davrining «Malik ush-shuar»si. Muxlislari tomonidan «Abul-maoniyya» (ma'nolar otasi) ham deb nom olgan. Bedil 130 ming misradan ortiq she'riy va ellik bosma taboqdan ziyod nasriy asarlar yaratgan. Shoirning «Tilsimi hayrot», «Tarkibot va tarje'ot», «Muhiti A'zam», «Turi ma'rifat», «Ishorat va hikoyot», «Maktublar», «Chor unsur», «Nukot», «Irfon» kabi yirik falsafiy asarlar mavjud.

«**Maslak ul-muttaqiyin**» – shoir So'fi Olloyorning fiqhga oid kitobi. Fors tilida. She'riy.

«**Bayoz**» – asrimiz boshlarida keng tarqalgan she'riy majmualar ko'zda tutilmoqda. Bayoz – biror shoir tomonidan tarkib berilgan she'riy to'plamlarning bir turi.

**Abu Bakr** – Abu Bakr Siddiq Abdulloh ibni Kuhofa ibni Omir. Makkadagi Quraysh qabilasining Tamim urug'idan. Otasi Usmon (laqabi Abu Kuhofa) bo'lib, ham ota, ham ona (Ummul Xayr) tomonidan sulolasiga payg'ambarimizning sulolalari bilan Murrada birlashadi. Rasuli Akramdan ikki yosh kichik. Oltmisht uch yoshda vafot etganlar. Unga payg'ambarimiz Abdulloh (Allohning quli) ismini bergan edilar. Biroq musulmonlar orasida «Abu Bakr» laqabi bilan tanilgani uchun «Abdulloh» ismi unutilib ketgan. Ilk farzandiga nisbat berilib «Abu Bakr» (Bakrning otasi) deyilgan. Islomni birinchilardan bo'lib hech taraddudsiz qabul qilgani va Rasuli Akramning me'rojlarini eshitib oq tas-

diqlagani uchun «Siddiq» unvoni berilgan qizi hazrati Oyshani (r.a) Rasulullohga nikohlab berib, qarindoshlik rishtalarini bog'lagan. Islomiy haj qilingan vaqt Rasuli Akram Abu Bakrni haj raisi qilib Makkaga jo'natganlar. Payg'ambarimiz xastalanib yotgan paytlari jamoatga imomlik qilish Abu Bakrga buyurilgan. Hatto Rasuli Akram ham bir marta Abu Bakrning orqasiga o'tib namoz o'qiganlar.

Abu Bakr Siddiq «Xulafoi roshidin» – (to'g'ri yo'ljadi xalifalar)-ning hamda Asharai Mubashsharaning (ya'ni, hayotlik chog'laridayoq jannatga kirishlari o'zlariga mujdalangan o'n zotning) ham birinchisi bo'ldilar. Xalifalik davrida Qur'oni karim oyatlarini birinchi bo'lib to'plagani uchun «Jomi` ul-Qur'on» (Qur'onni jamlatgan) degan sharaflı nomga sazovor bo'ldi. Islomiy kitoblarda Rasuli Akramdan 142 ta hadis rivoyat qilganligi haqida ma'lumotlar bor. Jasadi payg'ambarimizning «Hujrai Saodat» deyilgan maqbaralarida dafn etilgan.

**Umar (r.a.)** – Umar ibn Xattob payg'ambarlikning oltinchi yili qirqinch bo'lib islomga kirgan. Xulafoi roshidinining ikkinchisi. To'g'ritni egridan ajratishda o'ta hassos va odil bo'lganligidan payg'ambarimiz alayhissalom unga «Foruq» deb nom bergan edilar. Sulolası to'qqizinchı otada (Ka'bda) payg'ambarimizning sulolasiga birlashadi. O'ttiz uch yoshda islomga kirdi. Payg'ambarimiz singari oltimish uch yoshida vafot etdi. Rasuli Akramning eng yaqin maslahatchilaridan biri Abu Bakr, ikkinchisi Umar bo'lgan. O'n ikki masalada ilohiy vahiy Umarning ra'yiga muvofiq tushgan. Umar fikr-mulohazasini, hatto bu mulohaza Hazrati Payg'ambarning ra'ylariga zid bo'lsa-da, ochiq gapiraverardi. Payg'ambarimizdan keyin islom birligini saqlab qolishda buyuk xizmatlar qildi. Qur'oni karimni to'plash ishini Abu Bakrga eslatgan ham Umar edi. Abu Bakr hayotligi chog'ida Umarni xalifalikka nomzod o'laroq ko'rsatdi va Umar ikkinchi xalifa bo'ldi. Uning xalifalik davrida Suriya, Falastin, Misr, Eron kabi mamlakatlar islom chegarasiga qo'shildi. U yerlarda majusiylik olovi o'chirildi. Rasuli Akramning hijrat hodisasi musulmonlar tarafidan taqvimboshi o'laroq qabul qilindi (17/638-y.).

Hazrati Umar (r.a.) ham Rasuli Akramning «Hujrai Saodat» deb ataluvchi qabrlari yoniga ko'mildi.

**Usmon (r.a.)** – Hazrati Usmon ibn Affon. Quraysh qabilasining ummaviy guruhidan edi. Rasuli Akramning sulolalari bilan beshinchı otada (Abdumannosda) birlashadi. «Sobiquni islom» deyilgan va Hazrati Xadichadan keyin musulmon bo'lgan makkatik sakkiz zotdan to'rtinchisi, Abu Bakrning dalolati ila musulmon bo'lgan besh zotdan birinchisi edi. Asharai Mubashsharaning (ya'ni, hayotlik chog'laridayoq jannatga kirishlari o'zlariga mujdalangan o'n zotning) biridirlar. Hijratdan qirq yetti yil oldin tug'ilgan, sakson ikki yoshida shahid qilingan (m. 656-y.) Rasuli Akramning kuyovlaridan. Avval Ruqayya ismli qizlariga, uning o'limidan keyin Ummu Gulsum degan boshqa qizlariga uylangani uchun unga «Zunnurayn» (ikki nur sohibi) deb nom berilgan. Xulafoi roshi-

dinning uchinchisi (24/64-y.). O'n ikki yil adolat bilan xalifalik qilib, milodiy 656-yilda shahid bo'lgan. Hazrati Usmon chiroyli yozar va chiroyli o'qir edi. Payg'ambarlikning vahiy kotiblaridan, ya'ni payg'ambarimizga kelib turgan ilohiy xabarlarni yozib borganlardan. Hazrati Abu Bakr to'platgan Qur'oni karim nuxxalarini ko'paytirib, har yonga yoyganligi sababli unga «Noshirul Qur'on» vasfi berilgan. Hazrati Usmon Rasuli Akram (s.a.v)dan 146 ta hadis rivoyat qilganlar.

**Haydar** – Ali ibn Abu Tolibning laqabi. Hazrati Ali (r.a.) janobi payg'ambarimiz kabi Quraysh qabilasiga mansub Hoshimiyl urug'idan. Rasuli Akramni yoshliklaridan o'z himoyasiga olgan amakilari Abu Tolibning o'g'li. Abu Tolibning oilasi katta, moddiy ahvoli og'ir edi. Shuning uchun ham Sarvari olam Xadichaga uylanganlardan keyin besh yashar Alini o'z qaramog'lariiga oldilar. U zotning tarbiyalari bilan voyaga etdi. Hazrati Ali o'n yasharligida «Sobiquni Islom»ning ikkinchisi bo'lib, Hazrati Xadichadan keyin musulmon bo'lgan. U zot ham Asharai Mubashsharadan. Xulafoi roshidinning to'rtinchisi. Biroq xalifaligi (35/656–40/66-yy.) ichki isyonlar avj olgan pallaga to'g'ri keldi. Natijada xalifalik ikkiga bo'lindi: Shom xalifaligida Muoviyta, Ko'fa xalifaligida Ali (r.a.) bir-birlarining xalifaliklarini qabul va tasdiq qildilar. Biroq Ko'fa xalifasi Ali (r.a.) oltmish uch yoshida shahid bo'ldi. «Mashhadi Ali» deb nomlanuvchi qabri Ko'faning g'arbida.

**Hasan birla Husayn** – Hazrati Ali ibn Tolibning o'g'llari. Payg'ambarimizning (s.a.v.) nevaralari. Hazrati Ali shahid bo'lganidan keyin Hasan Ko'fada xalifa etib tayinlangan. Lekin oradan olti oy o'tgach, Hazrati Hasan o'z ixtiyori bilan xalifalik huquqlarini Shom voliysi Muoviyaga topshiradi va bu bilan islom birligini qaytadan vujudga keltirishga xizmat qiladi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) bu nevaralari haqida: «Bu o'g'lim sayyiddir. Umid qilamanki, bu bilan Alloh ikki islom jamoatining orasini isloh aylasa!» deya marhamat qilganlar.

**Muhri Sulaymon** – Sulaymonning muhri. Sulaymon Hazrat Dovud (a.s)ning o'g'llari. Alloh taolo u kishiga ham payg'ambarlikni, ham butun jonzotlar ustidan hukmronlik etmoqni tuyassar qilgan. Allohnинг inoyati bilan Sulaymon alayhissalom jamiki maxluqlar bilan tillashish qobiliyatiga ham ega bo'lganlar. «Muhri Sulaymon»dan murod Sulaymon darajasi, martabasi demakdir.

**Jamshid** – Peshdodiylar sulolasiga mansub podshohning ismi.

**Abu Jahl** – Abdulhakim Amr ibn Hishom. Muhammad (s.a.v.) davrlarida islomga qarshi kurashgan Makka zodagonlaridan biri. Islomni qabul qilmay butparastligicha qolganligi sababli unga Abu Jahl, ya'ni «jaholatning otasi» deb nom qo'yishgan. 624-yil Badr jangida halok bo'lgan.

**Yazid** – Ummaviylar sulolasining asoschisi Muoviyyaning o'g'li. Ummaviy xalifa.

**Qorun** – Muso alayhissalom davrlaridagi Fir'avnning vaziri. Nihoyatda boy va takabbur inson bo'lib, Muso (a.s.)ning diniy

da'vatlariga qarshi ish tutganligi uchun Allohnning hukmi bilan yer yutib yuboradi. (Bu haqda qarang: Qur'oni karim, «Qasos» surasining 76–81, «Ankabut» surasining 39-oyatlari).

**Bino qilib iki olamni hazrati Fayyoz,  
Tufayli hazrati kavnayn Sayyidi barno.  
Yubordi yer yuziga bir necha payambarlar,  
Arolarinda edi afzali Habibi Xudo.**

**Fayyoz** — fayz sohibi, ya'ni Tangri taolo.

**Habibi Xudo yoki Habibulloh** — Allohnning suykli do'sti. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sifatlari. Baytdagi ikki olam (kavnayn)ning sababchisi (tufayli) va «Sayyidi barno» so'zлari ham ularga aloqador.

**Atomiz Odam-u Havoni qo'yuvdi jannatiga,  
Tushirdi yer yuziga, aylab erdilarki xato.**

**Xato** shundan iboratki, Odam Ato bilan Momo Havvo shaytonning vasvasasi bilan jannatda taqiqlangan mevadan iste'mol qilishgan. Oqibatda bu xatolari uchun jannatdan yerga tushirilganlar.

**Birini qavmini to'fon ila halok etdi.**

Nuh alayhissalom o'z qavmini iymonga chaqirdi. Lekin ko'pchilik shirk-u zalolatdaligicha qolaverdi. Ular Allohnning payg'ambariga ko'p ozor-u iyo etkazdilar. Nuh (a.s.) iymonsizlarni Allohnning hukmiga havola qildi va Allohnning irodasi bilan oqni-oqqa, qorani-qoraga ajratuvchi bir to'fon turdi. Kofirlarning barchasi halokatga uchradi, musulmonlar esa Nuh kemasi tufayli omonlik topdilar.

**Birini qavmini qildi balok sarsar ilia.**

**Sarsar** — kuchli shamol. Hud alayhissalom Od qavmini faqat Allohgagina ibodat qilishga buyurdilar. Zalolatga botgan qavm o'z butlariga sig'inishni davom ettiraverdi. Shunda Alloh taolo uch yil qurg'oqchilikni iroda etdi. Bu ogohlantirish edi. Lekin Od qavmi o'z bilganidan qolmadni. Hud (a.s.) Alloh buyrug'iga binoan o'z ahli bilan bu qavmni tark etdilar. «A'rof» surasining 72-oyatida bu haqda shunday deyiladi: «Bas, Unga (Hudga) va u bilan birga bo'lgan (mo'min) zotlarga O'z rahmat-marhamatimiz bilan najot berdik...» Od qavmining taqdini haqida esa «Alhaaaqqa» surasining 6–7-oyatlarda shunday xabar beriladi: «Endi Od (qabilasi) ga kelsak, bas, ular bir dahshatli, quturgan bo'ron bilan halok qilindilar. U (bo'ronni Alloh) ularning ustiga yetti kecha va sakkiz kunduz hokim qilib qo'ydiki, endi u joydagи qavmni xuddi chirib — ichi bo'shab qolgan xurmo daraxtining tanasidek qulab, halok bo'lib yotganlarini ko'rarsiz!».

**Biriga tosh ichinda teva chiqdi, tug'di bolo.**

Samud qavmidagi mushriklar Solih alayhissalomdan mo'jiza ko'rsatishni, ya'ni bir katta toshning ichidan bolalik tuya chiqarishni

<sup>1</sup> Qur'oni karimning o'zbekcha izohli tarjimasidan foydalandik. Tarjima va izohlar mualliti Alouddin Mansur.

talab qilishdi. Solih (a.s.) Allohning izni bilan mazkur mo'jizani ko'r-satib, haqiqatan, ilohiy payg'ambar ekanliklarini isbotladilar.

**Birini otasha otdurdidi qudrati birla,**

**Birini qavminin zer-u zabar qilib Maylo.**

O'tga (otashga) tashlangan payg'ambar Ibrohim alayhissalomdirlar. Podshoh Namrud ulkan gulxan yoqtirib, uning o'tasiga Ibrohim (a.s.)ni tashlashni buyuradi. Allohning inoyati bilan Hazrat payg'ambar tushgan joy gulzorga aylanadi va olov ta'sir qilmaydi. Namrudning davlati esa oston-ustun bo'lib ketadi.

**Birini qildi o'n ikki o'g'ul ila xushhol.**

So'z Hazrati Ya'qub alayhissalom haqida ketmoqda.

**Asir Yusuf-u Ya'qub Yusufina ado.**

Yusuf alayhissalom haqidagi qissalarni eslang.

**Sinor haqinda birin saxt ayladi ranjur,**

**Balog'a sobir ekan, berdi oxirida shifo.**

Rivoyat qilishlaricha, Ayyub alayhissalom o'z qavmlari ichida yetarli darajada boy, serfarzand, kelishgan, xullas, hech bir tomonidan kam-chiligi yo'q inson edilar. Tangri taolo ana shunday kishini payg'ambarlikka ko'tarish uchun sinov tariqasida uni dastlab mol-u dunyosidan, so'ngra ahli ayoli va farzandlaridan judo qilib, o'zini og'ir xastalikka mutbal etdi. Ayyub (a.s.) bularning barchasini Allohdan deb bildilar va faqat uning O'zidangina madad so'radilar. Bu holat va uning natijasi haqida «Anbiyo» surasida shunday ma'lumot kelgan: «Ayyubning Parvardigoriga nido qilib: «(Parvardigorum), meni balo ushladi, O'zing rahm-shafqat qiluvchilarning rahmirog'idirsan», – deb iltijo qilgan paytini (eslang). Bas, Biz uning (duosini) mustajob qilib, undagi ziyor-zahmatni ketkazdik hamda O'z huzurimizdan mehribonlik ko'rsatib, barcha ibodat qilguchilarga eslatma-ibrat bo'lsin, deb (Ayyubga) ahli oilasini va ular bilan qo'shib yana o'shalarning mislicha bola-chaqa ato etdik» (83, 84-oyatlar).

**Birin qo'linda temir mum kabi erir edi.**

Dovud alayhissalom ko'zda tutilmoqda.

**Birini hukmi ostinda erdi bodi sabo.**

**Bodi sabo**, ya'ni subh epkiniga hukmfarmolik imtiyoz berilgan zot Sulaymon alayhissalomdirlar. Sulaymon (a.s.) Alloh taolodan faqat o'zlarigagina xos bo'lgan ne'matlar berishni so'ragan edilar. Alloh ularning duolarini ijobat etib, ertalabki va kechki shamolni ularning inon-ixtiyoriga topshirib qo'ydi. Bu haqda «Sod» surasining 36-oyatida shunday deyiladi: «Bas, biz unga uning amri bilan u istagan tomoniga mayin esaveradigan shamolni bo'yinsundirdik».

**A'lam-u sirri xafo** – maxfiy sirlarni biluvchi, ya'ni Tangri taolo.

**Oyni ikiga bo'ldingiz aylab ishorate.**

Hijratdan besh yil ilgari ro'y bergan bu voqeя Muhammad (s.a.v.) ko'rsatgan juda ko'p mo'jizalardan biri. Quraysh raislaridan Valid ibn Mug'iyra, Abu Jahl, Os ibn Voil va boshqalar Rasululloh oldilariga

kelib: «Mana shu to'lin Oyga ishorat qil, ikkiga bo'linsin, shunda sening payg'ambarligingga ishonamiz», — deyishadi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) o'n to'tt kunlik Oyga barmoqlari bilan ishorat qilgan edilar, Oy ikkiga bo'linib, bir bo'lagi Jaro' tog'ining to'g'risiga kelib turgan va bu holat ikki soat davom etgan.

**Oqyonusiyoy** — Okeaniya.

**Mansur** — mashhur so'fiy Ahmad ibn Husayn Mansur Halloj. Bayzo shahrida tug'ilgan. Xalifa Muqtado zamonida zohiran shariatga muxolif fikrlari uchun hijriy 306-yilda faqihlar fatvosi birla Bag'dodda o'ldirilgan.

**Ko'hkan** — tog' qazuvchi. «Farhod va Shirin»dagi Farhodning laqabi.

**Doro** — Kayoniylar sulolasining oxirgi hukmdori bo'lgan Eron shohi. Miloddan 330 yil ilgari vafot etgan.

**Xisrav** — Xisrav Parviz ibn Hurmuz. Sosoniylar sulolasiga mansub podshoh.

**Jamshid jomi** — rivoyatlarga ko'ra peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh Jamshid ikkita jom (qadah) yasattirgan. Ulardan bittasining mayi ichgan bilan tugamas ekan. Ikkinchisi esa «Jomi jahonnamo» atalgan bo'lib, undan may ichayotgan paytda dunyodagi barcha hodisalar aks etib turar emish.

**Kisro** — Eron shohi Anushervon.

**Ma'mun** — 813—833-yillarda Bag'dodda hukmronlik qilgan abbosiy xalifa. Xorun ar-Rashidning o'g'li.

**«Utlub ul-ilma va lav bi-s-Sini»** — Xitoydan bo'lsa-da ilm talab qilinglar (*Hadis*).

**Luqmon** — Luqmoni Hakim. Kayoni shoh Kayqubod davrida yashab o'tgan mashhur tabib va donishmand.

**Aflatun, Falotun** — qadimgi yunon faylasufi Platonning sharqona nomlari.

**Adham** — Ibrohim Adham. Mashhur so'fiylardan. Dastlab Balxda hukmronlik qilgan. So'ngra toj-u taxtidan voz kechib, faqir holatda Haq yo'liga kirgan. Vafoti 777-milodiy sana.

**Ash'ijo** — Yunus alayhissalomdan keyin bani Isroiini iymonga chaqirgan payg'ambar.

**Zikriyo** — Zakariyo alayhissalomning poetik talabga ko'ra qisqartirilgan nomlari.

**Xalilulloh** — Allohnинг do'sti, Ibrohim alayhissalomning laqablari.

**Suqrat** — mashhur yunon faylasufi.

**Bistomiy** — taniqli so'fiy Boyazid Bistomiy. Asli ismi Tayfur ibn Ilyso ibn Odam. Tasavvufning tayfuriya tariqati asoschisi. 961-yil vafot etgan.

**«Anal Haq»** — men xudoman. Mansur Xalloj shu so'zi uchun o'llimga hukm qilingan edi.

**«Rahmonir-Rahiyim»** — Allohnинг ismlaridan. Mehribon va rahmli

degani. O'zbek tilida yozilgan tafsirlardan birida bu so'zlar shunday sharflanadi: «Barchaga – kofirga ham, mo'minga ham mehribon va ne'mat beruvchi. «Rahmon» sifati faqat Allohga xos bo'lib, undan boshqa hech kimga nisbatan bu sisatni ishlatib bo'lmaydi.

«Rahim» sifatida esa xosroq bo'lib, faqat mo'minlarga qiyomat kuni rahm qiluvchi ma'nosini anglatadi. Va Allohdan o'zgalarga, jumladan, Payg'ambar alayhissalomga nisbatan ham ishlatiladi.

**Batho** – Makka yaqinidagi vodiyning nomi. Adabiyotda Makka ma'nosida ishlatiladi.

**Jabroyil** – eng ulug' to'rt farishtadan biri. Alloh taolo bilan Muhammad (s.a.v.) o'rtalaridagi vositachi farishta.

**Buroq** – Me'roj tunida Muhammad (s.a.v.) Ka'baning orqasi – Xatim degan joydan Quddus shahridagi Masjid ul-Aqsoga va u yerdan osmonga olib chiqqan jannatiy ot. Buroq Payg'ambarimizni Jabroyil alayhissalomning maqomlari bo'lgan «Sidrat ul-Muntaho»gacha olib borgan.

**Raf-raf** – Me'roj tunida Muhammad (s.a.v.) «Sidrat ul-Muntaho»dan Allohnинг dargohiga olib chiqqan maxluqning nomi.

**Tamomi anbiyo ruhi yo'lingda erdilar muhtoj,**

**Ziyorat qilg'ali keldilar ul kun Baytul Aqsoga.**

Ya'ni Muhammad (s.a.v.) Me'roj tuni Masjid ul-Aqsoga kirganlarida barcha payg'ambarlarning ruhlari ularning yo'llariga ko'z tikib, ziyoratiga tayyor turganligining guvohi bo'ldilar. Va ularning taklifi bilan Rasululloh imomlikka o'tib, ikki rakat namoz o'qidilar.

**«Omanno»** – iymon keltirdik.

**Kahf xobi** – Qur'oni karimning «Kahf» surasida yetti mo'min birodarning zolim hokim istibdodidan din-u iymonlarini saqlab qolish uchun jonlarini fido qilib, bir kahf – g'orga panoh topib kirishlari va u yerda Allohnинг marhamati bilan uch yuz yil uxbab qolishlari rivoyat qilinadi. Shoир millat boshiga soya tashlagan g'aflatni shu uch yuz yillik uyquga qiyoslaydi.

**Tarovih** – faqat ramazon oyida xufton namozi bilan vitr namozining oralig'ida o'qiladigan yigirma rakatlik namoz.

**Zakot** – islomdagi besh ulug' ibodatning to'rtinchisi. Moli nisobga yetgan bolig', oqil va musulmon kishi uchun farz bo'lgan moliyaviy ibodat.

**Laylat ul-Qadr** – Qadr kechasi. Ulamolarimiz hadisi sharflarga asoslanib, bu kechani ramazon oyining 27-kechasi deganlar. Qur'onidagi «Duxon» (2–5-oyatlar) va «Qadr» suralarida aytlishicha, bu kechadan boshlab insoniyat uchun to qiyomatgacha mukammal dasturulamal bo'lgan Qur'oni karim nozil bo'la boshlagan. Bu kechaning qadri va fazilati shu darajadaki, bu tunda bedor turib qilingan toat-ibodat Alloh taoloning nazdida ming oylik ibodatdan afzaldir.

**Xizr** – islom e'tiqodiga ko'ra obi hayot – abadiyat suvini ichgan

doiniy barhayot payg'ambar. Bir rivoyatda «Tavrot» sohibi Muso alayhissalomdek payg'ambarning ilmi Xizr alayhissalomning ilmi oldida dengizdan tomchiga qiyoslanadi.

«**Iki sado**» — 1914-yilning aprelida — bir paytda ikki joyda ikkita nom bilan chop etila boshlangan «Sadoyi Turkiston» va «Sadoyi Farg'ona» gazetalari ko'zda tutilmogda.

«**Jarida muhiblarina**» — bu she'r «Sadoyi Turkiston» gazetasining mushtariylariga qarata yozilgan bo'lib, shu gazetaning birinchi sonida (1914-yil 4-aprelda) e'lon qilingan. Avloniy «Burung'i o'zbek vaqtli matbuotining tarixi» asarida «Sadoyi Turkiston» haqida shunday ma'lumot beradi: «Sadoyi Turkiston» gazetasi 1914-yilda Toshkentda yurist Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'ja o'g'lining mas'ul muharrirligi ostida chiqdi. Bu gazeta o'zbek yoshlari tomonidan chiqariladurgan gazetalarning eng uzoq davom etganidur.

Bu gazeta ham moddiy yoqdan juda ko'p og'ir kunlar kechirib turg'on bir vaqtda Toshkentda «Turon» teatr to'garagi tuzilib, bu gazetaning biroz qaddini tiklab turdi.

Bu gazetaga ham shu kungacha yozishib kelgan qalamlar ishtirok etgani kabi yangi qalamlar ham ko'rila boshladi. Bu gazetaga ham o'sha zamonning muhit va musodasiga qarab foyda yetkazdi. Nihoyat muharriri sudga berilib, bir qancha tergov ko'rdi.

66 nomer chiqib moddiy tanglik orqasida to'xtaldi».

«**Amr etibdur o'qurni dinimiz**». «Turkiston» g., 1924-y., 24-iyun.

Shoir yuqoridagi misra orqali «Sadoyi Turkiston»ning chop etilish tarixini beradi. Biz uni aniqlash uchun avval misrani arab alifbosiga o'giramiz: امر اتبدور اوقرلى دىنمز So'ngra har bir arabi harfning abjadga ko'ra muqobilini topamiz. Demak abjadga ko'ra:

ا - 1,	م - 40,	ر - 200,	ا - 1,	ت - 400,
ب - 2,	د - 4,	و - 6,	ر - 200,	ا - 1,
و - 6,	ق - 100,	ر - 200,	ن - 50,	ى - 10,
د - 4,	ى - 10,	ن - 50,	م - 40,	ج - 7

Yuqoridagi sonlarning yig'indisi esa 1332 bo'ladi. Ma'lum bo'ladiki, «Sadoyi Turkiston»ning birinchi soni hijriy 1332-yil chop etilgan. Bu milodiy sanada 1914-yilga to'g'ri keladi.

**Bir nomi Muhammad, bir nomidur Ahmad.**

Har ikkala ismnинг ham o'zagi hamd. Zakoi Ko'nrapa «Payg'ambarimiz va Asharai Mubashshara» (birinchi kitob, T., -1995) kitobida aytishicha Rasuli Akramga tavalludlarining yettinchi kuni bobolari Abdulmuttalib Muhammad deb, onalari Omina Ahmad deb ism bergenlar. Shuningdek, «Tavrot» va «Injil» kitoblarida ham Alloh taolo

O'zining so'nggi payg'ambari haqida ma'lumot berib, uning nomini Ahmad, deydi. Qur'onni karimning «Saf» surasidagi 6-oyat bunga dalil: «Eslang, lyso binni Maryam: «Ey bani Isro'il, albatta, men Allohnинг sizlarga (yuborgan) payg'ambaridurman. (Men) o'zimdan oldingi Tavrotni tasdiqlaguchi va o'zimdan keyin keladirgan Ahmad ismli bir payg'ambar haqida xushxabar beruvchi bo'lgan holda (yuborildim)», — degan edi... IZOH: «...oyatdagi Ahmad — Payg'ambarimizning ismlari bo'lib, Muhammad so'zi bilan bir o'zakdan chiqqandir. U o'zak «hamd — maqtamoq» kalimasi bo'lib, Ahmad — Parvardigorga ko'p va xo'b hamd aytuvchi ma'nosini ifodalasa, Muhammad — dunyo va oxiratda maqtovga sazovor bo'lguvchi degan mazmunda keladi» (Qur'on karim. T., — «Cho'lpon», 1992, 545-bet. Tarjima va izoh muallifi Alouddin Mansur).

**«Toho» («Taho»)** — Qur'ondagи yigirmanchi suranining nomlanishi.

**Yasrib** — Madina shahrining qadimiyy nomi.

**Durri yatim** — bir sadaf ichida yakka o'zi yetilgan yirik dur.

«Sadoyi Turkiston» gazetasining 43-soni (1914-yil 7-oktabr)da birinchi marotaba chop etilgan bu she'r mashhur Ismoilbek Gaspralining vafoti munosabati bilan yozilgan. Ismoilbek Gasprali (1851—1914) o'zining butun kuch-quvvatini jonajon millati turk qavmining ma'rifati va saodati yo'lida sarf etgan kishi edi. Uning bu xizmatlarini ko'zda tutib, 1910-yilda fransuz jurnallaridan bir Nobel mukofotiga tavsiya etgan. Uning 1883—1914-yillarda chiqargan «Tarjimon» gazetasi Misrdan Qashqargacha, Peterburgdan Hindistongacha tarqalgan. «Rusiya musulmonligi», «Dorur-rohat musulmonlari», «Xojai sibyon» kitoblari juda ko'p mamlakatlarda bosilgan. O'tgan asrning 80-yillaridayoq Gasprali g'oyalari Turkistonga kirib keldi. 1893-yilda u Toshkentga keladi. Samarqand, Buxoroda bo'ladi. Millatning ravnaqi uchun «usuli jadid»ning shartligi haqida amir Abdulahadga murojaat qiladi. Samarqandda mazkur usuldagagi maktab ochishiga muvaffaq bo'ladi. Bunday maktablarning Turkistonga kirib kelishiga, ayniqsa, chor ma'murlari tish-tirnoqlari bilan qarshi turdilar va Gaspralini o'zlarining ashaddiy dushmani deb bildilar. Shunga qaramay, Ismoilbekning izdoshlari va hamfikrlari ko'paya bordi. Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy bilan yaqin bo'lganligi haqida xotiralar saqlangan. «Oyna» jurnalida «Tarjimon»dan olingan materiallarning bosib borilganligi «Tarjimon»ning Turkistonga muntazam kelib turganligidan dalolat beradi. Turkiston yoshlarining g'oyaviy rahbariga aylanib qolgan bu zotning vafoti esa ularni chuqur qayg'uga cho'mdirdi. Shoirlardan Siddiqiy-Ajziy, Kamiy, Hamza, Ayniy, Fitrat, Tavallo kabilar uning vafoti munosabati bilan marsiyalar yozdilar. Avloniyning yuqorida nomi zikr etilgan she'ri ham mana shu marsiyalardan biri.

«Al-mo'minu uxvat». Ma'nosи: Mo'min mo'minning birodaridir.

**Mavludi nabaviy** – Muhammad sallallohu alayhi vasallamning tug'ilgan kunlari. Musulmonlar uchun bayram hisoblanadi. Bu qamariy hisob bilan rabi' ul-avval oyining o'n ikkinchi kuni.

«Qars falokatzadalarining holi». Turkiyadagi Qars va Ardahon shaharlarida yuz bergan zilzila va u yerdagi aziyat chekkan aholiga hamdardlik yuzasidan yozilgan she'r.

**Bayti Xudo** – Allohning uyi, ya'ni Ka'batulloh. Makka shahrida. Musulmonlarning eng muqaddas ziyoratgohi. Uni Bayt ul-haram (Muqaddas uy) ham deyishadi. Qur'oni karimda esa Al-Masjid ul-haram (Muqaddas masjid) deb nomlangan. Arablar uning to'rtburchak ekanligiga qarab Ka'ba (Murabba') deb atashgan.

**Iydi Azho** – Qurbon hayiti.

**Sa'diy Sheroyi** – Muslihiddin Sa'diy Sheroyiy, mashhur fors shoiri. «Guliston» va «Bo'ston» asarlarining muallifi. Taxminan 1208-yilda tug'ilib, 1292-yilda vafot etgan.

«Shuhrat» – shu nomli gazetaning 1908-yil 7-yanvar (5-son)ida boshilgan. Avloniy tarjimayi holida bu gazetaning chiqarilishi haqida shunday yozadi: «1906-yilda «Taraqqiy», «Xurshid» gazetalari chiqib, eski hukumat tomonidan to'xtatilgandan so'ng 1907-yilda men o'z muharrirligim bilan hamda temir yo'l ishchilarining sotsial-demokratik firqasining aloqa va yordami bilan «Shuhrat» ismindagi gazetni Sapyornik ko'chada chiqardim». Shoир «Burungi o'zbek vaqtli matbuotining tarixi» asarida «Shuhrat»ning ahamiyati haqida to'xtalib: «Bu gazeta bir yoqdan ilmiy islohot uchun mafkura hozirlag'on bo'lsa, ikinchi yoqdan el orasiga o'zgarish tuxumini sochdi», – deb yozgan edi.

«Johil tilindan» – «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 49-sonida boshilgan.

«Muhoraba natijasi» – Avloniying shaxsiy arxividan. Qo'lyozma, alohida qog'ozda.

«Yotma» – «Toshkent tongi» (T., 1979, 160-b.) asosida tayyorlandi.

«Qutuldik» – «Toshkent tongi» (T., 1979, 162-b.) asosida tayyorlandi.

«Hurriyat sharafina» – «Turon» gazetasining 1917-yil 20-aprel soni.

«Go'zal bahor» – «Ishtirokiyun» gazetasining 1919-yil 92-sonidan.

«Xafalik soatda» – «Ishtirokiyun», 1919-yil, 13-son.

«Izchilarga tortiq» – «Ishtirokiyun», 1919-yil, 100-son.

«Ochlар holindan» – «Ishtirokiyun», 1919-yil, 91-son.

«Bir munofiq tilindan» – «Mushtum» jurnali, 1923-yil, 15-son.

«**Yosh savdogar tilindan**» – «Mushtum», 1924-yil, 9-son,  
«Shapaloq» imzosi bilan chiqqan.

«**Kimdan gina qilamiz**» – qo'lyozma, alohida sahifada, yili  
ko'rsatilmagan.

«**Yalqov shogird tilindan**» – qo'lyozma, sanasi yo'q.

«**Yer tarixi**» – qo'lyozma, sanasi ko'rsatilmagan.

«**Bahor keldi** qo'shig'i – qo'lyozma, sanasi yo'q.

«**Bilimsiz oliftalar**» – «Mushtum», 1924-yil, 14-sonidan.

«Shapaloq» imzosi bilan bosilgan.

## LUG'AT

## A

**Abas** – foydasiz, behuda  
**Abno** – bolalar, o'g'illar  
**Abr** – bulut  
**Adam** – yo'qlik  
**Adovat** – dushmanlik  
**Afgor** – majruh  
**Afskor** – fikrlar  
**Afsun** – sehr  
**Afi** – zaharli  
**Afol** – fe'l-atvorlar, qiliqlar  
**Ahkom** – hukmlar  
**Ajz** – ojizlik, kuchsizlik  
**Al** – qo'l  
**Alam** – bayroq  
**Al-on** – hali, hozirgacha  
**Ammor** – amr qiluvchi  
**A'mo** – ko'r, ojiz  
**A'mol** – amallar  
**Amorat** – amirlik  
**Amroz** – marazlar, illatlar  
**Anbiyo** – nabiyilar, payg'ambarlar  
**Anduh** – g'am, qayg'u  
**Anjaq** – uncha, lekin u qadar  
**Ankabut** – o'rgimchak  
**Anqo** – afsonaviy qush  
**Anvor** – nurlar; quyosh  
**Anzor** – nazarlar  
**Aqrabo** – yaqinlar, qarindoshlar  
**Aqsom** – qismlar  
**Arz** – yer  
**Askiy** – askiyachi, qiziqchi  
**Atfol** – bolalar  
**Atolat** – mutaassiblik  
**Atvor** – yurish-turish, xulq

**Avhom** – vahimalar  
**Avlo** – yaxshiroq  
**Avomun-nos** – omi odamlar  
**Avqot** – vaqtlar  
**Axlof** – xalaflar, izdoshlar  
**Axtor** – xatarlar, tahlikalar  
**Axon** – birodarlar  
**Axz** – olish  
**Ag'fol** – g'aflatdagilar, g'ofillar  
**Ag'niy** – g'anilar, boylar  
**Ag'yor** – dushman  
**Ashk** – ko'zyosh  
**Ash'or** – she'rlar  
**Ashror** – yomon odatlar

## B

**Badaviy** – sahroyi, ko'chmanchi  
**Badgo'liq** – yomon so'z aytishlik  
**Ba'id** – uzoq, yiroq  
**Basirat** – ko'rlik  
**Basit** – oddiy, sodda  
**Bay'at** – ahdlashish  
**Bebok** – bebosh  
**Behtar** – yaxshiroq  
**Beklamoq** – kutmoq; xush ko'rmoq, ma'qul topmoq  
**Besamar** – mevasiz, befoyda  
**Besarupo** – telba, bevosh  
**Bing** – ming  
**Bivatmoq** – o'ynatmoq  
**Bod** – shamol, yel  
**Borgoh** – qabulxona, saroy  
**Boron** – yomg'ir  
**Botil** – buzuq  
**Burhon** – hujjat, dalil



**Irshod** – to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish

**Isloh** – tuzatish

**Ismat** – poklik

**Istifoda** – foydalanish

**Istikmol** – mukammal

**Ittifoq** – birlik

**Ixtilof** – kelishmovchilik

**Ixvat** – birodarlik

**Iz(z)** – azizlik, izzat

## J

**Jaholat** – johillik, nodonlik

**Jalil** – ulug‘, shonli

**Jalo** – Vatanni tark etish

**Jamod** – jonsiz, tabiat

**Jayb** – cho‘ntak, kissa

**Jayb aylamoq** – 1. Tortmoq.

2. Shimimoq.

**Jibol** – tog‘

**Jifa** – o‘laksa, harom mol

**Jinon** – jannat

**Johil** – nodon

**Jud** – ehson

**Juhhol** – johillar, nodonlar

**Jurm** – gunoh, jinoyat

**Juz** – qism

**Jo‘juq** – bola

## K

**Kajrav** – egori yuruvchi

**Kanor** – quchoq, og‘ush

**Kas** – kishi

**Kasolat** – sustlik

**Kavnayn** – ikki dunyo

**Kavsar** – jannatiy chashma

**Kazzob** – yolg‘onchi

**Kibriyo** – ulug‘lik

**Kishvar** – mamlakat

**Kizb** – yolg‘on

**Kufr** – kofirlik, islomda bo‘lim maslik

**Ko‘y** – ko‘cha, yo‘l

**Ko‘histon** – tog‘, tog‘lik yer

**Ko‘shish** – harakat qilish

**Ko‘za** – ro‘za tutmagan kishi

## L

**La‘l** – qimmatbaho qizil tosh

**La‘lgun** – la‘l monand, qip-qizil

**La’oliy** – marvarid

**Layl-u nahor** – kecha-kunduz

**Lison** – til

**Livoi shar‘iy** – shariat tug‘i

**«Lo-lo»** – yo‘q-yo‘q (inkor etish)

**Lojaram** – shubhasiz, albatta

## M

**Ma‘dan** – kon

**Madfan** – qabr, mozor

**Madfun** – dafn etilgan

**Magas** – chivin

**Mahd** – beshik

**Mahjur** – hijronda qolgan

**Mah-u sol** – oy-u yil

**Mahv** – yo‘qotish, bitish

**Makotib** – maktablar

**Ma‘mur** – obod

**Manofe‘** – manfaat, foyda

**Maraz** – dard, illat

**Mardumak** – ko‘z qorachig‘i

**Mariz** – kasal

**Ma’siyat** – gunoh ishlar

**Maso** – stol, kechqurun

**Masojid** – masjidlar

**Masrur** – sururli, xursand

**Mastur** – bekitilgan, maxfiy

**Matbaa** – nashriyot

**Ma‘vo** – makon

**Mavsuf** – vasf etilgan, maqtal-gan

**Mavt** – o‘lim

**Mazallat** – xorlik, tubanlik

**Mag'mum** – g'amgin

**Mizoj** – temperament, tabiat

**Moado** – ...dan boshqa

**Mor** – ilon

**Moya** – mohiyat

**Moziy** – o'tmish

**Mujtabo** – saylab olingan

**Mulk** – mamlakat

**Muqavvas** – qavsga o'xshash

**Muqavviy** – quvvat beruvchi

**Murattab** – tartib berilgan

**Murid** – ergashuvchi

**Muru** – o'tish, yurish

**Murshid** – yo'l ko'rsatuvchi

**Musaxxar** – bo'ysundirilgan

**Musrif** – isrofgar

**Mustahiq** – haqli, loyiq

**Mutaalliq** – aloqador

**Mutaraddid** – taraddudlangan,  
bezovta

**Muttaqiy** – taqvodor

**Muxotib** – xitob qiluvchi

**Muxtasar** – qisqa

**Mush** – sichqon

**Mushki totor** – toza va xushbo'y

**Mushxo'r** – sichqon yeyuvchi,  
mushuk

**Muzayyan** – ziynatlangan

## N

**Naf'** – foyda

**Nafsi ammora** – yomon nafs

**Nahr** – daryo

**Nahy** – man etish, qaytarish

**Na'im** – ne'matlar

**Najib** – olajanob

**Naqor/naqar** – juda ahamiyatsiz

**Nang** – uyat, nomus

**Nasim** – shabada

**Navha** – nola, mungli yig'i

**Nisyon** – unutish

**Noqis** – nuqsonli

**Nor** – o't, olov

**Nos** – insonlar

## O

**Omil** – amal qiluvchi

**Orif** – ma'rifatli

**Ori(y)** – xoli, toza

**Osiy** – gumroh, yo'lni yo'qotgan

**Osiyo sangi** – tegirmون toshi

**Osor** – asarlar

**Og'lamoq** – yig'lamoq

**Og'un** – muallima

## P

**Payrav** – ergashish

**Pesha** – kasb

**Porso** – xudojo'y

**Punba g'aflatgo'** – lapashang

**Punja** – odat

**Purg'am** – g'amga botgan

**Puxta** – pishiq, pishgan

## Q

**Qabih** – yomon, xunuk

**Qabohat** – qabihlik

**Qamar** – oy

**Qarib** – yaqin

**Qarn** – asr

**Qat'i ummid** – umidni uzish

**Qavl** – so'z, gap

**Qavm** – kishilar guruhi

**Qavonin** – qonunlar

**Qayd** – band, kishan

**Qori** – Qur'oni karimni tajvid  
qidalariga muvosiq o'quvchi

**Qotina** – yoniga

**Quvvayi hofiza** – yodda saqlash  
quvvati, xotira

**Quvvayi hozima** – hazm qilish  
quvvati

**Qudsiy** – muqaddas  
**Qurbat** – yaqintlik  
**Qusurot** – kamchiliklar

## R

**Rab(b)** – tarbiyalovchi, Alloh  
**Rabboniy** – Allohg'a mansub  
**Raftor** – yurish  
**Rajo** – umid  
**Ravzayi rizvon** – jannat bog'i  
**Razolat** – pastkashlik, tubanlik  
**Resha** – ildiz, tomir  
**Ribo** – sudxo'rlik  
**Rido** – yelkadan tashlab yuradigan choyshabga o'xhash darvishlar kiyimi  
**Rif'at** – yuksaklik  
**Rioyat** – e'tiborga olish  
**Roh/rah** – yo'l  
**Roje'** – qaytmoq  
**Roje'un** – qaytuvchi  
**Rommol** – romchi, folbin  
**Rukn** – ustun  
**Rutba** – daraja, martaba

## S

**Saboh** – tong  
**Sabot** – barqarorlik  
**Sabz ayladi** – ko'kardi, yashnadi  
**Sabzazor** – maysazor  
**Safohat** – nodonlik  
**Sahbo** – qizil may  
**Salb** – nasroniylar osib yuradigan krest (xoch)  
**Salsabil** – toza, tiniq va laziz oqar suv  
**Sam(m)** – zahar  
**Sarvat** – boylik  
**Samar** – meva, hosil  
**Sang** – tosh  
**Sano** – maqtov, madh

**Sanoxon** – madh o'quvchi  
**Sanoye'** – san'atlar  
**Sarfarozi** – xursand  
**Sarnigun** – boshi egik, sharmanda  
**Sarsar** – qattiq shamol  
**Sar-u po** – bosh-u oyoq  
**Sarxush** – mast  
**Sarshor** – limmo-lim  
**Sayyid** – 1. Yetakchi. 2. Payg'ambar avlodи  
**Sayyod** – ovchi  
**Siroti mustaqim** – qil ko'prik  
**Siroyat** – ta'sir  
**Some'** – tinglovchi  
**Soyira** – 1. Boshqa. 2. Sayr qiluvchi  
**Sufra** – dasturxon  
**So'xta** – kuygan

## T

**Taboh** – vayron, xarob  
**Tadanniy** – tubanlashish  
**Tafriq** – farq, nizo  
**Tamaddun** – madaniyat  
**Ta'mir** – tuzatish  
**Tanazzul** – tubanlashish  
**Taqvo** – parhezkorlik  
**Tarahhum** – rahm  
**Tarso** – nasroniy  
**Tasfiya** – soflash, tozalash  
**Tasxir** – zabit etish  
**Tazvir** – firib, aldash  
**Tag'oful** – g'ofillik  
**Te'dod** – sanash  
**Teva** – tuya  
**Tobakay** – qachongacha  
**Tolib** – talab qiluvchi, o'quvchi  
**Tufayl** – sabab, vosita  
**Tujjor** – savdogar  
**Turba/turbat** – qabr, go'r  
**To'biy** – jannat daraxti  
**To'fang** – zambarak, miltiq

## U

- Ulamo** – olimlar  
**Ummat** – payg‘ambarlarga tobe’  
 kishi  
**Ummul-jinoyat** – jinoyatning  
 onasi  
**Ulum** – ilmlar  
**Ulviyat** – insoniy ulug‘lik  
**Uqbo** – oxirat  
**Uyon** – uyg‘on  
**Uyog‘** – uyg‘oq  
**Uxuvvat** – birodarlik  
**Uchru** – vaqt, payt

## V

- Vasila** – vosita  
**Va’z** – pand, nasihat  
**Vigor** – ulug‘vorlik  
**Vird-u avrod** – qayta-qayta tak-  
 rorlamoq  
**Voiz** – va’z aytuvchi  
**Voqif** – xabardor  
**Vorkan** – bor ekan  
**Vujub** – vojib amallar

## X

- Xabis** – yomon, iflos  
**Xamr** – mast qiluvchi ichimlik  
**Xatm** – tugallash  
**Xayr** – yaxshi amal  
**Xilqat** – yaratilish  
**Xiradmand** – donishmand  
**Xoliq** – yaratuvchi, Tangri  
**Xoma** – qalam  
**Xor** – 1. Tikan. 2. Tahqirlangan  
**Xorij** – chet, tashqari  
**Xulafo** – xalifalar  
**Xulus** – xolis  
**Xun** – qon

- Xunbor** – qontalash  
**Kurshid** – quyosh  
**Xutut** – xatlar  
**Xo‘** – xulq

## Y

- Yakson** – bir xil  
**Yakto** – yagona, tengsiz  
**Ya’s** – ma’yuslik, umidsizlik  
**Yavm** – kun  
**Yavmul-hisob** – hisob-kitob kuni,  
 ya’ni qiyomat  
**Yirmoq** – ochmoq  
**Yozuq** – ayb, gunoh

## Z

- Zabarjad** – qimmatbaho tosh  
**Zabon** – til  
**Zabun** – ojiz, notavon  
**Zahmdor** – kasal  
**Zalil** – xor, tuban  
**Zalolat** – adashish  
**Zalom** – adashgan kishi  
**Zarofat** – nozikfahmlik  
**Zid** – teskari  
**Zillat** – xorlik  
**Ziroat** – dehqonchilik  
**Zohid** – ibodat qiluvchi  
**Zokir** – Allohni zikr qiluvchi,  
 tilga oluvchi  
**Zufunun** – ko‘p fanlarning bi-  
 limdoni  
**Zohir** – ko‘rinib turgan, oshkor  
**Zuhd** – toat-ibodat qilish  
**Zuljalol** – buyuklik egasi, ya’ni  
 Tangri taolo

## O‘

- O‘sannoq** – bezmoq, zerikmoq  
**O’tannoq** – uyalmoq  
**O’tru** – ro‘para, qarshi

## G'

**G'ani** – boy  
**G'arob** – g'ariblar, kelgindilar  
**G'avvos** – cho'miluvchi  
**G'ayb** – g'oyiblik, sir  
**G'ayri** – o'zga, boshqa  
**G'ilmon** – jannat g'ulomlari  
**G'ino** – boylik  
**G'izo** – ovqat, yemish  
**G'ul** – kishan

## SH

**Shab** – kecha  
**Shafe'** – vosita  
**Shafoat** – vositachilik qilish  
**Shajar** – daraxt  
**Shaqovat** – baxtsizlik

**Shar(r)** – yomonlik, fasod  
**Sharorat** – yaramaslik, yomonlik  
**Shay** – narsa  
**Shikva** – shikoyat  
**Shiri shafqat** – mehr-shafqat suti  
**Shokir** – Allohga shukr qiluvchi  
**Shomil** – tegishli

## CH

**Chahor po(y)** – chorva mollar  
**Chalma** – salsa  
**Chashm** – ko'z  
**Chechak** – gul  
**Chin** – 1. Xitoy. 2. Haqiqiy  
**Cholishmoq** – harakat qilmoq  
**Chug'z** – boyo'g'li  
**Cho'q** – ko'p

**MUNDARIJA**

Oq tonglarni orzulagan shoir (Avloniy haqida so'z)  
*B. Qosimov* ..... 5

**«ADABIYOT YOXUD MILLIY SHE'RLAR»dan**

<b>Birinchi juz</b> .....	81
Ifodayi maxsusa .....	82
Hamd .....	83
Biz, millat .....	84
Maktab haqinda .....	84
Falak kajrav, yo Rab .....	85
Istamas .....	86
Ushbu «Adabiyot»a Turkiston ahlindan javob .....	87
Sadoqat bizda yo'qdir .....	88
Olam ichra ko'rmadim .....	89
Afsus .....	89
<b>Ikkinchi juz</b> .....	91
Hamd .....	92
Na'ti Rasuli akram .....	94
Ilm .....	96
Mahbublarima bir xitob .....	97
Maishatdan bir manzara .....	98
Qabristona bir nazar .....	99
Dunyo sojiasindan .....	100
Hasratlik hollarimiz .....	101
Ilm ahvolindan bir manzara .....	102
Dunyo kitobidan .....	103
Afsuslik hollar .....	104
Janobi Haqdan bir rijo .....	105
Taajjublik hollar .....	106
Millat holindan bir ya's .....	107
Zamon ahvolindan .....	108
Istiqlabolimiz uchun bir jigarso'z .....	109
O'z millatimdan rijoyi ojizonam .....	109
Tarji'band .....	111
Fig'oni bulbul .....	113
Ahvoli olamdan bir namuna .....	114
Maorifparvar g'aniyilar qulog'ina .....	116
Turkiston tufrog'indan bir sado .....	118
Turkiston tufrog'ina xitob .....	119
Orzuyi visol .....	120
Maktab .....	121

Maorif nadur .....	122
Girdobi g'AMDAN bir fo'rtana .....	123
Parishon hollar .....	124
Falakdan bir shikoyat .....	125
Qit'alar .....	126
<b>Uchinchchi juz .....</b>	<b>127</b>
Hamd .....	128
Na'ti sarvari olam .....	130
Bizlarda nimalar bor .....	131
Millat holindan bir jigarso'z .....	132
Ramazoni sharif .....	133
Xarobalarga xitob .....	134
Mayxonalar yopiluvi munosabati-la .....	135
Sayohat samarasи .....	135
Oila munozarasи .....	136
Ko'bdan unutmoq kerak edi .....	138
Mozorim lavhindan .....	139
Devoni Hofizdan tarjima .....	139
Maktabga targ'ib .....	140
Istiqloldan orzularim .....	141
Ko'knori va qimorboz .....	142
To'y haqida .....	143
Biz nalar qilamiz .....	144
Iki sado .....	146
Jarida muhiblarina .....	146
Shoir ila to'ti .....	148
Iffatlri insonlar .....	149
Gapurmanglar .....	150
Sadoyi bulbul .....	151
Muxotabim qalam .....	152
G'alat .....	153
Diqqatman .....	153
Biz nima holdamiz .....	155
Musiqi .....	155
Millat haykaliga xitob .....	156
Bahor .....	157
O'z maishatimizdan .....	157
Maishatimizdan bir manzara .....	158
Jaholat qurbanli .....	160
O'z maishatimizdan .....	162
Safohat – ayni falokat .....	163
Nima kimniki .....	164
<b>To'rtinchi juz .....</b>	<b>165</b>
Bir-iki so'z .....	166
Hamd .....	166
Na'ti hazrati Rasuli akram .....	167
Adibi shahir Ismoilbek ruhina .....	169
Hofizdan .....	171
Hofizdan tarjima .....	171
Ro'yo .....	172

Qimorbozni(ng) qimorbozga nasihatি .....	173
Arzimas .....	173
Haqiqat o'lsun bu xayol .....	174
Ilma targ'ib .....	174
Millata xitob .....	175
Milliy nag'ma .....	176
Millata salom .....	177
Mavludi nabaviya .....	178
Oqma ko'z yoshim .....	179
Kerakmi yo kerakmazmi .....	181
Oh, bag'ri qonim .....	181
Mustahzod .....	183
Falak bizni nalar qildi .....	184
Ta'rifi gul .....	184
Hijroni bulbul .....	185
Johil na bilur .....	186
Saodat shundadir .....	186
Jaholat .....	188
Jahldan nafrat .....	189
Guftori g'am .....	190
Jigarso'z .....	191
Munojot .....	192
Qars falokatzadalarining holi .....	192
O'z ahvolimizdan .....	193

### MAKTAB GULISTONI

<b>Milliy she'rlardan beshinchi juz</b> .....	195
Maktab bolasi .....	196
Vatan .....	196
Hijron so'zi .....	197
Namoz .....	198
Ro'za .....	198
Zakot .....	199
Haj .....	200
Bahor .....	201
Yoz .....	201
Kuz .....	202
Qish .....	202
Oollo(h) taoloning «qudrati» .....	203
Maktab .....	203
Tog'lardan bir manzara .....	204
Bechora chol .....	205
Bola ila gul .....	205
Bulbul .....	206
Yalqov .....	207
G'ayrijins ittifoq .....	207
Tulki ila Serka .....	208
Maymun ila ko'zoynak .....	209
It ila yo'lovchi .....	210
Qarg'a ila zag'izg'on .....	210
Qamish ila qovg'a .....	211
Qush ila ilon .....	212

Valining jum'a bayrami .....	212
Gulistonidan bir manzara .....	212
Bahor keldi .....	213
Zuluk ila ilon .....	213
Tulki ila qarg'a .....	214
Yolg'onchi cho'pon .....	216

## «MARDIKOR ASHUVLASI»dan

Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari .....	218
Onasining o'g'liga aytgan so'zlari .....	218
O'g'lining onasiga aytgan so'zlari .....	219
Xotuniga aytgan so'zlari .....	220

## TURLI SHE'RLAR

«Shuhrat» .....	222
Johil tilindan .....	223
Muhoraba natijasi .....	223
Hurriyat sharasina .....	224
Qutuldik .....	225
Maydoni saodat .....	226
Yotma .....	227
Xasfalik soatda .....	228
Izchilarga tortuq .....	228
Ochlар holindan .....	229
Bir kampir tilindan .....	230
Hurriyat marshi .....	230
Jamiyatlarga aralashmagan dangasa tilindan .....	231
Go'zal bahor .....	233
Yosh savdogar tilindan .....	233
Kimdan gina qilamiz .....	234
Yalqov shogird tilindan .....	235
Yer tarixi .....	236
«Bahor keldi» qo'shig'i .....	237

## HAJVIYOT

Ko'rnning uzri .....	240
Bir munofiq tilidan .....	240
Julqunboy kasal .....	241
Bilimsiz olifstalarga .....	241
Haqiqiy ma'nosi .....	242
Dangasaman .....	242
Yer yuzida nimalar bor .....	243
Samarqand .....	243
Oxirzamon alomati .....	244
Mani muxbir deydilar .....	244
Ibrat oldik .....	245
Lavand botirlar .....	245
Eski Buxoroda yangi ashula .....	246
Har xil balo bo'lg'um kelur .....	247
Soqov raport .....	247
Izohlar .....	248
Lug'at .....	260

ABDULLA AVLONIY

**TANLANGAN ASARLAR**

1-jild

**She'rlar, ibratlar**

*Toshkent «Ma'naviyat» 2009*

Muharrir *U. Qo'chqorov*

Rassom *A. Ponomaryov*

Texn. muharrir *T. Zolotilova*

Musahhih *O. Bozorova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Bosishga 03.08. 2009-y. da ruxsat etildi. Bichimi 84×108/... Tayins garniturasi.  
O'ser bosma usulida bosildi. Sharflı b. t. 14,28. Nashr t. 12,4. 5000 nusxa. Buyurtma  
№ 671. Narxi shartnomaga asosida.

«Ma'naviyat» nashriyoti, Toshkent, Buyuk Turon, 41-uy. Shartnoma 26-09.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. 700083.  
Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy. 2009.

**Avloniy, Abdulla.**

Tanlangan asarlar: 2 jildlik / To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi B. Qosimov; Izohlar va lug‘at O. To‘laboyevniki; – Toshkent: «Ma’naviyat», 2009. – 272 b. – (Istiqlol qahramonlari)

Jild 1. She’rlar, ibratlar. – Toshkent, 2009. – 272 b.

**ББК 84(5У)6**